

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI**

**O.R. YO'LDOSHEV, A.O. NORBOYEV, O.T. HASANOVA**

---

---

**FUQARO MUDOFASI**

---

---

*Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma*

UO‘K: 614.84(075)  
KBK 67.404(5Ў)  
IO79

*Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi ilmiy-metodik birlashmalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Kengash tomonidan nashrga tavsiya etilgan.*

O‘quv qo‘llanmada yong‘in paytidagi fuqarolarni va moddiy boyliklarni asrashni tashkil etish bilan bog‘liq tadbirlarning huquqiy-me’yoriy hujjatlar talablari doirasida olib borilishini ta’minlashni uddalay oladigan bilim, ko‘nikma va kasbiy malakaga ega mutaxassislarni tarbiyalashga mo‘ljallangan mavzularni, amaldagi tajriba va ma’lumotlarni atroflicha nazarda tutib yaratilgan.

O‘quv qo‘llanma o‘rta maxsus ta’lim yurtlari talabalari, bo‘lajak soha mutaxassislariga va boshqa turli sohalarning ishlab chiqarish rahbarlari va xodimlariga mo‘ljallangan.

*Taqrizchi:*

**A.Y. SOTVOLDIYEV** – Nizomiy nomidagi TDPU  
harbiy kafedrasi dotsenti.

---

## KIRISH

Bugungi kunda yuz berayotgan ijtimoiy xavfli bo‘lgan hodisalardan biri – yong‘in hisoblanadi. U qisqa vaqt ichida insonlar hayotiga zomin bo‘lishi mumkin. Shu sabab, yong‘inning oldini olish, yuz berganda qisqa vaqt ichida tugatish va oqibatlarini bartaraf etish, sabablarini aniqlash, bunday hodisa yuz bermasligi uchun targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu sababli, yong‘inga qarshi kurashish, uning oqibatlarini bartaraf etish maqsadida, dunyodagi deyarli barcha mamlakatlar-da o‘ziga xos tizim shakllantirilgan. Bunday tizim O‘zbekistonda ham mavjud bo‘lib, u O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tasarrufida shakllantirilgan. Bu xizmat vazirlik tarki-bida Yong‘inga qarshi kurash bosh boshqarmasi deb nomlanadi. Boshqarmaning esa quyi tuzilmalari mavjud bo‘lib, ular boshqarma, bo‘limlar deb nomlangan. Yong‘inga qarshi kurashda o‘t o‘chiruvchining mahorati, bilimi, chaqqon harakati, jasurligi va vaziyatni to‘g‘ri baholay olishi, xulosa qilishi, to‘g‘ri reja tu-zishi va uni amalga oshirishga o‘z vaqtida kirisha olishi juda kat-ta iqtisodiy zararlarning oldini olish bilan birga insonlar hayotini ham saqlab qoladi. Shuning uchun ham har bir o‘t o‘chiruvchiga qo‘ylgan talablar bilan birga uning shaxsiy xislatlari ham muhim o‘rin egallaydi. Ayniqsa, o‘z kasbiga oid bo‘lgan bilim-larni chuqur egallashi, kasbiy mahoratga ega bo‘lishi, ma’naviy komilligi muhim hisoblanadi.

Chunki, o‘t o‘chiruvchi o‘z xizmati davomida, ayniqsa, faoliyatining boshlang‘ich davrida ko‘plab qiyinchiliklarga duch ke-ladi. Agar o‘t o‘chiruvchi xizmatni o‘tashga tayyorlanmagan, o‘rgatilmagan, kasbiy mahoratga ega bo‘lmagan bo‘lsa, bu xavf bir necha barobar ortishi mumkin.

Yong‘inda o‘t o‘chiruvchi minglab kutilmagan hodisalar va xavf-lardan ta’sirlanadi. Olov bilan kurash tezlikda olib boriladi. Shu sababli, yong‘in o‘chiruvchilardan yashin tezligida qaror qabul qilish talab etiladi. Sekin harakatlanish – hayotni xavf ostiga qo‘yadi, ayrim hollarda hayotdan ko‘z yumishga olib keladi.

Xavfli hududlarga kechikib kirish, qaytib chiqish katta xavf tug‘diradi. O‘z vaqtida suv uzatilmasa, kuch va vositalar noto‘g‘ri joylashtirilsa, olovning tarqalishi kuchayadi va o‘z yo‘lida hamma narsaning yonishiga sabab bo‘ladi. Qurilish qismlarining qulashi, olov va uning zaharli moddalari doimo o‘t o‘chiruvchilarga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Bu esa o‘t o‘chiruvchi va u bilan yong‘in ichkarisida bo‘lgan odamlar hayotiga xavf soladi.

Yosh o‘t o‘chiruvchilarni ruhiy tayyorlash ham jangovar vazifalarni bajarishda asosiy o‘rin tutadi. Yong‘inlarni bartaraf etishda o‘t o‘chiruvchilarga ta’sir etuvchi jismoni yengish, yong‘in o‘chiruvchining ruhiy chidamligiga bog‘liqdir. O‘t o‘chiruvchining ruhiy chidamliligi uch xil asosiy holatlardan jamlanadi:

- davlatimiz mafkuralariga ishonchi, baynalmilallik, O‘zbekiston xalqi, ona-Vatan oldidagi burch va vazifalarni oxirigacha bajarish;
- yong‘inlar bilan kurashishda, yong‘in o‘chiruvchilarning yuqori jangovar bilimga egaligi, kasbiy mahorat va yangi texnika hamda texnik qurollarni amalda qo‘llay olish;
- odat tusiga kirgan tartib-intizom, bajaruvchanlik qobiliyatiga ega bo‘lish.

Tartib-intizomga ega bo‘lgan o‘t o‘chiruvchi shunday ichki kuchga egaki, u ushbu kuchni jangovar vazifani bajarishda, to‘liq ishlatish qobiliyatiga ega bo‘ladi.

---

---

## *1-bob. XIZMATNI TASHKIL QILISH, XIZMATGA TAYYORLASH*

Yong‘indan saqlash xizmati yong‘in o‘chiruvchilarning kasbiy tayyorgarligini tashkil etish va uni oshirish O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Qonun va qonunosti hujjatlari, vazirlik hamda mutasaddi tashkilotlarning buyruqlari, ko‘rsatmalari asosida tashkil etiladi.

Yong‘inni o‘chiruvchi xodimlar oldida quyidagi vazifalar yuklatilgan bo‘lib, ular:

- shaxsiy tarkibni o‘zining konstitutsiyaviy burchini va yong‘in o‘chiruvchilar bajarayotgan ishlarning davlat ahamiyatiga ega ekanligini bilish;
- yong‘in o‘chiruvchilar ongida yuqori jangovar va axloqiy sifatlarni, jamoatchilik va birodarlik his-tuyg‘ularini shakllantirish hamda bajarayotgan ishga shaxsiy javobgarlikni sezish hamda o‘t o‘chiruvchi texnikasiga, quroq va anjomlarga ehtiyotkorlik bilan qarash;
- shaxsiy tarkibni murakkab ish sharoitida o‘zini boshqara olishga, matonatli va ruhan mustahkam bo‘lishga o‘rgatish;
- yong‘in o‘chiruvchilarni xizmatni o‘tash va yong‘inlarni o‘chirish vaqtida jangovar ishlarni bajarishga o‘z vazifalarini nizomlar, qo‘llanmalar va texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilgan holda bajarishga o‘rgatish;
- yong‘indan saqlash garnizonlari va qismlari shaxsiy tarkibini jangovar tayyorlashni tashkil qilishda va olib borishda ilg‘or tajribalarni o‘rganish hamda amalda qo‘llash;
- yong‘indan saqlash bo‘linmalari va garnizonlarini murakkab tezkorlik sharoitida va fuqaro himoyasi vaqtida batartib va mohirona jangovar harakat qilish hamda boshqa mahkama va xizmat xodimlari bilan harakat qilishga tayyorlash.

Kasb tayyorgarligi vazifalarini bajarish quyidagicha amalga oshiriladi:

- doimiy va aniq maqsadni ko‘zlab olib boriladigan tarbiyaviy va tashkiliy ishlar orqali;

- kasb tayyorgarligini isbotlagan va chuqur o‘ylangan holda rejalashtirish hamda uning bajarilishini doimiy nazorat qilish orqali;
- mashg‘ulot olib boruvchilar tayyorgarligini yuqori darajada tashkil qilish;
- boshliqlar tarkibining mashg‘ulotlar o‘tkazilishini tashkil qilishda va ularni o‘tkazishda shaxsan ishtirot etishi orqali;
- mashg‘ulotlarni yuqori nazariy va amaliy darajada o‘tkazish orqali;
- shaxsiy tarkibning o‘z bilimlarini oshirish ustida ishlashi va o‘quv materiallarini tushungan holda o‘zlashtirib olishi orqali;
- o‘quv jarayonining material-texnik bazasini takomillashtirish va shulardan to‘g‘ri foydalanish orqali;
- o‘quv jarayoniga ruhan tayyorgarlik elementlarini joriy qilish bilan;
- o‘t o‘chiruvchi va saf tayyorgarligi me’yorlarini o‘rganish bo‘yicha muntazam mashg‘ulotlar o‘tkazish orqali.

O‘t o‘chiruvchi xizmatida texnika xavfsizligi masalasi tayyorgarlikning asosiy tarkibiy qismidan biri bo‘lib, har bir mashg‘ulotda ko‘rilishi kerak.

Xizmatni tashkil qilish, xizmatga tayyorlash, yong‘in o‘chirish, texnika xavfsizligi masalalari, qo‘riqlanayotgan tuman (maskan), ishlab chiqarishdagi yong‘in xavfini, yong‘inga qarshi suv inshootlarini, o‘t o‘chiruvchi texnikasi va garnizonning aloqa vositalari bo‘yicha hujjatlarni bilish, yong‘indan saqlash qismlari boshliqlar tarkibining xizmat vazifasi bo‘lib shahodatdan o‘tish vaqtida hisobga olinadi.

Barcha boshliqlar tarkibi oddiy xodimlar va boshliqlar tarkibini tayyorlashni tashkil qilishga, o‘tkazilayotgan mashg‘ulotlarning sifati va yaxshi natija berishiga hamda qo‘l ostidagilarning kasb mahorati yuqori bo‘lishiga shaxsan javobgardirlar.

## **1.1. O‘T O‘CHIRISH QISMLARIDA XIZMATNI TASHKIL ETISH**

Yong‘indan saqlash garnizonining har birida garnizon hamda qorovullik xizmati tashkil qilinadi.

Garnizon xizmati o‘t o‘chiruvchi qismlari shaxsiy tarkibining yaxshi tashkil etilishi va ularning intizomliligini, garnizonning yong‘inga qarshi kurashga va birinchi navbatdagagi buzish-qutqaruv ishlarini bajarishga doimo tayyor turishini, o‘t o‘chiruvchi xizmati bilan boshqa

xizmatlar (tibbiyot, suv xo‘jaligi, energetika, gaz tuzatish, militsiya va boshq.) o‘zaro aloqasini, yong‘in paytida o‘t o‘chiruvchi qismlariga malakali, yakka holda rahbarlik qilishni ta’minlashni oldiga maqsad qilib qo‘yadi.

Qorovullik xizmati o‘t o‘chiruvchi qismlari navbatchi qorovullarining doimo jangovar holatda turishini ta’minlash, yong‘indan saqlash qismlari qo‘riqlayotgan obyektlardagi yong‘inni muvaffaqiyatlari o‘chirishda hamda yong‘inning oldini olish ishlarini bajarish uchun xizmat qiladi.

*a). Qorovul xizmatining tashkil qilinishi va xizmatni o‘tash.*

Qorovul xizmati – bu jangovar vazifalarni bajarishning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Qorovul xizmati shaxsiy tarkibdan Nizom talablarini aniq bajarishni, sergaklikni, jasurlikni va tashabbuskorlikni talab qiladi.

Qorovul xizmatining vazifalari quyidagilardan iborat:

- qorovullarni yong‘in o‘chirishga, odamlarni qutqarishga, falokat, tabiiy ofat sodir bo‘lganda shahar (korxona)ning kerakli navbatchi xizmat xodimlariga yordam berishga doimiy tayyorligini ta’minlash;
- yong‘inga qarshi suv tarmoqlarining, aloqa vositalarining yaxshi ishlashini va ko‘chalarining holatini nazorat qilish;
- qo‘riqlanayotgan korxonalarining yong‘inga qarshi holatini navbatchilik davomida nazorat qilishni ta’minlash.

Harbiylashtirilgan yong‘indan saqlash qismlarida qorovul xizmati uch navbatda, ixtisoslashtirilgan o‘t o‘chiruvchi qismlarida esa to‘rt navbatda amalga oshiriladi, har bir navbatchilik 24 soat davom etadi. O‘t o‘chiruvchi qismlari ish tartibini boshqacha tartibga o‘tkazish respublika (viloyat) kasaba uyushmalari bilan kelishiladi. Nozirlarning, radioaloqachilarining ish vaqtлari garnizon boshlig‘i tomonidan belgilanadi.

Qorovullik hisobiga, intizomni buzgan, bemor va ish joyida alohida tayyorgarlikdan o‘tmagan shaxslarni kiritish taqilanadi.

O‘t o‘chirish qismining jangovar hisobida va ehtiyojida turgan barcha avtomobillar qutqarish uchun zarur asbob-anjomlari jihozlangan holatda qorovul ixtiyorida bo‘ladi. Qorovul ixtiyoridagi o‘t o‘chiruvchi avtomobilarning, o‘t o‘chiruvchi qurollarning va asboblarning doimo jangovar holatda bo‘lishini va ozoda tutishni ta’minlash qorovulning barcha shaxsiy tarkibiga yuklatiladi.

O‘t o‘chiruvchi qorovuli shaxsiy tarkibi jangovar kiyim, asbob-anjom va himoyalangan gazniqob bilan ta‘minlanishi kerak. Jangovar kiyim va asbob-anjomlar har bir o‘t o‘chiruvchi (bo‘linma boshlig‘i)ga biriktirilgan bo‘lishi va bo‘y-bastiga qarab tanlangan bo‘lishi lozim.

Nosoz o‘t o‘chiruvchi avtomobillar va o‘t o‘chiruvchi qurollar quyidagi tartibda zudlik bilan almashtiriladi:

- o‘t o‘chiruvchi texnikasi zaxirada turgan texnika bo‘lsa, o‘t o‘chiruvchi qismi boshlig‘i buyrug‘iga asosan almashtiriladi, zaxirada texnika bo‘lmasa, yong‘indan saqlash garnizoni boshlig‘i buyrug‘iga asosan almashtiriladi;

- o‘t o‘chiruvchi qurollari qorovul boshlig‘ining buyrug‘iga asosan almashtiriladi va qism boshlig‘iga axborot beriladi;

- o‘t o‘chiruvchi avtomobiliga 1- va 2-texnik xizmat ko‘rsatishda avtomobil jangovar hisobdan chiqariladi va zaxiradagi avtomobil jangovar hisobga qo‘yiladi. O‘t o‘chirish avtomobillariga texnik xizmat ko‘rsatish uchun jangovar hisobdan chiqarish va zaxiradagi avtomobilni jangovar hisobga qo‘yish tartibi joylardagi sharoitga qarab garnizon boshlig‘i tomonidan belgilanadi. Jangovar hisobda turgan texnika sonini shtatda e‘lon qilingandan kamaytirish taqilanganadi.

O‘t o‘chirish qismi navbatchi qorovulining asosiy lavozimli shaxslari quyidagilar hisoblanadi:

- qorovul xizmati boshlig‘i;
- bo‘linma boshlig‘i;
- o‘t o‘chiruvchi avtomobil haydovchisi;
- qism aloqa tarmog‘i navbatchi noziri (radioaloqachisi);
- katta o‘t o‘chiruvchi (o‘t o‘chiruvchi).

O‘t o‘chiruvchi qismi jangovar hisobda turgan o‘t o‘chiruvchi texnikasining turiga va shtatiga qarab, qorovul tarkibiga mansabdar shaxslar kirishi mumkin. Ularning xizmat vazifalari qism boshlig‘i tomonidan ishlab chiqiladi.

### b). Katta o‘t o‘chiruvchining xizmat vazifalari.

Katta o‘t o‘chiruvchi bo‘linma boshlig‘iga bo‘ysunadi va o‘zining burchini, oldiga qo‘yilgan vazifalarni o‘z vaqtida, aniq bajarishga hamda o‘ziga biriktirilgan o‘t o‘chiruvchi texnikasi, asboblari, o‘t o‘chirish texnik qurollari va anjomlarining holatiga javobgardir.

Katta o‘t o‘chiruvchi:

- o‘t o‘chirish qismining chiqish hududi, o‘ta muhim va yong‘in chiqish xavfi yuqori bo‘lgan korxonalarini, suv manbalarining

joylashishini hamda qismdagagi o‘t o‘chiruvchi avtomobillar va boshqa o‘t o‘chiruvchi texnikasining taktik-texnik imkoniyatlarini bilishi;

- o‘t o‘chirish ishini sidqidildan o‘rganishi, maxsus texnik bilimlarni, o‘t o‘chiruvchi texnik qurollarida ishlash mahoratini doimiy takomillashtirib borishi;

- ustavlar, qo‘llanmalar, texnika xavfsizligi qoidalari talablarini puxta bilishi va ularga doimo rioya qilishi;

- qo‘rqmas va intizomli bo‘lishi, noloyiq xatti-harakatlar qilmasi ligi hamda boshqa hamkasblarining ham shunday ishlar qilishlariga yo‘l qo‘ymasligi;

- davlat mulkini asrashi, o‘t o‘chirish texnik qurollarini, asbob-anjomlarini doimo toza va jangovar holatda saqlashi, yong‘inga qarshi tartibning saqlanishini nazorat qilib turishi;

- kuzatish joylarida kuzatuvchilikda xizmatni o‘tashda, o‘t o‘chirishda (falokat, tabiiy ofat oqibatlarini tugatishda) vazifasini aniq bajarishi va tashabbus ko‘rsatishi;

- bo‘linma boshlig‘iga yosh o‘t o‘chiruvchilarini o‘rgatishda yordam berishi;

- o‘t o‘chirish avtomobili jangovar hisobdagi barcha o‘t o‘chiruvchilarning vazifalarini bajara olishi;

- bo‘linma boshlig‘i yo‘q vaqtarda vaqtincha uning vazifalarini bajarishi lozim.

*d). Shaxsiy tarkibni joylashtirish.*

IIV yong‘indan saqlash qismining shaxsiy tarkibi, odatda, o‘t o‘chirish qismidagi umumyotoqxonalarda va uylarda yoki qism atrofidagi uylarda yashashlari kerak.

O‘t o‘chiruvchi qismi binosida turar joy xonalarini bo‘lsa, bu xonalarda qism boshlig‘i, uning o‘rinbosarlari, qorovul boshliqlari va katta haydovchilar yashashlari lozim.

O‘t o‘chiruvchi qismi hududida joylashgan hamma binolardagi xonalar xizmat xonalarini hisoblanadi.

Shaxsiy tarkibni chaqirish, yig‘ish tartibini qism boshlig‘i belgilaydi.

*e). Qorovulda vaqtning taqsimlanishi va har kungi tartib.*

O‘t o‘chiruvchi qismining kun tartibini yong‘inga qarshi holatga, joylardagi sharoitlarga va ob-havo sharoitlariga qarab yong‘indan saqlash xizmati garnizoni boshlig‘i belgilaydi.

Kun tartibida ertalabki jismoniy tarbiya va yuvinish, o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish, ovqatlanish, texnikaga qarash, tarbiyaviy ishlar o‘tkazish uchun vaqt ajratilgan bo‘lishi kerak.

Mashq va mashg‘ulotlarda qorovul shaxsiy tarkibining ichki xizmat navbatchilaridan tashqari hammasi qatnashishi zarur.

Ovqatlanish kun tartibi ko‘rsatilgan vaqtda bo‘lishi, shaxsiy tarkib oshxonaga toza kiyimda kirishi, ovqatlanish vaqtida tartib saqlanishi lozim. Shinelda, kamzulda, jangovar kiyimda ovqatlanish taqiqlanaadi.

Qorovul tarkibidan hech kim qorovul boshlig‘ining ruxsatisiz ketmasligi kerak. Qorovul boshlig‘i qorovul shaxsiy tarkibidan biror kishi kasal bo‘lib qolsa yoki xizmatga taalluqli vazifalarni bajarish uchungina o‘t o‘chiruvchi qismidan chiqishga ruxsat berishi mumkin.

Qorovulning kuzatuvchilikda, ichki xizmat navbatchiligidan tashqari shaxsiy tarkibiga tunda qorovul yotoqxonasida uplashga ruxsat etiladi.

Kun davomida xizmatda bo‘ladigan qorovul boshliqlariga, nozimlariga (radioaloqachilarga) tunda 4 soatgacha dam olish (uxlash) ga ruxsat etiladi (ular navbat bilan dam olishlari mumkin). Bu vaqtida ularni tayyorgarlikdan o‘tgan shaxslar almashtirib turishi darkor. Qorovul boshlig‘i dam olayotganda qorovul bo‘yicha navbatchi almashtirib turadi. Qorovulning dam olayotgan shaxsiy tarkibiga oyoq qiyimlarini yechishlariga ruxsat etiladi. Ammo bunda qorovulning kiyinib chiqish me’yoriy vaqtin uzayib ketmasligi lozim.

Qorovul shaxsiy tarkibi saf uchun mo‘ljallangan kiyimda, ichki xizmatdagilar esa bundan tashqari aslahalari hamda bosh kiyimda bo‘lishlari kerak. Kuzatuvchilar, qorovul bo‘yicha navbatchilar ko‘krak nishon yoki bog‘ichlarda bo‘ladi.

Qorovul shaxsiy tarkibi joylashgan hamma xizmat xonalari tunda doimo yoritilgan bo‘lishi kerak. Tunda dam olish vaqtida bu xonalarda faqat navbatchi chiroqlarni yoqib qoldirishga ruxsat etiladi, agarda xavf belgisi berilsa, hamma chiroqlar yoqiladi. Qorovul xonasi tashqarisidagi eshiklar tunda yopiq bo‘lishi kerak, faqat kuzatuvchi nazorati ostidagi eshik ochiq bo‘lishi mumkin.

O‘t o‘chiruvchi texnikasini, o‘t o‘chiruvchi texnik qurollarini toza tutish, xizmat xonalarida va qism hududida tozalikni saqlash hamda o‘tin tayyorlashda va boshqa xo‘jalik ishlari qorovul shaxsiy tarkibiga yuklatiladi. Xonalarni har kuni tozalashdan tashqari haftada bir marta qorovul boshlig‘i rahbarligida hamma xonalar tozalanadi.

Xonalar o‘z vaqtida dezinfeksiya (sanitariya ishlovidan o‘tkazilishi) qilinishi zarur.

*f). O‘t o‘chiruvchi qismi tarkibiga kirmaydigan xizmat xonalariga kiritish tartibi.*

O‘t o‘chiruvchi qismining navbatchi qorovul xonasiga quyidagilar:

- qorovulni tekshirgani kelgan shaxslar;
- yong‘in (falokat, tabiiy ofat) sodir bo‘lganligi to‘g‘risidagi xabarni aytishga kelgan shaxslar;
- xizmat ishlari bilan kelgan shaxslar;
- qismni ko‘rishga kelgan vakillar va sayohatchilar yong‘indan saqlash xizmati garnizoni boshlig‘i bilan kelishilgan holda kirishlari mumkin.

Qismning xizmat xonalariga kelgan har bir shaxsdan qorovul boshlig‘i kelishdan maqsadini aniqlaydi va agarda zarur bo‘lsa, kelganlarni qism boshlig‘i yoki uning o‘rinbosari oldiga kuzatib qo‘yadi. Qorovulni tekshirish uchun kelganlardan qorovul boshlig‘i agarda tekshirishga haqli bo‘lsa-yu, ammo uni tanimasa, shaxsiy guvohnomasini, boshqalardan esa qorovulni tekshirish uchun ruxsatnomasini ko‘rsatishni talab qiladi, shundan so‘ng qorovul navbatchiligi haqida axborot beradi va kelganlarni kuzatib boradi.

Axborot berish tartibi quyidagicha bo‘ladi (misol): «O‘rtoq mayor (zavod direktori va boshq.), navbatchilikda birinchi (ikkinchi, uchinchi) qorovul, shaxsiy tarkib ish bilan mashg‘ul (qanday ish bilan mashg‘ulligi, agarda ko‘ngilsiz hodisalar bo‘lsa, ular haqida axborot beradi).

Qorovul boshlig‘i leytenant Ergashev».

Qorovul boshlig‘i axborot berayotganda shaxsiy tarkib hech qanday buyruqsiz tik turgan holatni qabul qiladi.

*g). Qorovul xizmatida navbatchilik almashishi.*

Qorovul xizmatida navbatchilik almashishi ularning xizmat o‘tashga tayyorligini tekshirishdan iborat bo‘ladi. Qorovullarning almashishi 30 daqiqadan oshmasligi kerak. Navbatchilikni qabul qiladigan qorovulning shaxsiy tarkibi o‘t o‘chiruvchi qismiga navbatchilik qabul qilishdan 10 daqiqa oldin kelishi zarur. Qorovullarning navbatchilik almashish vaqtiga garnizon boshlig‘i tomonidan belgilanadi. Bunda qorovullarning navbatchilik almashishi o‘t o‘chiruvchi qismlarining barchasida bir vaqtida o‘tkazilishi kerak.

Korxonalarini qo‘riqlayotgan o‘t o‘chiruvchi qismlarida qorovullarni (nazoratchi guruqlarini) navbatchilik almashish vaqt va tarbi YXB, korxona rahbarlari bilan kelishilgan holda birikma, qism boshliqlari tomonidan belgilanadi, ammo qorovullarning navbatchilik almashish vaqt korxona ishchi va xizmatchilarining navbatchilik almashish vaqt bilan bir xil bo‘lmasligi kerak.

Kun tartibida belgilangan vaqtida navbatchilikni qabul qiluvchi qorovul boshlig‘i navbatchilikka buyruq beradi.

Ushbu buyruq bo‘yicha nozim (radioaloqachi) uch bor qisqa signal beradi. Ikki qorovul shaxsiy tarkibi jangovar kiyimlarini kiyishadi, anjomlarini taqishadi, shundan keyin qorovul boshliqlari o‘z qorovullarini qism boshlig‘i belgilagan joy (xona)ga saflashadi.

Navbatchilikni qabul qiluvchi qorovul boshlig‘i qorovullarning navbatchiligi almashishida:

- shaxsiy tarkibning xizmat o‘tashga tayyorgarligini, sonini, ularning tashqi ko‘rinishini va belgilangan kiyimga rioya qilishlarini, yong‘in o‘chiruvchilarining jangovar kiyimlari va asbob-anjomlari holatini tekshirish va kamchiliklarini tugatish choralarini ko‘rishi;

- yong‘in o‘chiruvchilarni o‘t o‘chiruvchi avtomobillariga jangovar hisob raqamlari bo‘yicha biriktirishi, kuzatuvchilarni, ichki xizmat navbatchilarini tayinlashi va ularga vazifalarini tushuntirishi;

- shaxsiy tarkibning o‘z vazifalarini bilishlarini tekshirishi;

- haydovchilarining haydovchilik guvohnomasi va o‘t o‘chiruvchi avtomobillarini boshqarish huquqini beruvchi guvohnomalarini tekshirishi;

- shaxsiy tarkibga chiqish tumani (korxona) va garnizondagi yong‘inga qarshi holatni tushuntirishi lozim.

Navbatchilikni topshirayotgan qorovul boshlig‘i xizmatga yakun yasaydi. Shaxsiy tarkibning bajargan ishlariga baho beradi, kamchiliklarini ko‘rsatadi, ularni bartaraf etish yo‘llarini ko‘rsatib beradi.

Qorovul shaxsiy tarkibi xizmatni o‘tash uchun quyidagi tartibda taqsimlanadi:

- o‘t o‘chiruvchi avtomobillariga jangovar hisob jadvali asosida tayinlanadi;

- har bir kuzatish joyiga (kuzatuvchilikka) ikki kishi tayinlanadi, bularning biri kuzatish joyida tursa, ikkinchisi jangovar hisobda bo‘ladi;

- kuzatuvchilikka bo‘linma boshliqlari, katta yong‘in o‘chiruvchilar va ichki xizmatga hamda kuzatish joylariga kiritilmagan shaxsiy tarkib tayinlanadi.

Kuzatuvchilikka tayinlangan shaxsiy tarkib kuzatuvchilikka ket-guncha va qaytib kelgandan so‘ng jangovar hisobda turadi. Jangovar hisob tartib raqami bo‘yicha kuzatish joyi va kuzatuvchilikka bo‘lishda shaxsiy tarkib qorovulini safga turish chizmasiga asosan joylashadi.

Navbatchilikni topshirayotgan qorovul boshlig‘i qabul qiluvchi qorovulning tayyorligini bilgach, qorovul shaxsiy tarkibini jangovar kiyimlarini kiygan va asbob-anjomlarini taqqan holda navbatchilikni qabul qiluvchi qorovul oldida saflaydi, so‘ngra safning o‘ng qanotiga o‘tib turadi.

Navbatchilikni qabul qiluvchi qorovul boshlig‘i shaxsan va bo‘linma boshliqlari orqali o‘to‘chiruvchi avtomobilalarini (motopompalar) va o‘t o‘chiruvchi texnik quollarini, aloqa vositalarining ishga yaroqlilagini, xizmat xonalarini va qism hududini tekshiradi, shaxsiy tarkibning himoyalangan gaz niqoblarini tekshirishlariga rahbarlik qiladi.

Navbatchilikni qabul qiluvchi qorovul shaxsiy tarkibi jangovar hisob ro‘yxati va avtomobildagi asbob-anjomlar ro‘yxati bo‘yicha navbatchilikni topshirayotgan qorovuldan barcha o‘t o‘chiruvchi quollarini, aloqa va xabarlash vositalarini, asbob-anjomlarni, xizmat xonalarining holatini, jihozlarini, xizmat hujjatlarini, qism hududi tozaligini tekshirib, qabul qilib olishlari lozim.

Zaxiradagi o‘t o‘chiruvchi texnikalarini qorovul boshlig‘i tayinlangan bo‘linma boshlig‘i, haydovchi va yong‘in o‘chiruvchilar qabul qilib olishadi. Navbatchilikni qabul qilish jarayonida navbatchilikni qabul qiluvchi qorovul shaxsiy tarkibi himoyalangan gaz niqoblarini tekshiruvdan o‘tkazishadi.

Navbatchilikni qabul qilish va topshirish natijalari haqida haydovchilar va yong‘in o‘chiruvchilar bo‘linma boshliqlariga, nozimlar (radioaloqachilar), kuzatuv joylaridan kelgan va ichki xizmat navbatchilar esa o‘zlarining qorovul boshliqlariga axborot beradilar. Qorovul boshliqlari esa qism boshlig‘iga axborot berishadi.

Qorovul boshliqlarining navbatchilikni topshirganliklari va qabul qilib olganliklari haqida axborotni eshitgach, qism boshlig‘i xizmat ro‘yxatini tekshirib chiqadi va «yakunlansin» buyrug‘ini beradi. Bu buyruqni eshitgach, nozim (radioaloqachi) ikki qisqa signal belgisi beradi. Navbatchilikni topshirgan qorovul GTXX guruhining shaxsiy tarkibi avtomobillardan himoyalangan gaz niqoblarini oladi, navbatchilikni qabul qilganlar esa jangovar hisobga qo‘yadilar. Shu

vaqtdan boshlab navbatchilikni topshirgan qorovulning shaxsiy tarkibi xizmatdan bo'shagan hisoblanadi.

Agarda qorovullarni navbatchilik almashishi vaqtida «yakunlansin» belgisi berilgunga qadar xavf belgisi berilsa, yong'in o'chirishga navbatchilikni topshirayotgan qorovul chiqadi, navbatchilikni qabul qilib oluvchi qorovul esa o't o'chiruvchi qismning boshlig'idan ko'rsatma olgunicha bino ichida qoladi.

Qorovullarning navbatchilik almashishi agarda navbatchilikni topshiradigan qorovul xavf belgisi bilan chiqib ketsa yoki yong'in o'chirishda ishlayotgan bo'lsagina kechiktirilishi mumkin (bunda soqchilar va kuzatuvchilar o'z vaqtida almashtirilishi kerak). Agarda qorovullarning navbatchilik almashishi vaqtida navbatchilikni topshiradigan qorovul yong'in o'chirishda bo'lsa va bu yong'inni o'chirish uchun bir soatdan ko'p vaqt zarur bo'lsa, navbatchilikni qabul qiluvchi qorovul yong'in sodir bo'lган joyga olib boriladi va shu yerning o'zida ishlayotgan qorovulni almashtiradi.

#### *h). Qorovul ichki xizmati.*

Ichki xizmat navbatchilari xizmat xonalarini, texnikalarni, jihozlarni va qism hududini qo'riqlash hamda tozalikni, tartibni saqlash uchun navbatchi qorovul shaxsiy tarkibi ichidan tayinlanib, oy mobaynida barcha shaxsiy tarkib uchun xizmat turlari bir xil taqsimlanadi. Ichki xizmatdagi shaxslar qorovul boshlig'iga bo'ysunadi.

Ichki xizmat navbatchilari yong'indan saqlash garnizoni boshlig'i tomonidan belgilanadi va, odatda, quyidagilardan iborat bo'ladi:

- qorovul bo'yicha navbatchidan;
- o't o'chiruvchi qismining garaji bo'yicha navbatchidan;
- qism binosining old tomonidagi soqchidan.

Ichki xizmat navbatchilari xavf belgisi bo'yicha qorovul bilan chiqadi. O't o'chiruvchi qismining xizmat xonalarini qorovul xavf belgisi bo'yicha chiqib ketgan vaqtda qo'riqlash tartibi qism boshlig'i tomonidan belgilanadi.

Ichki xizmat navbatchilarini almashtirish qorovul boshlig'i yoki qorovul bo'yicha navbatchi tomonidan amalga oshiriladi.

O't o'chiruvchi qismi binosining old tomonidagi soqchi quyidagi-larga mas'ul hisoblanadi:

- fuqarolardan yong'in, falokat haqidagi xabarlarni qabul qilishi, yong'in (falokat) sodir bo'lганligi haqida xabar olganda xavf belgisini yoqishi va xabar bergen shaxsni qorovul boshlig'i bilan uchrashadirishi;

- ko‘rish imkoniyati bo‘lgan joylarni doimo kuzatib turishi, agar-da yong‘in sodir bo‘lganini aniqlasa, xavf belgisini yoqishi va kuza-tish natijalari haqida qorovul boshlig‘iga axborot berishi;
- garaj darvozalari oldida barcha turdagи naqliyot vositalarini, qism hududida (maxsus ajratilgan joylardan tashqari) esa xiz-matga aloqador bo‘lmagan avtomobilarning to‘xtab turishiga yo‘l qo‘ymasligi;
  - shaxsiy tarkibni xizmat zaruriyatisiz qism binosi old tomonida bo‘lishlariga yo‘l qo‘ymasligi;
  - o‘t o‘chiruvchi qismi shaxsiy tarkibiga aloqador bo‘lmagan shaxslarni qism hududiga kiritishning belgilangan tartibiga qat’iy rioya qilishini ta’minlashi;
  - o‘t o‘chiruvchi qismi binosi old tomonida tozalik va tartibni saqlashi lozim.

Qism boshlig‘i qism yotoqxonasida yashaydigan, navbatchilikdan bo‘sh bo‘lgan shaxslardan jadval bo‘yicha yotoqxona navbatchisi ni tayinlaydi. Agar yotoqxona o‘t o‘chiruvchi qismining binosida joylashgan bo‘lsa, yotoqxona navbatchisi qorovul navbatchisiga bo‘ysunadi, agar yotoqxona qism binosidan tashqarida joylashgan bo‘lsa, yotoqxona navbatchisining kimga bo‘ysunishi qism boshlig‘i tomonidan belgilanadi.

#### *i). Xavf belgisi paytida qorovullarning harakatlari.*

Xavf belgisi berilganda:

- qorovulning jangovar hisobidagi shaxsiy tarkibi jangovar kiyim-larini kiyib, anjomlarini taqadilar;
- jangovar hisob ro‘yxatiga asosan, o‘t o‘chiruvchilar garaj darvozalarini ochadilar;
- haydovchilar avtomobillar dvigatellarini ishga tushiradilar. Shaxsiy tarkib avtomobilda o‘z o‘rnini egallaydi.

## **1.2. XIZMATGA TAYYORGARLIK KO‘RISH**

Yong‘in xavfsizligi xizmatiga ishga qabul qilingan o‘t o‘chiruvchilar xizmat vazifalarini mustaqil bajarishlariga qadar boshlang‘ich tayyorgarlikdan o‘tishadi. O‘tilgan har bir mashg‘ulot o‘quv jurnalida qayd qilinadi. Bu esa boshlang‘ich tayyorgarlik deb ataladi.

Boshlang‘ich tayyorgarlik ketma-ket ikki bosqichda o‘tkaziladi:

- birinchi bosqich – xizmat joylarida yakka tartibda o‘qitish;
- ikkinchi bosqich – IIV, IIB yong‘indan saqlash o‘quv marказларидаги курс тайыншылдығы.

Агада лавозимга qабул qилинген күндан о‘quv bo‘linmalarida navbatdagı guruhni o‘qitish boshlanishiga 10 күндан kam vaqt qolgan bo‘lsa, kurs tayyorgarligiga yakka tartibda tayyorgarlikni o‘tmay turib yuborishga ruxsat etiladi.

Yakka tartibdagı tayyorgarlikni boshqarish yong‘indan saqlash garnizonlari, o‘t o‘chiruvchi qismlari boshliqlariga va ular tomonidan tayinlangan ustozlarga, kurs tayyorgarligi bo‘yicha esa o‘quv bo‘linmalari boshliqlariga yuklatiladi.

O‘t o‘chiruvchilar ning yakka tartibda tayyorgarligi lavozimiga tayinlangan kүндан boshlab kurs tayyorgarligiga jo‘natilgunga qadar olib boriladi va quyidagilarni nazarda tutadi:

- yong‘indan saqlash bo‘linmalarining ish faoliyati va tashkiliy asoslari, xizmatni o‘tash tartibi, lavozim huquqlari va majburiyatlari, xizmat yo‘nalishi bo‘yicha asosiy me’yor amaliyoti hujjatlari, ichki tartib va kiyim kiyish qoidalari, himoyalangan gaz niqoblar bilan tanishishni;

- texnika xavfsizligi qoidalari o‘rganishni;
- yong‘inlarni o‘chirishda va xizmatni o‘tashda asosiy vazifalari ni bajarishni amaliy o‘rganishni.

Yakka tartibda tayyorgarlik yong‘indan saqlash qismida 10 kun mobaynida 6 soatdan o‘tkaziladi, shundan so‘ng harbiylashtirilgan yong‘indan saqlash xizmatiga yangi qabul qilinganlar 10, ixtisoslashtirilgan yong‘indan saqlash xizmatiga yangi qabul qilinganlar esa 7–8 navbatchilik mobaynida qorovulda tajribadan o‘tadilar. Bunda yangi qabul qilinganlar yong‘in o‘chirishga chiqmaydilar, himoyalangan gaz niqobda ishlashga o‘rgatish bu vaqtدا o‘tkazilmaydi.

Xizmat joylarida yakka tartibdagı tayyorgarlik qism boshlig‘i tomonidan tasdiqlangan o‘quv dars jadvali va mavzuiy reja asosida belgilanadi. Mashg‘ulotlarni qism boshlig‘i va uning o‘rinbosarlari, muhandis-inspektorlar tarkibi, qorovul boshliqlari hamda tajribali bo‘linma boshliqlari o‘tkazadilar.

Xizmat joylarida yakka tartibdagı tayyorgarlikni tashkil qilishga yong‘indan saqlash garnizon, o‘t o‘chiruvchi qismi boshliqlari javobgardirlar va ular quyidagilarni bajarishlari shart:

- ishga qabul qilingan shaxsni shaxsiy tarkibga tanishtirishi, ustoz biriktirganligi haqida buyruqni e'lon qilishi;
  - ishga qabul qilingan shaxsni lavozim vazifalari bilan tanishtirishi va bajaradigan ishlarini belgilab berishi;
- amaldagi buyruqlarga asosan, tayyorgarlik vaqtidagi huquq va majburiyatlari bilan tanishtirishi hamda o'quv jarayoni sharoitlari va tartibi bilan tushuntirishi;
- xizmat joyida yakka tartibdagi tayyorgarlik mavzuiy rejasini tasdiqlashi va ustozga yo'riqnomaga berishi;
  - xizmat joyida yakka tartibdagi tayyorgarlik mavzuiy rejasining bajarilishini muntazam nazorat qilib borishi;
  - o'rganayotgan shaxsning axloqiy va ishchanlik qobiliyatini o'rganishi.

Xizmat joylarida yakka tartibdagi tayyorgarlik tugagandan so'ng o'rganayotgan shaxslar o'rgatilgan materiallar hajmida va xizmatni o'tash hamda yong'inni o'chirish vaqtida texnika xavfsizligi qoidalarini bilishlari bo'yicha sinov imtihonini YSB hay'atiga topshiradilar. Sinov imtihonlari natijasi rasmiylashtiriladi. Bayonnomma asosida qism boshlig'i xizmat joyida yakka tartibdagi tayyorgarlikni yakunlagan shaxslarga o't o'chiruvchi vaqtida mustaqil jangovar harakat qilishlariga ruxsat berish haqida buyruq chiqaradi (balandliklarda va nafas olishga yaroqsiz muhitlardagi ishlardan tashqari).

O't o'chiruvchilar O'zbekiston Respublikasi IIV, IIB taqsimotiga asosan belgilangan muddatlarda, ammo lavozimga tayinlangan va xizmat joyida tayyorgarlikni yakunlagan kundan olti oydan ko'p vaqt o'tmasdan o'quv bo'linmalariga kurs tayyorgarligiga jo'natiladilar.

O'quv bo'linmasiga bir vaqtning o'zida xizmat joylarida yakka tartibdagi va kurs tayyorgarligidan o'tganligi to'g'risidagi guvohnoma tegishli boblari to'ldirilgan holda yuboriladi.

---

---

## **2-bob. YONG‘INDAN SAQLASH QISMI. ODDIY XODIM VA KICHIK BOSHLIQLAR TARKIBI**

O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari boshliqlar va oddiyalar tarkibining xizmatni o‘tash holati, tartibi, ularning huquq, burch-vazifalari «O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari boshliqlar va oddiy xodimlar tarkibining xizmat o‘tashlari haqida nizomi»da belgilangan.

### **2.1. UMUMIY HOLATLAR**

Yong‘in xavfsizligi xizmati Ichki ishlar vazirligi tarkibida bo‘lganligi bois ichki ishlar organlarida tarkibiy lavozimida bo‘lgan yoki maxsus unvon berilgan xodim ichki ishlar organlari boshliq va oddiyalar tarkibi, deb yuritiladi.

Ichki ishlar organlari boshliqlar va oddiyalar tarkibida bo‘lgan xodimlarning burchlari:

- o‘z Vataniga, O‘zbekiston Respublikasiga, xizmat burchlarini bajarishda o‘z kuchini va hayotini ayamay xizmat qilish, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini himoyalash, Prezident va O‘zbekiston Respublikasi hukumatining qarorlarini qattiq va og‘ishmay hayotga kiritish, qonunchilikka, qasamyod, ustavlar, nizomlar va buyruqlar talablariga qat’iyan rioya qilish;

- davlat va xizmat maxfiyligini qat’iyan saqlash va doimo ziyrak hamda hushyor bo‘lish;

- doimo o‘zining kasbiy bilim va mahoratini oshirib borish, o‘ziga birkitilgan qurol va maxsus texnikadan foydalanishni mu-kammal bilish va avaylash, xalqning mol-mulkini har tomonlama himoyalash.

Ichki ishlar organlari xizmatiga ixtiyoriy ravishda 18 yoshga to‘lgan, lekin 30 yoshdan oshmagan, erkaklarning bo‘yi 170 sm, ayollarning bo‘ylari esa 165 sm bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari qabul qilinadi.

Ichki ishlar organlarining oliy va o‘rta maxsus o‘quv dargohlariga O‘zbekiston Respublikasining 17 yoshdan 23 yoshgacha bo‘lgan fuqarolari, o‘rta umumiylumotli 25 yoshgacha bo‘lgan fuqarolar ichki ishlar organlari xodimlari safiga qabul qilinadi.

Oddiyalar va kichik boshliqlar lavozimlariga harbiy xizmatni o‘tagan hamda harbiy xizmatni o‘tamagan harakatda bo‘lgan qonunga asosan, shartnoma asosida qabul qilinadilar. Oddiy va kichik boshliqlar lavozimlarida zaxiradagi zabitlarning qabul qilinishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Millati, diniy qarashlari va jinsiga qarab ichki ishlar organlari xodimlari huquqlarini cheklash man etiladi.

Ichki ishlar organlarining oddiyalar va kichik boshliqlar lavozimida erkaklar 50 yoshgacha, xotin-qizlar esa 45 yoshgacha xizmat qiladilar. Shartnomada belgilangan vaqtidan yoki ko‘rsatilgan yuqori yoshga kirmasdan oldin ham oddiy va kichik boshliqlar lavozimida bo‘lgan xizmatdagi xodim ichki ishlar organlaridan zaxiraga bo‘shatilishi yoki nafaqa (pensiya)ga chiqarilishi mumkin.

Ichki ishlar organlari, shuningdek, yong‘in xavfsizligi xodimlariga quyidagi maxsus unvonlar beriladi:

a) oddiylarga:

- ichki xizmat oddiysi;

b) kichik boshliqlarga:

- ichki xizmat kichik serjanti;
- ichki xizmat serjanti;
- ichki xizmat katta serjanti;
- ichki xizmat starshinası;
- ichki xizmat praporshchigi;
- ichki xizmat katta praporshchigi.

Kichik boshliqlar tarkibining maxsus unvonda xizmat muddati quyidagicha belgilangan:

- ichki xizmat kichik serjanti – 1 yil;
- ichki xizmat serjanti – 2 yil;
- ichki xizmat katta serjanti – 3 yil;
- ichki xizmat starshinası – 3 yil;
- ichki xizmat praporshchigi – 4 yil;
- ichki xizmat katta praporshchigi – 4 yil.

Oddiyalar, starshina, katta praporshchiklarning xizmat muddati belgilanmaydi. Oddiyalar tarkibiga navbatdagi maxsus unvon, navbat-

dan oldin yoki bir pog‘ona yuqori unvon, egallab turgan lavozimiga asosan berilishi mumkin.

Quyidagi hollarda navbatdan oldin maxsus unvon beriladi:

- xizmat burchini bajarishda, qahramonlik, jasurlik, mardlik, qat’iyatlik ko‘rsatganda – bunda ushbu unvonda xizmat muddati hisobga olinmaydi;

- tezkor xizmat ish faoliyatida yuqori natijalarga erishganligi uchun, maxsus unvon muddatining 2/3 qismidan kam bo‘lmasan muddat o‘tgan bo‘lsa.

Egallab turgan lavozimi unvonidan bir pog‘ona yuqori maxsus unvon quyidagi holda beriladi:

- tezkor xizmat ish faoliyatida yuqori natijalarga erishganligi uchun, ushbu lavozimning yuqori maxsus unvonida kamida 1,5 muddatda xizmat qilgan bo‘lsa.

Ichki ishlar organlari xodimlariga xizmati davomida faqat bir marta navbatdan tashqari yoki bir pog‘ona yuqori maxsus unvon berilishi mumkin.

Ichki ishlar organlari kichik boshliqlar tarkibiga navbatdagi maxsus unvon berilishining kechiktirilishi yoki mavjud unvonning bir pog‘onaga tushirilishi boshliqning qaroriga asosan qilinadi. Bir pog‘ona unvoni pasaytirilgan kichik boshliqlarning oldingi unvoni, bir yildan so‘ng, qoniqarli shahodatdan o‘tgandan so‘nggina qayta tiklanadi.

Oldingi unvoni tiklanmasdan oldin, yana unvoni pasaytirishga yo‘l qo‘ymaydi.

### ***Lavozimga tayinlash, boshqa lavozimga o‘tkazish va xizmatda siljitim tartibi***

Shaxsiy tarkibni lavozimga tayinlash, uning loyiqligiga qarab, boshlig‘i tomonidan bajariladi. Bunda quyidagi holatlar e’tiborga olinadi:

a) oddiy va boshliqlar tarkibini mutaxassisligiga yoki shu mutaxassislikka yaqin mutaxassisligiga, kerak bo‘lganda ushbu shaxslarni taalluqli kurslarda qayta tayyorlab lavozimga tayinlanadi;

b) bir ichki ishlar organida yaqin qarindoshlar (ota-onas, er-xotin, aka-uka, opa-singil, o‘g‘il-qizlar hamda er-xotinning aka-ukalari, opa-singillari, ota-onalari va bolalari) bilan birgalikda, ular xizmat yuzasidan bir-birlariga bo‘ysunadigan holatda bo‘lishsa.

Oddiy va kichik boshliqlar tarkibini xizmat lavozimlariga siljitim tartibi quyidagicha:

- a) yuqori lavozimga – xizmat bo‘yicha siljitchish tartibida;
- b) bir xil lavozimga – shaxsiy iltimosiga asosan, boshqa lavozimlarni to‘ldirish kerakligi sababli, yoshiga, sog‘lig‘i va oilaviy ahvoliga qarab;
- d) Ichki ishlar vazirligi tizimida bo‘lgan o‘quv dargohlariga o‘qishga qabul qilinganligi sababli egallab turgan lavozimidan bo‘shatilish munosabati bilan;
- e) past lavozimlarga:
  - lavozim bekor qilinganda, teng lavozimga tayinlashning iloji bo‘lmasa, uning roziligi bilan;
  - shaxsiy iltimosiga ko‘ra;
  - shahodatlash tartibiga asosan, xizmat yuzasidan;
  - intizomiy jazo tartibida.

Past lavozimga siljitelgan oddiy va boshliqlar tarkibi keyinchalik xizmat bo‘yicha siljitelishi mumkin.

## **2.2. ODDIY VA BOSHLIQLAR TARKIBINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH**

Oddiy va boshliqlar tarkibini attestatsiyasi O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan aniq belgilangan muddatda o‘tkaziladi. Bundan tashqari, oddiy va boshliqlar tarkibini yuqori lavozimga tayinlashda, pastki lavozimga siljitchishda va attestatsiya tartibida xizmatga layoqatsizligi tufayli, ichki ishlar organidan bo‘shatishda o‘tkaziladi.

Bundan oldingi attestatsiya hay’atining xulosasi ham hisobga olinadi. Attestatsiyada uning ishbilarmonlik, dunyoqarashi va shaxsiy sifatlari, sog‘lig‘ining holati, jismoniy tayyorgarlik darajasi, umumiy madaniyati, me’yoriy va boshqa qonunchilik hujjatlarini bilish darajasi baholanadi hamda egallab turgan lavozimida layoqatliligi xulosa qilinadi.

### ***Ta’tilga chiqish tartibi***

Oddiy va boshliqlar tarkibiga quyidagi ta’tillar beriladi:

- a) navbatdagi;
- b) qisqa muddatli (to‘lanmaydigan);
- d) kasalligi tufayli;
- e) ichki ishlar organlari o‘quv yurtlarini tugatganligi uchun;

f) iqtisodiy (homiladorligi va bolaga qarash uchun, o'qish munosabati bilan va ilmiy);

g) qo'shimcha (zararli va shunga o'xshash holatlarda xizmat vazifalarini bajarganligi uchun).

Ta'til muddati sutkalar (kecha-kunduz) bilan belgilanadi.

Qonun bilan belgilangan davlat bayram kunlari ta'til hisobiga kiritilmaydi. Dam olish uchun belgilangan joyga borib kelish uchun ta'tildan tashqari, qo'shimcha 15 sutkagacha ta'til beriladi.

Oddiy va boshliqlar tarkibiga navbatdagi ta'til uning ichki ishlardoralarida xizmat muddatiga asosan belgilanadi:

- a) 10 yilgacha – har yili 30 sutka (kecha-kunduz) muddatida;
- b) 10 yildan to 15 yilgacha – har yili 35 sutka (kecha-kunduz);
- d) 15 yildan to 20 yilgacha – har yili 40 sutka (kecha-kunduz);
- e) 20 yil va undan ortiq bo'lsa – har yili 45 sutka (kecha-kunduz).

40 sutka va undan ortiq bo'lgan navbatdagi ta'til oddiy va boshliqlar tarkibining xohishiga qarab, ikki qismga bo'lib berilishi mumkin. Bunda O'zbekiston Respublikasi hududi bo'yicha ta'til joyiga borib qaytish uchun bepul harakatlanish, yo'lda harakatlanish muddati ta'tilning faqat bir qismiga beriladi.

Navbatdagi ta'tilda bo'lganda kasal bo'lgan xodim sog'ayganidan keyin ta'tilning qolgan qismida dam oladi. Bunda asos bo'lgan hujjatga asoslanib, boshliq uning ta'tilini uzaytiradi.

Navbatdagi ta'tilda bo'lgan xodimni, xodimning xohishiga qaramay, chaqirib olish taqiqlanadi. Xizmat yuzasidan juda ham zarur bo'lib qolgan holatlarda, navbatdagi ta'tildan chaqirib olish, faqat ichki ishlar vaziri, ichki ishlar boshqarmasi boshliqlariga ruxsat etiladi. Chaqirib olinganda navbatdagi ta'tilning foydalanilmagan qismi shu yil hisobidan beriladi yoki uning xohishiga qarab navbatdagi ta'tilga qo'shib beriladi.

Oddiy va kichik boshliqlar tarkibiga ichki ishlar organlaridan bo'shatilganda foydalanilmagan ta'til 30 kundan ortiq bo'limgan miqdorda pul hisobida beriladi.

Qisqa muddatli (to'lanmaydigan) ta'til iqtisodiy va boshqa masalalarni hal qilish uchun 10 sutka (kecha-kunduz)dan ortiq bo'limgan muddatga beriladi.

Bu ta'til navbatdagi ta'til hisobiga kiritilmaydi. Kasalligi to'g'risida beriladigan ta'til harbiy shifokorlik hay'atining xulosasiga

asosan beriladi. Kasalxonada davolanish va kasalligi tufayli ta'tilda bo'lish, hammasi bo'lib 4 oydan oshmasligi lozim.

Oddiy va boshliqlar tarkibi xizmat vazifalarini bajarishda kasallangan (jarohatlanish, kontuziya va h.k.) va uni davolash muddati chegaralanmagan.

Kasalligi tufayli beriladigan ta'til navbatdagi ta'til hisobiga kiritilmaydi. Zararli va shunga o'xhash holatlarda xizmat vazifalarini bajar-ganligi uchun 15 sutka (kecha-kunduz)gacha qo'shimcha ta'til beriladi. Bu ta'til alohida yoki asosiy ta'tilga jamlangan holda beriladi.

Chernobil AESda bo'lган talafotni bartaraf etganlar 14 kun to'lanadigan, boshqa ta'tillar bilan birgalikda yoki alohida beriladi. Agar xodim ushbu ta'tildan foydalanmagan bo'lsa, unga pul bilan to'lanadi.

### **2.3. HUQUQ VA JAVOBGARLIK**

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonunlar belgilangan huquq va erkinliklar ichki ishlар organlari xodimlariga ham taalluqli. Ichki ishlар organlari oddiy va boshliqlar tarkibi qasamyod qabul qiladi. Oddiy va boshliqlar tarkibi hamda ularning oila a'zolari turar joydan, telefon aloqasidan, jamoa transportidan, sog'liqni saqlash xizmatidan foydalanishda O'zbekiston Respublikasi qonunchilik harakatida bo'lган huquq va imtiyozlaridan foydalanishadi.

O'z vazifalarini namunali bajaradigan oddiy va boshliqlar tarkibi boshliqlari tomonidan rag'batlantirilishi mumkin.

Oddiy va boshliqlar tarkibidagi shaxslarga ish tashlash va shunga o'xhash ommaviy tashkilotchilikni tashkil qilish va unda qatnashish, har qanday turdagи ishbilarmonlik va qo'shimcha ish faoliyati bilan shug'ullanish taqiqilanadi. Ilmiy, o'qituvchilik va yaratuvchilik faoliyatları bundan mustasno. Ichki ishlар organlari oddiy va boshliqlar tarkibi xodimlari o'zining boshlig'i ijozati bilan O'zbekiston Respublikasi turdosh mutaxassisligi bo'yicha o'quv dargohlarida tahsil olishlari mumkin.

Xizmat vazifalarini o'tashda halok bo'lган oddiy va boshliqlar tarkibi xodimlarining oila a'zolariga tibbiy xizmat ko'rsatish huquqi saqlanib qolinadi.

Ichki ishlар organlari xizmatida o'tkazilgan vaqt umumiyl va uzluksiz mehnat faoliyati muddatiga hamda mutaxassisligi bo'yicha mehnat faoliyati muddati hisobga olinadi.

Ichki ishlar organlari uchun qonun bilan belgilangan ish vaqtining me'yori oddiy va boshliqlar tarkibidagi shaxslarga qo'llaniladi. O'rnatilgan ish vaqtin me'yorida ortiqcha kechasi, dam olish va bayram kunlarida ishlaganliklari uchun qo'shimcha pul to'lanadi yoki boshqa kunlarda dam olishga ruxsat etiladi yoki uning xohishiga qarab navbatdagi ta'tilga qo'shiladi.

Ichki ishlar organlari xodimlariga yuqori turgan boshliqlarning buyruqlarini bajarmaslik huquqi berilgan, agar boshliqning buyrug'i qonundan tashqari yoki jinoyat sodir etadigan bo'lsa.

Oddiy va boshliqlar tarkibi quyidagilarga javobgardirlar:

- a) intizomni buzganliklari uchun – O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlarining intizomiy ustaviga asosan;
- b) ma'muriy huquqbuzarlik sodir etganligi uchun – harakatdagi qonunlarga asosan intizomiy va ma'muriy javobgarlik;
- c) jinoyat sodir etganligi uchun – harakatdagi qonunlarga asosan jinoiy javobgarlik;
- d) keltirilgan moddiy zarar uchun – harakatdagi qonunlarga asosan moddiy zarar undirib olinadi.

Xizmat vazifa va burchlarini bajarishda oddiy va boshliqlar tarkibi xodimining sog'lig'iga keltirilgan zarar natijasida belgilanadigan nafaqadan yuqori bo'lgan qismi to'liq to'lanadi.

O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan ichki ishlar organlarining oddiy va boshliqlar tarkibi xodimlarini hamda ularning oila a'zolarining hayoti, sog'lig'i, shaxsiyati, nomusi va mol-mulki himoyalananadi.

Oddiy va boshliqlar tarkibi xodimlariga nisbatan berilgan intizomiy jazo, lavozimidan chetlashtirish va ishdan bo'shatish kabi choralar qo'llangandan so'ng ular 6 oy muddatda yuqori organlarga murojaat qilish huquqiga egadir. Qonunga xilof ravishda ichki ishlar organlaridan bo'shatilishi natijasida xodim xizmatda bo'limgan vaqt ichki ishlar organlari mehnat muddatiga, maxsus unvonda xizmat yili hisobiga olinadi va to'liq miqdorda ish haqi to'lanadi.

## 2.4. XIZMATDAN BO'SHATISH

Oddiy va kichik boshliqlar tarkibi xodimlari xizmatdan zaxiraga quyidagi hollarda bo'shatiladi:

- a) yoshiga asosan, xizmatni o'tash qo'llanmasida belgilangan yoshga kirgan xodimlar;

b) kasalligiga asosan, tinchlik davrida harbiy xizmatga layoqatsizligi to‘g‘risidagi harbiy shifokorlar hay’atining xulosasiga asoslangan xodimlar;

d) sog‘lig‘ining yetarli darajada emasligi – harbiy shifokorlar hay’atining xulosasiga asosan, xodimga yuklatilgan lavozim vazifalarini bajara olmasligi va ushbu sog‘lig‘iga mos keladigan boshqa lavozim bo‘lmaganligi sababli;

e) shartnoma muddati tugashiga asosan, agar xodim muddatni uzaytirishni xohlamasa;

f) xizmatga layoqatsizligiga asosan – attestatsiya tartibida;

g) intizomni buzganligiga asosan – ichki ishlar organlari intizomiy nizomi talablarini buzgan xodimlar;

h) shaxsiy iltimosiga asosan;

i) lavozim qisqartirilishiga asosan.

Oddiy va boshliqlar tarkibi xodimlarini xizmatdan bo‘shatish:

a) zaxiraga – agar ishdan bo‘shatiladigan xodim yosh (qarilik) chegarasiga yetmagan bo‘lsa;

b) to‘liq bo‘shatilish – agar ishdan bo‘shatiladigan xodim yosh (qarilik) chegarasiga yetgan yoki harbiy shifokorlar hay’ati tomonidan ichki ishlar organlari xizmatiga layoqatsiz deb topilgan bo‘lsa hamda harbiy hisobdan o‘chirilgan bo‘lsa.

Oddiy va boshliqlar tarkibi xodimi doimiy ravishda intizomni buzadigan, ichki ishlar organi xodimlari noloyiq ishlar bilan shug‘ullanadigan bo‘lsa, intizomni buzganligi uchun ichki ishlar organlari intizomiy ustaviga asoslanib, u ichki ishlar organlari xizmatidan bo‘shatiladi.

Jinoyat qilganligi uchun qamaladigan oddiy va boshliqlar tarkibi, sud qarori qonuniy kuchga kirgandan so‘ng xizmatdan bo‘shatiladi. O‘z xohishi bilan ichki ishlar organlari xizmatidan bo‘shab ketadigan xodimlar, o‘z boshliqlarini bu haqda ikki oy oldin ogohlantirishlari lozim. Oddiy va boshliqlar tarkibi tomonidan harbiy holatda ichki ishlar organlarida xizmatni o‘tash tartibi qonunlar bilan belgilangan.

## **2.5. SHAXSIY TARKIBNI KIYIM-BOSH BILAN TA’MINLASH**

Oddiy va kichik boshliqlar tarkibini kiyim-bosh, oyoq kiyim, ichki kiyim, jihozlanish narsalari, ajratish belgilari, ko‘krakda taqiladigan belgilari ichki ishlar organlari, O‘zbekiston Respublikasi Ich-

ki ishlar vazirligi o‘quv dargohlari va ichki qo‘s Shinlari xodimlarini kiyim-bosh bilan ta’minlash bo‘yicha vaqtinchalik qo‘llanma bilan belgilangan. Ushbu qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

Shaxsiy tarkibga kiyim-boshlar me’yorlarga asosan beriladi. Me’yorlar bir kishiga beriladigan kiyim-boshning soni va kiyish (foydalinish) muddatlarini belgilaydi. Har yili 25-iyuldan 25-avgust-gacha ichki ishlar organlari shaxsiy tarkibi ro‘yxatida belgilangan kiyim-boshlar beriladi.

Tarkibiy lavozimga tayinlangan, unvon olgan ichki ishlar organlari oddiy va kichik boshliqlar tarkibi xodimlari kiyim-boshlar bilan ta’minlanish huquqiga egadirlar.

Oddiy va boshliqlar tarkibi qaysi ichki ishlar organlari ro‘yxatida bo‘lsa, shu yerdan kiyim-bosh olishadi. Ularga kiyim-boshlar kelgusi xizmati uchun beriladi.

Shaxsiy tarkibga birlamchi beriladigan kiyim-boshlar, kiyim-bosh olish huquqiga ega bo‘lgandan keyin, ta’mnot me’yorlariga asosan beriladi. Keyingilari esa bir yilda bir marta, oldin olingan kiyim-boshning kiyish muddati o‘tgandan so‘ng beriladi.

Bayramlarda kiyiladigan kiyimlar quyidagilardan iborat:

- himoyalash bo‘yoqda, jundan tayyorlangan furajka;
- jundan tayyorlangan, himoyalash bo‘yoqda kastum: pogonlari himoyalash bo‘yoqda, jigar bo‘yoqli petlitsalari bilan;
- himoyalash bo‘yoqda, jundan tayyorlangan tushirilgan pochali shim. Oq ko‘ylak, pogonlari ham oq rangda;
- galstuk qora rangda.

Shaxsiy tarkibga pogonlar, petlitsalar, ajratish belgilari, emblemalar, kokardalar, tugmalar, kiyimning qo‘ldagi belgilari, kiyim-bosh bilan bir vaqtida beriladi.

Shaxsiy tarkibga beriladigan kiyim-boshlar, shaxsan kiyish (foydalinish) uchun beriladi, qamalganligi, intizomni buzganligi yoki xizmatga layoqatsizligi hamda sinov muddatidan o‘ta olmaganligi uchun ichki ishlar organlaridan bo‘shatilgan oddiy va boshliqlar tarkibi xodimlariga berilgan kiyim-boshlarni kiyish muddatining qolgan qismi uning ishdan bo‘shatilgan kundagi baho hisobida undirib olinadi. Bunda, kiyim-bosh bilan ta’minlash xizmatining hisobotma’lumoti asos qilib olinadi.

Agar kiyim-bosh xizmat vazifalarini bajarishda yo‘qolgan yoki kiyishga yaroqsiz holga keltirilgan, biron-bir kamchiligi aniqlangan

bo‘lsa, xizmat tekshiruvchi xulosasiga asosan aybnama tuziladi va kiyim-bosh almashtiriladi.

Shaxsan foydalanishga berilgan kiyim-boshlarning yo‘qolishiga xodimning o‘zi sababchi bo‘lsa, haqi undirib olinadi.

Ichki ishlar organlari tarkibidan bo‘shatilgan xodimlarga kiyim-bosh shahodati beriladi, ushbu hujjat, yangi xizmat joyi, o‘qish jarayonida hamda o‘qish joyida kiyim-bosh hisobiga qo‘yish uchun asos hisoblanadi.

## **2.6. ODDIY VA KICHIK BOSHLIQLAR TARKIBINI TA’MINLASH**

Oddiy va kichik boshliqlar tarkibiga kiyim-boshlar tayyor holda beriladi. Agar ularidan ayrimlarining tanasiga kiyim-bosh to‘g‘ri kelmasa, kiyim-bosh tikuvchilik ustaxonasida tayyorlab beriladi.

Oddiy va kichik boshliqqa o‘rta boshliqlar maxsus unvoni berilsa, unga o‘rta boshliqlar uchun ta’mnot me’yori bo‘yicha kiyim-bosh beriladi.

O‘qishga jo‘natiladigan oddiy va kichik boshliqlar Ichki ishlar vazirligi o‘quv dargohlariga berilgan kiyim-boshlari bilan boradilar. Oddiy va kichik boshliqlar tarkibidagi shaxslar ichki ishlar organlaridan yoshiga asosan yoki shartnoma tugaganligiga muvofiq bo‘shatilganda, berilmagan kiyim-boshlar qiymati pul bilan beriladi.

Kiyilmagan kiyim-bosh qaytarib berilsa, uning qiymati pul bilan beriladi. Narsa sifatida berilgan kiyim-boshlar ichki ishlar organlaridan bo‘shatilgandan so‘ng ichki ishlar organlari omborxonasiga topshirilishi shart.

### **Ichki xizmat oddiy va kichik boshliqlar tarkibini kiyim-boshlar bilan ta’minalash me’yori**

T/r	Kiyim-boshlarning nomlari	Bir kishiga beriladigan kiyim-boshlar soni	Kiyish muddati	Ushbu kiyim-boshni berishda ilovaning qaysi № qo‘llanildi
1	I. Kiyim-kechaklar. Bayramlarda, kundalik kiyiladigan himoya rangli junli furajka kokardasi bilan	1 dona	3 yil	

2	Telpak	1 dona	5 yil	
3	Pogon va petlitsasi bilan junli himoya rangli kastum	1 dona	2 yil	
4	Junli pochalari tushirilgan shim	1 dona	2 yil	
5	Pogoni bilan junli kurtka	1 dona	3 yil	
6	Pogon va petlitsasi bilan yozgi junli palto (kamzul)	1 dona	6 yil	
7	Tasmasi bilan plashch tanani yopgich (sotib olish uchun)	1 dona	10 yil	
8	Issiq yoqali issiq kurtka (pijak)	1 dona	5 yil	
9	II. Oyoq kiyimlar. Xrom yarim botinka	1 juft	1,5 yil	
10	Yarim etik (botinka)	1 juft	4 yil	
11	III. Ichki kiyimlar. Oq ko'ylak pogoni bilan	1 dona	4 yil	
12	Himoya rangli ko'ylak pogoni bilan	3 dona	2 yilda	
13	Qora rangli galstuk	1 dona	5 yil	
14	Himoya rangli galstuk	2 dona	2 yil	
15	Sharf (sotib olish uchun)	1 dona	5 yil	
16	Ichki kiyim	1 jamlama	2 yil	
17	Junli qo'lqop (sotib olish uchun)	1 juft	3 yil	
18	Paxta paypoq (sotib olish uchun)	2 juft	1 yil	
19	IV. Kiyim-bosh jihozlari. Bayram kamari (sotib olish uchun)	1 dona	15 yil	
20	Zobitlarning teridan tayyorlangan jihozlari	1 jamlama	10 yil	

**Izo holar:** Kurtka oluvchining xohishiga qarab beriladi, bunda kastumning kiyish muddati 1 yilga uzaytiriladi. Oluvchining xohishiga qarab, yengi uzun ko'yak o'rniда yengi kalta ko'yak beriladi.

## *Ichki ishlar organlari oddiy va boshliqlar tarkibini pul mablag'i bilan ta'minlash*

Oddiy va kichik boshliqlarni pul mablag'lari bilan ta'minlash quyidagilardan iborat:

- uzlusiz xizmat yillari bo'yicha lavozim maoshi pul mablag'i;
- qo'shimcha pul mablag'lar turlari (hududiy koeffitsiyentlar, xizmat holatining muhimligi bo'yicha qo'shimchalar va boshq.);
- maxsus unvon bo'yicha oylik pul mablag'i. Har oyning 20-kunidan 25-kunigacha bir marta oylik maosh beriladi.

Quyidagi hollarda belgilangan muddatdan oldin oylik maosh berilishiga yo'l qo'yildi:

- ta'tilga jo'nayotgan va xizmatni o'tkazish joyi o'zgarayotgan oddiy va boshliqlar tarkibi xodimlariga, jo'nab ketishidan 3 kundan ko'p vaqt qolmagan hollarda shu va kelgusi oy maoshi beriladi. Bunda dam olish va bayram oldi kunlari hisobga olinmaydi;

- xizmat safariga jo'nayotgan oddiy va boshliqlar tarkibi xodimlariga – agar oylik maosh beriladigan kungacha xizmat safaridan qaytib kelishning iloji bo'lmasa, dam olish va bayram oldi kunlarni hisoblamagan holda xizmat safariga jo'nash kuniga 1 kun qolganda joriy oy maoshi beriladi.

Boshqa hollarda oylik maosh yoki uning ma'lum qismi oldindan berilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Quyidagi hollarda ichki ishlar organi boshlig'inining ko'rsatmasiga asosan berilgan oylik maosh undirib olinishi mumkin:

- boshqa xizmat joyiga ko'chirilishi munosabati bilan oylik maosh berilgan bo'lsa, lekin boshqa joyga o'tkazilmagan bo'lsa;
- sababsiz xizmatda bo'limgan vaqt uchun;
- berilgan bildirgi asoslari pul shahodatidan ko'chirma asosi bilan to'g'ri kelmasa.

Sababsiz xizmatda bo'limgan vaqt uchun oddiy va boshliqlar tarkibiga pul mablag'lari to'lanmaydi. Oddiy va boshliqlar tarkibiga to'lanishi lozim bo'lgan pul mablag'lari o'z vaqtida to'lanmagan yoki to'liq berilmagan bo'lsa, bir oy ichida hamma to'lanmagan pul mablag'lari beriladi. Oddiy va boshliqlar tarkibi ushbu to'lanmagan mablag'larni olish huquqiga 3 yilgacha ega-dirlar.

Agar to'lanadigan pul mablag'lari noqonuniy va me'yordarda ko'rsatilgandan ko'p to'langan bo'lsa, davlatga keltirilgan zarar,

ko‘p to‘lanilishiga sababchi bo‘lgan lavozimdagи shaxsdan undirib olinadi.

### ***Oddiy va kichik boshliqlar tarkibi xodimlariga uzlucksiz yillik xizmati bo‘yicha pul mablag‘i***

Oddiy va kichik boshliqlar lavozimiga tayinlangan shaxslarga oylik maosh o‘rnatilgan miqdorda tayinlangan lavozimiga qarab va ichki ishlар organlari uzlucksiz xizmatiga qarab belgilanadi.

Oddiy va kichik boshliqlar tarkibi xodimlari tarkibiy lavozimi saqlangan holda vaqtinchalik qisqa muddatli o‘quv yig‘inlariga, boshlang‘ich kurs tayyorlarligiga va qayta tayyorlov kurslariga, o‘quv vaqtি hamda o‘qish joyiga borishi va qaytishi uchun asosiy tarkibiy lavozimi bo‘yicha pul mablag‘i oladilar.

Agar o‘qish davrida tarkibiy lavozim uchun beriladigan pul mablag‘i o‘zgargan taqdirda pul mablag‘i o‘zgargan kundan boshlab to‘lanadi. Agar vaqtincha lavozim vazifalarini bajarish uzlucksiz muddati: lavozim bo‘shlig‘ida – 30 kundan ortiq bo‘lsa, lavozim bo‘sh bo‘lmaganda – 60 kundan ortiq bo‘lsa, oddiy va kichik boshliqlar tarkibi xodimi tomonidan vaqtincha lavozim vazifalarini bajarish uchun tayinlangan bo‘lsa, unga shu lavozimga muvofiq, pul mablag‘i to‘lanadi. Vaqtinchalik lavozim vazifalarini bajarishning uzlucksizligini hisoblash, lavozimni bajara boshlagan kundan boshlanadi, buyruqda ko‘rsatilgan kundan emas, agar lavozim vazifalarini bajarish sanasi ko‘rsatilmagan bo‘lsa, unda buyruq tasdiqlangan kundan boshlab va lavozim vazifalarini bajarishdan ozod etilgan kundan boshlab hisoblanadi.

Oddiy va boshliqlar tarkibi xodimlari davolanishda yoki kasalligi tufayli ta‘tilga chiqishda lavozim oylik pul mablag‘i saqlanib qoladi, lekin shu muddat uzlucksiz 4 oydan, sil kasalligi bilan bo‘lsa, 10 oydan oshmasligi lozim.

Kasalxonada davolanish davrida xodimga oylik maoshning ovqat uchun beriladigan qismi berilmaydi. Oddiy va boshliqlar tarkibi xodimi xizmat vazifalarini bajarishda jarohatlanishi natijasida davolanayotgan bo‘lsa, davolanib lavozim vazifalarini bajarishga kirishguncha yoki ichki ishlар organlaridan bo‘shatilguncha to‘liq lavozim pul mablag‘lari to‘lanib boriladi. Lavozimidан bo‘shatilib, ichki ishlар organi ixtiyoriga o‘tkazilgan oddiy va boshliqlar tarkibi xodimlari yangi lavozimga tayinlanguncha, O‘zbekiston Respub-

likasi Ichki ishlar vazirligi o‘quv dargohlariga yuborilguncha yoki ichki ishlar organidan bo‘shatilguncha 1 oydan oshmagan muddatda oldingi lavozim oylik maoshi bilan ta’minlanadilar. Keyingi 2 oy davomida esa faqat unvon oylik pul mablag‘i bilan ta’minlanadilar.

Ichki ishlar organlari ixtiyorida bo‘lgan muddatda quyidagilar uchun pul mablag‘i to‘lovleri hisobga olinmaydi:

- navbatdagi ta’tilda bo‘lish vaqt;
- davolanishga yoki kasalligi tufayli ta’tilda bo‘lish vaqt;
- vaqtincha bo‘sh lavozim vazifalarini bajarish davri;
- oldingi xizmat joyidan kelguncha yo‘lda ketgan vaqt;
- oliy va o‘rta maxsus o‘quv dargohlarining sirtqi bo‘limlari o‘quv-imtihonlarida bo‘lish vaqt;
- jinoiy javobgarlikka tortilishi natijasida hibsda o‘tkazilgan vaqt, agar jinoiy ish tugatilgan yoki oqlangan bo‘lsa, hibsga olingan kundan to hibsdan bo‘shatilgan kungacha hisobga olinadi. Ichki ishlar organlaridan bo‘shatilgan va noto‘g‘ri bo‘shatilganligi sababli, yana xizmatga tiklangan oddiy xodimlarga, xizmatga kelmagan kunlari uchun pul mablag‘i beriladi, lekin 3 oydan ko‘p bo‘lmagan muddat uchun.

Navbatdagi va qisqa muddatli ta’tilda bo‘lgan vaqt uchun oddiy tarkib xodimi asosiy egallab turgan lavozimi bo‘yicha pul mablag‘i bilan ta’minlanadi. Agar ta’tilga chiqquncha koeffitsiyentlar, qo‘sishchalar olgan bo‘lsa, bu to‘lovlar ham beriladi.

Oddiy xodim ta’tilda bo‘lgan davrda, u egallab turgan lavozim pul mablag‘i o‘zgarishi natijasida lavozim pul mablag‘i, xizmat yillari qo‘sishchalar pul mablag‘i yoki unga navbatdagi unvon oshirilgan bo‘lsa, u ta’tildan qaytganidan so‘ng pul mablag‘lari keyingi oyda qayta hisoblanib, qo‘sib beriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Mudofaa vazirligi o‘quv dargohlariga o‘qishga kirish imtihonlarini topshirish uchun hamda o‘quv-tajriba tayyorgarlik va sinov-imtihon yig‘inlariga qatnashish va davlat imtihonlarini topshirish uchun, bundan tashqari, o‘quv dargohiga borish va qaytish uchun beriladigan qo‘sishchalar ta’tillar to‘liq hajmda lavozim pul mablag‘i bilan ta’minlanadi. O‘zbekiston Respublikasining boshqa o‘quv dargohlariga o‘qishga kirish hamda o‘quv yig‘inlariga qatnashish to‘lanmaydi, faqat pul mablag‘i bilan ta’minlanmaydigan qo‘sishchalar ta’til beriladi.

---

---

### **3-bob. RESPUBLIKA YONG‘INDAN SAQLASH ORGANLARI. O‘T O‘CHIRUVCHI QISMINING TARIXI VA AN’ANALARI. O‘T O‘CHIRUVCHI QISMIDAGI O‘T O‘CHIRUVCHI TEXNIKALARI**

#### **3.1. RESPUBLIKA YONG‘INDAN SAQLASH ORGANLARI**

O‘zbekiston Respublikasi yong‘indan saqlash xizmati organlari murakkab tizimlardan iborat bo‘lib, ularning ish jarayonlari bir-biri bilan bog‘langan holda tashkil etiladi.

Har bir tizim o‘ziga belgilangan hududda ish olib borib, shu hududning yong‘in xavfsizligining yuqori darajada saqlanishiga va o‘z vaqtida yong‘inlarning o‘chirilishiga javobgardir.

O‘zbekiston Respublikasi yong‘indan saqlash xizmati tarkibiga quyidagi organlar kiradi:


- O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Yong‘indan saqlash boshqarmasi;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Yong‘indan saqlash boshqarmasi;
- Toshkent shahar ichki ishlar boshqarmasi yong‘indan saqlash boshqarmasi;
- viloyat ichki ishlar boshqarmalari yong‘indan saqlash boshqarma (bo‘lim)lari;
- shahar, tuman ichki ishlar bo‘linmalari davlat yong‘indan saqlash nazorati bo‘lim (bo‘limma) va nozirliklari;
- shahar, tuman markazi o‘t o‘chiruvchi birikma (qism)lari.

Yuqorida ko‘rsatilgan organlarning hal qiladigan vazifalari umumiylit jihatdan bir xil bo‘lsa-da, ular bir-birlaridan qiladigan ishlarining hajmi, tarkibiy qismi, olib borayotgan ishlarining bajarilish uslubi, shakli va ichki tizimlari bilan farqlanadi.

Chizmada ko‘rsatilganidek, davlat tizimida yong‘inlar bilan kurash olib boruvchi asosiy organ – O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Yong‘indan saqlash boshqarmasidir. O‘zbekiston

Respublikasi Yong‘indan saqlash boshqarmasi mustaqil tizimga ega bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tarkibiga kiradi.

### **Ichki ishlar vazirligi yong‘indan saqlash xizmati tizimi**



Uning vazifalari, burch va tizimlari hamda yong‘indan saqlash boshqarmasi boshlig‘ining huquq va vazifalari maxsus ko‘rsatma bilan belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Yong‘indan saqlash boshqarmasi o‘zining kundalik faoliyatlarini O‘zbekiston Respublikasining harakatda bo‘lgan qonunlari va me’yoriy hujjatlari, Oliy Majlisining qaror va ko‘rsatmalarini, Ichki ishlar vazirligining buyruq va ko‘rsatmalariga asoslanib olib boradi.

Uning asosiy vazifalari:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlisi qarorlarini, boshqa me’yoriy hujjatlari yong‘indan saqlash organlarining

faoliyatlarida ilmiy tasdiqlangan holda qo'llashni yo'lga qo'yishni ta'minlash;

- aholi turar joylarini, xalq xo'jaligi korxonalarini hamda davlat, jamoa, kooperativ va fuqarolarning shaxsiy mol-mulklarini yong'indan saqlashni belgilangan tartibda tashkil qilish;
- ilmiy-texnik va tezkor xizmat ma'lumotlarini rejalashtirish, taqqoslash, nazorat xodimlari bilan ishlash, tahliliy ma'lumotlarni tayyorlash va tarqatish ishlarini tashkillashtirish;
- yong'indan saqlash xizmatining fuqarolar mudofaasini tashkilashtirish va uning faoliyatini boshqarish;
- yong'indan saqlash tadbirlarini ishlab chiqish va qo'llanishini tashkillashtirish;
- tashkilotlar, korxonalar va muassasalar tomonidan ishlab chiqilgan loyihalarga yong'indan saqlash qoida va ko'rsatmalariga xulosalar tuzish;
- aholi o'rtasida yong'inning oldini olish va bartaraf etish, ko'ngilli o't o'chiruvchi yig'inlarining jangovarligini oshirish bo'yicha ishlarni tashkillashtirish;
- o't o'chiruvchi texnikalarini yaratish va ularni yong'indan saqlash xizmati bo'linmalariga birkitishni tashkillashtirish;
- yong'indan saqlash xizmatining oliy, o'rta maxsus yurtlari o'quv markazlarining faoliyatlarini boshqarish;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida yong'indan saqlash sohasining o'qitilishiga yaqindan yordam ko'rsatish;
- respublikada konferensiya, yig'ilishlar va seminarlar o'tka-zilishini tashkillashtirish;
- yong'indan saqlash masalalari bo'yicha vazirliklar, respublika Vazirlar Mahkamasi va tashkilotlarni ma'lumotlar bilan ta'minlash;
- Ichki ishlar vazirligining boshqa organ xizmatlari, garnizon xizmatlari bilan aloqa o'rnatilishini ta'minlash;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi Yong'indan saqlash boshqarmasi, Toshkent shahar yong'indan saqlash boshqarmasi, viloyatlar yong'indan saqlash boshqarmalari (bo'limlari)ning ahamiyati respublika yong'indan saqlash xizmatida kattadir.

Ularning asosiy vazifalari:

- shahar va tuman ichki ishlariiga qarashli davlat yong'indan saqlash bo'limlari, bo'linmalari, nozirliklari hamda aholi yashash joylarida va xalq xo'jaligi korxonalarida yong'inlarni bartaraf etuv-

chi (o‘chiruvchi), o‘t o‘chiruvchi birikma (qism)lari ish faoliyatlarini bo‘yicha tezkor uslubda boshqarish;

- viloyatda (shaharda) davlat yong‘indan saqlash bo‘yicha faoliyat ko‘rsatish;

- korxona, tashkilot, idora va muassasalarning o‘t o‘chiruvchi bo‘linmalarining faoliyati yo‘nalishi va nazoratini tashkillashtirish;

- aholi turar joylarini, xalq xo‘jaligi korxonalarini hamda davlat, jamoat, kooperativ mulklari, turar joylar va fuqarolarning shaxsiy mol-mulklarini yong‘indan saqlashni belgilangan tartibda tashkil qilish. Bunga Ichki ishlar vazirligi yong‘indan saqlash xizmati kuch va vositalarini, tashkilot va korxonalar yong‘indan saqlash kuch va vositalarini hamda shahar va korxonalar talafotlarini bartaraf etish xizmati kuch va vositalarini o‘rnatilgan tartibda qo‘llash;

- viloyat yong‘indan saqlash xizmatining fuqarolar mudofaasini tashkillashtirish va uning faoliyatini boshqarish;

- viloyatda yong‘indan saqlash tadbirlarini ishlab chiqish va qo‘llash;

- viloyat hududida qurilishi lozim bo‘lgan qurilish loyihalari, qurilishlarning nazorat ostiga olinishini ta’minlash;

- viloyat aholisi o‘rtasida yong‘inning oldini olish ishlarini tashkillashtirish;

- viloyatda sodir bo‘lgan yong‘inlarni tahlil etish va kerakli chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- shahar, tuman, shahar turidagi qo‘rg‘onlar va tuman markazlari ichki ishlar bo‘limlariga qarashli davlat yong‘indan saqlash bo‘linma, nozirlilik va nozirlari yong‘indan saqlash organlari vazifalarining bajarilishida asosiy o‘rin tutadi.

Ushbu organlarning faoliyatları maxsus Nizomlar, ustavlar va qarorlar bilan belgilangan. Ular o‘zlarining amaliy faoliyatlarını O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, Oliy Majlisiga va hokimiyat ko‘rsatmalari, qarorlari va Nizomlari, «O‘zbekiston Respublikasi Davlat yong‘indan saqlash Nizomi», O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi buyruqlari, ko‘rsatmalari va boshqa me’yoriy hujjatlar asosida olib boradilar.

Yuqorida ko‘rsatilgan me’yoriy hujjatlarga asosan ushbu organ va bo‘linmalarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- shaharlar, aholi yashash joylari va xalq xo‘jaligi korxonalarida yong‘inlarning oldini olish va yong‘in xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha olib borilayotgan ishlarni mukammallashtirish;

- yong‘inlar bilan kurashish faoliyatlarini yuqori saviyaga ko‘tarish;
- yong‘in xavfsizligi talablari va yong‘inlarning oldini olish chora-tadbirlarining bajarilishini nazorat qilish;
- yong‘indan saqlash xizmatining o‘t o‘chiruvchi qismi va birik-malari, shu bilan birgalikda, yong‘in o‘chiruvchilarning jangovar harakatlari va o‘t o‘chiruvchi bo‘yicha kompleks tashkiliy chora-tadbirlarni o‘tkazadi.

Yuqorida ko‘rsatilgan vazifalarni yechish uchun, yong‘indan saqlash xizmati organ va bo‘linmalari quyidagi ishlarni bajaradi:

- loyihalash idoralari va qurilish tashkilotlari tomonidan yong‘in xavfsizligi bo‘yicha o‘rnatilgan me’yor va qoidalarga rioya qilinishini, o‘t o‘chiruvchi bo‘linmalarining jangovar holatini hamda yong‘inlarning oldini olish ishlari holatini nazorat qiladi;
- yong‘in xavfsizligi qoidalarini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi hamda yong‘inlardan himoyalashning kuchaytirilishi bo‘yicha tavsiyalar beradi;
- shahar va korxonalarda yong‘indan saqlash xizmatini tashkil etish masalalarini yechadi;
- korxona, bino va inshootlardan foydalanishga qabul qilish davlat hay’atlarida qatnashadi;
- yong‘in xavfsizligi bo‘yicha loyihalar namunalariga, me’yor va qoidalarga xulosalar beradi;
  - o‘t o‘chiruvchi bo‘linmalari va ko‘ngilli o‘t o‘chiruvchi jamoalarini yong‘inlarni o‘chirishga jalb etish va ular o‘rtasida aloqani tashkillashtirish tartibini aniqlaydi;
  - ko‘ngilli o‘t o‘chiruvchi jamoalarning taraqqiyotiga va kuchaytirishiga yaqindan yordam ko‘rsatadi;
  - korxona, tashkilot va muassasalarga ishchi-xizmatchilarni yong‘in xavfsizligiga o‘rgatishni tashkil etish bo‘yicha yaqindan yordam ko‘rsatadi;
  - yong‘inlar hisobotini olib boradi;
  - yong‘inlar va yong‘in xavfsizligi qoidalarini buzganliklari bo‘yicha aniqlash ishlarni olib boradi.

Yong‘indan saqlash organlarining huquqlari:

- korxona, muassasa, tashkilot va boshqa inshootlarda yong‘intexnik tekshiruvlarini o‘tkazadi va bajarilishi lozim bo‘lgan ishlarni belgilab dalolatnoma beradi;

- kerakli bo‘lgan ma’lumotlarni tashkilot rahbariyatidan talab etadi;
- yong‘in xavfsizligi bo‘yicha masalalarini hal qilish uchun muassasalar mutaxassislarini jalg etadi;
- yong‘in chiqish xavfi hosil qiladigan yong‘in xavfsizligi qoidalari buzilganligi uchun pulli jarima soladi va muassasa, korxona, alohida sexlar, maskanlar (uchastka), agregatlarning ishini vaqtincha to‘xtatadi.

Yong‘indan saqlash organlaridan yana biri, o‘t o‘chiruvchi birikma va qismlaridir.

Ularning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- qo‘riqlayotgan maskan va korxonalar yong‘inlarning oldini olish ishlarini tashkillashtirish;
- yong‘inlarni muvaffaqiyatli o‘chirish holatlarini yaratish;
- yong‘indan saqlash xizmati shaxsiy tarkibini va ishchi-xizmatchilarni yong‘inlarni o‘chirishga tayyorlash;
- yong‘inlarni o‘chirish va talafotlarni bartaraf etish.

### **3.2. O‘T O‘CHIRUVCHI QISMINING TARIXI VA AN’ANALARI**

Ushbu savolga javob berish har bir qismda xos farq bo‘lganligi sababli, dars o‘tkazish uchun quyidagicha uslubiy ko‘rsatmalar berilmoqda.

- O‘t o‘chiruvchi ishlashi lozim bo‘lgan o‘t o‘chiruvchi qismining tarixi. O‘t o‘chiruvchi qismi shaxsiy tarkibi tomonidan muvaffaqiyatli o‘chirilgan yong‘inlar, bartaraf etilgan talafotlar.
- Ushbu vazifalarni bajarishda sidqidildan mehnat qilganlarni mukofotlash va rag‘batlantirish. Qismda yong‘inga qarshi xizmatning tashkil qilinishi, uning fuqaro mudofaasidagi o‘rni. Ushbu xizmatning vazifalari va tashkiliy tuzilishi. Yong‘inda vaqt omili, o‘t o‘chiruvchilarining yong‘in, falokat, tabiiy ofat sodir bo‘lgan joyga yetib kelish vaqtini qisqartirishdagi o‘rni.

### **3.3. O‘T O‘CHIRUVCHI QISMIDAGI O‘T O‘CHIRUVCHI TEXNIKALARI**

Yong‘inlarni o‘chirishda qo‘llashga mo‘ljallangan, motorlashtirilgan maxsus-uskunali qurilma o‘t o‘chiruvchi mashinalari deb ataladi.

Avtomobillar, samolyotlar, poyezdlar, kemalar va motopompalar o‘t o‘chiruvchi mashinalar hisoblanadi.

O‘t o‘chiruvchi avtomobillar quyidagi ishlarni bajarishga mo‘l-jallangan:

- jangovar tarkib a’zolarining o‘t o‘chiruvchi mahsulotlarni va o‘t o‘chiruvchi vosita, anjom, qurilma va qurollarini yong‘in bo‘layotgan joyga va boshqa talab etilgan joylarga yetkazib borish;
- yong‘in o‘chog‘iga kerakli miqdorda o‘t o‘chiruvchi mahsulotlarni uzatish;
- yong‘inlarni o‘chirishdan oldin va o‘chirishda qator maxsus ishlarni bajarish;
- avtosisterna yoki yengli haydagichli o‘t o‘chiruvchi avtomobil bilan qurollangan bo‘linma yong‘indan saqlash xizmatining birlam-chi taktik bo‘linmasi hisoblanadi. Ushbu avtomobillar o‘t o‘chiruvchi qismining asosiy texnik qurollanishini ta’minlaydi.

Hozirgi kunda, butun respublikamiz o‘t o‘chiruvchi qismlari o‘t o‘chiruvchi avtomobillar (1-rasm) bilan qurollantirilgan.

Suv va ko‘pik hosil qilish mahsulotlarini saqlash uchun avtosisternalarning maxsus idishlari bor. Yong‘inlarni o‘chirishda suvni idishdan tashqari hovuzlardan, quvurli suv manbalaridan hamda boshqa o‘t o‘chiruvchi idishlardan olib foydalanish mumkin.

Yengli-haydagichli o‘t o‘chiruvchi avtomobil esa ko‘pik hosil qilish mahsuloti uchungina idishi bo‘lib, suvni faqat hovuzlardan, idishlardan, quvurli va boshqa suv manbalaridan oladi.

Avtosisternalar (2-rasm) va yengli haydagichli o‘t o‘chiruvchi avtomobillar suv so‘rish tizimi, suv haydagichi, suv va ko‘pik uza-tish qurilmalari suv haydagichini ishga tushirish uchun qo‘srimcha



*I-rasm. O‘t o‘chiruvchi avtomobillar.*



2-rasm. Avtosisterna.

qurilmasi (transmissiya), dvigateli qo'shimcha sovitish tizimi va boshqarish qurilmalari bilan ta'minlangan.

Avtosisternalarning umumiy joylashish tizimi o't o'chiruvchi suv haydagichining joylashishi bilan belgilanadi. Hozirgi zamon o't o'chiruvchi avtomobilarning suv haydagichlari avtomobilning orqa tomonidagi maxsus suv haydagich bo'limida yoki jangovar tarkib kabinasida o'rnatiladi.

Avtomobilning yon tomonlari maxsus o'rnlarda, kabinada, ust qismining maxsus joylarida o't o'chiruvchi qurol, anjom va vositalar joylashtirilgan.

O't o'chiruvchi avtomobillar qizil rangda bo'yaladi. Ajratuvchi belgilari esa oq rangda tushiriladi. Avtomobilning orqa chap tomonida uning turi bosh harflarda (AS, YHA va h.k.), haydovchi kabinasining eshiklarida avtomobil berkitilgan qism raqami va shaharning nomi hamda avtomobilning orqa o'ng tomonida berkitilgan qism raqami yoziladi.

Avtosisternalarning texnik ko'rsatkichlari uning quyidagi ko'rsatkichlar jamlamalaridan iborat:

- avtomobil rusumining texnik qobiliyati;
- unda o'rnatilgan o't o'chiruvchi qurilmalarning texnik qobiliyati;
- avtomobilda tashiladigan o't o'chiruvchi mahsulotlarning zaxiradagi miqdori va jangovar tarkibning soni.

O't o'chiruvchi avtomobilning texnik xususiyatlaridan unumli foydalanish faqatgina quyidagi hollarda mumkin:

- avtomobilarni soz holatda, o‘t o‘chiruvchi qismi haroratini me’yoriy holatda saqlash, ayniqsa, qish mavsumida avtomobil saroylarida havoning harorati 5°C dan past bo‘lmasligi lozim. Bunday holat natijasida avtomobil dvigatelini qo‘shish osonlashadi va yong‘inga borishda tezda dvigatel qizib me’yoriy holatga keladi. Natijada dvigatel harakat tezligining maksimal darajasiga kela oladi.

Yong‘inlarni o‘chirishda foydalanish uchun avtosisternalarda zaxira suvi va ko‘pik hosil qilish moddasi bor.

Yong‘indan saqlash xizmatida quyidagi avtosisternalar foydala-nilmoqda:

- yengil avtosisternalar suv idishining sig‘imi – 2000 l, ko‘pik hosil qilish moddasi idishining sig‘imi 100 l, masalan: АЦ-30 (53а), 106 в, АЦ-30 (66), 146 va boshqalar;
- o‘rta og‘irlidagi avtosisternalar, suv idishining sig‘imi – 2000–4000 l, ko‘pik hosil qilish moddasi idishining sig‘imi 150–180 l, masalan: АЦ-40(130), 63в, АЦ-40(131), 137 va boshqalar;
- og‘ir avtosisternalar, suv idishining sig‘imi 4000–5000 l, ko‘pik hosil qilish moddasi idishining sig‘imi 360 l, masalan: АЦ-40(375), Ц-1а, АЦ-40/3 (133гя) 181-01 va h.k.

Avtosisternalar suv idishi sig‘imi va suv haydagichining suv uza-tish qobiliyati ko‘plab yong‘inlarni o‘chirishga yetarli. Murakkab va katta yong‘inlarda esa avtosisternalar suv manbalariga o‘rnatalidi yoki YHA yoxud o‘t o‘chiruvchi haydagich stansiyalar yordamida suv uzatadi.

O‘t o‘chiruvchi avtomobilarning taktik-texnik ko‘rsatkichlari darajasidan unumli foydalanish quyidagi hollarda yuzaga keladi:

- o‘t o‘chiruvchi avtomobil texnik jihatdan takomillashgan holatda;
- to‘liq o‘t o‘chiruvchi quroq, anjom, asbob va uskunalar bo‘lganda;
- jangovar tarkibning bilim saviyasining yuqoriligi;
- boshliqlar tarkibining mutaxassis sifatida tayyorlanganlik dara-jasining yuqoriligi;
- o‘t o‘chiruvchi avtomobillar saqlash holatlarining yaxshiligi;
- o‘t o‘chiruvchi avtomobilarga sifatlari xizmat ko‘rsatilishi.

Har bir o‘t o‘chiruvchi o‘z avtomobilida joylashtirilgan o‘t o‘chiruvchi quroq, anjom, asbob va uskunalar o‘rnataligan joylarini

va ulardan texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilgan holda foydalanishni, bundan tashqari, ushbu avtomobilning taktik-texnik qobiliyatlarini, avtomobilda o‘z o‘rnini, avtomobilda harakatlanish qoidalarini mukammal bilishlari shart.

### **3.4. ICHKI ISHLAR ORGANLARIDAN BO‘SHATILGANDA PUL MABLAG‘I BILAN TA’MINLASH**

Ichki ishlar organlaridan bo‘shatilayotgan oddiy va boshliqlar tarkibi xodimlarga pul mablag‘lar to‘lovlari quyidagicha:

a) ichki ishlar organlaridan bo‘shatilganligi haqidagi buyruq chiqqan kundan boshlab, 20 kungacha lavozimda bo‘lgan xodim ish hujjatlarini topshirishi lozim, bunga ish hujjatlarini topshirish kuni ham kiradi;

b) ichki ishlar organlari xizmatidan bo‘shatilayotgan xodimga, ichki ishlar organining buyrug‘i chiqqan kundan boshlab, ish hujjatlarini topshirish kuni bilan birgalikda 5 kun beriladi.

Ichki ishlar organlari buyrug‘iga asosan ishdan bo‘shatilgan xodim davolanayotgan bo‘lsa, pul mablag‘lari, davolanib ish joyiga qaytgan kungacha, lekin buyruq chiqqan kundan boshlab 2 oydan ko‘p bo‘lмаган muddatda, navbatdagagi ta’tilda bo‘lgan xodimlarga esa navbatdagagi ta’til muddati tugagan kungacha beriladi.

Bunda ish hujjatlarini topshirmay davolanishga yoki ta’tilga ketib qolgan xodimlarga ish hujjatlarini topshirganliklari uchun 20 kundan ko‘p bo‘lмаган kunlar uchun pul mablag‘i beriladi.

Ichki ishlar organlaridan bo‘shatilayotgan oddiy xodim, ishdan bo‘shatilayotgan yil hisobidan navbatdagagi ta’tilga chiqmaganligi uchun 30 kundan ko‘p bo‘lмаган kunlar hisobidan, lavozim pul mablag‘i beriladi. Har bir to‘liq xizmat oyi uchun 2,5 kun hisobidan lavozim pul mablag‘i beriladi. Bunda 15 va undan yuqori xizmat kunlari to‘liq oy hisoblanadi, 15 kundan kam bo‘lgan kunlar esa hisobga olinmaydi.

Foydalanimagan ta’til uchun pul mablag‘i hisoblanayotganda, quyidagilar hisobga olinmaydi:

- xizmat yillari uchun foiz qo‘sishchalari;
- hudud koeffitsiyentlari va suvsizlik, yuqori tog‘ va cho‘l hududlari koeffitsiyentlari;
- boshqa qo‘sishchalari.

### **3.5. ODDIY VA BOSHLIQLAR TARKIBI XODIMI VAFOT ETGANDA TO'LANADIGAN PUL MABLAG'LARI**

Ichki ishlar organlari oddiy va boshliqlar tarkibi xodimi vafot etganda, harakatdagi qonunlarga asoslanib, uning merosxo'rlariga shu oy uchun to'liq lavozim pul mablag'i hamda boshqa to'lovlar va foydalanimagan navbatdagi ta'til uchun to'lovi beriladi.

Xodim vafot etgan kundan merosxo'rlar tomonidan to'lovlarining berilishini talab etilgan kungacha 3 yil muddat o'tmagan bo'lsa, yuqorida ko'rsatilgan to'lovlar beriladi.

Bundan tashqari, 1996-yil 13-mayda tasdiqlangan ichki ishlar vazirining 010-buyrug'iga asosan ichki ishlar organlari xodimlari xizmat vazifalarini bajarishda vafot etgan bo'lsalar, ularga bir marta 50 oylik lavozim pul mablag'i beriladi.

*Xizmat yillari uchun foiz qo'shimchalarini to'lash.*

Ichki ishlar organlari xodimlariga lavozim va maxsus unvonlari bo'yicha, foiz hisobida xizmat yillari uchun har oy to'lovlar quyidagicha beriladi:

- xizmat yillari 2 yildan 5 yilgacha bo'lsa – 5 %;
- xizmat yillari 5 yildan 10 yilgacha bo'lsa – 10 %;
- xizmat yillari 10 yildan 15 yilgacha bo'lsa – 15 %;
- xizmat yillari 15 yildan 20 yilgacha bo'lsa – 20 %;
- xizmat yillari 20 yildan 25 yilgacha bo'lsa – 25 %;
- xizmat yillari 25 yildan 30 yilgacha bo'lsa – 30 %.

Bundan tashqari, yong'indan saqlash xizmati oddiy va boshliqlar tarkibi xodimlariga yong'irlarni o'chirishda, talafotlarni bartaraf etishda va mashg'ulotlarda kislorodli himoyalash gaz niqoblari bilan ishlaganliklari uchun qo'shimcha to'lovlar beriladi.

*Vafot etganligi uchun yordam pul mablag'i.*

Oddiy va boshliqlar tarkibi xodimining oilasida vafot etganlar uchun ham bir martalik ikki eng kam oylik ish haqi yordam sifatida beriladi.

Quyidagi oila a'zolari vafot etganda uni ko'mish va ma'rakalarini o'tkazish uchun yordam puli beriladi:

- oddiy va boshliqlar tarkibi xodimi qaramog'ida bo'lган oila a'zosи vafot etganda;

- oddiy va boshliqlar tarkibi xodimi vafot etganda, uning qaramog'ida bo'lган oilaga.

Oddiy va boshliqlar tarkibi xodimining quyidagi oila a'zolari vafot etganda, uni ko'mish va ma'rakalarini o'tkazish uchun yordam puli beriladi:

- xotini (eri);
- 18 yoshga to'limgan yoki ishga layoqatli (yoshidan qat'i nazar) bolalari;
- 18 yoshga to'limgan yoki ishga layoqatli (yoshidan qat'i nazar) aka-uka va opa-singillari;
- ota-onalari;
- bobo va buvilari.

Yashash uchun pul mablag'i manbalariga ega bo'lgan (nafaqaxo'r, ish haqi va stipendiya oluvchi) oila a'zolari oddiy va boshliqlar tarkibi xodimi qaramog'ida deb hisoblanmaydi.

Ko'mish va ma'rakalarni o'tkazish uchun nikoh uyidan haqiqatan vafot etganligi to'g'risida ma'lumotnomma olinadi, unda «Ko'mish va ma'rakalarini o'tkazish uchun» yozuvi bo'lishi lozim hamda vafot etgan oila a'zosi haqiqatan oddiy va boshliqlar tarkibi xodimi qaramog'ida ekanligi to'g'risida ma'lumotnomma olinadi.

Xodim yoki uning oila a'zolari vafot etgan kundan to 6 oygacha ko'mish va ma'rakalarni o'tkazish uchun yordam pul mablag'i beriladi.

### **3.6. YONG'INDAN SAQLASH ORGANLARI NIZOM VA QO'LLANMALARINING ASOSIY QOIDALARI**

#### *O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi yong'indan saqlash xizmati NIZOMI*

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi yong'indan saqlash xizmati shaxsiy tarkibining xizmat o'tashini tashkil qilishni va tartibini takomillashtirish hamda umumiylajburiyatlarini aniqlash maqsadida, 1994-yil 12-iyulda O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 181-buyrug'i bilan ushbu Nizom tasdiqlandi. Mazzkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi yong'indan saqlash xizmati shaxsiy tarkibining umumiylajburiyatlarini hamda ularning tashkil qilinishi va xizmatni o'tash tartibini belgilab beradi.

Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Yong'indan saqlash boshqarma (bo'limlari) va bo'linmalari ishini tashkil qilish xususidagi qoidalar, ko'rsatmalar, nizom va qo'llanmalar, mazzkur nizom asosida ishlab chiqilishi lozimligini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi IIV Yong‘indan saqlash xizmati – O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tarmog‘i birligining asosiy qismidir.

O‘zbekiston Respublikasi yong‘indan saqlash boshqarmasi (bo‘lim, bo‘linma), Qoraqalpog‘iston Respublikasi IIV YSB, Toshkent shahar IIB, viloyatlar va shaharlar hokimligi IIB YSB, shahar hokimligi IIB YSB, shahar va tuman, viloyatdagi IIBning davlat yong‘indan saqlash nazorati, harbiylashtirilgan va maxsuslashtirilgan yong‘indan saqlash bo‘linmalari, oliy va o‘rta maxsus yong‘indan saqlash texnik bilim yurtlari va ilmiy-tekshirish idoralarini o‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston Respublikasi IIV yong‘indan saqlash bo‘limlari o‘z faoliyatlarida amaldagi qonunlar, IIVning buyruqlari, yo‘riqnomalari va Nizom ko‘rsatmalariga amal qiladilar.

O‘zbekiston Respublikasi IIV yong‘indan saqlash xizmatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- yong‘in chiqishini va uning tarqalib ketishi sabablarini, yong‘in chiqishning oldini olish choralarini ko‘rish, yong‘inni muvaffaqiyatli ravishda o‘chirish imkoniyatlarini aniqlash hamda ularni tegishli tashkilotlar orqali amalga oshirish;

- yong‘indan saqlash shaxsiy tizimini yong‘in chiqishining oldini olish hamda yong‘inni o‘chirish ishlariga tayyorlash;

- yong‘in sodir bo‘lganda va falokatlarda, tabiiy ofat, halokatlarda yong‘indan saqlash qismlari va bo‘linmalarining jangovar harakatlarini tashkil qilish va o‘tkazish.

O‘zbekiston Respublikasi IIV yong‘indan saqlash xizmatiga yulangan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish quyidagilardan iborat:

- shaxsiy tarkibni Vatanga sadoqatli bo‘lish, xizmat burchiga vijdonan yondashish ruhida tarbiyalash;

- shaxsiy tarkibning umumiyligi va kasbiy bilimini muttasil oshirib borish hamda xizmatni tashkil qilish, malakasini doimo oshirish;

- yong‘indan saqlash va uning oldini olish ishlarida yuqori malakali, mustahkam fikr va talabchanlik;

- qorovul va garnizon xizmati holatining doimiy nazorat qilinishini tashkil qilish;

- o‘t o‘chiruvchi usul va xillarini tashkil qilishni takomillashtirish, birinchi navbatda, qutqaruv ishlarini o‘tkazish, o‘t o‘chiruvchi va maxsus texnika imkoniyatlaridan mukammal foydalanish;

- o‘t o‘chiruvchi va maxsus texnika hamda aloqa vositalarining jangovar tayyorgarligini doimiy saqlash;
- yong‘indan saqlash bo‘limlari va maxsus xizmat kuch va vositalarining o‘zaro aniq harakatlarini ta’minalash;
- ilm-fan, texnika yutuqlari va ilg‘or ish tajribalaridan keng foydalanish;
- shaxsiy tarkibning yutuqlari va ish sharoitlarining doimiy e’tiborda bo‘lishi, ular jamoasida sog‘lom axloqiy sharoit yaratish, intizom va qonunchilikni mustahkamlash.

O‘zbekiston Respublikasi IIV yong‘indan saqlash xizmatining shaxsiy tarkibi halol xizmat qilishi, o‘z ishiga sadoqatli bo‘lishi, o‘z umumiyligi hamda kasbiy bilimini muttasil oshira borishi, yong‘inni o‘chirish bilan bog‘liq xizmatni tashkil qilish malakasini doimo oshirib borishi, qo‘riqlanayotgan shahar (tuman, maskan)ning amaliy, taktik xususiyatlarini, yong‘inni o‘chirish texnikasining taktik-texnikaviy imkoniyatlarini bilishi, xalq mulkini ehtiyyot qilib saqlashi; intizom va qonunga rioya qilishi; jamoat tartibini saqlashga faol ko‘maklashishi; davlat va xizmat sirlarini saqlashi; xizmat burchiga vijdanan munosabatda bo‘lishi hamda boshliqlarning xizmat bilan bog‘liq buyruq va topshiriqlarini so‘zsiz bajarishlari lozim.

O‘zbekiston Respublikasi IIV yong‘indan saqlash xizmati xodimi xizmat paytida, shuningdek, xizmatdan tashqari paytda ham quyidagilarni bajarishga majbur:

- yong‘in chiqish xavfini sezib qolsa, o‘sha joyning o‘zida uni bartaraf qilish choralarini ko‘rishi va bu haqda o‘t o‘chiruvchi qismini xabardor qilishi;
- yong‘in chiqqani sezilgan taqdirda darhol yong‘in o‘chiruvchilarni chaqirishi, ular yetib kelguniga qadar odamlarni qutqarishni va shu yerdagi kuch va vositalar bilan yong‘inni o‘chirishni tashkil qilishi zarur;
- yong‘inni o‘chirish bilan bog‘liq texnik bilimlarini targ‘ibot qilishi, bo‘linma obro‘sini qadrlashi, o‘t o‘chiruvchi kasbinining hurmat-e’tibori oshishini ta’minalashi lozim.

Yong‘indan saqlash xizmati qismlaridagi ichki tartib, boshliqlarga bo‘ysunishlik hamda o‘zaro munosabat mazkur Nizomga asosan hamda O‘zbekiston Respublikasi IIVning buyruq va ko‘rsatmalariga muvofiq amalga oshiriladi.

### **3.7. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI «YONG‘INDAN SAQLASH XIZMATINING JANGOVAR USTAVI»**

Yong‘indan saqlash bo‘linmalarini va garnizonlarining yong‘inlar va falokatlarda jangovar harakatlarini tashkil qilish, olib borish bo‘yicha asosiy qoidalarni aniqlash maqsadida 1993-yil 2-fevralda O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 53-buyrug‘i bilan ushbu hujjat tasdiqlandi.

Yong‘indan saqlash xizmatining jangovar ustavi yong‘in sodir bo‘lganda o‘t o‘chiruvchi qo‘sishlari va bo‘linmalarining jangovar harakatlarini tashkil qilish va o‘tkazishning asosiy yo‘llarini belgilaydi.

Suv toshqini, yer qimirlashi, falokat oqibatlari va boshqa favqulodda holat sharoitlarida o‘t o‘chiruvchi bo‘linmalarining jangovarlik harakatlari hamda ularning boshqa xizmat turlari va tashkilotlari bilan o‘zaro hamkorlik harakatlari maxsus qo‘llanmalar, yo‘riqnomalar, ko‘rsatmalar asosida belgilanadi.

*Bo‘linmalarining yong‘indagi jangovar harakatlari  
asoslarining umumiy holati*

O‘zbekiston Respublikasi yong‘indan saqlash bo‘limi aholi turar joylarini, xalq xo‘jaligi korxonalarini hamda davlat, jamoat, kooperativ mulklari, turar joylar va fuqarolarning shaxsiy mol-mulkclarini yong‘indan saqlashni belgilangan tartibda tashkil qilish vazifalarini bajaradi.

O‘t o‘chiruvchi – yong‘indan saqlash ishlarining asosiy tarkibiy qismi bo‘lib, o‘t o‘chiruvchi bo‘linmalarining yong‘inni bartaraf qilishga yo‘naltirilgan asosiy vazifasini tashkil qiladi.

Yong‘indan odamlarni qutqarish, davlat, jamoat, kooperativ va boshqa turdagи mol-mulkni yong‘indan qutqarish, har bir yong‘indan saqlash xodimining muqaddas burchidir.

Yong‘indan saqlash xodimlari ma’naviy va jismoniy kuch-g‘ayratlari bilan jangovarlik harakatini olib borib, bunda mardlik, jasorat, tashabbuskorlik, matonat, topqirlik hamda har qanday qiyinchiliklarga qaramay hayoti xavf ostida qolganda ham jangovar topshiriqni bajarishga intilishi kerak.

O‘t o‘chiruvchi bo‘linmalarining asosiy jangovar vazifasi hayoti xavf ostida qolgan odamlarni qutqarish va yong‘inni o‘t o‘chiruvchi

bo‘linmalari kelgan paytdagi o‘lchamdagidek holatda bartaraf etish-dan iborat.

O‘t o‘chiruvchi muvaffaqiyatlarining asosi:

- hamma o‘t o‘chiruvchi va boshliqlarning intizomliligi, aniq va dadil harakati, yuqori amaliy bilimga egaligi;
- hal qiluvchi yo‘nalishni to‘g‘ri tanlash;
- hal qiluvchi yo‘nalishga kuch va vositalarni vaqtida to‘g‘ri taqsimlab, ularni mohirona bajarish.

### **3.8. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI IIVNING YONG‘INDAN SAQLASH XIZMATIDA TEXNIKA XAVFSIZLIGI QOIDALARI**

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining yong‘indan saqlash xizmati idoralari, birikmalari, qismlari, ilmiy-tadqiqot, o‘quv bo‘linmalari va yurtlarida texnika xavfsizligini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 266-buyrug‘i bilan tasdiqlandi.

Ushbu qoidalar barcha yong‘indan saqlash boshqarmalariga, bo‘limlari (bo‘linmalari)ga, davlat yong‘indan saqlash nazorati bo‘limlari (bo‘linmalar, nozirlar)ga, maxsus ilmiy-tekshirish tajriba xonalariga o‘t o‘chiruvchi birikma va qismlariga, IIV–IIB yong‘indan saqlash o‘quv markazlariga va joylariga, muddatli xizmatdagi harbiy xizmatchilar bilan to‘ldiriladigan yong‘indan saqlash bo‘limlariga, O‘zbekiston Respublikasi IIVning yong‘indan saqlash texnik oliv mактабига taalluqlidir va o‘t o‘chiruvchi qism binosini loyihalashda hamda tiklashda hisobga olinishi shart.

Yong‘indan saqlash idoralarida, birikmalarida, qismlarida, ilmiy-tadqiqot, o‘quv bo‘linmalari va yurtlarida texnika xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha tashkiliy ishlar O‘zbekiston Respublikasining 1993-yil 6-mayda e’lon qilingan Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi Qonuniga asosan olib borilishi lozim.

Texnika xavfsizligi bo‘yicha ishlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, amal-dagi qonunlarga rioya qilish, yuqori tashkilotlarning qarorlarini va ushbu qoidalar talablarini bajarish uchun rahbarlik va javobgarlik:

- a) yong‘indan saqlash idoralarida – shu idoralar rahbarlariga;
- b) ilmiy-tadqiqot, o‘quv bo‘linmalari va yurtlarida hamda yig‘inlarda mos ravishda ilmiy-tadqiqot, o‘quv bo‘linmalari, yurtlari va yig‘inlari boshliqlariga;

- d) o‘t o‘chiruvchi qismlari va birikmalarida qism va birikmalar boshliqlariga;
- e) navbatchi qorovullarda – qorovul boshliqlariga;
- f) bo‘linmalarda – bo‘linma sardorlariga;
- g) mashg‘ulotlar, mashqlar, musobaqalar o‘tishda va yong‘inlarda ishslash vaqtida – mashg‘ulot, mashq, musobaqa rahbarlariga, o‘t o‘chiruvchi topshirilgan joylarda ishlarni bajarishni ta‘minlovchi boshliqlar tarkibidagi shaxslarga yuklatiladi.

Yong‘indan saqlash xizmatining boshliqlar va oddiy tarkibi jismoniy sog‘lom, muddatli harbiy xizmatni o‘tagan, yoshi 30 dan oshmagan va dastlab IIV–IIB harbiy tibbiyat hay’atining yoki amal-dagi hujjatlarga asosan mahalliy sog‘liqni saqlash muassasalarining tibbiy tekshiruvidan o‘tgan shaxslardan to‘ldiriladi. Shaxsiy tarkibining salomatlik holatini nazorat qilib turish maqsadida, ularning har yili tibbiy ko‘rikdan o‘tishlari majburiydir.

Yong‘indan saqlash xizmatiga hamda IIV yong‘indan saqlash texnik oliv maktabiga qabul qilingan shaxslar xizmat o‘tashga va yong‘inlarda ishslashda boshlang‘ich tayyorlov kurslarini tugatib, o‘tilgan fanlar va ushbu texnika xavfsizligi qoidalari bo‘yicha imtihon topshirgandan keyin (korxonalarни qo‘riqlaydigan o‘t o‘chiruvchi qismlari uchun korxona amal qilayotgan ko‘rsatmalar talablarini bili-shi qo‘sishma qilinadi) qo‘yilishi mumkin.

Yong‘indan saqlash xizmatining oddiy va kichik boshliqlar tarkibi ushbu qoidalar talablarini yong‘inning oldini olish, o‘t o‘chiruvchi texnikasi, o‘t o‘chiruvchi taktik, o‘t o‘chiruvchi va saf hamda jismoniy tayyorgarlik mashqlarida, o‘t o‘chiruvchi qismi tumanda joylashgan korxonalarни amaliy taktik jihatdan bilish vaqtida o‘rganadi. Yong‘indan saqlash boshqarma va bo‘limlari, o‘quv bo‘linma va yurtlari, birikma va qismlari rahbarlarining qaroriga ko‘ra texnika xavfsizligining alohida savollari bo‘yicha maxsus mashg‘ulotlar o‘tishi mumkin.

Yong‘indan saqlash xizmatining oddiy va kichik boshliqlar tarkibi o‘t o‘chiruvchi qismlarida xizmati davrida har o‘quv yilining yakunida lavozim burchlarini bajarish hajmida texnika xavfsizligi qoidalarini bilishi bo‘yicha imtihon topshirishlari shart. Imtihon natijalari maxsus jurnalda qayd qilinadi.

Yong‘indan saqlash idoralari, ilmiy-tadqiqot, o‘quv bo‘linmalari va yurtlari, birikma va qismlarining o‘rta va katta boshliqlar tarkibi uch yilda bir marta, O‘zbekiston Respublikasi IIVning tegishli

buyruqlarida ko‘rsatilgan tartibda, texnika xavfsizligi qoidalarini biliishi bo‘yicha imtihon topshirishlari shart.

Imtihonlar ushbu qoidalar hamda yong‘indan saqlash xizmatining jangovar ustavida, gaz-tutundan himoya xizmati, o‘t o‘chiruvchi va saf tayyorgarligi, o‘t o‘chiruvchi texnikasini ishlatish nizomlarida ko‘rsatilgan texnika xavfsizligi talablari hajmida topshiriladi.

Korxonalarni qo‘riqlaydigan o‘t o‘chiruvchi birikma va qismlarining shaxsiy tarkibi ushbu qoidalarni o‘rganishdan tashqari, xizmatni boshlayotganda hamda har 12 oyda shu korxonaning ishchi va xizmatchilariga ko‘zdautilgan texnika xavfsizligi qoidalari hajmida ko‘rsatma olishlari lozim. Ko‘rsatma olingani to‘g‘risida ko‘rsatma o‘tish jurnaliga qayd qilinadi.

Yong‘inlarni o‘chirishda, falokat oqibatlarini bartaraf qilishda, xalq xo‘jaligi korxonalarida mashg‘ulot va mashqlar o‘tayotganda, shu korxonalarni qo‘riqlaydigan birikma va qismlarning boshqaruv tarkibi, o‘t o‘chiruvchi rahbarini va yuqori darajali chaqiruv raqamiga ko‘ra kelgan bo‘linmalar, shaxsiy tarkibini korxonaning ishlab chiqarishdagি texnika xavfsizligi talablari haqida o‘z vaqtida ogohlantirishlari lozim.

Xo‘jalik va ta’mirlash ishlarini hamda texnika va anjomlarni tozalash, maishiy xizmat xonalarini tartibga keltirish ishlarini bajarayotganda, shaxsiy tarkib, shu sohalarga tegishli texnika xavfsizligi va sanoat sanitariyasi qoidalariiga rioya qilishlari kerak.

Texnik xizmat birikma va qismlarining, suv yengliklari va gaz-tutundan himoya xizmati bazalarining shaxsiy tarkibi, qozonxona va omborxonalarining ishchilari, farroshlar va boshqa xodimlar mehnat muhofazasi hamda yong‘in xavfsizligi qoidalarni kasblariga doir ko‘zda utilgan hajmda va tartibda o‘rganadilar.

Ko‘rsatma o‘tilganligi va imtihon qabul qilinganligi haqida ko‘rsatma o‘tish jurnaliga yozib qo‘yiladi.

O‘t o‘chiruvchi qismlarining shaxsiy tarkibi temirni qayta ishslash va boshqa dastgohlarda, kislород siuvchi mashinalarda, mexanizatsiyalashtirilgan va elektrlashtirilgan uskunalarda, o‘t o‘chiruvchi qismlarining shaxsiy tarkibi temirni qayta ishslash va boshqa mashinalarda ishlashga muvofiq tayyorgarlik va sinovdan o‘tgandan keyin jalb qilinishi mumkin va bu to‘g‘risida sinov jurnaliga qayd qilinib, ko‘rsatilgan ishlarni bajarishga huquq beruvchi guvohnoma topshiriladi.

Texnik xizmat birikma va qismlarining ishlab chiqarish ustaxonalarida, texnik sozlash va aniqlash tarmoq joylarida akkumulator

xonalar, yong‘indan saqlash sinov tajribalarida, suv yengliklarini me-xanizatsiyali ta’mirlash va sozlash joylarida, gaz-tutundan himoya xizmati bazalari va kinotavr klublarida hamda o‘quv bo‘linmalari va yurtlarining xona-ustaxonalarida har bir xona va ustaxona uchun hamda dastgoh va uskunada ishlashda texnika xavfsizligi ko‘rsatmalari ilib qo‘yilishi kerak.

Yong‘indan saqlash xizmatining barcha shaxsiy tarkibiga belgilab qo‘ygan miqdorga asosan, xizmatchining bo‘yi va qaddi-qomatiga mos jangovar kiyim-bosh aslaha beriladi, jangovar kiyim-bosh har bir xizmatchiga shaxsan biriktiriladi, uni yaroqsiz holga keltirish ta-qiplanadi.

O‘t o‘chiruvchi texnikasi va aloqa vositalarini ta’mirlovchi va sozlovchi texnik xizmat birikma va qismlarining shaxsiy tarkibi, qozonxona, omborxonalarining ishchilari, farroshlar, sohalariga mu-vofiq me'yorda maxsus kiyim-bosh bilan ta’milanadilar.

Mehnat sharoiti zararli bo‘lgan korxonalarda xizmat qiluvchi yong‘indan saqlash xizmatining shaxsiy tarkibi, amaldagi qonunga ko‘ra, shu korxonalarda ishlovchilarga tayinlangan maxsus kiyim-bosh va ehtiyyot moslamalar hamda salomatlikni saqlovchi va mustahkamlash davo ovqatlari oladilar va imtiyozlardan foydalanadilar.

O‘t o‘chiruvchi bo‘linmalarining shaxsiy tarkibi shaxsiy va jamoat tozaligi qoidalarini, tibbiy yordam ko‘rsatish tartibini, o‘ziga xos jarohatlanganlarga shifokorgacha birinchi yordam ko‘rsatishni bilishi kerak.

O‘t o‘chiruvchi birikma va qismlarining aloqa xonalarida, gaz-tutundan himoya xizmati bazalarida, texnik xizmat birikma va qismlarining ta’mirlash joylarida, o‘t o‘chiruvchi texnikasiga texnik xizmat ko‘rsatish joylarida va har bir o‘t o‘chiruvchi mashinalarida ilova qilingan ro‘yxatdagi dori-darmonlari yig‘ilgan qutilar bo‘lishi kerak.

Barcha baxtsiz hodisalar O‘zbekiston Respublikasi kasaba uyushmalari markaziy qo‘mitasining qarori bilan tasdiqlangan «Ish-lab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni tekshirish va hisobga olish to‘g‘risida»gi nizomga hamda O‘zbekiston Respublikasi IIVning buyrug‘i bilan e’lon qilingan «IIVning Yong‘indan saqlash xizmatida baxtsiz hodisalar ro‘y berganda ko‘riladigan tadbirlar tartibi to‘g‘risida ko‘rsatma»siga asosan sinchiklab tekshirilishi kerak.

Yong‘indan saqlash idoralari birikma va qismlari, ilmiy-tadqiqot, o‘quv bo‘linmalari va yurtlarining rahbarlari baxtsiz hodisalarni to‘g‘ri va o‘z vaqtida tekshirishda, yuqori bosqichlarga xabar be-

rishda va hisobga olishda hamda baxtsiz hodisalarning kelib chiqish sabablarini bartaraf qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va bajarishda shaxsan javobgardirlar.

Baxtsiz hodisalarni to‘g‘ri va o‘z vaqtida hisobga olishni hamda kelib chiqish sabablarini bartaraf qilish chora-tadbirlarining bajarilishini Qoraqalpog‘iston Respublikasi IIV YSB, viloyat-shahar hokimiylatlari IIB yong‘indan saqlash boshqarma-bo‘limlari va O‘zbekiston Respublikasi IIV YSB hamda ixtisoslashtirilgan yong‘indan saqlash xizmatining kasaba uyushmalar qo‘mitasi, davlat idoralari ishchilarining kasaba uyushmalari, mehnat texnik nazorati (harbiylashtirilgan yong‘indan saqlash xizmatining oddiy va boshliqlar tarkibi bilan ro‘y bergen baxtsiz hodisalardan tashqari) nazorat qilib boradi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi IIV YSB, viloyat, shahar hokimiylatlari IIB yong‘indan saqlash boshqarma-bo‘limlari yong‘indan saqlash garnizonlarining boshliqlari, o‘quv bo‘linmalari va yurtlarining rahbarlari mehnat muhofazasi holatining jamoat ko‘rigini o‘tkazishni tashkil qilishlari, mehnat muhofazasi sharoitini yaxshilash bo‘yicha har tomonlama rejalarini va tibbiy-sog‘lomlashtirish tadbirlarining bajarilishini nazorat qilishlari, ilg‘or tajribalarni tashviqot qilish maqsadida mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi bo‘yicha negizli bo‘linmalar tuzishlari, bo‘ysundirilgan qismlarda, idoralarda, o‘quv bo‘linmalari va yurtlarida texnika xavfsizligi holatini tahlil qilishlari va baxtsiz hodisalarning oldini olish uchun chora-tadbirlar ko‘rishlari kerak.

---

---

## **4-bob. ICHKI ISHLAR ORGANLARINING INTIZOMIY USTAVI**

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, qonunlariga itoat qilish, qasamyod, ustav talablari va boshliqlar buyruqlarini aniq, o‘z vaqtida bajarish, demokratik qonun yuqori bosqichlarga xabar berishda va hisobga olishda hamda baxtsiz hodisalarning kelib chiqish sabablarini bartaraf qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va bajarishda shaxsan javobgardirlar.

Baxtsiz hodisalarni to‘g‘ri va o‘z vaqtida hisobga olishni hamda kelib chiqish sabablarini bartaraf qilish chora-tadbirlarining bajarilishini Qoraqalpog‘iston Respublikasi IIV YSB, viloyat-shahar hokimliklari IIB yong‘indan saqlash boshqarma-bo‘limlari va O‘zbekiston Respublikasi IIV YSB hamda ixtisoslashtirilgan yong‘indan saqlash xizmatining kasaba uyushmalar qo‘mitasi, davlat idoralari ishchilarining kasaba uyushmalari, mehnat texnik nazorati tashkiloti (harbiylashtirilgan yong‘indan saqlash xizmatining oddiy va boshliqlar tarkibi bilan ro‘y bergen baxtsiz hodisalardan tashqari) nazorat qilib boradi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi IIV YSB, viloyat, shahar hokimliklari IIB yong‘indan saqlash boshqarma-bo‘limlari yong‘indan saqlash garnizonlarining boshliqlari, o‘quv bo‘linmalar va yurtlarining rahbarlari mehnat muhofazasi holatining jamoat ko‘rigini o‘tkazishni tashkil qilishlari, mehnat muhofazasi sharoitini yaxshilash bo‘yicha har tomonlama rejalarini va tibbiy-sog‘lomlashtirish tadbirlarining bajarilishini nazorat qilishlari, ilg‘or tajribalarni tashviqot qilish maqsadida mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi bo‘yicha negizli bo‘linmalar tuzishlari, bo‘ysundirilgan qismlarda, idoralarda, o‘quv bo‘linmalar va yurtlarida texnika xavfsizligi holatini tahlil qilishlari va baxtsiz hodisalarning oldini olish uchun chora-tadbirlar ko‘rishlari kerak.

<i>1-ilova</i>	Shaxsiy tarkib bilan texnika xavfsizligi bo‘yicha o‘tilgan sinovlar (yo‘riqnomalar)ni qayd etish daftaring nusxasi.
<i>2-ilova</i>	O‘t o‘chiruvchi qismlaridagi shifokorgacha birlamchi yordam qutisiga kiruvchi tibbiyot vositalarining ro‘yxati.

<i>3-ilova</i>	O‘t o‘chiruvchi avtomobillarda olib yuriladigan shifokorgacha birlamchi yordam qutisiga kiruvchi tibbiy vositalarning ro‘yxati.
<i>4-ilova</i>	Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarini tekshirish va hisobga olish to‘g‘risidagi Nizom.
<i>5-ilova</i>	O‘t o‘chiruvchining texnik qurollari, jihozлari, asbob va uskunalarini sinovdan o‘tkazish tartibi va muddatlarini.
<i>6-ilova</i>	O‘t o‘chiruvchi-texnik qurollarni sinovdan o‘tkazish daftari.
<i>7-ilova</i>	Yong‘in o‘chirishda suv va boshqa suvli asosdagi o‘t o‘chiruvchi vositalari qo‘llanishi xavfli bo‘lgan moddalar va materiallar.
<i>8-ilova</i>	O‘t o‘chiruvchi avtomobillar va tirkamalar elektr qurilmalaridan foydalanishda xavfsizlik qoidalari.
<i>9-ilova</i>	Elektr tokidan jabrlanganlarga birinchi yordam ko‘rsatish.
<i>10-ilova</i>	Elektr qurilmalardan foydalanishda xavfsizlik bo‘yicha malakali guruhlar.
<i>11-ilova</i>	Xavfsizlik qoidalari bo‘yicha sinov qabul qilish daftariga yozish tartibidan nusxa.

O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, qasamyod, Nizom va buyruqlar talablarini bajarish ichki ishlar organlari boshliq va oddiy tarkibining intizomi demakdir.

Intizom Ustavi ichki ishlar organlarining boshliq va oddiy tarkibiga taalluqlidir.

Intizom – ichki ishlar organlarining har bir boshliq va oddiy tarkibiga quyidagilarni bajarishga qaratadi:

- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, qonunlariga itoat qilish, qasamyod, ustav talablari va boshliqlar buyruqlarini aniq, o‘z vaqtida bajarish, demokratik qonunchiligiga qat’iy rioya qilish;

- jamoa tartibini saqlash, davlat, jamoa, kooperativ va shaxsiy mol-mulklarni, fuqarolar, korxona, muassasa, tashkilotlarning haq va huquqlariga rahna soluvchi jinoyatchi va boshqa jamoatchilikka qarshi unsurlardan sergaklik va fidoyilik bilan himoyalash;

- xizmatning har qanday og‘irliklarini yengish, xizmat burchlari ni bajarishda o‘zining kuchini va o‘z hayotini ham ayamaslik;

- davlat va xizmat maxfiyligini qattiq saqlash;

- birkitilgan quroq, mulk va texnikani avaylash;

- haqgo‘y va to‘g‘ri bo‘lish, doimo o‘z bilim darajasini mukammallashtirish va ish madaniyatini oshirish;

- boshliqlarga intizomni mustahkamlashga va ustav talablarini bajarilishiga yaqindan yordam ko‘rsatish, xizmatda yuqori

lavozimli va yuqori unvonli xodimlarni hamda boshliqlarni hurmatlash, xushmuomalali bo‘lish, sipohlik kiyimlarini kiyish va harbiycha salomlashish tartibiga itoat qilish;

- xizmatdan tashqari hollarda o‘z hurmatini saqlash va tuta bilish, jamoat tartibini saqlashda namunali bo‘lish, tartibbuzarlikdan boshqalarni saqlay olish;
- jamoat va fuqarolarning qonuniy huquqlarini qat’iylik bilan himoyalash.

Ichki ishlar organlarida qattiq intizom quyidagi hollarda yuzaga keladi:

- boshliq va oddiy xodimlar tarkibini O‘zbekiston Respublikasi xalqiga sidqidildan xizmat qilishga, demokratik va baynalmilalik ruhida va xizmat burchlarini sifatli, tushungan holda bajarishga o‘rgatish;

- Ustav talablarini tuta bilishlik;
- demokratik qonunchilik talablariga so‘zsiz rioya qilinishini ta’minlash;
- qo‘l ostidagi xodimlarga boshliqlarning kundalik talabchanligi, doimo ular to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish, ularning shaxsiyatini hurmatlash.

Boshliqlari qo‘l ostidagi shaxsiy tarkib o‘rtasidagi intizom holatiga javobgardirlar. Ular Konstitutsiya, qonunlar, qasamyod, ustavlar, buyruqlar talablarini bajarishda shaxsiy tarkibga doimo namuna bo‘lishlari lozim. Shaxsiy tarkib ongiga xizmat burchlarini, fidoyilikni va vijdonli bo‘lishlikni taraqqiy ettiradi va bu masala bo‘yicha sustkashlikka yo‘l qo‘ymaydi.

Boshliqlar, ayniqsa, qo‘li ostidagi xodimlarning shaxsiy sifatlari ni o‘rganishga, ustav talablarini bajarishga, jamoaning jipsligiga, o‘z vaqtida hodisalarning kamchiliklarini aniqlash va intizom buzilishiga qattiqqo‘l bo‘lishlikka doimiy e’tiborni qaratishlari lozim. Bunda ular jamoa kuchidan foydalanishni yo‘lga qo‘yishlari shart.

Boshliq buyrug‘i so‘zsiz, to‘g‘ri va muddatida bajarilishi lozim.

---

---

## **5-bob. YONG‘INDAN SAQLASH** **GARNIZONLARIDA GAZ VA TUTUNDAN** **HIMOYALASH XIZMATI QO‘LLANMASI**

*Ushbu qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 1993-yil 30-dekabrdagi 450-buyrug‘i bilan tasdiqlangan.*

Gaz va tutundan himoyalanish xizmati (GTHX) yong‘indan saqlash bo‘linmalarini jangovar harakatini nafas olishga yaroqsiz muhitda odamlarni qutqarish, yong‘inni o‘chirish va falokat oqibatini bartaraf etish ishlarini ta’minlash uchun tayinlangan.

Gaz va tutundan himoyalash xizmatining asosiy vazifasi: nafas olishga yaroqsiz muhitlarda odamlarni qutqarish, qidiruv ishini olib borish, yong‘inni o‘chirish, mol-mulkalarni va moddiy boyliklarni olib chiqish hamda yong‘indan saqlash bo‘linmalarini shaxsiy tarkibi va falokat oqibatini bartaraf etishda qatnashadigan guruhlar ishlariga sharoit yaratish, GTHX tashkil qilish va xizmatni umumiy boshqarish, tayyorlash va jangovar ishni o‘t o‘chiruvchi va GTHX qurollarini saqlashni nazorat qilish Yong‘indan saqlash boshqarmasi, QR IIV YSB bo‘limi va viloyat hokimiyatlari IIB YS boshqarma, bo‘limlarining xizmat va tayyorlash bo‘limi (bo‘linmasi)ga yuklandi, moddiy-texnik ta’milot, gaz niqoblarini ta’mirlash va jihozlash, GTHX ustalarini tayyorlash dasturini ishlab chiqish esa o‘t o‘chiruvchi texnika aloqa vositalari bo‘limi (bo‘linmasi)ga yuklandi.

Navbatchi qorovulning jangovar hisobida besh kishi va undan (ortiq) ko‘p bo‘lgan hamma o‘t o‘chiruvchi qismlarida, hamma yong‘indan saqlash garnizonlarida gaz va tutundan himoyalash xizmati tashkil etiladi.

Gaz va tutundan himoyalash xizmatining boshlang‘ich taktik birligi GTHX guruhidan tashkil topadi. Har bir guruh bo‘linma boshlig‘i bilan birga uch kishidan kam bo‘lmasligi shart.

Gaz-tutundan himoyachilar ixtiyorida himoyalash gaz niqobi bo‘lgan yong‘indan saqlash xizmati oddiy va boshliqlar tarkibidan, yong‘indan saqlash xizmati xodimlarini tayyorlaydigan O‘zR IIV

va IIBB, IIB bo‘linmalari o‘quv yurtlarining boshliqlar tarkibidan, tinglovchi va kursantlaridan tayinlanadi.

Yong‘inni o‘chirishga jalb etiladigan yong‘indan saqlash garnizonidan barcha boshliqlar tarkibi va xodimlari, shu jumladan, IIV YSB, IIB YSB bo‘linmasi, birikmalar, qismlar hamda DYSX xodimlarida himoya gaz niqoblari bo‘lishi, ularning tekshiruvlarini shaxsan o‘tkazishlari va muntazam ravishda ularda o‘rganish mashg‘ulotlarini o‘tishlari kerak.

Kislородли himoya gaz niqoblari har bir gaz-tutundan himoyachiga shaxsan biriktiriladi. Ularni bir kishidan ikkinchi kishiga berish ta-qilnadi. Gaz niqoblarning biriktirilishi va qayta biriktirilishi faqat idoralar, o‘quv yurti rahbarlari, yong‘indan saqlash birikma va qism boshliqlari buyrug‘iga asosan bajariladi.

Yong‘indan saqlash xizmati shaxsiy tarkibi ishlata dagan qisilgan havoli nafas olish asboblari guruhniki bo‘lib hisoblanadi va navbatchilikdan so‘ng bir-biriga topshiriladi. Shaxsan har bir kishiga alohida biriktirilmaydi. Har bir gaz tutunidan himoyachiga shaxsiy niqob biriktiriladi. Niqoblarning katta-kichikligi boshning o‘lchoviga qarab tanlab olinadi va maxsus g‘iloflarda saqlanadi.

Ixtiyoroda qisilgan havoli gaz niqobi bor har bir yong‘indan saqlash qismida sog‘lig‘i tufayli, gaz niqobida ishlashga ruxsat etilgan barcha shaxsiy tarkib gaz niqoblar bilan ta’milnishi kerak. Qisilgan havoli gaz niqoblarini o‘t o‘chiruvchi avtomobillarda olib yurish tartibini YSB boshliqlari (garnizon boshlig‘i) aniqlaydi.

Kislородли himoyalash va qisilgan havoli gaz niqoblarning suvosti ishlarida qo‘llanishi man etiladi.

Himoya gaz niqoblarida ishlash uchun, maxsus o‘quv dasturini o‘tgan va sinov imtihonlarini topshirgan, sog‘lom xodimlarga ruxsat beriladi. Tekshirish natijasi dalolatnomaga bilan rasmiylashtiriladi, shunga asosan YSB o‘quv yurti, ilmiy ishlar idorasi, qism (birikma) rahbari himoya gaz niqoblarida ishlash uchun buyruq chiqaradi. IIV, IIBB, IIB yong‘indan saqlash qo‘silmalari xodimlariga va bo‘ysungan bo‘linma rahbarlariga, gaz niqoblari bilan ishlash uchun ruxsat berilishi YSB rahbarlari buyrug‘iga asosan aniqlanadi.

Kislородли himoya gaz niqobi bor shaxsiy tarkib O‘zR IIVning buyrug‘i va ko‘rsatmasining talablariga asosan tibbiyot ko‘rigidan o‘tkaziladi. Tibbiy ko‘rikning natijasini shifokor har bir gaz-tutundan himoyachining shaxsiy varaqasiga qayd qiladi. Shaxsiy varaq O‘zR IIV yong‘indan saqlash xizmatiga, o‘quv yurti va ilmiy ishlar

idoralariga xizmat (o‘qish)ga kirish vaqtida har bir kishiga to‘ldiriladi. Xizmat (o‘qish) joyi o‘zgarishi vaqtida xodimning shaxsiy varaqasi uning shaxsiy hujjatlari bilan yangi ish (o‘qish) joyiga yuboriladi.

O‘t o‘chiruvchi qismidagi gaz-tutundan himoyachining varaqasi shu qismning GTHX nazorat joyida saqlanadi. YSB bo‘limi xodimlarining varaqalari esa o‘t o‘chiruvchi shtabida, o‘quv yurti ilmiy ishlar idorasini xodimlariniki shu idora va o‘quv yurtlarining o‘quv o‘t o‘chiruvchi qismida saqlanadi. Shu singari yuqorida aytilgan joylarda gaz niqobini tekshirish 1- va 2-qayd daftarlari bo‘lishi kerak. Qisilgan havoli gaz niqoblarida ishlash uchun yong‘indan saqlash xizmatiga yaroqli deb topilgan xodimlar qo‘srimcha tibbiy ko‘rikdan o‘tishlari shart emas.

GTHX shaxsiy tarkibining vazifasi:

- biriktirilgan gaz niqobining qismilarini, tuzilishlarini va uni tekshirish qoidalarini, gaz niqobi bilan ishlash vaqtida texnika xavfsizligini, GTHX bo‘linmasi va guruhi qidiruv, odam qutqarish, yong‘inni o‘chirish va falokatni bartaraf etish bo‘yicha ishlash tartibini bilishi kerak;
- gaz niqobini to‘g‘ri kiyishni va ishlatishni, yong‘inda jabr ko‘rgan odamga birinchi tibbiy yordam ko‘rsatishni, xavfsizlik joyida soqchi vazifasini bajarishni, nafas olib bo‘lmaydigan muhitda ishlash va o‘sha joydan chiqishga yetarli bo‘lgan kislorod (havo) miqdorini hisoblashni bilishi kerak;
- O‘zR Yong‘indan saqlash xizmatida texnika xavfsizligi Qoidalari va shu Qo‘llanma talablarini qat’iy bajarishi, GTHX moddiytexnik bazasini rivojlantirishda faol qatnashishi va uni takomillash-tirish borasida takliflar kiritishi kerak.

---

---

**6-bob. O‘T O‘CHIRUVCHINING JANGOVAR  
KIYIMI VA ANJOMLARI. O‘T O‘CHIRUVCHINING  
JANGOVAR KIYIMI HAMDA ANJOMLARINI  
YAKKA HOLDA VA BO‘LINMA TARKIBIDA  
KIYISHI. AVTOMOBILGA CHIQIB O‘TIRISH.  
BONG OSTIDA SAHNGA CHIQISH. XAVFSIZLIK  
CHORA-TADBIRLARI**

**6.1. O‘T O‘CHIRUVCHINING JANGOVAR  
KIYIMI VA ANJOMLARI**

*a). O‘t o‘chiruvchining jangovar kiyimi*

O‘t o‘chiruvchining jangovar kiyimi uni suvdan, issiqlik nuridan, kimyoviy moddalar ta’siridan va jarohatlanish (shisha sinig‘i, qurilish qismlari parchalari va boshq.)dan himoyalash uchun mo‘ljallangan.

Jangovar kiyim tarkibiga quyidagilar kiradi: jangovar kiyim, issiq qaytaruvchi kiyim, dubulg‘a, qo‘lqop va etik. Bundan tashqari, jangovar kiyimlarga qishki mavsumda kiyiladigan paxtali pijak (kurtka) shimi bilan, issiq qo‘lqoplar va to‘qilgan dubulg‘a ostidan kiyiladigan qalpoqlar ham qo‘shiladi.

Oddiy va kichik boshliqlar jangovar kiyimlari jamlamasi tarkibiga kurtka va shim, boshliqlar tarkibi uchun plashch (kamzul) kiradi.

Jangovar kiyimlar «Shtorm» deb nomlanadigan sun’iy teridan yoki «T» rusumli vinilis teridan tikiladi. Yangi tipdagisi jangovar kiyimlar qora rangda bo‘lib, «T» rusumli vinilis terisidan tayyorlangan.

Oddiy va kichik boshliqlar tarkibi kurtkasining yuqori qismi (koketka) oq rangda, boshliqlar tarkibi uchun esa qizil rangdadir. Jangovar kiyimning oq va qizil rangli ajratish qismi hamda oq rangli chiziqlari yong‘inlarni o‘chirishda, ko‘rish masofasi qisqargan paytlarda ishlayotgan xodimlarni tezda aniqlashni ta’minlaydi.

Xodimlarning tanasiga suv tegish holatini kamaytirish maqsadida kurtkada suvdan himoyalash qurilmalari bor.

Yangi tipdagisi jangovar kiyim, bundan tashqari, olinib va yana o‘rnataladigan issiqlikdan himoyalovchi taglikdan iborat. Ushbu

taglik o‘t o‘chiruvchiga yuqori issiqlik ( $0,5 \text{ kkal/sm}^2$ .gacha) ta’siri ostida qisqa muddatda ishlash holatini yaratadi. Kurtka va shimda o‘rnatilgan maxsus teshikchalar orqali kiyimosti havo almashinuvi yuzaga keladi. Kurtkaning o‘ng, yon tomonida maxsus kesib qo‘yilgan joyi va uning qopqog‘i bo‘lib, ushbu kesuv orqali kurtka tagidan taqilgan o‘t o‘chiruvchi kamarida o‘rnatilgan karabinni chiqarib undan foydalanishi mumkin.

Boshliqlar tarkibi jangovar kiyimining og‘irligi 4,7 kg, oddiy xodimlarniki esa 4,4 kg. Jangovar kiyimlar yong‘in o‘chiruvchining harakat qilishi uchun qulay bo‘lib,  $-40^\circ\text{C}$  dan  $200^\circ\text{C}$  gacha haroratga dosh beradi. Kastum va shimplar 44–60 o‘lchamlarda tayyorlanadi.

Yong‘inlarda ishslash vaqtida katta issiqlik nurlanishidan (to 20  $\text{kkal/sm}^2$  min) saqlanish uchun issiq qaytaruvchi kiyimlar qo‘llaniladi. Ushbu kiyimlar jamlamasi tarkibiga tananing pastki qismidan to oyoq kiyimining uchigacha to‘liq himoyalaydigan kombinezon, kurtka, bosh qismining ko‘krakkacha himoyalaydigan niqob, uning old qismida panorama (atrofni to‘liq ko‘rish ilojini beradigan) turli qo‘lqoplar va kislородли himoyalash gaz niqobini himoyalaydigan g‘ilof kiradi. Issiqlik qaytaradigan kiyim metal-lashtirilgan to‘qimadan tikilib, «MC» rusumli yong‘inga qarshi mahsulot bilan ishlov berilgan. Kiyimning ichki qismi xom surf materialidan astar qilingan. Ular 3 xil o‘lchamda bo‘ladi (46–48, 50–52, 54–56).

Ish vaqtida issiqlik qaytaradigan kastum tagida paxtali kurtka va shim kiyib, pochalari etik ichiga olinadi. Kombinezon ustidan o‘t o‘chiruvchining qutqaruв kamari taqiladi hamda niqob tagidan dubulg‘a kiyiladi.

Ko‘krakkacha himoyalaydigan niqob kurtkada tikilgan tugmалarga o‘tkaziladi. Niqobning old qismidagi oynagi organik oynadan tayyorlangan. Niqobning pastki qismi ochiq, shu yerdan havo almashtiruvchi yuzaga keladi.

Qo‘lqoplar kurtkaning yenglariga qisma bog‘ichlar yordamida berkitiladi. Yong‘in o‘chiruvchining qo‘llarini issiqlik ta’siri ostida kuyishdan himoyalash maqsadida qo‘lqopning asosiy to‘qima va astar qismi oralig‘ida asbest to‘qimasi qo‘yilgan.

Neft favvoralari, yog‘och omborlari va shunga o‘xshash yong‘inlarni o‘chirishda shaxsiy tarkib yong‘in o‘chog‘i oldida ishlashi zarur bo‘lgan hollarda issiq qaytaradigan kiyimdan foydalaniladi. Uning tashqi ko‘rinishi 3-rasmida ko‘rsatilgan. TK-800 issiqliknini qay-



*3-rasm.* TK-800 rusumli issiqlik qaytaruvchi kastum.

taradigan kastum metallashtirilgan to‘qimadan ichki qismida esa bir necha qavat astarlik tikilgan.

Atrof-muhitning harorati 200°C bo‘lganda issiqliknini qaytaradigan kastum 16 daqiqa himoyalay oladi, agar 800°C gacha bo‘lsa, 3 daqiqa himoyalaydi, uning og‘irligi 17 kg.

*Dubulg‘a.* Yong‘indan saqlash xizmatida qo‘llaniladigan dubulg‘alar har xil bo‘lishi mumkin. 4-rasmida ko‘rsatilgan dubulg‘a – plast-massadan tayyorlangan bo‘lib, yangi namuna hisoblanadi. Hozirda o‘t o‘chiruvchi qismi xodimlari ushbu dubulg‘a bilan ta’milangan. Bu dubulg‘a dumaloq shakldagi korpusi, yong‘in o‘chiruvchining bosh qismini turli urilishlardan himoyalaydi.

Uning ichki qismida urilish kuchini pasaytirish uchun to‘r o‘rnatilgan. Urilish kuchini pasaytirish, boshning hamma qismlariga kuchning taqsimlanishi natijasida yuzaga keladi.



*4-rasm.* O‘t o‘chiruvchining dubulg‘asi.

Dubulg‘aning orqa tomonida tananing bo‘yin qismini suvdan, uchqun va boshqalardan himoyalovchi maxsus yopg‘ich o‘rnatilgan. Old tomonida esa o‘q yordamida dubulg‘aga o‘rnatilgan, organik oynadan tayyorlangan yong‘in o‘chiruvchining yuzini olov shu’lasi, yong‘indan uchib chiqadigan uchqun, suv va boshqalardan himoyalovchi qurilma bo‘lib, yong‘in o‘chirishda ko‘plab qo‘llaniladi.

Bunday dubulg‘alar bir xil o‘lchamda ishlab chiqariladi, lekin uning bog‘ichi va ichki to‘rini kengaytirish yoki toraytirish nati-jasida kerakli o‘lchamda (54 dan to 59 gacha) moslab olsa bo‘ladi. Dubulg‘aning og‘irligi 1,25 kg.dan ortiq emas.

Issiqqa chidamli rezinadan tayyorlangan etik yong‘in o‘chiruvchining oyog‘ini issiqlik, mexanik va kimyoviy ta’sirlardan himoyalash uchun mo‘ljallangan. Uning og‘irligi 2,7 kg.dan ortiq bo‘lmaydi.

Har bir o‘t o‘chiruvchiga va bo‘linma sardorlariga jangovar kiyimlar shunday tanlangan va moslashtirilgan bo‘lishi kerakki, kiyimlar ixcham va chiroyli tashqi ko‘rinishga ega bo‘lishi zarur.

Navbatchilikka tushayotganda tashqi qarov bilan jangovar kiyimlarning ishga yaroqliligi tekshiriladi. Kiyimlar quruq, toza va soz bo‘lishi kerak. Agar jangovar kiyimda nosozliklar (yirtiq, kuygan va boshq.) aniqlansa, u to tuzatilguncha jangovar hisobdan chiqariladi.

*b). O‘t o‘chiruvchining anjomlari*

O‘t o‘chiruvchining anjomlariga quyidagilar kiradi:

1. Yong‘in o‘chiruvchining qutqaruv kamari;
2. Qutqaruv kamari karabini;
3. O‘t o‘chiruvchi boltasi;
4. Qo‘lqoplar;
5. Rezinadan tayyorlangan etigi va boshqalar.

#### **6.1.1. O‘t o‘chiruvchining qutqaruv kamari**

O‘t o‘chiruvchining qutqaruv kamari (5-rasm) yong‘inlarni o‘chirishda, odamlarni va yong‘in o‘chiruvchilarning o‘zini o‘zi qutqarish uchun, karabini yordamida, narvonlarda ishlayotganda, o‘zini himoyalash hamda o‘t o‘chiruvchi boltasi g‘ilofini taqib yuriishi uchun mo‘ljallangan. Qutqaruv kamari uch xil (I, II, III) o‘lchamli bo‘ladi.



5-rasm. Kamar.

### Kamarning texnik xarakteristikasi

Kamarning o'lchamlari	I	II	III
Kamar lentasining o'lchamlari (mm)			
• uzunligi	1050±10	1200±10	1350±10
• kengligi	75	75	75
• qalinligi	4	4	4
Kamarning og'irligi (kg)	0,65	0,70	0,75

Kamar tasma, to‘g‘a karabinni ulash uchun mo‘ljallangan yarim halqa va karabinning uchini taxlash uchun maxsus teri halqadan iborat. Kamar tasmasi to‘rt qatli paxtadan tayyorlangan materialdan iborat bo‘lib, suvgaga chidamli bo‘yoqda qora yoki qo‘ng‘ir rangda bo‘yaladi. Metall qismlari ruxli (zanglamaydigan) materialdir.

Kamarning bir tomonidan to‘g‘asi bo‘lib, ikkinchi tomonining uchidan boshlab, besh juftdan iborat atrofi metallashtirilgan teshiklar qilingan. Ushbu teshiklar orqali kamar to‘g‘a yordamida taqiladi. To‘g‘adan 220 mm masofada karabinni ulash uchun yarim halqa o‘matilgan. Karabin kamarning chap tomonida maxsus teri tasma va tugmacha yordamida o‘rnatib qo‘yiladi.

Har bir o‘t o‘chiruvchi kamari mustahkamligi bo‘yicha sinab qo‘yiladi. Buning uchun uni yarim halqasiga 5 daqiqa davomida bir xil og‘irlikda, ya’ni 350 kg. gacha yuklanib boriladi va 350 kg yuk 5 daqiqa davomida tutib turiladi.

Yuk olingandan so‘ng kamar ko‘zdan kechiriladi. Agar kamarda biron-bir kamchilik (tasmasi yirtilgan, yarim halqasi yoki to‘g‘asi buklangan yoki qayishgan) bo‘lmasa, kamar jangovar hisobda

goldiriladi. Sinovdan so'ng kamchiliklar bo'lsa, unda jangovar hisobdan chiqariladi.

### **6.1.2. O't o'chiruvchining qutqaruв karabini**

Karabin qutqaruв arqoni yordamida o't o'chiruvchi o'zini o'zi yoki yong'inda talafot ko'rgan odamlarni binoning yuqori qavatlardagi qutqarishda, tezlikni sekinlatish va to'xtatish uchun hamda yuqori qavatlarda ishlayotganda binoning qurilish qismalariga yoki o't o'chiruvchi narvonini pillapoyasiga, pastga tushib ketish xavfini bartaraf etish maqsadida, ulanish uchun mo'ljallangan.



6-rasm. Karabin.

Karabin yong'in o'chiruvchining qutqaruв kamarida o'rnatiladi. Uning o'lchamlari 160×92×12 mm, og'irligi 350 grammdan ortiq emas. CT-20 karabin po'latdan tayyorlangan bo'lib, ilgak qulf, o'q va prujinadan iborat, 350 kg og'irlilik yukida sinovdan o'tkaziladi. Buning uchun qulflangan karabinga asta-sekin (0 kg. dan 350 kg. gacha)lik bilan yuklanadi va 350 kg yuk 5 daqiqa davomida tutib turiladi.

Yuk olingandan so'ng karabinda hech qanday o'zgarish bo'lmasligi, qulf o'z joyiga prujina yordamida to'liq, qiyinchiliksiz kirib-chiqishi lozim. Agar ushbu talablarga javob bermasa, karabin jangovar hisobdan chiqariladi.

### **6.1.3. O't o'chiruvchining boltasi**

O't o'chiruvchi kamarida olib yuradigan bolta, yonayotgan binoning yog'och qismlarini buzish va kesish uchun hamda bino tomining qiya qismlarida harakatlanishda boltaning uch qismidan foydalanish uchun mo'ljallangan.

Amalda ikki xil bolta (kichik bolta va katta bolta)dan foydalaniladi. Kichik bolta g'ilofiga solingen holda o't o'chiruvchining kamarida, katta bolta esa o't o'chiruvchi avtomobilida olib yuriladi. Bolta Y-7 rusumli po'latdan tayyorlanadi.

Kamarda o'rnatiladigan bolta yog'och dastali va dastasi ham metalldan quyma bo'ladi. Boltaning ikki uchi bo'lib, biri uchli, ikkinchisi esa damlidir. Ushbu uchlari 15 mm.ga o'tkirlashtiriladi va



7-rasm. Kichik bolta.  
nali qatlam qilinadi.

katta issiqlik bilan ishlov beriladi. Yog‘och dastali boltalarning dastasi qattiq turli yog‘ochdan tayyorlanib, unda chirigan qismlari, yoriqlari, yog‘och ko‘zлari bo‘lmasligi kerak. Uning ustki qismi rangsiz lok yoki alif bilan bo‘yaladi. Dastasi ham quyma boltalarning dastasida rezinali qatlam qilinadi.

Kamarda o‘rnataladigan boltaning uzunligi 410 mm, og‘irligi 1,7 kg. dan ortiq emas. Kamarning o‘ng tomonida maxsus g‘ilofga solingan holda taqiladi. Boltalar chidamlilik, mustahkamlik, o‘tkirlik jihatdan sinab ko‘riladi.

## **6.2. YONG‘IN O‘CHIRUVCHINING JANGOVAR KIYIMNI HAMDA ANJOMLARNI YAKKA HOLDA VA BO‘LINMA TARKIBIDA KIYISHI**

Jangovar kiyimlarni taxlash, shaxsiy tarkibni bong ostida yig‘ish va sahnga chiqish mashqlarining maqsadi:

- shaxsiy tarkibga jangovar kiyim va anjomlarni to‘g‘ri taxlashga o‘rgatish;
- bong ostida yig‘ilishda va sahnga chiqishda tez holda hamjihatlikda harakatlanish qobiliyatlarini oshirish.

Mashg‘ulotlarda quyidagi vazifalar bajariladi:


- jangovar kiyim va anjomlarni har xil usullarda taxlashni o‘rgatish;
- jangovar kiyim va anjomlarni kiyishda tezlik va chaqqonlik qobiliyatlarini taraqqiy ettirish;
- bong ostida yig‘ilish va sahnga chiqishda yakka tartibda va jamoa tarkibida harakatlanishni o‘rgatish.

### **a). Jangovar kiyim va anjomlarni taxlash**

Jangovar hisobning jangovar kiyim va anjomlari o‘t o‘chiruvchi qismi avtosaroyida maxsus tayyorlangan javonlarda taxlanadi.

Yong‘in o‘chiruvchining kamari bolta va karabini bilan ikki yoki uch qatlangan holda taxlanadi. Bunda kamarning to‘g‘asi uning yuqori qatida bo‘ladi. Jangovar kiyimlar (kurtka va shim) quyidagi usullardan birida ko‘rsatilganidek taxlanadi.

## **Birinchi usul**



8-rasm. Jangovar kiyim taxlashning birinchi usul:


- a – birinchi usulda taxlangan kurtka; b – birinchi usulda taxlangan shim;  
d – birinchi usulda taxlangan jangovar kiyim.

Kurtkaning ichki qismi yuzaga olingan holda uch qat taxlana-di va bel qismini yuqoriga qilgan holda bor bo‘yi ikkiga buklana-di, shundan so‘ng taxlangan kamar ustiga mos ravishda qo‘yiladi (8-rasm, a).

Shim yon tikishlari bo‘yicha taxlanib, bor bo‘yi bo‘yicha uch qatga buklanadi. Bunda uning old tomonidagi kesik qismi yuzada qolishi kerak. Uning bog‘ichlari taxlangan shimning qatlari ichiga olinib, kesik qismi o‘ng va chap tomonga buklanadi (8-rasm, b).

## **Ikkinchi usul**

Kurtka yuz qismi bilan yon tikishlari bo‘yicha taxlanadi, so‘ngra bor bo‘yi bo‘yicha ikki qatlanadi, yenglari orqa tomonga olinadi va taxlab qo‘ylgan kamar ustiga mos ravishda, uning yoqa tomoni javonning to‘rida qo‘yiladi (9-rasm, a).



9-rasm. Jangovar kiyim taxlashning ikkinchi usul:

- a – ikkinchi usulda taxlangan kurtka; b – ikkinchi usulda taxlangan shim;  
d – ikkinchi usulda taxlangan jangovar kiyim.

Shim uzunligi bo‘yicha uch qat buklanadi. Uning bog‘ichlari qatlar orasida qoldiriladi (9-rasm, *b*).

Kurtka ustidan taxlangan shim mos ravishda qo‘yiladi. Dubulg‘a esa keyin ustidan emblemasi oldinga qaragan holda qo‘yiladi (9-rasm, *d*).

Issiqlik qaytaruvchi jangovar kiyimlar quyidagi tartibda taxlanadi: qo‘lqoplar, niqob, metallashtirilgan materialdan tayyorlangan kurtka, qutqaruv kamar karabini bilan. Uning ustidan yarim kombinezon, so‘ngra esa dubulg‘a taxlanib qo‘yiladi. Ular ustma-ust mos ravishda taxlab qo‘yilishi kerak.

### ***b). Jangovar kiyimlarni kiyish***

Jangovar kiyim va anjomlarni kiyish «Xavf-xatar» bongida yoki «Jangovar kiyim va anjomlarni kiying» buyrug‘i bo‘yicha kiyiladi.

Bu buyruq berilgan paytda taxlangan jangovar kiyim va anjomlar tomonga qarab turgan o‘t o‘chiruvchi tezda ularni kiyadi. Shim bog‘ichlari, yelkadan, kurtka tugmalari o‘tkazilgan, kamar taqilgan, dubulg‘a bog‘ichi o‘tkazilgan hamda jangovar kiyim va anjomlar tanada tuzatilgan bo‘lishi lozim (10-rasm, *a*, *b*).

Yong‘inlarni o‘chirishda sahnga chiqishda avtomobil kabinasida jangovar kiyim tugmalarini o‘tkazish va o‘t o‘chiruvchi kamarini taqishga ruxsat etiladi.



10-rasm. Yong‘in o‘chiruvchining jangovar kiyimi va anjomlari (*a*, *b*).



*11-rasm.* O‘t o‘chiruvchi issiqlik qaytaruvchi kastumda (*a, b*).

Issiq qaytaruvchi kastumni kiyishda, paxtali shim kiyib, pochalarini etik ichiga tiqqan va paxtali kurtka kiygan o‘t o‘chiruvchi javonda taxlangan issiq qaytaruvchi kiyimdan bir metrda turadi. «Issiq qaytaruvchi kastumni – kiying» buyrug‘iga asosan, o‘t o‘chiruvchi dubulg‘ani va yarim kombinezonni kiyadi, yelkasidan bog‘ichlarni o‘tkazadi.

So‘ngra o‘t o‘chiruvchi kamarini karabini bilan taqadi (11-rasm, *a*), metallashtirilgan materialli kurtkani kiyib, hamma tugmalarini o‘tkazadi (11-rasm, *b*). Boshiga niqobni kiyadi. Shundan so‘ng, qo‘lqoplarni kiyadi.


Issiqlik qaytaruvchi kiyimni kiyishda bir o‘t o‘chiruvchi boshqasiga yordamlashadi.

### 6.3. AVTOMOBILGA CHIQIB O‘TIRISH

#### *a). Avtomobil yonida saf tortish*

«Avtomobil yoniga» buyrug‘iga asosan, shaxsiy tarkib avtomobilning orqa g‘ildiragi yonidan boshlab, kabina tomon saf tortishadi.

Bo‘linma sardori va 1, 3, 5, 7-raqamli yong‘in o‘chiruvchilar birinchi qatorda, 2, 4, 6-raqamli yong‘in o‘chiruvchilar va haydovchi esa ikkinchi qatorda joylashishadi (12-rasm).



12-rasm. Jangovar hisobning o‘t o‘chiruvchi avtomobili yonida saf tortishi.

**b). Avtomobilga chiqib o‘tirish**

«O‘z joyingizga» buyrug‘iga asosan, jangovar hisob avtomobilda o‘z joyini quyidagicha egallaydi:

- avtosisternada: avtomobilning jangovar hisobi kabinasida, avtomobilning harakat yo‘nalishi bo‘yicha o‘ng tomondan boshlab 1, 3, 4, 2-raqamli yong‘in o‘chiruvchilar, bo‘linma sardori esa haydovchi yonida o‘tirishadi:

- o‘t o‘chiruvchi suv haydagichli va yenglikli avtomobilida: jangovar hisob kabinasining orqa o‘rindig‘ida 5, 4, 6-raqamli yong‘in o‘chiruvchilar, haydovchi yonida esa bo‘linma sardori o‘tirishadi.

Jangovar hisob besh kishidan kam bo‘lsa, ular avtomobil yonida bir qator bo‘lib saf tortishadi. Bunda yong‘in o‘chiruvchilar avtomobilning o‘ng (chap) tomonidan, unga orqasi bilan tartibli raqam bo‘yicha, haydovchi esa safning chap qismida joylashadilar.

#### **6.4. BONG OSTIDA SAHNGA CHIQISH**

«Xavf-xatar» bongi ostida yoki «Xavf-xatar» buyrug‘i berilganda, qayerda bo‘lishidan qat‘i nazar, har bir o‘t o‘chiruvchi avtosaroyga yugurib keladi, jangovar kiyim va anjomlarini kiyadi. Avtomobilga chiqib o‘tirish tartibiga asosan, o‘z joyini egallaydi. Haydovchi avtomobil dvigatelini qo‘sjadi, 1 va 2-raqamli yong‘in o‘chiruvchilar avtosaroy darvozasini ochadilar va oxirida avtomobilga chiqib, o‘z joyini egallashadi. Qorovul boshlig‘i (bo‘linma sardori) yo‘l varaqasini radioaloqachidan oladi, avtomobilga o‘tiradi, yong‘in manzilini

e'lon qiladi va hamma avtomobilda o'tirgan, avtomobil eshiklari yo-pilgan, avtomobil yo'lga chiqishga tayyorligiga ishonch hosil qilgandan so'ng haydovchiga sahnga chiqishga buyruq beradi.

Birinchi bo'lib boshliq o'tirgan avtomobil harakatlanadi, qolgan avtomobillar esa o'rnatilgan tartib asosida sahnga chiqishadi.

O't o'chiruvechi bo'linmalari chaqirilgan joyga juda qisqa vaqtida kelishlari shart. Bu quyidagicha ta'minlanadi:

- manzilni aniq qabul qilish, tartiblovchining o't o'chiruvchi mashinalarini jo'natishdagi tez va aniq harakati;
- xabar bo'yicha shaxsiy tarkibning tez yig'ilishi va bo'linmaning eng qisqa yo'ldan borishi.

Yo'l davomida bo'linma boshlig'i YSMAT yoki qisqa aloqa tarmog'i bilan muntazam aloqada bo'lishi shart. O't o'chiruvchi bo'linmalari yo'l davomida yong'in o'chirilgani yoki yo'qligi haqidagi ma'lumot olsalar ham, agar katta rahbarning qaytish haqida ko'rsatmasi bo'lmasa, yong'in sodir bo'lgan joyga borishlari shart. Bo'linma boshlig'i yo'l davomida boshqa yong'inni uchratsa, o't o'chiruvchilarning bir qismini shu yong'inni o'chirishga ajratib, darhol YSMAT yoki QYSATga xabar qilishi lozim.

Agar yo'l davomida bosh (birinchi) avtomobil majburan to'xtab qolsa, keyingi hamma avtomobillar ham to'xtab, bo'linma boshlig'inining ko'rsatmasiga asosan harakat qilishadi.

Agar ikkinchi yoki keyingi avtomobillar majburan to'xtasa, boshqa avtomobillar yong'in sodir bo'lgan joyga borishni davom et-tiradilar.

Agar bo'linma mustaqil uzoq vaqt yo'l yurib, avtomobil majburan to'xtab qolsa, bo'linma boshlig'i yong'in sodir bo'lgan joyga shaxsiy tarkib va o't o'chiruvchi vositalarini o'tkinchi mashinada yoki yayov olib boradi.

Yo'l-transport hodisasida bo'linma rahbari yo'l harakati qoidalariiga rioxva qiladi. O't o'chiruvchi mashinalari majburan to'xtab qolsa, har qanday holatda ham YSMAT va QYSATga xabar beriladi.

Yong'in sodir bo'lgan joyga havo, suv yoki temiryo'l orqali borilayotganda, o't o'chiruvchi bo'linmalarini boshqarayotgan rahbar shu vazirliliklarga mos yo'riqnomalardan foydalanib, quyidagilarni ta'minlashi lozim:

- mashinalarning saqlanishi (har bir mashina bilan haydovchi bo-radi, kerak bo'lsa, mashinaga qo'riqchi qo'yiladi);
- mashinalarning mahkamlanishi;
- shaxsiy tarkibning joylanishi.

## **6.5. XAVFSIZLIK CHORA-TADBIRLARI**

Yong‘indan saqlash xizmatining o‘t o‘chiruvchi texnikasi, o‘t o‘chiruvchi texnik qurollari va uskunalarini hamda jangovar kiyim-bosh va anjomlaridan iborat bo‘lgan qurollari ishning xavfsizligini ta’minlashi, shaxsiy tarkibining sog‘lig‘ini saqlashi lozim va texnik shartlarning talablariga javob berishi kerak. Ularni nosoz holatda ishlatish taqiqlanadi. Ishga yaroqliligi texnik xizmat ko‘rsatishda, sinashda hamda navbatchilikni qabul qilishda aniqlanadi.

Jangovar kiyim-bosh, anjomlarning holati va ishga yaroqliligi navbatchilikka tushayotgan yong‘in o‘chiruvchilar, bo‘linma sardorlari va qorovul boshlig‘i tomonidan tashqi ko‘rikdan o‘tkazishda aniqlanadi.

Jangovar va himoya qiluvchi kiyim-bosh (issiqlikdan himoya qiluvchi va issiqlikni qaytaruvchi kastum) o‘t o‘chiruvchi ishlaga haroratning issiq va sovuqligida unga qulaylik va xavfsizlikni ta’minlashi hamda qorishmalar va suvning ta’siridan himoya qilishi kerak.

Jangovar va himoya qiluvchi ust kiyim-bosh, issiq kiyimlar (kalta po‘stin, kalta kamzul, cholvor, kigiz etik va h.k.), dubulg‘a (kaska) va qutqaruv belbog‘i shaxsiy tarkib bo‘y-bastiga moslab beriladi. Bo‘yin yoping‘ichi va engak tasmasi bo‘lmagan dubulg‘alarni, yirtilgan va boshqa shikastlanishlari bo‘lgan jangovar va himoya ust kiyim-boshlarini, qo‘lqoplarni jangovar hisobda qo‘llash taqiqlanadi.

Navbatchilikka kirishishdan oldin qutqaruv kamari va o‘t o‘chiruvchi karabinlarini sinchkovlik bilan tekshirish lozim:

a) qutqaruv kamari quyidagi hollarda jangovar hisobdan chiqariladi:

- kamar tasmalari nosoz bo‘lsa (uzilgan, kesilgan va h.k.);
  - kamar bandi va uning qistirg‘ichi ishga yaroqsiz (singan, egilgan) bo‘lsa;
  - parchinlangich butunligi buzilsa va ularda halqalar bo‘lmasa;
  - kamar materiali parchinlagichdan yoki bo‘lakchadan yirtilsa;
  - kamar uchini mahkamlash uchun chaspak (xomut) bo‘lmasa;
  - bo‘lakchalarning ustki qismi darz ketgan va egilgan bo‘lsa yoki ulardan birortasi bo‘lmasa;
  - kamarning charm qoplamasida uzilishlar bo‘lsa;
- b) karabin quyidagi hollarda jangovar hisobdan chiqariladi:

- qulflash mexanizmi ochilmasa yoki to‘la oxirigacha yopilmasa;
- prujina karabin qulfining yopilishini ta’minlamasa hamda qulfda va uning oshiq-moshiq bilan mahkamlangan qismida egri-bugriliklar bo‘lsa.

Xatar bo‘yicha navbatchi qorovullarning yig‘ilishi va chiqishi aniq va tez bajarilishi kerak. Bong vaqtida mashinalar turar joyiga borishda shaxsiy tarkibning harakat yo‘llarida boshqalarga xalaqit bermaslik, tushish ustunidan foydalanganda, har bir odam kerakli oraliqni saqlashi, oldinda tushayotganni kuzatishi va oyog‘i bilan tegib ketmasligi kerak (tushish ustunining tagiga oyog‘i tekkandan so‘ng, undan sekingina itarilishi va tezda chetga o‘tishi kerak).

Navbatchi qorovullar shaxsiy tarkibining o‘t o‘chiruvchi mashinalariga o‘tirish tartibi (mashinalar turar joyida yoki uning tashqarisida), xavfsizlikni ta’minlash sharoitlaridan va mahalliy xususiyatlardan kelib chiqqan holda o‘t o‘chiruvchi bo‘limining boshlig‘i tomonidan belgilanadi. O‘t o‘chiruvchi qismi binosidan tashqarida o‘tirishda shaxsiy tarkibning maydonga chiqishiga o‘t o‘chiruvchi avtomobillarini turar joyidan chiqqanidan so‘ng yo‘l qo‘yiladi. Jangovar hisobidagi shaxsiy tarkib avtomobilida o‘z o‘rinlarini egallab, kabinaning eshiklari yopilsa, shundagina avtomobilarga o‘tirish tamomlandi deb hisoblanadi. Shaxsiy tarkib mashinalarga o‘tirishni tamomlamaguncha mashinalarning harakat qilishi uchun buyruq berish man etiladi.

Jangovar hisobdagi shaxsiy tarkibga mashinaning harakatlana-yotgan vaqtida chekish, oynadan boshini chiqarish, eshiklarni ochish, zinapoyada turish (avtomobildan yengli yo‘l o‘tkazishda, maxsus ko‘zda tutilgan orqa zinapoyalardan tashqari) va hokazolar man etiladi.

Haydovchi o‘t o‘chiruvchi mashinasining xavfsiz harakatlanishi uchun javob beradi. U «Yo‘llarda harakatlanish qoidalari»ni aniq bajarishga majbur. Mashina haydovchisi yong‘in bo‘layotgan joyga (falokat yoki boshqa tezkor ishlarga) maxsus rangi bor bo‘lgan, maxsus tovushli va yorug‘lik signallari bilan jihozlangan mashinada borayotganda, xavfsizlikni ta’minlash maqsadida, zaruriyat tug‘ilganda amaldagi harakatlanish qoidalardan quyidagi hollarda chetlanishiga yo‘l qo‘yilishi mumkin:

a) atrofdagilar uchun xavf tug‘dirmagan holda topshiriqning o‘z vaqtida bajarilishini ta’minlash uchun tezlik bilan harakatlanishi;

b) yashil chiroq (svetofor)ning signali qanday bo‘lishidan qat’i nazar, boshqa haydovchilar unga yo‘l bergeniga ishonch hosil qilgan holda harakatlanishni nazorat qiluvchi YHX xodimining ishorasi uni to‘xtatishga majbur qilmasa, harakatni davom ettirishi;

d) tezkor ishlarni bajarayotgan joylarda o‘rnatilgan belgilaridan, ko‘rsatgichlar va xavfsizlik chiziqlaridan (harakatga qarama-qarshi yo‘nalishdagi yurishdan tashqari) qat’i nazar o‘tishi (burilishi, avtomobilni to‘xtatish va h.k.).

Mashina yurishi davomida tezkor ishlarni bajarmayotgan bo‘lsa, maxsus tovush signallaridan foydalanish man etiladi. Tungi vaqtda o‘t o‘chiruvchi avtomobillarining turar joyi yoritish asboblari bilan belgilanadi hamda ehtiyoj yoritish signalizatsiyasi yoqiladi. Yong‘indan saqlash bo‘lim boshliqlari «Yo‘l harakati qoidalari»dagi talablarni bilishi va haydovchi tomonidan ularning buzilishiga yo‘l qo‘ymasligi shart.

---

---

## **7-bob. YONISH JARAYONI VA YONUVCHI MODDALAR HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT. YONISH JARAYONINI TO'XTATISH ASOSLARI**

### **7.1. YONISH JARAYONI VA YONUVCHI MODDALAR HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT**

*Yong 'in – bu kutilmaganda sodir bo‘lish ehtimoli mavjud bo‘lgan va moddiy boyliklar hamda inson hayotiga katta xavf soladigan hodisadir. Yong‘inlar tabiiy yoki texnogen tusda bo‘lishi mumkin. Odatda, yilning qurg‘oqchilik paytlarida va geografik iqlim sharoitlari quruq, tabiatni tez yonuvchan o‘simlik-daraxtlarga xos bo‘lgan joylarda o‘rmon va boshqa turdagidan tabiiy yong‘inlar sodir bo‘lishi mumkin.*

Inson faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan barcha yong‘inlar *texnogen tusdagi yong‘inlar* deb ataladi. Yong‘inlarni o‘chirish va oldini olish chora-tadbirlari ichida suvdan foydalanish keng tarqalgan. Inson ya-shaydigani va faoliyat ko‘rsatadigan barcha joylarda turli maqsadlarda suv ta’minoti tizimining loyihalashtirilishi, undan o‘t o‘chiruvchi va yong‘inning oldini olish maqsadlarida ham foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Yonuvchi modda bilan havodagi kislorodning o‘zaro ta’siri nati-jasida juda tez kechuvchi va ko‘p miqdor yorug‘lik va issiqlik ajralib chiquvchi kimyoviy reaksiyaga *yonish* deyiladi.

Ko‘p hollarda yonish yonuvchi modda zarrachalarining nurlanishi bilan birga kechadi. Yong‘in hosil bo‘lishi va davom etishi uchun:

- birinchi – yonuvchi modda (qat-tiq, suyuq yoki gazsimon);
- ikkinchi – oksidlovchi modda (oddiy sharoitda oksidlovchi modda va-zifasini havodagi kislorod o‘tashi mumkin);



*13-rasm.*  
Yong‘in chiqish manbalari.

- yondiruvchi manba (uchqun, ochiq alanga va cho‘g‘langan narsa) mavjud bo‘lishi kerak.

Shuni aytish kerakki, havodagi kislorod miqdori 15% dan yuqori bo‘lgandagina oksidlovchi vazifasini bajara oladi, undan past konsentratsiyada esa yonish sodir bo‘lmaydi. Bundan tashqari, oksidlovchi modda vazifasini tegishli sharoitlarda xlor, brom, kaliy va boshqa moddalar ham o‘tashi mumkin.

Yong‘in portlashlarining asosiy sabablari va turlari:

- yong‘in xavfsizligi qoidalariga rioya qilmaslik;
- fuqarolarning loqaydligi, e’tiborsizligi;
- elektr simlarning nosozligi;
- gaz, ko‘mir, o‘tin bilan isitiladigan vositalarning nosozligi;
- bolalarning o‘t bilan o‘ynashlari;
- qasddan o‘t qo‘yish.

Xavfliligi bo‘yicha barcha modda va ashyolarni quyidagi turlarga bo‘lish mumkin: yonmaydigan, yonadigan, yonish va portlash xavfi mavjud bo‘lgan moddalar.

Yonmaydigan modda va ashyolarda yonish yoki yong‘inni uzatish xususiyatlari yo‘q. Masalan, g‘isht, metall, beton va boshqalar. Yonish xavfi mavjud modda va ashyolar havoda yonish va yong‘inni uzata olish xususiyatiga egadir. Masalan, yog‘och, qog‘oz, paxta tolasi, mazut va portlash xossasiga ega bo‘lmagan changlar.

Yonish va portlash xavfi mavjud modda va ashyolar, qattiq va suyuq yonuvchi moddalar bilan birikkanda bir zumda alangalanib ketish xossasiga ega. Bunday moddalarga vodorod angidridi, azot kislotasi va boshqalar hamda yonuvchi moddalar bilan aralashganda o‘zidan kislorod ajratib chiqaruvchi kislota ta’sirida, qizdirilganda yoki mexanik ta’sir ostida portlovchi birikmalar kiradi. Masalan, paxta yoki tamaki changi bilan selitra aralashganda shu hol ro‘y berishi mumkin.

Shu bilan birga havoda tarqalgan holda portlovchi aralashmlar hosil qiluvchi changlar ham bunga mansubdir. Masalan, lub, tamaki va kanop tolalari changlari. Yonish va portlash xavfi mavjud moddalarga o‘zi yonmaydigan, lekin suv bilan aralashganda parchalani, gaz ajratib chiqaruvchi va bu gaz havo bilan birikkanda portlovchi birikma hosil qiluvchi moddalar ham kiradi (kalsiy karbidi).

Portlovchi ashyo va moddalar havo bilan aralashib, portlovchi birikmalar (yonuvchi gaz, vodorod, asetilen) hosil qiladi. Portlash

xavfi mavjud moddalarga yonuvchi gazlar bilan aralashganda portlash xavfini vujudga keltiradigan yonmaydigan gazlar ham kiradi (kislorod yonuvchi gaz bilan aralashganda portlashga olib keladi).

Ayrim holda yonmaydigan va yonishni ta'minlay olmaydigan portlovchi gazlar ham bo'lishi mumkin. Masalan, ballonlarda siqilgan holda saqlanuvchi karbonat angidrid gazi. Shuningdek, portlovchi moddalarga havo bilan aralashgan holdagi noorganik moddalar ham (aluminiy, magniy va boshqa moddalar kukunlari) kiradi.

Yonish turlari:

*Alangananish* – mahalliy qizish natijasida yonuvchi moddaning (bug‘ va gazlarning) turg‘un yonishi. Alangananishga yonuvchi moddaning alanga yoki cho‘g‘langan jismga tegishi sabab bo‘lishi mumkin.

*Chaqnash* – yonuvchi modda bug‘i bilan havo yoki kislorod aralashmasining alangaga, elektr uchquniga yoki qizigan jismga tegishi natijasida tez yonib tugashi. Chaqnashda siqilgan gazlar hosil bo‘lmaydi.

*Portlash* – moddaning bir holatdan ikkinchi holatga juda tez o‘tishi (portlab yonishi) bo‘lib, bunda ko‘p miqdorda energiya chiqadi va ko‘p miqdor siqilgan gazlar hosil bo‘ladi, bu siqilgan gazlar o‘pirilishga olib kelishi mumkin. Portlashda hosil bo‘ladigan yonuvchi gazsimon mahsulotlar havoga tegib, ko‘pincha alanganishi va buning oqibatida yong‘in chiqishi mumkin.

*O‘z-o‘zidan alangananish* – modda ma’lum haroratgacha qizdirilganda, unga bevosita tegmasdan turib sodir bo‘ladi. O‘z-o‘zidan



14-rasm. Portlash tufayli kelib chiqadigan yong‘in xavfi.

alangalanish harorati moddaning yong‘in jihatidan xavfli xossalarini belgilovchi muhim omildir. Moddaning o‘zida kechadigan fizikaviy, kimyoviy, biologik jarayonlar ta’sirida va moddaning qizishi natijasida yuz beradi.

### *Yong‘inning kelib chiqish sabablari va xatarli omillari*

Ishlab chiqarish va hayot faoliyati davomida yong‘in kelib chiqishiga quyidagilar sabab bo‘lishi mumkin:

- isitish pechlarini qurish yoki ishlatish qoidalarining buzilishi;
- ishlab chiqarishda yoki uyda olovdan ehtiyyotsizlik bilan foydalanish;
- kerosinda ishlaydigan yoritish yoki qizdirish jihozlarini noto‘g‘ri o‘rnatish yoki ulardan foydalanish qoidalarining buzilishi;
- yashin urishi yoki statik elektr razryadlar;
- mashinalar va ishlab chiqarish jihozlarining nosozligi hamda ularni ishlatish qoidalariiga rioya qilmaslik (ichki yonuv dvigatellardan chiqadigan uchqunlar, elektr qurilmalaridagi qisqa tutashuvlar yoki ularning yerga ulanib qolishi, elektr simlarida zo‘riqishning yo‘l qo‘yilmaydigan darajada ortib ketishi, kontaktlari yomon bo‘lgan joylarning qizib ketishi va ulardan uchqun chiqishi (bug‘ qozonlarining portlashi);
- qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yoki yonilg‘ining saqlash qoidalariiga rioya qilmaslik natijasida o‘z-o‘zidan yonib ketishi sabab bo‘ladi.

---

---

## **8-bob. YONG‘IN SODIR BO‘LGAN JOYDA O‘T O‘CHIRISHDAGI HARAKATLAR. YONG‘IN SODIR BO‘LGAN JOYDA YORDAM KO‘RSATISH**

Yong‘inlarni o‘chirishga borishda o‘t o‘chiruvchi bo‘linmalarining asosiy vazifalari – yong‘in tarqalishining boshlang‘ich davrida o‘chirish agar qo‘srimcha chaqirilgan bo‘lsa, yong‘in tarqalishining oldini olish va o‘chirish bo‘yicha yordam ko‘rsatish uchun chaqirilgan joyga juda qisqa vaqtida kelish demakdir. Buning uchun yong‘in manzilini aniq qabul qilib olish, bo‘linma shaxsiy tarkibini bong ostida sahnga chiqish uchun tezlik bilan yig‘ish va yong‘in joyiga eng qisqa ko‘cha-yo‘llar bilan borishi kerak.

O‘rnatilgan xavf-xatar qo‘ng‘irog‘i chalinishi bilanoq shaxsiy tarkib qismning avtosaroyida yig‘ilishadi va chiqishga tayyorlanishi-di. Katta boshliq yo‘l varaqasini, o‘t o‘chiruvchi tezkor reja (varaqa) sini radioaloqachidan oladi, bo‘linmaning chiqishga tayyorligini tekshiradi va avtosisternaga o‘tirib, birinchi bo‘lib avtosaroydan chiqadi hamda boshqa mototexnikalarga yo‘lboshchilik qiladi. Ushbu avtosisterna orqasidan yengli suv haydagichli avtomobil bo‘linmasi (avtosisterna bilan jihozlangan ikkinchi bo‘linma) hamda o‘t o‘chiruvchi qismi boshlig‘i o‘rnatgan tartibga asosan, agar talab etilsa, maxsus xizmatlar bo‘linmalari yong‘in joyiga (yoki boshqa talab etilgan joyga) chiqib borishadi.

Hamma o‘t o‘chiruvchi avtomobillar bir yo‘l (ko‘cha) orqali harakatlanishi va yong‘in joyiga bir vaqtning o‘zida yetib kelishlari kerak. Qachonki, qorovul boshlig‘i maxsus ko‘rsatma bergen yoki ayrim obyektlarga chiqib borish tarkibi oldidan belgilangan bo‘lsa, bir o‘t o‘chiruvchi qismi avtomobillari boshqa-boshqa yo‘llar orqali harakatlanib, yong‘in joyiga borishga ruxsat etiladi.

Yo‘lda harakatlanish vaqtida bo‘linmaning katta boshlig‘i kerak bo‘lsa, tezkor hujjatlar (o‘t o‘chiruvchi tezkor reja yoki varaqasini, suv manbalar ma’lumotnomasi, yong‘in chiqqan hudud xaritasi)ni o‘rganib boradi va YSMAT yoki qism aloqa tarmog‘i bilan mun-tazam aloqada bo‘lishi shart.

O‘t o‘chiruvchi bo‘linmalari yo‘l davomida yong‘in o‘chirilganligi yoki yo‘qligi haqida ma’lumot olishsa, agar katta rahbarning qaytish haqidagi ko‘rsatmasi bo‘lmasa ham, yong‘in sodir bo‘lgan joyga borishlari shart.

Bo‘linma boshlig‘i yo‘l davomida boshqa yong‘inni uchratsa, bo‘linmaning bir qismini shu yong‘inni o‘chirishga ajratib, darhol YSMAT yoki QYSATga xabar qilishi lozim. Agar yo‘l davomida bosh (birinchi) o‘t o‘chiruvchi avtomobili majburan to‘xtab qolsa, keyingi hamma avtomobillar ham to‘xtab, bo‘linma katta boshlig‘ining ko‘rsatmasiga asosan harakat qilishadi. U keyingi bo‘linma jangovar hisob tartibini to‘ldiradi, o‘zi ham shu bo‘linma avtomobiliga o‘tiradi va yong‘in joyiga borishni davom ettiradi. Agar keyingi avtomobillar majburan to‘xtasa, boshqa avtomobillar yong‘in sodir bo‘lgan joyga borishni davom ettiradilar.

Yo‘l-transport hodisasi, nosozlik, yo‘llarning buzuqligi tufayli o‘t o‘chiruvchi avtomobili majburan to‘xtasa, bo‘linmaning katta boshlig‘i holatga qarab, chora ko‘radi va bu haqda YSMAT yoki QYSATga xabar beradi.

Yong‘in sodir bo‘lgan joyga havo, suv yoki temiryo‘l orqali borilayotganda o‘t o‘chiruvchi bo‘linmalarini boshqarayotgan rahbar shu vazirliklarga mos yo‘riqnomalarini talablarining bajarilishini ta‘minlaydi va avtomototexnikalarning saqlanishi, qo‘riqlanishi, mustahkam mahkamlanishi, shaxsiy tarkibning joylanishi, qishda dvigatellar sovitish tizimlari va sisternalar suvining to‘kilishini nazorat ostiga oladi. Har bir avtomobilni qo‘riqlash maqsadida haydovchi va kerak bo‘lsa, soqchi bilan ta‘minlanadi. Agar chaqiriq joyida yong‘in bo‘lmasa, kim yoki nima sababdan chaqirganligi aniqlanadi, YSMAT yoki QYSATga xabar beriladi va bo‘linma o‘t o‘chiruvchi qismiga qaytadi. Agar chaqiriq joyiga kelganda yong‘in o‘chirilgan bo‘lsa, bu haqda YSMAT yoki QYSATga xabar beriladi va yong‘in joyi to‘liq ko‘zdan kechiriladi, bunda qorovul boshlig‘i yong‘in sabablarini, nima yonganligini, yong‘inni kim aniqlaganligini va kimlar o‘chirishda qatnashganligini aniqlaydi, dalolatnomaga tuzadi va qismiga qaytib keladi.

*Yong‘in holatini aniqlash* – bu o‘t o‘chiruvchi bo‘limmasining asosiy kerakli jangovar harakatlarining bir turidir. Yong‘in holatini aniqlash maqsadida yong‘indagi vaziyatni aniqlashga ma’lumot to‘plash va jangovar harakatni tashkil qilishni hal etishdan iboratdir:

- xavf bor-yo‘qligi odamlarning joylashgan joylari, qutqarish usuli va yo‘llari;

- nima yonayotgani, yong‘in sodir bo‘lgan joy, yong‘inning o‘lchamlari, olov tarqalish yo‘llari va tarqalish tezligi (bu ma’lumotlar hal qilish yo‘nalishini, o‘t o‘chiruvchi mahsulotining turini va miqdorini hamda o‘t o‘chiruvchi bo‘yicha ishlarni bajarish uchun kuch va vositalarning sonini aniqlashda kerak);
- kuch va vositalarni yo‘naltirish, qo‘llash imkoniyatlari; dastakchilar, suv ayirgichlarning o‘rnatish joylarni va shunga o‘xshashlar;
- portlash xavfi, zaharlanish, binoning qulashi, TAM (tez alanga oluvchi moddalar), PM (portlovchi moddalar) va YS (yonuvchi suyuqliklar), kuchlanish ostidagi elektr qurilmalar va boshqa shunga o‘xhash yong‘inni bartaraf etish bo‘yicha qilinadigan ishlarni qiyinlashtiruvchi holatlar;
- yong‘inni o‘chirish, tutunni chiqarish, yong‘in tarqalishini qisqartirish maqsadida bino qismlarini ochish, ajratish va buzish zaruratini aniqlash;
- mol-mulk va materiallarni xavfsiz joyga olib chiqish, ularni olovdan, tutundan va o‘t o‘chiruvchi vositalar ta’siridan saqlash zarurati;
- yaqindagi suv manbalari va ulardan foydalanish usullari;
- joylarga o‘rnatilgan o‘t o‘chiruvchi qurilmalarining borligi va texnik holati, ulardan foydalanish imkoniyatlari va tartibi.

Yong‘inning holatini aniqlash paytida vaziyatga qarab, boshqa vazifalar ham bajarilishi mumkin. Agar talafot ko‘rganlarni uchratilganda ularga kechiktirmay yordam ko‘rsatilishi lozim.

Agar yong‘indagi vaziyat aloqa, yoritish, suvdan himoyalash va boshqa maxsus vositalardan foydalanishni talab etsa, unda bajarilishi lozim bo‘lgan ish holatlarini maxsus xizmatlar bo‘linmalari, o‘t o‘chiruvchi joy boshlig‘i va o‘t o‘chiruvchi rahbari tomonidan aniqlanadi.

Vazifani to‘g‘ri aniqlash, yong‘in holatini aniqlovchilarga yetka-zish, kerakli harakat yo‘nalishini tanlash, guruhhlar o‘rtasida harakat yo‘nalishlarini taqsimlash hamda aniqlangan ma’lumotlarni bir joyga to‘plash tezkor shtabda, shtab bo‘limganda o‘t o‘chiruvchi rahbariga yuklanadi.

Yong‘in holatini aniqlash uchun maqsadga muvofiq harakatlanish, aniqlovchilarning qobiliyatlaridan farqlanadi. Ayniqsa, odamlarni tutunli xonalardan axtarishda, o‘z vaqtida yong‘in holatining o‘zgarishiga e’tiborni qaratishda va tezlik bilan shu uchastkaga

o‘tishda, o‘t o‘chiruvchi rahbariga ma’lumotlarni tezlik bilan yetka-zishda va boshqa hollar shunga kiradi.

*Yong‘in holatini aniqlash mohiyati uning:*

- a) o‘z vaqtida o‘tkazilishiga;
- b) uzluksizligiga;
- d) faollik bilan harakat qilish;
- e) ishonchlilikiga;
- f) aniq va maqsadga muvofiq harakat qilinishiga bog‘liq.

*O‘z vaqtida o‘tkazish* – iloji boricha tezlik bilan kerakli ma’lumotlarni olish. Chunki o‘t o‘chiruvchi bo‘linmalari boshliqlari yong‘in katta o‘lchamlarga erishmasdan, uning tarqalishini oldindan ko‘ra bilishi lozim. Shunga asosan, o‘z vaqtida hal qiluvchi qarorlar qabul qilishi va faol o‘t o‘chiruvchi vositalarini qo‘llashi zarur. Agar boshliq o‘z vaqtida qimmatli ma’lumotni olmasa, bu ma’lumot keraksiz bo‘lishi mumkin.

*Yong‘in holatini aniqlashda vaqt hal qiluvchi hisoblanadi.* Agar u tezkorlik bilan o‘tkazilib, o‘z vaqtida to‘g‘ri qaror qabul qilinsa, yong‘inni boshlang‘ich davrida bartaraf etsa bo‘ladi.

*Uzluksizlik* – yong‘in holatini aniqlash bo‘linmalarning yong‘inga chiqqan vaqtidan boshlab, to uni to‘liq bartaraf etguncha o‘tkaziladigan jarayon. Chunki YO‘R (o‘t o‘chiruvchi rahbari) hali yo‘lda bo‘lgan davridayoq yong‘inga chiqishda tezkor hujjatlar, YSMAT tomonidan berilayotgan va boshqa xabarlar asosida yong‘in bo‘layotgan obyekt to‘g‘risida ayrim ma’lumotlarni aniqlaydi.

*Yong‘in joyiga kelganda u yong‘in holatini avval bir uchastkada, keyin ikkinchi, uchinchi va hokazoda aniqlasa-da, bu holat yangitdan takrorlanaveradi.* Bunday ish olib borilishining sababi, bir uchastkada holat aniqlanayotganda, ikkinchi uchastkada holat o‘zgarishi (olovning yashirin yo‘llar bilan tarqalishi, bino qismlarida qo‘llash holatlari yuzaga kelishi va boshq.) mumkin. Shunga asosan, oldin qabul qilingan hal qiluvchi qarorlarga o‘zgartirishlar kiritiladi.

*Yong‘in holatini aniqlash uzluksizlik bilan tashkil etiladi, qachonki, o‘t o‘chiruvchi rahbaridan tashqari, har bir o‘t o‘chiruvchi ishtirokchisi o‘z uchastkasida bu vazifani bajarib borishi lozim.*

*Faollik* – bu shaxsiy tarkibning qobiliyatidan keng foydalanish, uning aniq va maqsadga muvofiq harakat qilishi.

*Yong‘in holatini aniqlashda faollik* – bu holatni aniqlashda qatnashuvchilarning tashabbuskorligi, hal qiluvchi va jasoratli harakatlaridir. O‘t o‘chiruvchi tajribasi shuni ko‘rsatadiki, kim aniq va

maqsadga muvofiq harakat qilsa, u yong‘in holatini aniqlashda yutuqqa erishadi.

Yong‘in holatini aniqlashda faollik ko‘rsatishda nafaqat yong‘in holati haqida ma’lumot to‘plamay, undan tashqari o‘z vaqtida talafot ko‘rganlarga yordam berish, boshlang‘ich yoki o‘t o‘chiruvchi qurilmalarini ishga tushirish natijasida yong‘in tarqalishini qisqartirish va yong‘inni o‘chirishda yutuqqa erishish mumkin.

*Ishonchlilik* – haqiqiy ishonchsizlikka yo‘l qo‘ymaydigan ma’lumotlar. Har qanday manbadan yong‘in holatini aniqlovchi to‘g‘ri va ishonzli ma’lumotlar, yong‘inni o‘chirish uchun aniq hal qiluvchi qarorlarni qabul qilishga asos bo‘lishi mumkin. To‘liq bo‘lmaygan yoki noto‘g‘ri ma’lumotlar tuzatib bo‘lmaydigan vaziyatlarga olib keladigan qaror qabul qilishga sabab bo‘lishi mumkin.

Yong‘in holatini to‘la ishonzli aniqlash uchun uni to‘liq o‘rganish, tekshirish, qayta tekshirish mumkin.

*Aniq va maqsadga muvofiq harakatlanish* – maqsadni aniqlashga yo‘naltiruvchi harakat bo‘lib, yong‘in holatini aniqlashda yong‘inda o‘t o‘chiruvchi bo‘linmasining jangovar harakatlari yutuqqa olib keladigan ma’lumotlarni to‘plashga qaratilgan bo‘lishiga aytildi. Maqsadga muvofiq harakatlanishga quyidagicha erishiladi:

- yong‘in holatini aniqlash to‘g‘ri va yaxshi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, vaqtida talafot ko‘rgan odamlarga yordam ko‘rsatish mumkin. Kuch va vositalardan kerakli yo‘nalishlarda qo‘llaniladi, kam kuchlar bilan yong‘in o‘chiriladi.

Yong‘in holatini aniqlashni YO‘R yoki uning topshirig‘iga binoan, boshqa xodim va har bir boshliq o‘zi ishlayotgan joyda o‘tkazadi. Yong‘in holatini aniqlovchilar tarkibiga, yong‘inga kelgan o‘t o‘chiruvchi bo‘linmalarining soniga, yonayotgan jismning xususiyatlari va yong‘indagi vaziyatga qarab quyidagilar kiradi:

- yong‘inga bir bo‘linma kelgan bo‘lsa, YO‘R va aloqachi;
- yong‘inga ikki va undan ortiq bo‘linma kelgan bo‘lsa, YO‘R, birinchi bo‘linma rahbari va aloqachi.

Gaz niqboli yong‘in holatini aniqlovchilar tarkibi uch kishidan va boshqa hollarda ikki kishidan kam bo‘lmasligi kerak. Agar yong‘in holatini aniqlashdan tashqari, qutqaruv ishlari olib borilsa hamda yong‘in o‘chiruvchilar kam sonli bo‘lib, qabul qilingan qarorga asosan odamlarni qutqarish va yong‘inni o‘chirish vazifalari ni tutib turish kerak bo‘lsa, yong‘in holatini aniqlovchilar tarkibi ko‘paytiriladi.

Bir paytda har xil yo‘nalishda yong‘in holatini aniqlash kerak bo‘lganda bir necha yong‘in holatini aniqlash guruhlari tuziladi. Yong‘in holatini aniqlash guruhlari soni, ularning tarkibi va harakatlanish hududlarini YO‘R aniqlaydi. U yong‘in holatini aniqlovchi guruh boshlig‘ini tayinlaydi va unga vazifalar yuklaydi. Axborot berish tartibini o‘rnatadi, o‘t o‘chiruvchi texnik vositalarining turlarini hamda guruh shaxsiy tarkibi uchun xavfsizlik choralarini aniqlaydi va ko‘rsatadi.

Yong‘in holatini aniqlash ishlarini olib boruvchining majburiy vazifalari:

- qulay, qisqa va xavfsiz borish yo‘lidan foydalanish;
- ishlab chiqarish uskunalarini va texnologik jarayonini, binoning joylanishi va tuzilishi xususiyatlarini biladigan shaxslar ma’lumotidan, hujjatlardan va bor texnika vositalaridan foydalanish;
- odamlarning xavfsizligini ta’minlash va ularni xavfsiz joyga olib chiqish, jarohatlanganlarga tezlik bilan yordam berish;
- mumkin bo‘lgan hamma vositalar yordamida olov va tutunning tarqalishini kamaytirish choralarini ko‘rish, yong‘in o‘chog‘i aniqlanganda uni o‘chirishga kirishish;
- uskunalarini shikastlanishdan asrash va moddiy boyliklarni saqlash choralarini ko‘rish;
- olov va tutun tarqalishi mumkin bo‘lgan joylardagi xonalarni ochib tekshirish;
- yong‘in holatini aniqlash natijalari yuzasidan axborot berib, uzluksiz ravishda YO‘R va yong‘in amaliy shtabi bilan aloqada bo‘lish.

Yong‘in alomatlari bo‘lganda yong‘in holatini aniqlash suv yengilklari yordamida bajariladi. Yong‘in holatini aniqlashda xavfsizlikni ta’minlash maqsadida quyidagilar zarur:

- o‘zi bilan qutqaruv arqoni va qutqarish anjomlari, qurilmalarni ochish va buzish uchun kerakli asboblar, yoritish asboblari, aloqa vositalari, himoyalovchi gaz niqob, ilgak va o‘chirish vositalarini olish;
- tutunli xonalarga kiraverishda GTHX qo‘riqchisini qo‘yish va u bilan uzluksiz aloqada bo‘lish;
- gaz-tutundan himoyalovchilarning qo‘sishimcha guruhini tuzish, himoyalangan gaz niqobda ishlayotgan shaxsiy tarkibni doimo almashтирish;
- bosib o‘tilgan yo‘lni eslab qolish;

- kuyishdan saqlanish uchun alanga yoki qizigan gazlar ochilishi mumkin bo‘lgan yonayotgan xonalarning eshigini, eshik tavaqasi bilan himoyalangan holda ehtiyyotkorlik bilan ochish;
- yonuvchi va tez alanga oluvchi suyuqliklar, portlovchi va tez yonadigan moddalar va yonuvchi gazlar bo‘lishi mumkin bo‘lgan xonalarda ochiq olovdan foydalanmaslik;
- yuqori kuchlanishli elektr qurilmalari o‘rnatilgan, portlash xavfi bo‘lgan zaharlanish va radioaktiv zararlanish mumkin bo‘lgan xonalarga, shu xonalarga mo‘ljallangan hamma ehtiyyot choralarini qo‘llab, shu xonalarda xizmat qiluvchi texnik xodimlarning ko‘rsatmalarini hisobga olgan holda kirish;
- qurilish inshootlarining, texnologik qurilmalarning va boshqa inshootlarning qulashi va ag‘darilishi ehtimolidan ehtiyyot choralarini ko‘rish, mustahkam devor yoki derazalari bor devor bo‘ylab harakat qilish.

***Yong‘in o‘chirishda bo‘lishi mumkin bo‘lgan hollar:***

- ko‘p sonli odamlar borligi;
- yordamga muhtojligi va ular orasida sarosimaga tushish;
- xonalar rejasining murakkabligi;
- bo‘ylama va tik yo‘nalishda texnologik qurilmalar yonuvchi materiallar, boloxonalar, ayvonlar, tuyuklar, derazalar, bo‘sliqlar, surish tizimlari orqali oloving tarqalishi;
- haroratning tez ko‘tarilishi va issiq oqimlarning ochiq joylarga o‘tishi;
- modda va materiallarning issiqlik ta’sirida gaz-havo va bug‘-havo aralashmasi hosil qilishi;
- tutun, zaharli hosilalar ajralishi va ularning tez tarqalishi;
- elektr kuchlanishi ostidagi asboblarning borligi;
- bosim ostida turgan idishlar, asboblar, sig‘imlarning portlashi;
- bino, qurilma va texnologik uskunalarning buzilishi, qulashi;
- bino ichida ko‘p miqdorda ilmiy, moddiy va boshqa boyliklarning borligi.

Yong‘inni o‘chirish jarayoni shartli ravishda ikki bosqichga bo‘linadi:

*I bosqich* – yong‘in tarqalishining oldini olguncha bo‘lgan davr;

*II bosqich* – yong‘in qandaydir o‘lchamlarda bo‘lgan holda to‘xtatilgan, to‘silgan vaqtisi.

Yong‘indan saqlash xizmati boshliqlar tarkibidan, yong‘in tarqalishining oldini olishda, o‘zining to‘liq mahoratini ko‘rsatishi talab

etiladi. Yong‘in o‘chirishda qatnashuvchilar esa faollik va uddaburonlik bilan harakat qilishlari lozim.

Har bir yong‘in bir toifadagi obyektlarda ham bir xil ko‘rsatkichlari bilan bir qatorda boshqa-boshqa ko‘rsatkichlarga egaki, kuch va vositalarni joylashtirishda, harakat usullarini aniqlashda ularni hisobga olish kerak.

Yong‘in tarqalishining oldini olishda qisqa vaqt ichida yong‘in tarqalishining asosiy yo‘llariga kerakli miqdorda o‘t o‘chiruvchi vositalarni uzatish va ularning faol ishini ta’minlash kerak.

### ***Yong‘in tarqalishini to‘sish va uni tugatishga erishish hollari:***

- kerakli miqdorda kuch va vositalarni o‘z vaqtida to‘plash va harakatga keltirish;
- dastakchilarning tez o‘z joyini egallashi va epchillik bilan harakat qilishi;
- o‘t o‘chiruvchi vositalarni uzlucksiz uzatish;
- yong‘inga qarshi oraliq joylarni tashkil qilish.

Yong‘inlarni faollik bilan o‘chirishni tashkillashtirish uchun, bundan tashqari, dastak uzatuvchilar iloji boricha yong‘in o‘chog‘iga yaqinroq kelishi, tarqalgan yong‘inlarga uzoqqa suv uzatadigan «A» (dastak uchidagi bosim 0,4 kPa) va tirsakli dastak (dastak uchidagi bosim 0,6 kPa) uzatish talab etiladi. Xonalar ichida yong‘in tarqalishining oldini olishda dastaklar yordamida suv nafaqat yong‘in tarqalish yo‘llariga, balki yong‘in o‘chog‘iga ham uzatiladi, chunki yong‘inni kuchsizlantirmay turib, dastak uzatuvchilar vazifani bajarish bo‘yicha faollikka erisha olmaydilar. Bunday vaziyatlarda «A» dastaklar, ayrim hollarda tirsakli dastaklar iloji boricha uzoqroqqa uzatiladi va asta-sekin oldinga harakatlanib boriladi.

Dastak uzatuvchi o‘t o‘chiruvchilar, bundan tashqari, qo‘shti xonalar, devor, tom va boshqa qismlariga suv sepib, ularni ham himoyalab boradilar.

Yuqorida ko‘rsatilgan vazifalarni bajarishda kuch va vositalar yetishmovchiligi bo‘lsa, unda qurilish qismlarini ajratish, buzish va boshqa shunga o‘xshash yo‘llar bilan oraliq masofalar hosil qilib, yong‘in tarqalishining oldi olinadi va chegaralanadi.

Buning uchun texnikadan foydalanish qo‘l keladi. Yong‘inni muvaffaqiyatli o‘chirish, asosan, hal qiluvchi yo‘nalishga birinchi dastakning o‘z vaqtida berilishiga bog‘liq.

### ***Yong‘in tugatishga erishish hollari:***

- yonayotgan materiallar ustiga sovituvchi o‘t o‘chiruvchi vositarini ta’sir ettirish (sepish);
  - yonish maydonida yoki uning atrofida yonmaydigan gaz yoki bug‘ aralashmalarini hosil qilish;
  - o‘t o‘chiruvchi vositalardan yonayotgan material atrofida, yonish maydoni orasida yoki havo orasida himoya qatlamini hosil qilish;
  - yong‘in jarayonini kimyoviy to‘xtatish.

Yong‘inda odamlarga xavf solgan, portlash xavfi bo‘lgan olovning tez tarqalishi va hozirgi vaqtida yong‘in o‘chirilishini ta’minlaydigan bo‘linmalar ishlayotgan joy yo‘nalishi jangovarlik harakatini hal qiluvchi yo‘nalishi hisoblanadi.

Kuch va vositalarni hal qiluvchi yo‘nalishga joylashtirilgandan so‘ng boshqa yo‘nalishlarga kuch va vositalar joylashtiriladi.

### ***Yong‘inda jangovar harakatlarning hal qiluvchi bosqichlari:***

- yong‘inning xavfli omillari kishilar hayotiga xavf solsa va ularni qutqarishning suv sepmasdan iloji bo‘lmasa – suv va vositalar qutqaruvi ishlarini bajarish uchun joylashtiriladi;
- portlash xavfi tug‘ilsa – bo‘linmalarning harakati qayerda portlash xavfining oldini olishni ta’minlasa, kuch va vositalar o‘sha yerga joylashtiriladi;
  - maskanning qismi alanga bilan qoplangan bo‘lsa va olov uning boshqa qismlariga yoki qo‘shti qurilishlarga yoyilayotgan bo‘lsa, kuch va vositalar shu tomonga joylashtirilib, olov tarqalishi qayerda ko‘p zarar keltirishi mumkin bo‘lsa, shu tomonga kiritiladi;
  - yakka turgan bino (inshoot) alanga bilan qoplanib, qo‘shti mas-kanlarga yong‘in tarqalish xavfi bo‘lmasa – asosiy kuch va vositalar yong‘inning eng jadal sur’atlar bilan yonayotgan joyiga kiritiladi;
  - bino alanga bilan o‘ralib, qiyomatga ega bo‘lmasa va yaqin turgan binoning yonish ehtimoli bo‘lsa – kuch va vositalar shu yonmayotgan bino (inshoot) tomonidan kiritiladi.

Yong‘inda odamlar va hayvonlarga xavf yo‘q bo‘lsa hamda yong‘in kengayishi chegaralangan bo‘lsa, bor kuch va vositalar bilan yong‘in bartaraf qilinishi ta’minlangan bo‘lsa, yong‘in o‘rab olingan hisoblanadi.

## *Yong‘inni batamom o‘chirishga qaratiladigan yong‘inni o‘chiruvchilar harakatlari:*

- kuch va vositalardan foydalangan holda yong‘inni to‘liq o‘chirishga kirishiladi. Dastak uzatuvchi yong‘in o‘chiruvchilar yong‘inning ichki qismiga kirib boradi. Ular to‘xtamasdan o‘t o‘chiruvchi moddalarini yong‘in vaziyati talab etgan miqdorida uza-tishadi (bunday harakatlar bir necha daqiqadan to bir necha soatgacha davom etishi mumkin);
- yong‘inni bartaraf qilishga kuch va vositalar kamlik qilsa, rah-bar qisqa vaqt ichida kerakli miqdorda qo‘sishmcha kuch va vositalarni chaqirishi kerak;
- yong‘inning kengayib ketmaslik choralarini ko‘rish kerak. O‘t o‘chirishga yaqinroqdagι yong‘indan saqlash qo‘sishnları, sanoat va qishloq xo‘jaligi KO‘O‘, harbiy qismlar va aholi jalb qilinadi;
- yong‘inga qarshi oraliqlar hosil qilish maqsadida imorat va inshootlar buziladi;
  - o‘t o‘chiruvchi bilan birgalikda xonalardan gaz va tutunni chiqarib yuborish chorasini ko‘rish kerak;
  - o‘t o‘chiruvchi vositalar (ko‘pik, kukun, aralashmali suv va boshq.) qo‘llanilishi lozim;
  - o‘t o‘chiruvchi ishlar himoyalangan gaz niqoblarda o‘tkaziladi, tutun tortgichlar va yoritish vositalaridan foydalilanidi;
- ko‘pik yoki sachratma suv berish yo‘li bilan yuqori haroratni pasaytirish choralar qo‘llaniladi;
- suv haydagich bosimi inshootning chuqurligiga mos ravishda pasaytiriladi. Ehtiyyot asosiy suv yo‘llari, birinchi navbatda, hal qiluvchi yo‘nalishda ishlayotgan dastaklarga tortiladi.

Kuchaygan yong‘inni o‘chirishga «A» va tirsaklı dastaklar orqali suv beriladi, yong‘in tugatilayotganda esa kichikroq dastakka almashtiriladi. Bino inshootlarining bo‘sliqlarida va shamollatish tuyrukli-да bo‘layotgan yong‘inlarga «B» dastagidan suv va ko‘pik beriladi: bino inshootlarini ochish tashkil qilinadi. Yong‘in joylarga suv berish uchun jo‘mrakli dastakdan hamda ichki jo‘mragidan foydalilanadi.

Birinchi o‘t o‘chiruvchi mashinasi, odatda, yong‘in sodir bo‘lgan joyga o‘rnatilib, hal qiluvchi yo‘nalishga suv beradi, keyingi o‘t o‘chiruvchi mashinasi esa yaqindagi suv manbayiga o‘rnatilib, undan asosiy suv yo‘li tortiladi. Birinchi mashinada suv tugagach, suv berilayotgan dastak suv manbayiga o‘rnatilgan ikkinchi mashinadan tortilgan suv yo‘lidagi suv tarqatgichga ulanadi.

Suvni bir-biriga oshirib berish holatida kerakli mashinalarning soni, asosiy suv yo'llarini o'tkazish joylari va usullari aniqlanadi. Kuchli suv haydagichga ega bo'lgan avtomobil yong'in sodir bo'lgan joyga yaqinroq o'rnatilib, undan bir vaqtida yong'inga hamda suv manbayiga suv shlanglari tortiladi.

Yonayotgan xonani ko'pik bilan to'ldirishda YO'R quyidagilarni aniqlashi shart:

- ko'pik to'ldiriladigan xonaning hajmi;
- ko'pik oqishga xalaqit beruvchi to'siqli qurilmalar;
- kerakli miqdordagi ko'pik hosil qiluvchi, ko'pik dastaklar va ularni o'rnatish joyi;
- ko'pikning belgilangan yo'nalishda harakatlanshiga sharoit yaratish uchun tutun tortarlarning joylashish joyi.

Xonaga ko'pik berilayotganda quyidagilar zarur:

- ko'pik dastagi yong'in sathidan yuqori o'rnatilishi;
- tutun tortar va boshqa shamollatish moslamalari ko'pik das-tak o'rnatilgan joyga qarama-qarshi joylashtirilishi va yong'in mahsulotlarini chiqarishga ishlashi;
- xona ko'pikka to'ldirilgandan so'ng darhol sharoitni aniqlash va qolgan yong'in o'choqlarini bartaraf qilish uchun gaz tutun himoyasi bo'linmasi yuborilishi.

Yong'in o'chiruvchilarning to'g'ri harakatlari natijasida yong'in maydoni qisqarib boradi, xona harorati va tutun miqdori kamayadi hamda asta-sekinlik bilan o't o'chirishdagi jangovar ishlari miqdori ham kamayadi. O't o'chiruvchi bo'linmalarining ishlari o'zgaradi: uzatilgan dastaklar soni kamaytiriladi, kuch va vositalar jangovar vazifalarni bajarishdan ozod etiladi va o'z qismlariga qaytariladi.

Yong'in o'chirilgandan so'ng jangovar vazifalarni bajarishdan ketma-ket ozod qilish tartibi quyidagicha:

- birinchi, zaxirada bo'lgan o't o'chiruvchi bo'linmalari;
- ikkinchi, boshqa hududlardan kelgan va jangovar vazifalarni bajarib bo'lgan bo'linmalar;
- uchinchi, o'ta xavfli korxonalarni qo'riqlaydigan bo'linmalar, ularning o'rnlarida o'z vazifasini bajarib bo'lgan bo'limlari;
- to'rtinchi, shu hudud o't o'chiruvchi qismi bo'linmasi ozod etiladi.

Yonish tugatilgan va qayta yong'in hosil bo'lishi ehtimolining oldi olingan paytida yong'in bartaraf qilingan deyiladi.

Vujudga kelishi mumkin bo‘lgan yong‘inning oldini olish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- tashkiliy (ko‘ngilli o‘t o‘chiruvchi drujinalari yoki yong‘indan muhofazalash drujinalarini tuzish, omma orasida tushuntirish ishlarni olib borish);
- texnikaviy tadbirlar ishlab chiqish (yong‘in yoki portlash jihatidan xavfli xonalarga alohida konstruksiyali elektr jihozlar o‘rnatish, nosoz pechlar, mashinalar, elektr jihozlardan, shuningdek, oson alangalandigan suyuqliklar saqlanadigan yoki ishlatiladigan joylarda olovdan foydalanishni taqiqlab qo‘yish, yashin qaytargichlar o‘rnatish);
- chiqqan yong‘inning tarqalishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida obyektlarni o‘tga chidamli materiallardan qurish;
- binolar orasida yong‘inga qarshi masofalar talabiga rioya qilish;
- yonayotgan binolardan odamlar, hayvonlar va moddiy boyliklarni tezkor ravishda ko‘chirishga imkon beradigan choralarни ko‘rish (kerakli miqdorda eshiklar, zarur kenglikda yo‘laklar qurish va ularni to‘sib qo‘yishni man etish).

Yong‘inni o‘chirishni osonlashtiradigan tadbirlarni joriy qilish (yong‘inni o‘chirish, narvonlar, yong‘in kuzatish minoralari, suv havzalari va binolarga kelish yo‘llari qurish, yong‘inga qarshi avtomatlashtirilgan o‘chirish vositalarini hamda signalizatsiyasini o‘rnatish).

### ***Yong‘in o‘chiruvchining yong‘in sodir bo‘lgan joyda yordam ko‘rsatishi***

Yong‘indan saqlash xizmati xodimlarining yong‘inda birinchi navbatdagi vazifasi – bu har qanday xavf ta’siri ostida bo‘lgan insonlarga tezlik bilan, kechiktirmay yordam ko‘rsatish.



*Shuni unutmaslik kerakki, alanga tozalovchi  
va aseptik xususiyatga ega*

Bino va inshootlarni qurishda yong‘inga chidamli materiallarni qo‘llashga, xonalarning avtomatik tarzda o‘t o‘chiruvchi qurilmalar bilan ta’minlanishiga, zinapoyalar, o‘rnatilgan xonalarning tutundan himoyalanganligiga qaramay, yong‘inlar keng va katta ko‘lamga ega bo‘lmoqda, odamlar hayotiga xavf solib, ularning halok bo‘lishiga olib kelmoqda.

Yong‘in natijasida hosil bo‘ladigan, tutun tarkibidagi zaharli gazlar va boshqa moddalar inson hayotiga juda xavflidir. Masalan, xonadagi tutun tarkibining 0,05% ini tashkil qilgan is gazi (uglerod oksid) inson organizmi uchun xavfli hisoblanadi.



***Yodda tuting!***

- Ko‘p hollarda insonlarning nobud bo‘lishi tutundan, alangadan emas!
- Alanga ichida qolib ketsangiz engashib, xavfsiz chiqish joyiga harakatlaning.
- Agar kiyimingiz yonayotgan bo‘lsa, to‘xtang, yerga yotib dumalang!

Yong‘inlarda uning miqdori ko‘p bo‘lishi mumkin. Quyidagi jadvalda yopiq, xonalarda har xil yonuvchi materiallar yonganda hosil bo‘ladigan is gazining nisbiy miqdori berilgan:

Yong‘in joyi	Yonayotgan materiallarning nomi	CO gazining hajm-dagi miqdori (%)
Yashash uchun mo‘ljallangan uylar yerto‘lsasi	O‘tin, eski mebellar	0,18

Shuning o‘zi	O‘tin, ko‘mir	0,27
Yashash uchun mo‘ljallangan uy xonasi	Mebel, ko‘rpa-to‘shak va choyshablar	0,15
Muassasa idorasi	Muassasa mebeli, qog‘ozlar	0,4
Savdo do‘koni	Kanselariya jihozlari, kitoblar va boshqa shunga o‘xshashlar	0,3>
Shuning o‘zi	Oziq-ovqat, un, non, guruch va shunga o‘xshashlar	0,18



15-rasm. Gaz va tutunlardan zaharlanganlarga yordam ko‘rsatish.

yuzaga keladi. Bu holatda, unga kechiktirmay yordam (nafas olish organlariga toza havo) berish lozim, agarda yordam ko‘rsatilmasa, unda hushdan ketish holatidan bir necha daqiqa o‘tmasdan, inson halok bo‘ladi.

Bundan tashqari, issiqlik harorati ( $60\text{--}70^{\circ}\text{C}$ ), alanga ta’siri va boshqalar inson hayoti uchun katta xavf tug‘diradi.

### ***Yong‘inlarda odamlarni qutqarish yo‘llari va usullari***

Qutqaruv ishlari quyidagi holatda tashkil qilinadi va o‘tkaziladi, agar:

- odamlarga olov, yuqori harorat, portlash xavfi va binoning qulashi xavfi xatar solganda, ular turgan xonalar tutun yoki zararli gazlar bilan to‘lgan bo‘lsa;

- odamlar o‘zлari xavfli joydan chiqolmay yoki sarosima holatida bo‘lsa;

- odamlar hayoti uchun xavfli o‘t o‘chiruvchi vositalar qo‘llanilayotgan bo‘lsa ( $\text{CO}_2$  va boshq.).

Yong‘inda odamlarni qutqarish, albatta, o‘t o‘chiruvchi kuch va vositalarini joylashtirish bilan bir vaqtدا o‘tkaziladi.

Odamlarga yong‘in bevosita xavf tug‘dirib, chiqish yo‘llarini berkitsa yoki berkitish xavfi bo‘lsa, odamlarni xavfsiz qutqarishni ta‘minlash uchun suv sepib turilishi shart. Agar kuch va vositalar bir vaqtда odamlarni qutqarish ishlari hamda yong‘in o‘chirishda kamlik qilsa, odamlarni qutqarish uchun yong‘indan saqlash bo‘linmalarining hamma xodimlaridan foydalilanildi, qo‘srimcha kuch va vositalar chaqiriladi.

Yong‘inda asosiy kirish va chiqish yo‘llari, derazalar, boloxonalar, ayvonchalar, o‘rnatilgan va qo‘lda ishlatiladigan o‘t o‘chiruvchi narvonlar, avtonarvonlar, avtoko‘targichlar, tomga chiqish tuynuklari, devor va to‘siqlardan maxsus ochilgan tuynuklar yordamida odamlarni qutqarish mumkin.

Yong‘in holati va yordam ko‘rsatilishiga muhtojlarning holatiga qarab, odamlarni qutqarish usuli va tartibi qutqaruv ishlarini olib borayotgan shaxslar va YO‘R belgilaydi.

Odamlarni qutqarish va xavfsiz joyga olib chiqishning asosiy usullari:

- odamlarning xavfsiz yo‘nalish bo‘ylab o‘zлari chiqishi;
- yong‘in o‘chiruvchilar kuzatuvida odamlarni chiqarish, agar qutqaruvchilar ularning o‘zлari chiqib ketishiga ishonishmasa;
- harakat qilolmaydigan odamlarni olib chiqish;
- qutqaruv yo‘llari olov yoki tutun bilan berkitilib, boshqa iloji bo‘lmasa, qutqariluvchilarni narvonlar, avtonarvonlar, avtoko‘targichlar va texnik qutqaruv qurilmalari yordamida amalga oshiriladi.

YO‘R chaqiriq joyiga kelishi bilan kechiktirmay obyekt xizmatchilari bilan aloqa o‘rnatadi, yonayotgan va yon tomonlardagi xonalarda odam bor yoki yo‘qligi haqida ma’lumotlar to‘playdi, so‘ngra tutun bilan qoplangan xonalarning to‘liq holatini aniqlaydi:



16-rasm. Alangani yopinchiq bilan yopish.

- xonalardagi mavjud xavflar;
- odamlar xavfsiz joyga chiqa olishi;
- qutqaruv yo‘llari va usullari;
- qutqaruv ishlarini olib borish tartibi;
- qutqaruv yo‘llariga olov yoki tutunning ta’siri;
- qutqarish uchun yetarli kuch va vositalar;
- obyekt xizmatchilarining qutqaruv ishlariga jalb etilishi;
- o‘t o‘chiruvchi bo‘lmalari yong‘in joyiga kelguncha, qutqaruv ishlarini olib borish bo‘yicha ko‘rilgan chora-tadbirlar;
- qutqarilgan odamlarni joylashtirish tartibi.

Odamlar hayotiga solinayotgan xavf darajasiga qarab, qutqaruv navbatni belgilanadi:

- xavfli joylardan odamlar qutqariladi;
- oldin bolalar, kasallar va qarilar qutqariladi;
- qutqariluvchilarni tinchlantirish;
- qutqaruvchi sarosimaga tushgan qutqariluvchilarni o‘z izmiga olishi kerak;
  - qutqaruv yo‘li yonish, issiqlik yoki tutun zonalariga tushib qolishsa;
  - xavfli zonalar oldida qo‘l ostida bo‘lgan yopg‘ichlar bilan yopintirish, bosh qismi esa suv bilan namlangan qalin mato bilan o‘rash kerak;
  - elektromegafon yordamida odamlarning harakatlarini boshqarish va navbatma-navbat qutqarish ishlarini olib borish;
    - tibbiy tez yordam kelguncha jabrlanuvchiga birinchi yordam ko‘rsatiladi;
    - xavfli zonadan qimmatli mol-mulkлarni olib chiqish hamda ularni qo‘riqlash kabilar kiradi.

---

---

## **9-bob. QURILISH MATERIALLARI VA BINOLARNING O'TGA CHIDAMLILIGI VA ULARNING XAVFLILIGI BO'YICHA TOIFALARI**


Qurilish materiallari va konstruksiyalari o'tga chidamlilik darajasiga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- yonmaydigan materiallar va konstruksiyalar;
- qiyin yonadigan materiallar va konstruksiyalar;
- yonadigan material va konstruksiyalar.

QMQ 2.01.02-97 «Yong'in profilaktikasi»ga muvofiq, devorlari, orayopmalari va boshqa qismlari yasalgan material hamda konstruksiyalariga bog'liq holda binolar besh toifaga ajratiladi.

O'tga chidamlilik darajasi I va II toifali bo'lgan binolarning hamma asosiy qismlari yonmaydigan bo'ladi (II darajali binolarning ichki ko'taruvchi devorlari bundan mustasno), ular qiyin yonadigan bo'lishi mumkin. Bu binolarning asosiy xususiyati o'tga chidamlilik chegarasidir. Bu vaqt ichida qurilish konstruksiyalarining ko'tarish qobiliyati yo'qolmaydi, ularda parron yoriqlar paydo bo'lmaydi va olovga qarama-qarshi tomondagi harorat 220°C ga yetmaydi. Masalan:

- o'tga chidamliligi I darajali binolar ko'taruvchi devorlarining o'tga chidamlilik chegarasi 2,5 soatga;
- o'tga chidamliligi II darajali binolar ko'taruvchi devorlarining o'tga chidamlilik chegarasi 2 soatga teng;
- o'tga chidamliligi III darajali bo'lgan binolarning hamma qismlari yonmaydigan bo'ladi. Faqat binolarning poydevorlari, qavatlararo yoki chordoq orayopmalari qiyin yonadigan, yopmalarni (tomlarni) ko'taruvchi konstruksiyalari esa yonadigan bo'lishi mumkin;
- o'tga chidamliligi IV darajali binolarda katta binoni qismlarga ajratadigan eshik-derazasiz maxsus yonishga qarshi devorlargina yonmaydigan bo'ladi. O'tga chidamliligi IV darajali binolarning ko'taruvchi devorlari, kolonnalari, pardevorlari va karkasli devorlarining to'ldirgichlari qiyin yonadigan bo'ladi, chordoqsiz orayopmalari esa yonadigan bo'lishi mumkin;



17-rasm. Yong'inga qarshi devorlar va plitalar (6 m) konstruksiyasi:

1 – devor; 2 – yonuvchi yoki og'ir yonuvchi material.

- o'tga chidamliligi V darajali binolarning yong'inga qarshi devorlaridan tashqari hamma elementlari yonadigan materiallar bo'ladi.


Binolarda quyidagi elementlarning yonish xavfi yuqori bo'lishi mumkin: chordoqli binolarda deraza tavaqalari; stropilalar; ship; tomning ko'taruvchi detallari; devorlarning qoplamasи; pardevorlarning ayrim eshiklari (yong'inga qarshi konstruksiyalari; devorlardagi eshiklardan, pollardan tashqari).

O'tga chidamliligi III va IV darajali chordoqli binolarda tomni ham yonadigan materiallardan qurishga ruxsat etiladi. Quvvati 1000 kW. dan yuqori bo'lgan elektr stansiyalarning o'tga chidamliligi I, II va III darajali binolarda, quvvati 101 dan 1000 kW.gacha bo'lganlari IV darajali binolarda, quvvati 100 kW.gacha bo'lganlari esa V darajali binolarda joylashtirilishi mumkin.

Ishlab chiqarish bino va inshootlarini loyihalashda ishlab chiqarish jarayonining yong'in jihatidan xavflilik darajasiga bog'liq holda yong'inga qarshi tadbirlar ko'zda tutiladi. Loyihalash me'yorlariga muvofiq, ishlab chiqarish jarayonlari yong'in jihatidan xavflilik darajasiga ko'ra, olti toifaga bo'linadi:

A toifaga gaz bug'larining chaqnash harorati 28°C va undan past bo'lgan juda ko'p suyuqliklar yoki pastki portlash chegarasi havo hajmiga nisbatan 10% va undan kam bo'lgan yonuvchi gazlar ishlatildigan ishlab chiqarish binolari kiradi.

B toifaga benzin, kalsiy karbid saqlanadigan omborlar, shuningdek, bug'ining chaqnash harorati 28–61°C va pastki portlash chegarasi



18-rasm. Qurilish konstruksiyalarining olovga chidamlilik ko'rsatkichlari:

1 – g'isht devor; 2 – temir-beton ustuni; 3 – yig'uvchi aylana va oval shaklli bo'shlqli temir-beton konstruksiyasi; 4 – himoyalanmagan temir konstruksiyasi; 5 – to'shamali metall konstruksiya; 6 – yuzasi g'isht bilan yopilgan kolonna; 7 – yuzasi yog'ochli yopilgan to'siq; 8 – yuzasi suvoq qilingan to'siq.

10% dan yuqori bo'lgan yengil alanganuvchi suyuqliklar hamda gazlar ishlatiladigan ishlab chiqarish binolari kiradi. Bunday ishlab chiqarish jarayonlariga elektr stansiyalari yoki qozonxonalarining mazut xo'jaligi, ammiak bilan sovitish qurilmalarining apparat va mashina bo'limlari kiradi.

D toifaga yonuvchi qattiq moddalar, shuningdek, portlash chegarasi  $65 \text{ g/m}^3$  bo'lgan chang yoki tolalar ajratib chiqaradigan moddalarga yoki bug'larning chaqnash haroratidan yuqori bo'lgan suyuqliklarga ishlov beriladigan va ular ishlatiladigan ishlab chiqarish texnologiyalari kiradi.

Omuxta yem va oziqa tayyorlash sexlari, don saqlanadigan omborlar, tegirmonlarning don tozalash bo'limlari, zig'ir va paxtaga dastlabki ishlov berish sexlari, benzinsiz yonilg'i-moylash materiallari saqlanadigan omborlar, yopiq ko'mir omborlari, elektr taqsimlash qurilmalari kiradi.

Benzinda harakatlanadigan transport vositalarini saqlash garajlari ham shu toifaga kiradi.

E toifaga yonilg‘i (shu jumladan, gaz) yoqiladigan yoki yonilg‘idan yonmaydigan moddalarga ishlov beriladigan ishlab chiqarish jarayonlari kiradi. Yonmaydigan moddalarga qizdirilgan yoki suyuqlantirilgan holatda ishlov beriladi va bunda yorug‘lik energiyasi ajraladi. Bunday ishlab chiqarishlarga issiqlik elektr stansiyalaridagi qozonxonalar, temirchilik ustaxonalari, mashina zallari va motor sinash stansiyalari kiradi.

F toifaga yonmaydigan moddalarga sovuq holda ishlov beriladigan ishlab chiqarish jarayonlari, masalan, yonmaydigan suyuqliklar haydaladigan nasos stansiyalari, sabzavotlar, sut, baliq va go‘sht mahsulotlariga ishlov berish sexlari, biologik yoki texnikaviy usulda isitiladigan issiqxona va parniklar kiradi. Gaz bilan isitiladigan parnik va issiqxonalar bundan mustasno, ular E toifaga taalluqli.

---

---

## **10-bob. YONG‘INGA QARSHI HIMoya TIZIMLARI. YONG‘INNI O‘CHIRISH USLUBLARI VA O‘T O‘CHIRGICH MODDALAR**

Yong‘inga qarshi tizimlar majmuyidagi talablarga binoan, yong‘inning oldini olish tadbirlari, yong‘indan himoyalash va tashkiliy masalalardan iborat.

Yong‘inning oldini olish tizimiga tashkiliy tadbirlar va yong‘in xavfi mavjud ish joylarida yong‘indan ogohlantiruvchi vositalar kabi texnik vositalarni ko‘rsatib o‘tish mumkin.

Yong‘indan himoyalash tizimiga texnik vositalar va tashkiliy tadbirlarni birlashtirgan holda yong‘indan kishilar va moddiy boyliklarning himoyasini tashkillashtirish masalalari kiradi. Ya’ni himoya sifatida yonmaydigan va yong‘inning tarqalishiga yo‘l qo‘ymaydigan materiallardan binolarni qurish, yonilg‘idan foydalanishda qattiq tartib o‘rnatish, yong‘inni o‘chirish vositalari bilan ta’milanishi, tutun tarqalishi va atmosferaga chiqaruvchi tizim, jamoa va shaxsiy himoya vositalari bilan ta’milanishlarni hamda aholini evakuatsiya qilish tadbirlarini ko‘rsatib o‘tish mumkin.

Yong‘in xavfsizligini ta’minalashdagi tashkiliy masalalarga, yong‘inda korxona, tashkilot yoki muassasa ishchilari, xodimlari hisobidan ko‘ngillilar otryadini tuzish; yong‘in xavfi yuqori bo‘lgan ish joylarida profilaktik ishlarni belgilangan talab asosida doimiy o‘tkazib turish; ishchilarning o‘quv va malaka oshirish bilan bilimlarini oshirib borish; amaliy taktik o‘quv ishlarini tashkillashtirish; yong‘in xavfsizligini ta’minalash bo‘yicha yo‘riqnomalar ishlab chiqish va joriy qilish kabi tadbirlarni ko‘rsatib o‘tish mumkin.

Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 29-iyundagi 243-qarori bilan tasdiqlangan «Mulkchilik shaklidan qat’i nazar, vazirliklar, idoralar, korporatsiyalar, konsernlar, uyushmalarning sanoat korxonalari va boshqa obyektlaridagi ko‘ngilli yong‘in o‘chiruvchilar drujinalari to‘g‘risida»gi Nizomga asosan ko‘ngilli yong‘in o‘chiruvchilar druji-nasiga quyidagi vazifalar yuklanadi:

- obyektda yong‘inga qarshi tartib-qoidalarning bajarilayotgani va unga qanday rioya etilayotganini nazorat qilishni amalga oshirish;

- ishchilar va xizmatchilar o‘rtasida obyektda yong‘inga qarshi tartib-qoidalarga rioya qilish bo‘yicha tushuntirish ishlarini olib borish;
  - o‘t o‘chiruvchi texnikasining, o‘t o‘chiruvchi dastlabki vositalarning sozlash jangovar holatdaligini nazorat qilish;
  - yong‘in chiqqan hollarda o‘t o‘chiruvchi komandasini chaqirish va odamlarni xavfli joydan ko‘chirish hamda obyektdagi mavjud o‘t o‘chiruvchi vositalar bilan yong‘inni o‘chirishga oid shoshilinch choralar ko‘rish;
  - zarur bo‘lgan hollarda ko‘ngilli yong‘in o‘chiruvchilar drujni-nasi a’zolarining o‘t o‘chiruvchi mashinalarda, motopompalarda va yong‘in o‘chirishning boshqa ko‘chma va statsionar vositalarining jangovar guruhlaridagi ishlarda qatnashish, shuningdek, o‘ta zarur hollarda, sexlar va boshqa obyektlarda navbatchilikda turish;
  - obyektning yong‘in-texnika komissiyasi va yong‘inlarni aniqlash, oldini olish hamda yong‘in o‘chirishning yangi usullarini joriy etuvchi davlat yong‘in nazoratining mahalliy organlari bilan o‘zaro birgalikda harakat qilish.

*Davlat yong‘inni nazorat qilish organi.* Davlat yong‘inni nazorat qilish organi respublika Ichki ishlar vazirligining Yong‘in xavfsizligi bosh boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi. Davlat yong‘inni nazorat qilish organlari zimmasiga yong‘indan muhofaza qilishga oid qoidalar, qo‘llanmalar ishlab chiqish va nashr qilish, yong‘inning oldini olishga oid qoida va me’yorlar, tadbirlarning hamma korxonalar hamda alohida shaxslar tomonidan bajarilishi-ni nazorat qilish, loyihalash, qurish vaqtida yong‘inning oldini olishga oid talablarning bajarilishini tekshirish (xulosalar berish), o‘t o‘chiruvchi bo‘linmalarning ishga shay turishini hamda o‘t o‘chiruvchi vositalarining benuqsonligini tekshirish vazifalari yuklanadi.

Davlat yong‘inni nazorat qilish organlari yong‘inning oldini olishga oid qoida, me’yor va ko‘rsatmalarning buzilishiga aybdor bo‘lgan mas’ul shaxslarni ma’muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortish, yong‘in xavfi tug‘ilganda obyektdagi ishlarni qisman yoki butunlay to‘xtatib qo‘yish huquqiga ega. Shaharlar va shahar tipidagi qishloq yong‘in muhofazasi, shuningdek, o‘zlarida o‘t o‘chiruvchi qismlar bo‘lmagan korxonalarda, yangi qurilishlarda, turar joy va jamoat binolarida yong‘inning oldini olish nazoratini amalga oshiradi.

## *Yong‘inga qarshi suv ta’minoti tarmoqlari*

Yong‘inga qarshi suv ta’minoti tarmoqlari markazlashtirilgan shahar xo‘jalik-ichimlik suv tarmoqlari bilan yoki sanoat korxonasi hududidagi ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan suv tarmoqlari bilan birlashtirilgan bo‘ladi.

Alohidida yong‘inni o‘chirish uchun mo‘ljallangan suv tarmoqlari faqat yong‘inga o‘ta xavfli sanoat korxonalari, yong‘in xavfi yuqori bo‘lgan obyektlar yoki alohidida joylashgan binolar uchun loyihalashtirilishi ko‘zda tutilgan holda u iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan asoslangandagina amalga oshirilishi mumkin.

Suv ta’minoti tizimi hayotda o‘ta muhim ahamiyatga ega. Inson hayotida suv qanchalik zarur bo‘lsa, uning xavfsizligi, shuningdek, har xil kutilmagan favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishda ham shunday o‘rin egallaydi.

*Ijtimoiy sabablari.* Ma’lumki, aholi yashash joylari, sanoat korxonalari va xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalari faoliyati ma’lum texnogen jarayonlar bilan bog‘liq va ularda yong‘in bo‘lish xavfi ehtimoli doimiy saqlanadi. Demak, ularda yong‘inning oldini olish va bartaraf qilish chora-tadbirlari doimiy ravishda ko‘zda tutilishi kerak. Yong‘inning oldini olish va uni bartaraf etish omili sifatida barcha joylarda suvning bo‘lishi hamda uning yetarli miqdordagi zaxirasi saqlanishi shunday chora-tadbirlarning eng asosiysi hisoblanadi.

Shuningdek, barcha iste’molchilarining kundalik ehtiyojlari uchun ham suv ta’minoti bo‘lishi lozim. Bu esa, o‘z navbatida, aholi va korxonalariga uzlusiz va yetarli miqdorda talab etilgan bosim ostida suv berish kerak.

Bu bilan o‘ta muhim ikki ijtimoiy masala – iste’molchilarni doimiy suv bilan ta’minlash va yong‘inning oldini olish hamda bartaraf qilishda o‘z yechimini topadi. Bu holda asosiy tamoyillardan biri – inson va ishlab chiqarish mavjud bo‘lgan joyda suv ham bo‘lishi so‘zsiz ta’minlanadi.

*Iqtisodiy sabablari.* Suv ta’minoti tizimi o‘zining murakkabligi va uning doimiy ishonchli ishlashiga qo‘yilgan talablarni bajarishi uchun unga nisbatan katta miqdorda moddiy-texnik sarf-xarajatlar qilinadi. Bu tizimning suv manbayidan to suvni iste’molchiga yetkazib berguncha bo‘lgan barcha inshootlar, ularning jihozlanishi va ulardan foydalanish uchun qilinadigan bir martalik va doimiy sarf-xarajatlar bilan bog‘liq.

Albatta, har qanday tizim o‘ta ishonchli va doimiy uzlusiz faoliyat ko‘rsatishi uchun uni ikkita, ya’ni asosiy ishchi va zaxira tizimi bo‘lishini taqozo qiladi. Shu o‘rinda yong‘inga qarshi suv ta’mnoti tizimini ichimlik va ishlab chiqarish suv ta’mnoti tizimidan ajratish ham bir variant sifatida qaralishi mumkin, lekin yong‘inning qachon va qayerda bo‘lishi ma’lum bo‘lmasligi (balki, uzoq yillar davomida ham biror yong‘in bo‘lmasligi) bu ikki tizim birlashtirilishining asosiy iqtisodiy sabablaridan biriga aylanadi.

Yong‘inga qarshi suv tarmog‘i tizimining alohida loyihalashtirilishi va qo‘srimcha inshootlar qurilishi oddiy sarf-xarajatlar bilan bog‘liq, bu asosiy iqtisodiy sabab hisoblanadi.

*Muhandislik sabablari.* Suv ta’mnoti tizimida yong‘inga qarshi jihozlar va inshootlarning ichimlik hamda ishlab chiqarish suv ta’mnoti tizimiga biriktirilishi ulardan foydalanish samaradorligini oshiradi. Shuningdek, ular ba’zida ikki maqsadda ishlatiladi. Ya’ni suv zaxiralarni saqlash sig‘imlarida bir vaqtning o‘zida ichimlik suvlari zaxirasi va yong‘inga qarshi zaxiralar saqlanadi.


Yong‘in gidrantlarining magistral suv tarqatish tarmoqlarida o‘rnatalishi, ularning ekspluatatsiyasi va doimiy suv bilan ta’mnlanshiga sabab bo‘ladi. Yuqoridagi sabablarga ko‘ra, yong‘inga qarshi suv ta’mnoti tizimi bilan biriktirilishi maqsadga muvofiqdir.

*Suv ta’mnoti tizimi.* Suvni manbadan olib, uni me’yoriy talablar darajasida tozalab yoki unga ishlov berib, iste’molchilarga yetarli miqdorda va talab qilingan bosim ostida uzlusiz yetkazib berish uchun ishlaydigan inshootlar majmuyiga *suv ta’mnoti tizimi* deyiladi.

Suv ta’mnoti tizimi inshootlari tarkibi, ularning ishlash tartibi va jihozlanishi, birinchi navbatda, suvning qaysi manbadan olinishiga, iste’molchi turiga va uning talablariga bog‘liq. Quyida suv ta’mnoti tizimining keng tarqalgan va ochiq suv manbalariga xos bo‘lgan shaklini izohlaymiz.

19-rasmdagi suv ta’mnoti tizimi shaklidan ko‘rinib turibdiki, barcha inshootlar o‘zaro bog‘liq va ularning birortasi ishlamasligi butun tizim ishining to‘xtab qolishiga va iste’molchilarining suvsiz qolishiga olib keladi.

Demak, har bir inshoot butun tizimning uzlusiz va ishonchli ishlashida muhim ahamiyatga ega. Obyektning geografik joylashuv o‘rni, undagi tabiiy suv manbalarining (yerusti yoki yerosti) mav-



19-rasm. Suv ta'minoti tizimining shakli (yerusti manbayi uchun):


1 – suv qabul qilish inshooti; 2 – birinchi bosqich nasos stansiyasi; 3 – tozalash inshootlari; 4 – toza suv havzasi; 5 – ikkinchi bosqich nasos stansiyasi; 6 – bosimli suv quvuri; 7 – bosimli suv minorasi; 8 – suv tarqatish tarmog'i; 9 – talab qilingan bosim pyezometrik chizig'i; 10 – maksimal suv iste'moli soatidagi bosim pyezometrik chizig'i; 11 – maksimal tranzit soatidagi bosim pyezometrik chizig'i.

judligi va albatta, iste'molchi turiga, uning talablariga bog'liq holda tizim inshootlari soni, turi va ishlash tartiblari turlicha bo'ladi.

O'zbekiston va boshqa Markaziy Osiyo davlatlarida umumiy suv iste'moli balansida yerosti suvlarining ulushi 83–90% ni tashkil etadi. Bu esa qaralayotgan hududlarning yerosti suv imkoniyatlariga ega ekanligini va ulardagи yerusti suvlaridan asosan sug'orish maqsadlarida foydalanishini ko'rsatadi.

Ma'lumki, yerosti suvlar o'zining sifat ko'rsatkichlari bilan boshqa suvlarga nisbatan ustunlikka ega, lekin ularning joylashuv o'rniga bog'liq holda ular qattiq va sho'rlangan bo'lishi mumkin. Suvning sifat ko'rsatkichlariga bog'liq holda uni tozalash va ishlov berish inshootining tizim tarkibiga kirishi yoki kirmasligini belgilaydi.

Yerosti suvlaridan manba sifatida foydalanish tizimida, asosan, artezian quduqlari, nasoslar, zaxira suv sig'imlari va suv tarqatish



20-rasm. Yerosti suv manbayidan ishlaydigan suv ta'minoti tizimi shakli:

1 – suv qabul qilish inshooti; 2 – birinchi bosqich nasos stansiyasi; 3 – tozalash inshootlari; 4 – toza suv havzasi; 5 – ikkinchi bosqich nasos stansiyasi; 6 – bosimli suv quvuri; 7 – bosimli suv minorasi; 8 – suv tarqatish tarmog‘i; 9 – talab qilingan bosim pyezometrik chizig‘i; 10 – maksimal suv iste’moli soatidagi bosim pyezometrik chizig‘i; 11 – maksimal tranzit soatidagi bosim pyezometrik chizig‘i; 12 – yer sathi; 13 – quduq devori; 14 – suv ko’tarish jihizi.

tarmoqlari asosiy inshootlar tarkibiga kiradi. Bunday holda suv ta'minoti tizimining boshlang‘ich qismi sifatida artezian quduqlari ishlashining ishonchliligi va ularning talab darajasidagi suv berish quvvati butun tizim ishining samaradorligini belgilaydi.

Suv ta'minoti tizimi inshootlari yong‘inning oldini olish va uni bartaraf qilishda muhim ahamiyatga ega. Ular tarkibiga nasoslar va nasos stansiyalari, zaxira suv sig‘imlari va suv tarqatish tarmog‘i kiradi.

Nasoslar va nasos stansiyalari bajaradigan asosiy vazifa – bu suvni iste’molchilarga ma’lum miqdorda va yetarlicha bosim ostida haydash hisoblanadi. Suv ta'minoti tizimi turiga bog‘liq holda nasos stansiyalari birinchi, ikkinchi va uchinchi bosqich nasos stansiyalariiga bo‘linadi.

*Birinchi bosqich* nasos stansiyalari, asosan, suvni manbadan olib tozalash yoki suvgaga ishlov berish stansiyalariga yetkazib berish uchun xizmat qiladi. Agar manbadagi suvning sifat ko'rsatkichlari ichimlik suvi bo'yicha davlat standartlari talabiga javob bersa, u holda birinchi bosqich nasos stansiyalari suvni toza suv havzalari (TSH), ya'ni rezervuarlarga toplash uchun ishlaydi.

Bunday tizimda suv zararsizlantirilgandan so'ng iste'molchiga uzatiladi. Odadta, yerosti suvlarini TSHga yetkazish uchun ESV rusumli cho'kma nasoslar qo'llaniladi.

Tozalangan yoki ishlov berilgan suvni iste'molchilarga yetkazish vazifasini *ikkinchi bosqich* nasos stansiyasi bajaradi. Ikkinci bosqich nasos stansiyalari suvni tarqatish yoki taqsimlash tarmog'iga yetkazib beradi. Shuni alohida e'tiborga olish kerakki, ikkinchi bosqich nasos stansiyalari boshqaruv-zaxira sig'imlari va suv tarqatish tarmoqlari bilan birga ishlaydi va ularda hosil qilingan bosim o'ta muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Chunki obyektning istalgan nuqtasida har qanday ixtiyoriy vaqtida yong'in bo'lish ehtimoli saqlanadi.

*Uchinchi bosqich* nasos stansiyalari tarmoqda ehtiyoj tug'ilganda, ya'ni bosim yetarli bo'lмаган hollarda qo'llaniladi. Ba'zi hollarda butun obyektning faqat bir qismi yoki bir turdag'i iste'molchiga (alohida joylashgan obyekt) yuqori bosim ostida suv berishga ehtiyoj tug'iladi va bunday muammo yechimi uchinchi bosqich nasos stansiyalari qurish bilan yechiladi.

Ushbu qo'llanmada yong'inni o'chirish yoki uning oldini olish maqsadida bevosita ishlaydigan inshootlar, ya'ni suv tarqatish tarmog'i, boshqarish-zaxira suv sig'imlari va nasoslar masalasiga mukammal to'xtalib o'tamiz. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, baracha inshootlar va ularning alohida elementlari gidravlik hisoblari bilan talaba gidravlika va gidromashinalar kursida to'liq tushunchaga ega ekanligi nuqtayi nazaridan yondashiladi.

*Yong'inni o'chirish uchun kerak bo'ladigan suv sarfi me'yorlari.* Yong'inga qarshi suv ta'minoti tarmoqlari shahar xo'jalik-ichimlik suv o'tkazgich tarmoqlari bilan yoki ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan suv tarmoqlari bilan birlashtirilgan bo'ladi.

Yong'inga qarshi suv o'tkazgich tarmoqlari yong'inga o'ta xavfli sanoat korxonalari yoki alohida joylashgan binolari uchun (iqtisodiy jihatdan asoslanganda) boshqa suv tarmoqlaridan alohida yoki mustaqil ravishda qurilishi mumkin.

Yong‘inga qarshi suv ta’minoti tarmoqlari bosimiga qarab ikki xil bo‘ladi: *past bosimli* va *yuqori bosimli*. Shahar suv o‘tkazgich tarmoqlari past bosimli bo‘lgani uchun yong‘inga qarshi suv o‘tkazgich tarmoqlari ham past bosimli bo‘ladi. Faqat alohida binolar yoki sanoat korxonalari uchun yuqori bosimli suv o‘tkazgich tarmoqlari qurilishi mumkin.

Agar aholi maskanlarida aholi soni 5000 gacha bo‘lsa, me’yoriy hujjatlar talabiga asosan, yong‘inga qarshi suv o‘tkazgich tarmoqlari yuqori bosimli bo‘lishi mumkin. Chunki bunday maskanlarda xo‘jalik-ichimlik suv sarfi bilan yong‘inga qarshi suv sarfi orasidagi farq juda katta bo‘ladi. Shuning uchun bunday maskanlarda xo‘jalik-ichimlik va ishlab chiqarish suv ta’minoti birga qurilib, o‘t o‘chiruvchi uchun kerak bo‘ladigan svjni ochiq va yopiq turdagি hovuz hamda rezervuarlardan olinadi.

*Tashqi yong‘inni o‘chirish uchun suv sarfi me’yorlari.* Aholi turar joylaridagi tashqi yong‘inni o‘chirish uchun kerak bo‘ladigan suv sarfi hisobi aholi soniga va quriladigan binolar qavatiga qarab QMQ 2.04.02-97 ning 6-jadvalidan (undan ko‘chirma 1-jadvalda keltirilgan) olinadi.

*I-jadval*

#### Suv sarfi me’yori

Aholi maskanlarda yashovchilar soni, ming odamgacha	Bir vaqtning o‘zida bo‘lishi mumkin bo‘lgan hisobiy yong‘inlar soni	Balandligi quyidagicha bo‘lgan binolarda bir yong‘inni o‘chirish uchun suv sarfi me’yori, l/s	
		2 qavatgacha	3 qavat va undan ko‘p
5	1	10	10
10	1	10	15
25	2	10	15
50	2	20	25
100	2	25	35
200	3	—	40
300	3	—	55
400	3	—	70
500	3	—	80
600	3	—	85
700	3	—	90
800	3	—	95
1000	3	—	100

1-jadvaldan bir vaqtning o‘zida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan yong‘inlar soni ham aniqlanadi. Shahar hududida joylashgan sanoat korxonalarida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan yong‘inlar soni aholi maskanidagi yong‘in soniga qo‘shiladi.

Aholi soni 50–500 oralig‘ida bo‘lgan aholi maskanlarida tashqi yong‘inni o‘chirish uchun binolar qavatidan va binolarning o‘tga chidamliligidan qat‘i nazar, 5 l/s suv sarfi olinadi va uni o‘chirish vaqtini 3 soat deb qabul qilinadi.

Sanoat korxonalarida tashqi yong‘inni o‘chirish uchun ketadigan suv sarfi QMQ 2.04.02-97 ning 8, 9-jadvallaridan olinadi. Bunda sanoat korxonasidagi eng katta bino hajmi hisobga olinadi. Sanoat korxonadagi yordamchi binolar va jamoa binolarida yong‘inni o‘chirish uchun surf bo‘ladigan suv miqdoridan olinadi, lekin bu binolarning yong‘inga xavflik toifasi B deb olinishi lozim.

Ishlab chiqarish binolari fonussiz va eni 60 m hamda undan keng bo‘lganda tashqi yong‘inni o‘chirish uchun suv sarflaridan olinadi. QMQ 2.04.02-97 ning 2.22-bandiga asosan sanoat korxonalarida bir vaqtning o‘zida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan yong‘inlar soni korxona egallagan hudud yuzasiga qarab olinadi: 150 hektargacha bo‘lsa, bitta yong‘in, 150 hektar va undan ko‘p bo‘lsa, ikkita yong‘in olinadi.

Sanoat korxonasi suv o‘tkazish tarmoqlari shahar suv o‘tkazish tarmoqlari bilan birlashgan bo‘lsa, yong‘inni o‘chirish uchun hisobiy suv sarfi sanoat korxonasi egallagan hudud yuzasiga va aholi soniga qarab QMQ 2.04.02-97 ning 2.23-bandiga asosan olinadi:

- agar sanoat korxonasi maydoni 150 hektargacha va shahardagi aholi soni 10 minggacha bo‘lsa, bitta yong‘in olinadi (aholi maskani yoki sanoat korxonasi uchun kerak bo‘ladigan eng katta suv sarfi olinadi);

- agar sanoat korxonasi maydoni 150 hektargacha va shahardagi aholi soni 10 mingdan 25 minggacha bo‘lsa, ikkita yong‘in olinadi (bitta aholi maskanida va bitta sanoat korxonasidan olinadi);

- agar sanoat korxonasi maydoni 150 hektar va undan katta hamda shahardagi aholi soni 25 minggacha bo‘lsa, ikkita yong‘in olinadi (ikki aholi maskanida yoki ikki sanoat korxonasida eng ko‘p suv sarfi bo‘yicha);

- agar sanoat korxonasi maydoni 150 hektar va undan katta hamda shahardagi aholi soni 25 mingdan katta bo‘lsa, sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan yong‘inlar soni sanoat korxonasi uchun alohida, aholi maskani uchun alohida olinadi, umumiy hisobiy suv sarfi kat-

tasining (sanoat korxonasida yoki aholi maskanida) 100 % i, kichigining (sanoat korxonasida yoki aholi maskanida) esa 50 % i olinib, ular yig‘indisi qaraladi.

*Ichki yong‘inni o‘chirish suv sarfi me’yorlari.* Yong‘inni o‘chirish uchun umumiy suv sarfini hisoblash paytida tashqi yong‘in bilan birga ichki yong‘inni o‘chirish uchun kerak bo‘ladigan suv sarfini ham hisobga olish lozim. Binolarda ichki yong‘inni o‘chirish uchun suv ta’minoti tarmog‘i kerak yoki kerak emasligi QMQ 2.04.02-98 ning 6.5-bandiga asosan aniqlanadi. Ichki yong‘inni o‘chirish uchun suv o‘tkazgich quvuri quyidagi hollarda qurilmaydi:

- umumiylar ta’lim maktablari, bolalar bog‘chasi va yaslilarda, hammomlarda, maishiy xizmat ko‘rsatish binolarida hajmi 5000 m<sup>3</sup>. dan kichik bo‘lsa;

- vaqtincha ishlaydigan kinoteatrлarda suv ishlatilsa, portlash xavfi bo‘lgan yoki yong‘in chiqadigan sanoat korxonalari binolarida, o‘tga chidamliligi I va II darajali korxonalarining ishlab chiqarish toifasi E, F bo‘lganda (uning hajmidan qat‘i nazar) va h.k. binolarda.

Bino va xonalarda yong‘inni o‘chirish uchun suv sarfi QMQ 2.04.01-98 ning 1-jadvalidan olinadi, undan ko‘chirma quyidagi 2-jadvalda keltirilgan.

#### 2-jadval

Bino va xonalarning nomi	Ichki yong‘inni o‘chirish uchun beriladigan oqimlar (struyalar) soni va suv sarfi	
	Oqimlar soni	Bir oqim suv sarfi, l/s
Balandligi 6 dan 12 qavatgacha va hajmi 25000 m <sup>3</sup> .gacha bo‘lgan idora binolari	1	2,5
Balandligi 6 dan 12 qavatgacha va hajmi 2500 m <sup>3</sup> . dan katta	2	2,5
Balandligi 12–16 qavat bo‘lgan aholi turar binolari	2	2,5
Balandligi 17–25 qavat bo‘lgan aholi turar binolari	3	5
Balandligi 25 qavatdan katta qavat bo‘lgan aholi turar binolari	6	5

Balandligi 50 m.dan katta va hajmi 50000 m <sup>3</sup> . gacha bo‘lgan idora binolari	4	5
Balandligi 50 m.dan katta va hajmi 50000 m <sup>3</sup> . dan katta bo‘lganda	8	5
Sanoat asosida ishlaydigan qoramol fermalari va parrandachilik korxonalar	1	2,5

Sanoat korxonalarida ichki yong‘inni o‘chirish uchun kerak bo‘ladigan suv sarfi me’yorlari QMQ 2.04.01-98 ning 2-jadvalidan olinadi, undan ko‘chirma quyidagi 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

Binoning o‘tga chidamlilik darajasi	Ishlab chiqarishning yong‘inga xavflilik toifasi	Bino hajmi quyidagicha (ming m <sup>3</sup> ) bo‘lganda bir yong‘inni o‘chirish uchun suv sarfi, l/s								
		50 gacha	50–100	100–200	200–300	300–400	400–500	500–600	600–700	700–800
I va II	A, B, D	20	30	40	50	60	70	80	90	100
I va II	E, F	10	15	20	25	30	35	40	45	50

QMQ 2.04.02-97 ning 2.24-bandiga asosan, aholi maskanlarida va sanoat korxonalarida yong‘inni o‘chirish davomiyligi 3 soat deb qabul qilinib, o‘tga chidamlilik darajasi I va II ishlab chiqarishning yong‘inga xavflilik toifasi E, F bo‘lgan binolarda 2 soat olinadi.

Yong‘inni o‘chirish uchun hisobiy suv boshqa maqsadlar-dagi suv iste’molining eng yuqori qiymati to‘g‘ri keladigan soatda ta’milanishi lozim. Shu vaqtida sug‘orish, ko‘chaga suv sepish, dushda yuvinish va texnologik qurilmalarni yuvish uchun ketadigan suv miqdori hisobga olinmaydi.

Bosimli suv o‘tkazuvchi quvurlar (vodovod) va magistral suv tarmog‘ining gidravlik hisobotidan maqsad quvurning diametri va undagi bosimning yo‘qolishi qiymatlarini topishdan iborat. Topshiriqda qabul qilingan suv ta’minotining tasviri asosida bosimli suv o‘tkazuvchi quvurlar va magistral quvurlar tarmog‘i ishlaganda o‘ziga xos xarakterga ega ish tartibi hisoblanishi kerak, ya’ni quvurlar suv bosim minorasi tarmoq boshida joylashgan bo‘lsa, tarmoq ikki xarakterli hollarda hisoblanishi zarur:

- a) maksimal suv iste'moli soati;
- b) maksimal suv iste'moli soatida bo'ladigan yong'inni o'chirish.


Agar suv bosim minorasi tarmoq oxirida joylashgan bo'lsa (kontrhavza), uch xarakterli holda hisoblanadi:

- a) maksimal suv iste'moli soatida;
- b) kontrhavzaga suvning maksimal tranziti;
- d) maksimal suv iste'moli soatida sodir bo'ladigan yong'in.

### ***Yong'inni o'chirish uslublari va o't o'chiruvchi moddalar***


*Mexanik usulda yong'inni o'chirish.* Mexanik usulda yong'inni o'chirish uchun oddiy yong'in jo'mraklari ishlataladi. Yongsin jo'mraklarining ishlashi uchun bino yoki inshoot joylashgan hududagi suv ta'minoti tizimi asosiy suv manbayi bo'lib xizmat qiladi. Yongsin o'chirishda qo'llaniladigan o't o'chiruvchi jo'mraklar bino polidan 1,35 m balandlikda o'rnatiladi.

Yong'in jo'mragining tuzilishi va uning jihozlari 21-rasmda keltirilgan. Yong'inga qarshi suv tarmog'i ichimlik xo'jaligi yoki



*21-rasm. O't o'chiruvchi jo'mraklar:*

1 – yong'in ventili; 2 – shlang; 3 – brandspoyt; 4 – tez ulanadigan gayka. Yongsin jo'mrag'i quyidagi jihozlardan jamlanadi: yong'in ventili, shlang va suvni yo'naltiruvchi metall brandspoyt.



22-rasm. Tez ulanadigan yarim gayka:

*a* – tashqi rezbali gayka; *b* – ichki rezbali gayka;  
*d* – tutgich bilan ulanish qismi.

ishlab chiqarish suv tarmog‘i bilan umumlashtirilgan bo‘ladi. Oddiy o‘t o‘chiruvchi jo‘mraklar ommaviylashgan bo‘lib, odatda, ular binning doimiy ochiq turadigan, qulay va albatta, nazorat ostida bo‘ladigan qismiga o‘rnataliladi.

O‘t o‘chiruvchi shlangining qulay va tez ulanishi uchun yarim gaykalardan foydalilanildi. Bunday gaykalarning turlari 22-rasmida keltirilgan. Ushbu gaykalarni o‘t o‘chiruvchiga yong‘inning o‘chirish davomida ulanishi oson bo‘lishi va yong‘in joyiga suv sepishni tezroq amalga oshirish imkonini beradi.

O‘t o‘chiruvchi shlangi uzunligi 10 va 20 m deb qabul qilinadi. Yong‘inni o‘chirishda bosim va shlang diametri muhim omil hisoblanadi.

O‘t o‘chiruvchi oqimi quvvati 4 l/s.gacha bo‘lishi uchun shlang diametri 50 mm, undan katta qiymat uchun 65 mm.li shlang olinadi. Binoda o‘rnatalishi kerak bo‘lgan yong‘in jo‘mraklari sonini aniqlash uchun quyidagilarga ahamiyat berish kerak:

- agar binodagi nuqtalar ikki yoki undan ko‘p oqimlar bilan o‘chirilishi ko‘zda tutilsa, u holda har bir nuqta har yong‘in jo‘mragidan kamida bitta mustaqil oqim bilan o‘chirilishi kerak;
- agar binoda o‘rnatalishi ko‘zda utilgan oqimlar soni to‘rtta va undan ortiq bo‘lsa, u holda suv tarmog‘i stoyakida juftlashgan yong‘in jo‘mraklari o‘rnatalishiga ruxsat etiladi;
- har bir stoyakdan ko‘pi bilan ikkita oqim olinishiga ruxsat etiladi.



23-rasm. Avtomatik o‘t o‘chiruvchi qurilmalar.


*Drencher qurilmali yarim avtomatlashgan o‘t o‘chiruvchi tizimi.* Drencher qurilmalari ishlash tartibiga ko‘ra, yarim avtomatlashgan bo‘lib, yong‘in xavfi yuqori bo‘lgan sanoat binolari, teatr va omborxonalarda yong‘inni o‘chirish, yong‘in yuzaga kelganda suv pardalari hosil qilish uchun ishlatiladi.

Bunday jihozlarni ishga tushirish va boshqarish navbatchi tomonidan amalga oshirilganligi sababli, ular yarim avtomatlashgan o‘t o‘chiruvechi jihozlar deb ataladi. Drencherli o‘t o‘chiruvchi tizim suv ta’mnoti tarmog‘idagi bosim yoki maxsus nasos hisobiga ish-lashi mumkin.


QMQ talablariga ko‘ra, seksiyalarga ajratilgan drencherli yarim avtomatik tizimlar alohida suv tarqatish tarmog‘iga ega bo‘lishi kerak. Bu esa tizimning ishonchli va uzlusiz ishlashini ta’minlaydi.

Drencher (suv sepgich) – bu yarim avtomatik ravishda ishga tu-shadigan yong‘inga qarshi ishlaydigan qurilma. Qurilmaning asosini quyidagilar tashkil etadi: shtutserli korpus, tayanch raqamli halqa, teshikli diafragma, qulf (qulf uch qismdan iborat: shisha klapan, tayanch shayba va eruvchan qism). Tizimda ishlaydigan har bir qurilma orasidagi masofa  $B=2$  m, qurilmalar guruhi, ya’ni qatorlar orasidagi masofa  $A=4$  m. Bino devorlaridan qurilmagacha bo‘lgan masofa  $B=1$  m bo‘lishi kerak.

Drencher tizimining gidravlik hisobini bajarishda suv manbayidan eng uzoq va balandda joylashgan nuqta talab nuqtasi deb qabul



24-rasm: 1 – avtomatik klapan; 2 – suv berish quvuri; 3 – tarqatuvchi quvur; 4 – drencherlar; 5 – nazorat-signal klapani; 6 – magistral quvur; 7 – asosiy tarmoq quvuri.



25-rasm. Guruhli drencher tizim qismi:

1 – diafragmali gayka; 2 – bog’lovchi quvur; 3 – ikki tarelkali differensial klapan; 4 – klapanusti kamerasi; 5 – klapanosti kamerasi; 6 – ishga tushirish tarmog‘i; 7 – qo’lda boshqariladigan jo’mrak; 8 – sprinkler; 9 – drencher tarmog‘i; 10 – drencher; 11 – elektr signal; 12 – avtomatik ishga tushirish va o‘chirish jihizi; 13 – suv tarmog‘iga ulanadigan quvur.


qilinib, barcha hisoblar shu nuqtaga nisbatan bajariladi. Bunday hisobning mohiyati shundan iboratki, agar eng noqulay bo‘lgan talab nuqtasi kerakli hajmdagi va talab qilingan bosim ostidagi suv bilan ta’minlansa, barcha nuqtalarning suv bilan ta’minlanishi to‘liq kafolatlanadi. Yong‘inga qarshi avtomatik ravishda ishlaydigan sprinklerli o‘t o‘chiruvchi tizimda bu juda muhim ahamiyatga ega.

*Sprinklerli avtomatlashgan o‘t o‘chiruvchi qurilmalar.* Sprinklerli o‘t o‘chiruvchi qurilmalar yong‘in xavfi yuqori bo‘lgan binolarda o‘t o‘chiruvchi va yong‘inni lokalizatsiya qilish maqsadida o‘rnataladi. Avtomatlashgan sprinklerli o‘t o‘chiruvchi tizim yong‘in xavfi o‘ta yuqori bo‘lgan paxtaga ishlov berish, ip yig‘ish fabrikalari, yonish va portlash xavfi bo‘lgan kimyoviy mahsulotlar zavodlari, yog‘ochga ishlov berish, rezina mahsulotlari tayyorlash va unga ishlov berish, selluloid mahsulotlar sexlarida, shuningdek, tez yonuvchan materiallar omborlari, binolari, garajlar, teatrlar, klublar va shunga o‘xhash yong‘in tez tarqalish xavfi bo‘lgan joylarda qo‘llaniladi.

Avtomatlashgan sprinklerli o‘t o‘chiruvchi tizim yong‘in bo‘lgan hollarda avtomatik ravishda ishga tushadi va bu haqda tovushli va yorug‘lik (lampali) xabar beradi. «Sprinkler» so‘zi «sachratuvchi», «purkovchi» ma’nolarini anglatadi, demak, o‘z-o‘zidan ko‘rinib turibdiki, bu o‘t o‘chirishda ma’lum balandlikdan suvni sachratib yong‘inni o‘chirish va tarqab ketishining oldini oladigan maxsus moslamadir. Sprinkler qurilmasi bilan avtomatik ishlaydigan o‘t o‘chiruvchi tizim va sprinkler kallagining ichki tuzilishi hamda ishlash prinsipi 26, 27-rasmlarda ko‘rsatilgan.


Sprinkler qurilmalari suv quvurlari tarmog‘idan iborat bo‘lib, imoratning shipiga purkagich-kallaklar (forsunkalar) quvurlarga burab mahkamlanadi. Bu tarmoqqa suv quvurlar yoki idishdan nasoslar yordamida suv beriladi. Qurilmaning asosiy qismi – sprinkler purkagich-kallak hisoblanadi.

Harorat belgilangan qiymatdan oshib ketganda, unga o‘rnatalgan oson eruvchi metall erib ketadi va suv yo‘li ochiladi. Suv sprinkler kallagiga urilib maydalanim atrofga sochiladi. Kallakdagi o‘rnatma  $72^{\circ}\text{C}$ ,  $95^{\circ}\text{C}$ ,  $141^{\circ}\text{C}$  va  $182^{\circ}\text{C}$  haroratga mo‘ljallangan. Sprinklerlarni shunday joylashtirish kerakki, har bir kallagi  $12 \text{ m}^2$  pol yuzasiga va yong‘in xavfi yuqori bo‘lgan joylarda  $9 \text{ m}^2$  yuzaga suv sochilishga mo‘ljallangan bo‘lishi kerak.



26-rasm. Sprinklerli o't o'chiruvchi tizim:

1 – tashqi tarmoq; 2 – suv o'lchagich; 3 – nasoslar; 4 – teskari klapan; 5 – tar-qatuvchi tarmoq; 6 – suv sachratgich; 7 – bosimli suv baki; 8 – bosh suv tar-qatuvchi quvur; 9 – nazorat signal klapani; 10 – zadvijka; 11 – yong'in nasosini ulash quvuri; 12 – magistral suv tarmog'i.



27-rasm. Sprinkler qurilmalarining suv sochilish sxemasi.

## **Yong‘inni o‘chirish uslublari va o‘t o‘chirgich moddalar**

Yong‘inni o‘chirish uslublari va o‘t o‘chirgich moddalarining xususiyatlari mos ravishda yong‘inni o‘chirish vositalari tanlab olinadi. Ular asosiy, maxsus va yordamchi vositalarga bo‘linadi.

*Asosiy vositalar* – yong‘inga o‘t o‘chirgich moddalarini (suv, ko‘pik, kukun, karbonat angidrid gazi va boshq.) sepish uchun belgilangan. Bularga avtomobil, avtosisterna, motopompa, o‘t o‘chirgichlar va boshqalar kiradi.

*Maxsus vositalar* – yong‘inni o‘chirishda maxsus ishlarni bajarish uchun ishlatiladi. Ularga avtonarvonlar va tirsakli ko‘targichlar, yoritish va aloqa avtomobillari, shuningdek, tezkor avtomobillar kiradi.

*Yordamchi vositalar* – yong‘inni o‘chirishdagi ishlarni bajarish uchun yetarli sharoit yaratadi. Bularga avtosuv quygichlar, yuk avtomobillari, avtobuslar, traktor va boshqa mashinalar kiradi.

*Birlamchi o‘t o‘chiruvchi vositalar* – yong‘in boshlanganda alanganing keng tarqalib ketmasligini to‘xtatish va o‘chirish uchun qo‘llaniladi.


Ishlab chiqarish korxonalari uchun zarur bo‘lgan birlamchi o‘t o‘chiruvchi vositalarga talab O‘zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo‘jaligi vazirining 1998-yil 12-iyundagi 443/5/21 buyrug‘iga asosan aniqlanadi.

O‘t o‘chirgichlar – yong‘in boshlanishi vaqtida o‘chirish uchun qo‘llaniladi. O‘t o‘chiruvchi moddalarining tarkibiga qarab o‘t o‘chirgichlar ko‘pikli, gazsimon, suyuq, kukunsimon guruhlarga bo‘linadi.

Yong‘inni o‘chirish vositalari ishlab chiqarish binolari joylashgan maydonda maxsus taxtalarga (shchitlarda) terib qo‘yiladi (28-rasm). To‘sqlir imoratlar orasidagi masofadan 100 m, o‘tga xavfli materiallar saqlanadigan joydan 50 m oraliqda qo‘yiladi. O‘t o‘chiruvchi vositalar qizil rangga bo‘yaladi, undagi yozuvlar esa oq rang bilan yoziladi.

Kimyoviy ko‘pik o‘t o‘chirgichlar bir yilda kamida bir marta zaryadlanadi. O‘t o‘chirgichning (29-rasm) ishlash vaqtি 50–70 so‘niya, sochish uzunligi 6–8 ch., ko‘pik miqdori 40–55 l, kengayish darajasi 6 marta va turg‘unligi 40 daqiqa.

OBП-5 va OBП-10 havo-ko‘pikli qo‘l o‘t o‘chirgichlar turli moddalar va materiallar yona boshlaganda o‘chirish uchun belgilangan. Ishqoriy metallar, moddalar, havosiz yonuvchi jismlar va tok




28-rasm. O‘t o‘chiruvchi taxtalarning turlari.



29-rasm. O‘t o‘chrigichlar.

ostida bo‘lgan elektr qurilmalarni o‘chirishda qo‘llanilmaydi. Ularning o‘t o‘chrigich samaradorligi bir xil hajmdagi kimyoviy ko‘pikli o‘t o‘chrigichlarga nisbatan 2,5 marta ortiq.

Neytral zaryadning amaliy qo‘llanilishi yong‘inni o‘chirishdagi yong‘in o‘chrigichning atrofidagi jismlar uchun zararsizdir. Chunki yong‘in o‘chirilgandan so‘ng havo-mexanikaviy ko‘pik butunlay izsiz yo‘qoladi. OBП-5 va OBП-10 bir-biridan faqat korpusning hajmi bilan farq qiladi.



30-rasm. Yong'in o'chirgichni  
to'g'ri ishlatalish:

a – tortib olish; b – yo'naltirish;  
d – bosish; e – o'chirish.

po'lat idishning konusli rezbasiga sifon nay bilan latun ventil burab qotirilgan. Yong'inni o'chirishda uni ishlatalish uchun ventil maxovik o'ng tomonga oxirigacha suriladi. Uning trubkasidan chiqayotgan gaz yonuvchi jismga ventilni ochishdan oldin ro'para qilinadi.

*Kukunli o't o'chirgichlar.* Sanoatda ОП-1 «Sputnik», ОП-1 «Tourist», ОП-2 va ОП-10 kukunli o't o'chirgichlar ko'p ishlab chiqariladi. Ularda zaryad sifatida quruq kukunlar olinadi. Kukunlar yonish doirasida kislorodni siqib chiqarib, alangani mexanik ravishda o'chiradi.

Ular avtomobillar, ishqoriy tuproq, metallar, tok ostida bo'lgan elektr qurilmalar, birdaniga tez alanganuvchi va yonuvchi suyuqlik va gazzlarni o'chirishda qo'llaniladi. Kukunning kamchiligi – sovitish xususiyati past. Shuning uchun kukun bilan o'chirilganda qizigan jismlar yana alanganib borishi mumkin.

Har bir obyektda, albatta, birlamchi o't o'chiruvchi vositalardan tashqari, binolar oldiga va omborlarda o't o'chiruvchi vositalar bilan jihozlangan maxsus taxtalar bo'lishi shart. Bunda taxtalarni kerakli jihozlar bilan ta'minlash tashkilotlar rahbarlariga yoki boshqa javobgar shaxslarga topshiriladi.

O't o'chiruvchi vositalar va qurilmalarni o't o'chirishga bog'liq bo'lmagan ishlarga qo'llash qat'iy man etiladi. Yong'in o'chirish vositalari obyektning maydoni va texnologik jarayonlarga qarab hisoblanadi.

Karbonat angidrid gazli o't o'chirgichlarda (ОY-2, ОY-5, ОY-8 qo'l va ОY-25, ОY-80 aravachaga o'rnatilgan ko'chma) karbonat angidrid ( $\text{CO}_2$ ) o't o'chirgich zaryadi hisoblanadi. Ularning tuzilishi bir-biriga o'xshash. Undagi sonlar idishning hajmi litrda ifodalanishini ko'rsatadi. Yong'in o'chirgichlar siqilgan gaz bilan to'ldirilgan bo'lib, tok o'tkazmaydi.

Shuning uchun ular tok ostida bo'lgan elektr qurilmalarni va katta bo'lmagan yong'inni o'chirish uchun mo'ljallangan. Yong'in o'chirgich

mo'ljallangan. Yong'in o'chirgich

po'lat idishning konusli rezbasiga sifon nay bilan latun ventil burab qotirilgan. Yong'inni o'chirishda uni ishlatalish uchun ventil maxovik o'ng tomonga oxirigacha suriladi. Uning trubkasidan chiqayotgan gaz yonuvchi jismga ventilni ochishdan oldin ro'para qilinadi.

*Kukunli o't o'chirgichlar.* Sanoatda ОП-1 «Sputnik», ОП-1 «Tourist», ОП-2 va ОП-10 kukunli o't o'chirgichlar ko'p ishlab chiqariladi. Ularda zaryad sifatida quruq kukunlar olinadi. Kukunlar yonish doirasida kislorodni siqib chiqarib, alangani mexanik ravishda o'chiradi.

Ular avtomobillar, ishqoriy tuproq, metallar, tok ostida bo'lgan elektr qurilmalar, birdaniga tez alanganuvchi va yonuvchi suyuqlik va gazzlarni o'chirishda qo'llaniladi. Kukunning kamchiligi – sovitish xususiyati past. Shuning uchun kukun bilan o'chirilganda qizigan jismlar yana alanganib borishi mumkin.

Har bir obyektda, albatta, birlamchi o't o'chiruvchi vositalardan tashqari, binolar oldiga va omborlarda o't o'chiruvchi vositalar bilan jihozlangan maxsus taxtalar bo'lishi shart. Bunda taxtalarni kerakli jihozlar bilan ta'minlash tashkilotlar rahbarlariga yoki boshqa javobgar shaxslarga topshiriladi.

O't o'chiruvchi vositalar va qurilmalarni o't o'chirishga bog'liq bo'lmagan ishlarga qo'llash qat'iy man etiladi. Yong'in o'chirish vositalari obyektning maydoni va texnologik jarayonlarga qarab hisoblanadi.

## **Yong‘inni o‘chirishda qo‘llaniladigan moddalar, ularning sinflanishi va xususiyatlari**

Sanoat korxonalari joylashgan bino va inshootlarda yuz ber-gan yong‘inni o‘chirish uchun suv bug‘i, ko‘pik, inert gazlar, turli kukunlar, siqilgan havo va ko‘pik moddalar keng qo‘llaniladi. O‘t o‘chiruvchi moddalar elektr o‘tkazish va elektr o‘tkazmaslik (gazlar, kukunlar) xossalariiga ega bo‘ladi.

Shuningdek, zaharli (brometil, freon), kam zaharli (azot, ko‘mir kislotasi), zaharsiz (suv, ko‘pik, kukunlar) turlarga bo‘linadi. Shuning uchun ishlab chiqarish obyekt va maydonlari o‘t o‘chiruvchi moddalar bilan ta’milanadi va yong‘inni o‘chirishda biron uslubni qabul qilganda ularni hisobga olish kerak.

Suv – eng ko‘p tarqalgan, oson topiladigan, qulay ishlatiladigan o‘chiruvchi modda hisoblanadi (31-rasm). U yuqori issiqlik sig‘imiga ega bo‘lgani uchun olovni o‘chirish jarayonida yonayotgan moddalardan juda ko‘p issiqliknini oladi.

Bir gramm suvni bug‘ga aylantirish uchun 2,26 kJ issiqlik sarf qilinadi. Suvning kamchiliklari – issiqlik sig‘imidan foydalanish koeffitsiyenti past, elektr o‘tkazuvchan, chang qatlamiga ta’sir etganda portlovchi xavfli aralashmalar hosil qiladi.

Shu sababli, suv ko‘p holatlarda ishlatilmaydi. Ayniqsa, kalsiy karbidga suv tushganda yong‘in sodir bo‘ladi va portlashga xavfli gaz – asetilen ajraladi, so‘ndirilmagan ohak esa juda katta issiqlik chiqarib, yonidagi yonuvchi materiallarni yondiradi.



*31-rasm. Suv bilan yong‘inni o‘chirish.*

Ko‘pincha yong‘inni o‘chirish uchun suv, 3–10% li brometil va boshqa aralashmalardan tayyorlangan eritmalar ishlataladi. Eritmani namlaydi, sovitadi va yonuvchi materialni bug‘ bilan qoplaydi.

Ko‘pik sovitgich vazifasini bajarib, ma’lum vaqt ichida kislorodning issiq yuza kirishiga qarshi turish qobiliyatiga ega.

Ko‘pik kukun sariq-ko‘k ko‘rinishda bo‘lib, kislota va ishqordan iborat. Kislota qismiga, odatda, mayin maydalangan aluminiy sulfat, ishqorga esa maydalangan natriy gidrokarbonat olinadi. Bu ko‘pik neft mahsulotlari, spirit, aseton va boshqa moddalarni o‘chirishda qo‘llaniladi. Kimyoviy ko‘pik hajmi bo‘yicha 80% karbonat angidrid, 19,7% suv va 0,3% ko‘pik hosil qiluvchi moddadan iborat. Ko‘pikning turg‘unligi (to‘la parchalanguncha) 40 daqiqaga yaqin.

Mexanikaviy havo ko‘pik neft mahsulotlarini o‘chirishda qo‘llaniladi. U suv, havo va ko‘pik hosil qiluvchi moddalarning maxsus generator dastaklarda va yong‘in o‘chirishda tez aralashi-shi natijasida olinadi. Mexanikaviy havo ko‘pik amalda tajovuzkor kimyoviy xossalarga ega emas, kimyoviy ko‘pikka nisbatan elektr o‘tkazuvchanligi kamroq bo‘lgani uchun elektr qurilmalarning kuchlanishi bo‘lganda ham (masofadan turib, tizillab chiquvchi ko‘pik bilan) o‘chirishda qo‘llaniladi.

Karbonat angidrid gazi ( $\text{CO}_2$ ) – inert, rangsiz gaz, havodan 1,5 marta og‘ir,  $0^\circ$  da bosimi 3,6 MPa. da suyuq holatga aylanadi. Yong‘in o‘chirishda purkalganda juda tez kengayadi (500 martaga-chá) va past ( $-72^\circ\text{C}$ ) haroratda, gazsimon massaga aylanadi.

Karbonat angidridning asosiy xossalardan biri shundan iboratki, u erimasdan to‘g‘ridan to‘g‘ri gaz holatiga aylanadi. Karbonat angidrid gazining elektr neytralligi kuchlanish ostida bo‘lgan elektr qurilmalarni o‘chirishda qo‘llash imkoniyatini beradi. Yonayotgan xonadagi hajmga nisbatan  $\text{CO}_2$  aralashmasi 30% dan kam bo‘lmasa, karbonat angidridi ishlatilganda yong‘in butunlay to‘xtaydi. Bu gaz yordamida berk imoratlarni o‘chirishda yaxshi natija olinadi.

*Kukunlar suv bilan reaksiyaga kirishuvchi ishqoriy metallar, aluminiy organik birikmalar, fosfor, yonuvchi suyuqliklar va boshqa moddalar. Ular suv bilan ko‘pikdan buziluvchi qimmatli hijjatlar, suratlар va boshqa qimmatbaho materiallarni o‘chirish uchun mo‘ljallangan.*

Kukunli yong‘in o‘chirishchilar ПС-1 va ПС-2 tarkibi bilan ishlab chiqariladi. Kukun elektr o‘tkazmaydi, odam uchun zararsiz, arzon, tashish va saqlash qulay. Past haroratda muzlamaydi. Juda ko‘p yonuvchi suyuqliklarni o‘chirishda qo‘llaniladi.

---

---

## **11-bob. YONG'IN O'CHIRISH TAKTIKASI ASOSLARI. YONG'INDAN SAQLASH BOSHQARMASI, O'T O'CHIRISH QISMI SHAXSIY TARKIBINING JANGOVAR ISHLARIDAN MISOLLAR**

Zamonaviy fan va texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish korxona, idora va muassasalar texnologik jarayonlarda sintetik, portlovchi va yonuvchi mahsulotlar qo'llanilishi, kimyo, neft va gaz sanoatining kuchli taraqqiy etishi, ma'muriy, ishlab chiqarish, yashash uchun mo'ljallangan bino-inshootlarning ko'p qavatli hamda keng maydonli qurilishi ularda yong'in xavfini oshirib yuboradi. Bu esa yong'inlarning oldini olish va o'chirishga e'tiborni kuchaytirishni talab etadi.

Ushbu talablarni bajarish maqsadida o't o'chiruvchilarining kasbiy mahoratlarini mukammallashtirishga, jangovar tayyorgarlik darajasini ko'tarishga e'tibor qaratilmoqda. Yong'inlarni o'chirish taktik mahoratga ega bo'lishlari uchun xodimlarni malakali tayyorlash talab etiladi.

*O't o'chirish taktikasi* – bu o't o'chirishda yong'indan saqlash xizmati bo'linmalarining jangovar harakatlari olib borilishi va ularni nazariy hamda amaliy tayyorlash demakdir.

O't o'chirish taktikasi fanini o'rganish asosi, bu – yong'inlarni o'chirishni o'rganish va har qanday kuch va vositalar bilan yong'inlarni o'chirish. Fanning nazariy qismi yong'inlarning tarqalishini, taraqqiy etib borishi asoslarini, yong'indan saqlash xizmati bo'linmalarining jangovar harakatlarini olib borishni tashkillashtirish asoslari va umumiy muammolarini o'rgatadi.

Amaliy mashg'ulotlarda esa ishlab chiqarish korxona (idora, tashkilot, muassasa va turar joy binolari hamda inshootlarida yong'indan saqlash xizmati xodimlarining jangovar harakatlari) yong'in holatini aniqlash, odamlarning mol-mulkalarini qutqarish, yong'inlarni bartaraf etish, texnikalarni qo'llash, ulardan unumli foydalanish va h.k. o'rganiladi.

Keyingi yillarda o't o'chirish taktikasi taraqqiy etgan fanlar dan biriga aylandi, chunki xodimlarni tayyorlashda va yong'inlarni

o‘chirishda ularning jangovar harakatlarning olib borilishi nazariy jihatdan tajriba-sinovlari asosida izohlab berish darajasiga ko‘tarildi.

O‘t o‘chirish taktikasi quyidagi vazifalarni bajaradi:

- yong‘inlarning taraqqiy etishini izohlaydi;
- odamlarni qutqarish va yong‘inlarni o‘chirish usullarini ishlab chiqadi va qo‘llaydi;
  - yong‘indan saqlash xizmati tashkiliy tizimini ishlab chiqadi;
  - tizimlar xodimlarini tayyorlash va ularning taktik qobiliyatlarini o‘rgatadi.

Yong‘indan saqlash xizmati garnizonlarining hamma tizim xodimlarini o‘t o‘chirish taktikasiga o‘rgatmay turib, yong‘inlarni o‘chirish va tashkil etish taktikasi bo‘yicha chora va tadbirlarni ishlab chiqib bo‘lmaydi. Xodimlarni o‘t o‘chirish taktikasiga tayyorlash ruhiy tayyorgarlik bilan birgalikda olib boriladi, chunki yong‘indan saqlash xizmati shaxsiy tarkibi jangovar harakatlarini bajarish borasida har qanday yong‘in holatlari, ayrim hollarda esa xavfli holatlar bilan to‘qnash kelishlari mumkin. Shaxsiy tarkib bu holatlarni yengishga doimo tayyor bo‘lishi kerak.

Yong‘inlarning tarqalishi va ularni o‘chirish holatlarini tajribada aniqlab, o‘t o‘chirish bo‘linmalari jangovar harakatlari usullarining o‘t o‘chirish taktikasi ishlab chiqiladi. Bu yong‘inlardagi holatlarni to‘liq bartaraf etishga yetarli bo‘lmasligi mumkin, chunki o‘t o‘chirish taktikasi har qanday aniq holat uchun chora-tadbirlarni belgilamaydi, u asosiy va eng zaruriy qoida va holatlarni belgilaydi.

Ushbu holatlarga asosan o‘t o‘chirish rahbari yong‘inni bartaraf etish bo‘yicha qarorlar qabul qiladi va shu qarorlarga asosan, jangovar vazifalar bajarilishi ta’minlanadi.

O‘t o‘chirish taktikasi o‘t o‘chirish texnikalarining taktik-texnik qobiliyatları darajasi bilan ham farqlanadi. Bu taraqqiy eta borib, o‘t o‘chirish bo‘linmalarining mukammallashtirilgan o‘t o‘chirish texnika va mahsulotlari bilan ta’minlanishi, ya’ni yangi-yangi o‘t o‘chirish usullarini quo’llash bilan aniqlanadi.

Masalan, o‘rta ko‘piruvchanlikka ega bo‘lgan ko‘pikning yaratilishi neft va neft mahsulotlari, kabellar xonasi va binolar yerto‘lalari, kema va boshqalarda bo‘ladigan yong‘inlarni o‘chirish usullarini aytarli darajada o‘zgartirishga olib keladi.

---

---

## **12-bob. MEXANIZATSIYALASHTIRILMAGAN VA MEXANIZATSIYALASHTIRILGAN O'T O'CHIRUVCHI ASBOBLAR. ASBOBLARDAN FOYDALANISH VA UALAR BILAN ISHLASH USULLARI. XAVFSIZLIK CHORA-TADBIRLARI**

Yong'in paytida qurilish qismlarini, texnologik qurilmalarning qism va tarmoqlarini ochishga, ajratishga va buzishga ham to'g'ri kelishi mumkin. Ushbu ko'p mehnat talab etuvchi ishlarni bajarish uchun yong'indan saqlash bo'linmalari maxsus asbob va anjomlar bilan quronadi. Bu qurollar sarflaydigan quvvat turiga qarab ikki guruhga bo'linadi: mexanizatsiyalashtirilmagan va mexanizatsiya-lashtirilgan qo'lda ishlatiladigan asboblardir.

Asboblар, qurilish qismlarida yashirin yonish o'choqlarini ochish hamda yonayotgan xona haroratini pasaytirish va tutunlarni chiqarib, ishlayotgan yong'in o'chiruvchilarga ish sharoitini yaratish uchun tayyorlangan.

Qo'lda ishlatiladigan asboblarning ayrimlari o't o'chiruvchi avtomobillar jihozlari jamlamasiga kiradi.

### **12.1. MEXANIZATSIYALASHTIRILMAGAN, QO'LDA ISHLATILADIGAN O'T O'CHIRUVCHI ASBOBLAR**

Bunga lomlar, bagorlar, ilgaklar (kryuki), boltalar, belkuraklar, arrachalar, elektr simlarini va deraza panjalarini kesuvchi qaychilar hamda elektr simlarini kesishda qo'llaniladigan boshqa mexanizatsiyalashtirilmagan qo'lda ishlatiladigan o't o'chiruvchi asboblар kiradi.

*a). O't o'chiruvchi lomlar uch xil turda ishlab chiqarilmoqda:*

1) O'O'OL – o't o'chiruvchi og'ir lom (ЛПТ) – yog'och pollarni, firma va shunga o'xshash qurilish qismlarini ajratishda foy-dalaniladi;

2) O'O'YL – o't o'chiruvchi yengil lom (ЛПЛ) – bu lomlar yong'in joylarini tozalashda, tomlarni ochishda hamda o't o'chiruvchi

gidrantlar qopqog‘i ustidagi muzlarni tozalashda, qopqoqni ochishda va boshqalarda foydalaniladi;

3) O‘O‘UL – o‘t o‘chiruvchi universal lom (ЛПУ)lar eshik, devara va tor joylarda har qanday ishlarni bajarishda qo‘llaniladi.

O‘t o‘chiruvchi lomlarning qisqacha texnik ko‘rsatkichlari:

Turi	Belgisi	Diametri (mm)	Uzunligi (mm)	Og‘irligi (kg)
I	O‘O‘OL	30	1200	6,7
II	O‘O‘YL	25	1100	4,5
III	O‘O‘UL	25	500	1,8


**b). Bagorlar** – bino va inshootlarning tom yopmalarini, to‘sinq, devor va boshqa qismlarini ajratishda, bundan tashqari, yong‘in joyidan yonuvchi jism va narsalarni chiqarib olish uchun mo‘ljallangan. Ular ikki turdan iborat:

1) O‘O‘MB – o‘t o‘chiruvchi metall bagori (БПМ) – metalldan tayyorlangan bo‘lib, bir tomoni ilgak va to‘g‘ri uchli, ikkinchi uchi esa halqa sopdan iborat;

2) O‘O‘YSB – o‘t o‘chiruvchi yog‘och sopli bagor (БПН) – uzun sop qismiga metalldan tayyorlangan ilgak qismining diametri 6 mm bo‘lgan mixlar yordamida o‘rnatalidi.

O‘t o‘chiruvchi bagorlarning qisqacha texnik ko‘rsatkichlari:

Turi	Belgisi	Uzunligi (mm)	Og‘irligi (kg)
I	O‘UMB	2000	5
II	O‘O‘YSB	650	2



32-rasm.  
O‘t o‘chiruvchi ilgagi.

#### **d). O‘t o‘chiruvchi ilgagi (kryuk).**

Yong‘inlarda yonayotgan har qanday jism va narsalarni sudrab chiqarishda, bino qismlarini ajratish va buzishda o‘t o‘chiruvchi ilgagidan foydalilaniladi.

Ilgakning uchiga 1,5 metrdan qisqa bo‘lmasligi, o‘tga chidamli tarkib bilan ishlov berilgan, arqon bog‘langan bo‘lib, ilgakni jismlarga ildirib, shu arqon yordamida sudrab chiqiladi.

*e). O't o'chiruvchi boltasi.*

O't o'chiruvchi boltasi ikki xil bo'ladi: kichik bolta (yong'in o'chiruvchining qutqaruv kamarida taqib yuriladi) va katta bolta (o't o'chiruvchi avtomobilida maxsus joyda o'rnatiladi).

Katta bolta yong'in bo'layotgan bino va inshootning yog'och qismalarini kesish, ajratish va buzish uchun xizmat qiladi. Uning sop qismi qattiq yog'ochlardan tayyorlangan bo'lib, og'irligi 5 kg.

*f). O't o'chiruvchi girdranti o'rnatilgan quduqning qopqog'ini ochish uchun mo'ljallangan ilgak.*

Ilgak diametri 18 mm bo'lgan po'lat metalldan tayyorlangan bo'lib, uning o'tkirlangan yapaloq (yalpoq) uchi  $65^{\circ}$  pastga, halqasimon sopi esa yuqoriga buklangan bo'ladi. Ilgakning og'irligi 1,2 kg.ni tashkil etadi.

Ilgak, suv haydagichi o'rnatilgan jami o't o'chiruvchi avtomobilarning jihozlar jamlamasi tarkibiga kiradi.

O't o'chiruvchi asbob va anjomlari (lom, bagor, qaychi, belkurak, bolta, arra va boshq.) Davlat standarti va texnik sharoit talablariga javob berishi kerak.

Asbob (anjom)dan uzoq muddatga foydalanish va u bilan xavfsiz ishslash, uni soz saqlash va har kuni uning texnik holatini nazorat qilish hamda o'z vaqtida texnik xizmat ko'rsatish bilan ta'minlanadi. Ularning butligini nazorat qilish har kuni navbatchilikka tushish paytida amalga oshiriladi.

Asbob (anjom)ning yaroqlilagini tashqi ko'rik va sinov o'tkazish bilan aniqlanadi. Baxtsiz hodisalarning oldini olish maqsadida asbob (anjom) bilan ishslashda uni tashqi ko'rikdan o'tkazib, soplarining o'rnatilish sifatiga va holatiga, ichki qismining tozaligiga, yuzasining silliqligiga, yoriq joyining yo'qligiga, singan, buklangan, qayrilgan, zanglagan joylarining yo'qligiga e'tibor berish kerak.

Zanglashning oldini olish maqsadida, har kuni va har biri ishlatilgandan so'ng, uning yuzasi quruq latta bilan tozalab artiladi.

Mexanizatsiyalashtirilmagan asbob (anjom) yuzasini nikellash, rangli bo'yoqda bo'yash yoki boshqa shunga o'xshashlarni surkashga ruxsat etilmaydi, chunki bu holatda ishlayotganda qo'lidan sirpanib



33-rasm. Kichik bolta.

chiqib ketishi mumkin, qolaversa, bo‘yoq ostidan nosozliklarni aniqlab bo‘lmaydi.

Bolta, arra, temir panjaralarni kesuvchi qaychilar maxsus g‘iloflarda saqlanishi kerak.

### ***g). Elektrdan himoya qilish vositalari.***

Yong‘inlarni o‘chirish jarayonida ko‘plab kuchlanishga ega bo‘lgan elektr o‘tkazgichlarga duch kelinadi. Ayrim hollarda ulardan o‘tayotgan elektr tokining kuchlanishi 250 V.dan ortiq bo‘ladi. Bunday hollarda yong‘inlarni o‘chirishni, faqat tarmoqdagi elektr toki uzilgandan so‘ng amalgalash kerak.

Bunday hollarda elektr simlarini qirqish va uni zararsizlantirish kerak bo‘ladi. Elektr simlarini kesishda o‘t o‘chiruvchi bo‘linmalarda quyidagi asboblardan foydalanish mumkin:

- maxsus sop qaychilar;
- dielektr rezinali qo‘lqoplar;
- dielektr rezinali kalishlar;
- o‘lchami  $50 \times 50$  sm.dan kam bo‘limgan ustki qism taram-taram novli dielektrik rezinali sholchalar.

Elektr himoya vositalarining yaroqsizligini aniqlovchi tashqi ko‘rinishlar quyidagilar:

- qaychilarning soplaridagi himoya qoplamlarida shikastlanishi bo‘lsa va tayanch halqasining yo‘qligi;
- rezina qo‘lqoplar, kalishlar, sholchalarda teshiklar va yoriqlar bo‘lishi;
- ko‘chma yerga tutashtirgichlar uchun aloqa bog‘lamalarining va mis simlarning mexanik mustahkamligi buzilsa (mis sim bog‘lamaning 10 % dan ortig‘ining uzilishi, kesimi  $12 \text{ mm}^2$ .dan kam bo‘lgan boshqa simlar bilan almashtirilishi va h.k.).

Har bir elektrdan saqlash vositalari belgilangan muddatda sinovdan o‘tkazilmasa, ishga yaroqsiz hisoblanadi. Sinovlar Davlat energiya nazorati idoralarining ruxsatnomasi bo‘lgan maxsus tajriba xonalarida o‘tkaziladi. Sinovlarning natijalari hujjat bilan ras-miylashtiriladi va keyingi sinov muddati o‘tguncha qism (birikma) yig‘ma jiddida saqlanadi. Qo‘lqoplar, qo‘njali kalishlar, sholchalar va hokazolarda sinovning navbatdagi muddati ko‘rsatilgan muhr qo‘yiladi.

Elektrdan saqlanish vositalari	Sinovdan o'tish muddatlari
Dielektrik rezinali qo'lqoplar	6 oyda 1 marta
Dielektrik rezinali kalishlar	1 yilda 1 marta
Dielektrik soplari qaychilar	1 yilda 1 marta
Dielektrik rezinali sholchalar	2 yilda 1 marta
Dielektrik rezinali qo'njali kalishlar	3 yilda 1 marta

Elektrdan himoya qilish vositalari o't o'chiruvchi avtomobilda, alohida g'ilof kiydirilgan holda saqlanadi.


## 12.2. MEXANIZATSIYALASHTIRILGAN, QO'LDA ISHLATILADIGAN O'T O'CHIRUVCHI ASBOBLAR

Mexanizatsiyalashtirilgan qo'lda ishlatiladigan o't o'chiruvchi asboblar qo'llaniladigan quvvatlar turiga qarab benzomotorli, elektr-lashtirilgan, pnevmatik va gaz bilan kesuvchi asboblarga bo'linadi.

a). **benzomotorli arra «Ural-5»** (34-rasm) har qanday o't o'chiruvchi avtomobilning jamlamasiga kirishi mumkin. U ichki yonish dvigatelidan (1), kuch uzatgichidan (2), zanjirli arradan (3), startyor (ishga tushiruvchi qurilma)dan (4) iborat.

Dvigateli bir silindrli, ikki taktli, karburatorli, benzinda ishlaydi, uning hosil qiladigan kuch kattaligi 3,68 kW (5 ot kuchi)ga teng. U uch xil: sovitish, yoqilg'i bilan ta'minlash va yondirish tizimlaridan iborat.

*Sovitish tizimi* – havo yordamida sovitadi. Dvigatel ishlaganda tirsakli valda o'rnatilgan havo so'rg'ich (ventilator) himoyalovchi tur orqali havo so'radi, spiralli uzatgich orqali qizigan silindr qovurg'alariga yo'naltiradi va shu bilan uni sovitadi.



34-rasm. Benzomotorli arra «Ural-5»:

1 – ichki yonish dvigateli; 2 – transmissiya; 3 – arralash asbobi;  
4 – ishga tushiruvchi qurilma.

Yoqilg‘i bilan ta’minlash tarmog‘i – benzin uzatuvchi jo‘mrakli benzin idishi, havo tozalagichli va havo to‘sqichni boshqarish qurilmadan, karburator va yoqilg‘i uzatuvchi ninadan iborat. A-72 yoki A-76 benzin va M8Б yoki M10Б turdag‘i avtotraktor moyining 20:1 hissali qorishmasi yoqilg‘i bo‘lib xizmat qiladi. Yoqilg‘ining ehtiyyot miqdori 1,3 l.ni tashkil etib, bu arraning 40–45 daqiqa uzlusiz ishlashini ta’minlaydi. Yoqilg‘i benzin idishidan karburatorga o‘z holicha oqib tushadi. Karburator dvigatelga kerakligicha benzin uzatib turadi.

*Yondirish tizimi* – arra dvigateli chulg‘amiga 12 V tok kuchlanishini magneto ishlab chiqib uzatadi.

*Kuch uzatish* – dvigatelning tirsakli validan kuch zanjirli arraga uzatiladi. Kuch uzatish qismlariga tirmashish muftasi, kuch pasaytiruvchi (reduktor) va zanjirli arraning ishga tushiruvchi yulduzchalar kiradi.

«Ural-5» benzomotorli arraning kesuvchi qismi arralovchi zanjirdan iborat bo‘lib, yog‘och jismlarni arralash uchun mo‘ljallangan. Arralovchi zanjir konsolli yo‘naltiruvchi bo‘shliq, ikkita aylantiruvchi va aylanuvchi yulduzchalar yordamida aylanadi. Startor yordamida dvigatel qo‘shiladi. «Ural-5» benzomotorli arraning bazasida universal mexanizmlar jamlamasи ishlab chiqarilgan.


Bunda ishchi organlar: arralash zanjiridan tashqari korundli disk, beton sindiruvchi va tutun so‘rg‘ichlar almashtirib o‘rnatilishi mumkin. Korundli disk yordamida 300 mm.gacha bo‘lgan yog‘och, metall va beton konstruksiyalarni arralash mumkin.

Diskni ishga tushirish kuch uzatish kamari yordamida reduktor valiga o‘rnatilgan aylantiruvchi shkif bilan yuzaga keltiriladi. Dvigatela beton sindiruvchiga quvvat uzatish (35-rasm, *b*) egiluvchan val yordamida ta’milanadi.

O‘t o‘chiruvchi tutun so‘rgich (35-rasm, *d*) benzomotor «Ural-5»ga ulanganda 200°C gacha haroratga ega bo‘lgan xonadan yonish paytida hosil bo‘lgan tutunni soatiga 7 ming m<sup>3</sup>.ga chiqaradi yoki shuncha toza havoni xonaga uzatadi.

### ***b). Konsol turdag‘i zanjirli elektr arra.***

Bu arra GTHX avtomobilida bo‘lib, u elektr dvigatel, reduktor va zanjirli arradan iborat. Arrani boshqarish uchun korpusda dasta o‘rnatilgan. Zanjirli arrani ishga tushirish uchun yuqori chastotali (400 Hz) va 220 V kuchlanishli elektr dvigatel xizmat qiladi. Uning rotorining aylanish tezligi 12000 aylana/daqiqadir. Mexanizatsiya lashtirilgan arralarga har kuni navbatchilikka kirishayotganda,



35-rasm. Mexanizatsiyalashtirilgan universal jamlama (УКМ-4):

*a* – korundli diskli, motorli asbob; *b* – beton sindirgich;  
*c* – tutun so‘rgich (ДП-7).

ularning har biri ishlatigandan so‘ng hamda ulardan foydalanish yo‘riqnomasi talablariga asosan 25, 50, 100 va 400 soat ishlagandan so‘ng texnik xizmat ko‘rsatiladi.

Zanjirli benzomotorli arra, qaziydigan bolg‘a va o‘t o‘chiruvchi tutun so‘rgich (ДП-7)lar bilan ishlaganda quyidagi asosiy talablarga rioya qilinishi zarur:

a) asboblarda ishlash uchun maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan va ular bilan ishlashga huquqi bor bo‘lgan shaxslargagina ruxsat etiladi. Bunda:

- buzuq asboblar bilan ishlamaslik, dvigatelni tiragichsiz yurgizmaslik kerak;
- dvigateli ishlab turgan asbob-uskunani bir joyda ikki shinalarining, kesuvchi aylananing mustahkam qotirilganligini, zanjirning tortilganligini tekshirish kerak;
- dvigateli ishga tushirayotganda kesuvchi aylana va uning zanjiri hech qanday buyumlarga tegmasligi kerak;
- dvigatelning bekordan bekorga ishlashida, uning yemirilishining oldini olish uchun tezligini boshqaruvchi vositasi bo‘shatilgan holatda ishlatilishi kerak;
- dvigatelning bekordan bekorga ishlashidagi aylanishida maxsus liniyani ulamaslik kerak;
- dvigatelning ish bilan band bo‘limganida nominal aylanishga chiqarish man etiladi;
  - uskunalarga yoqilg‘i quyish faqat dvigatelning bekorga aylanishida ruxsat etiladi;

- kesishning boshlanishi va uning tugatilishi (ishlovchi asbob-uskunani arralashdan chiqarish) raxonlik bilan va sapchitmasdan bajarilishi kerak;
- dvigateli ishlab turgan asbob-uskunani bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirishni faqat dvigatelning bekorga ishlayotganida ruxsat etiladi;
  - bajarilayotgan ishning borishida zanjirning uzilishi yoki bo‘shab qolishida, tiragichning mustahkamligi zaiflashganda, shinalarni, kesuvchi aylanani, siquvchi g‘ilofning yoki boshqa kamchiliklar ayon bo‘lganida darhol tezlikni tashlash va dvigatelni to‘xtatish lozim;
  - tiragichlar qo‘yilgan dvigatelning ishlab turganida sozlash ishlarini bajarish va kamchiliklarni bartaraf qilish man etiladi;
  - chulg‘amdagи baland kuchlanishli kontaktli simni yechish yo‘li bilan dvigatelni to‘xtatish man etiladi;
- b) himoyalovchi ko‘zoynaksiz yoki o‘t o‘chirishda ishlatiladigan dubulg‘a (kaska)ning himoyalovchi oynasi bo‘lмаган taqdirda ishlash man etiladi;
- d) imoratning yog‘ochli qismlarini ochishda xavfli zarbalar yoki asbob-uskunaning sapchib ketmasligi uchun arralash (kesish)ni rama yoki dasta tuzilmaga (kesiladigan namuna) tiragandan (suyagandan) so‘ng boshlash kerak.
- Gorizontal va tikkasiga kesish usullari va ularni bajarish, kesish mo‘ljallangan joyga qo‘yilgan 200 n (20 kgs)dan kam bo‘lмаган kuch ta’siri ostida egilmaydigan qilib qotirilgan, qalinligi 20 mm.dan kam bo‘lмаган yog‘ochdan qilingan taxtachalarda bajariladi;
- e) kesish vaqtida kesuvchi aylana bilan ishslashda faqat mahkamlangan (qotirilgan) tuzilmalarda, yuzalarda, namunalarda o‘tkazishga ruxsat etiladi;
- f) yog‘ochdan qilingan imoratlarni ochishda zanjirning yuqori qismidagi yuzani siqishga yo‘l qo‘ymaslik zarur, chunki asbob operatorga qarab irg‘ib ketishi mumkin;
- g) qaziydigan bolg‘a bilan ishlayotgan motorning ishchi moslamasini operator yordamchisi boshqarishi kerak.
- Qoidalarda ko‘rsatilgan bandlardan tashqari, tatbiq qilinib ishlatiladigan hujjatlarning tegishli bo‘limlarida ifoda etilgan xavfsizlik choralariga rioya qilish zarur.

### *d). Pnevmatik beton sindiruvchi bolg‘alar.*

Temir-beton, tosh g‘ishtdan qurilgan inshootlarni ajratish yoki buzish hamda qattiq yuzalarni ochishda pnevmatik beton sindiruvchi bolg‘alardan foydalaniladi.

Yong‘indan saqlash xizmati texnik xizmat ko‘rsatish avtomobillarida to‘rt xil pnevmatik beton sindiruvchi bolg‘alar: MO 8, 9, 10 va 13 qo‘llaniladi. Pnevmatik beton sindiruvchi bolg‘a (36-rasm) bilan ishlashda himoya ko‘zoynaklaridan foydalanish lozim.

Bolg‘aning korpusini tik holatda tutib, ozgina o‘zimiz tomonga qiyalatish kerak. Beton sindiruvchining havo ichagi mustahkam o‘rnatalishini nazorat ostiga olish kerak. Nosozliklar aniqlanganda, havo ichagini undan ajratgandan so‘ng sozlashga ruxsat etiladi.


#### **MO-10 pnevmatik beton sindiruvchi bolg‘aning texnik xarakteristikasi**

Ko‘rsatkichlar	Me’yori
Og‘irligi (kg)	10
Bolg‘asining uzunligi (mm)	600
Ishchi bosimi, (kPa) (kgs/sm <sup>2</sup> )	500 (5)
1 daqiqada urish soni	1200
Havo sarflanishi (m <sup>3</sup> /daqiqada)	1,25

Mexanizatsiyalashtirilgan qo‘lda ishlatiladigan o‘t o‘chiruvchi asboblarga texnik xizmat ko‘rsatish va sozligini tekshirish har kuni qorovullar navbat almashinuvida, har gal ishlatilgandan, ta’mirlangandan so‘ng hamda texnik pasportlarida yoki ularдан foydalanish yo‘riqnomasida ko‘rsatilgan muddatlarda amalga oshiriladi.

Elektrlashtirilgan asboblar va yoritish anjomlaridan foydalanish quyidagi hollarda taqiqlanadi:

a) asboblar va elektr simlarining ustki ehtiyyot qatlami butunligi buzilganda;



36-rasm. Pnevmatik beton sindiruvchi bolg‘a:

1 – bolg‘a uchi; 2 – bolg‘a uchini tutuvchi; 3 – dastak; 4 – porshenli silindr; 5 – ishga tushirish qurilmasi; 6 – havo ichagini ulagich; 7 – dastasi.

b) asboblar va anjomlarning alohida qismlari bo'sh qotirilgan bo'lsa yoki unda o'zgarish paydo bo'lgan bo'lsa;

d) asbob va anjomlar bilan ishlashda xavfsizlikni ta'minlamaydigan kamchiliklar bo'lsa.

Elektrlashtirilgan, mexanizatsiyalashtirilgan qurollar va yoritish anjomlari ishlab chiqarilgan zavodning yo'riqnomalarida ko'rsatilgan talablar asosida ishlatiladi. Barcha yo'riqnomalar va asboblar inventar raqamiga ega bo'lishi kerak.

Elektr energiyasini qabul qiluvchi asbobning korpusi avtomobil shassisi bilan elektr aloqada bo'lishi kerak.


Mexanizatsiyalashtirilgan (UKM-4) quroli 12.2.003-74 Davlat standarti talablariga javob berib, unda quyidagilar bo'lishi kerak:

a) boshqaruvin qismiga ta'sir to'xtatilganda aylanib kesuvchan qismlarining avtomatik to'xtashi;

b) abraziv aylananing  $170^{\circ}$  dan kam bo'lmagan kesuvchan qismini yonuvchi himoya g'ilofi;

d) ishlab chiqarilgan gazlar operatorning nafas olish organlaridan teskari tomonga chiqishi.

Elektr asboblar va yoritish anjomlarini elektr toki o'tkazib yubormaydigan naychali kabellar qo'llash mumkin. Qo'l yordamida ishlatiladigan asboblarni elektr energiyasi bilan ta'minlovchi kabellarda (simlarda) ulash-ayirish moslamasini o'rnatish taqiqlanadi.



37-rasm. Gaz bilan kesuvchi asbob:

1 – qopqoq; 2 – korpus;

3 – asetilen ikkita balloni bo'lib, biri asetilen balloni; 4 – kislorod balloni; 5 – asetilen reduktori;

6 – ichak; 7 – kesuvchi;

8 – kislorod reduktori.

Elektrlashtirilgan, mexanizatsiyalashtirilgan qo'l asboblari va boshqa anjomlar bilan ishlashga maxsus tayyorgarlikdan o'tgan, imtihon topshirgan va tegishli hujjatlar olgan shaxslarga ruxsat etiladi.

#### e). Gaz bilan kesuvchi asboblar.

Yong'in paytida 12 mm qalinlikkacha bo'lgan metall panjaralarni va boshqa metall konstruksiyalarni kesish uchun gaz bilan kesuvchi asboblar (37-rasm) qo'llaniladi.

Bu asboblar bilan, asosan, temir va po'lat metallarni kesish mumkin. Chunki ushbu metallarning yonish haroratidan erish harorati yuqori. Rangli metallarni bu asboblar bilan kesib bo'lmaydi, chunki ushbu metallarning erish haroratidan yonish harorati yuqori.

Gaz bilan kesuvchi qurilmaning og'irligi 10 kg. U qopqoqli (1), metall korpus (2)ga yig'ilgan va orqada ko'tarib yurishga moslashtirilgan. Uning 2 ta reduktori ham bor: biri kislород bosimini 0,6 MPa.gacha pasaytirish uchun RK-53 B (5), ikkinchisi esa asetilen gazining bosimini 1,2–0,15 MPa.gacha pasaytirish uchun – RD-2A (8) 4 ta manometri bo'lib, kislород va asetilen gazlarining yuqori va past bosimlarini o'lhash uchun xizmat qiladi.

Reduktor va manometrlar ballonlar bilan latun naychalari orqali ulangan. Reduktordan kesuvchi (rezak)ga (7) gaz ichak (6) orqali uzatiladi. Shlangning ichki diametri – 9,5 mm va uzunligi 1,5 m.

Kislород balloni 3 l sig'im va 15 MPa (150 kgs/sm<sup>3</sup>)li bosimiga ega bo'lib, ko'k bo'yoqqa bo'yagan. Ballonda jo'mrak o'rnatilgan.

Asetilen ballon 1,3 l sigim va 2,5 MPa (25 kgs/sm<sup>3</sup>)li bosimiga ega. Oq bo'yoqqa bo'yagan. Asetilenning ballondagi miqdori bilan 10 daqiqa uzluksiz ishlash mumkin.

Keskich (rezak) kislород va asetilen uzatuvchi ikki naycha uzatgichdan iborat bo'lib, gazlarni shu naychalarga uzatish uchun jo'mraklar o'rnatilgan, bunda kislород naychasida bu jo'mraklar ikkita – biri kesishdan oldin qizdirish olovini yaratish uchun, ikkinchisi esa kesuvchi kislородни hosil qilish uchun.

Kesish ishlarini boshlashdan oldin, ballonlarning jo'mraklar ochiladi. Manometrlardan gazlarning yuqori bosimi aniqlanadi. So'ngra reduktorning moslashtiruvchi jo'mragi yordamida past bosim o'rnatiladi. Bunda keskichdagi jo'mraklar yopiq holatda bo'lishi kerak. Keyin esa navbatma-navbat keskichdagi kislородning qizdiruvchi jo'mragi va asetilen jo'mragi ochiladi, yonuvchi aralashma yoqiladi va moslashtiriladi.

Kesiladigan metallni kesish haroratigacha qizdirgandan so'ng, kislородning kesish jo'mragi ochiladi va kesish ishi bajariladi. Kesib bo'linganidan so'ng, navbatma-navbat kislородning kesish uchun mo'ljallangan jo'mragi, asetilen jo'mragi, kislородning qizdirish uchun mo'ljallangan jo'mragi va ballonlar jo'mraklari yopiladi. Rezina shlanglardagi gazlar qoldiqlari chiqarib yuboriladi. So'ngra reduktordagi moslashtirish jo'mragi yopiladi.

Gaz bilan kesuvchi asboblarga texnik xizmat ko‘rsatish – ulardan foydalanish yo‘riqnomasiga asosan amalga oshiriladi. Gaz bilan kesuvchi asboblar bilan ishslash uchun maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan va bu ishlarni bajarishga huquq beruvchi malaka guvohnomasiga ega bo‘lgan shaxslarga ruxsat etiladi.

Gaz bilan kesuvchi navbatchilikka tushishdan oldin quyidagilarni bajarishga majbur:

- a) jangovar kiyim-bosh va himoya ko‘zoynagini sozligini tekshirish;
- b) tashqi ko‘rik o‘tkazish bilan kesuvchi, shlanglar, reduktorlar, ko‘rsatgich asboblarining sozligi va tozaligiga hamda ballonlarning mustahkam mahkamlanganligiga ishonch hosil qilish;
- d) asbobning ballonlaridagi bosimni: asetilenililarda – 1 MPa (100 atm)dan, kislorodililarda – 10 MPa (100 atm)dan kam bo‘lmasligini tekshirish.

Gaz bilan kesuvchi asbobda ishslashda texnika xavfsizligi qoидарига qat‘iy amal qilish lozim. To‘la yoki bo‘sh ballonlarni ko‘chirish va tashish ishlari ularning qopqog‘i va jo‘mraginiq tiqini bo‘lgandagina yo‘l qo‘yiladi. Uchqun keltirib chiqaruvchi bolg‘a yoki boshqa metall buyumlar yordamida zarba berish yo‘li bilan ballonlar qopqog‘ini ochish taqiqlanadi.

Ballonlardan quyidagi hollarda foydalanish man etiladi:

- a) belgilangan tamg‘asi bo‘lmasa;
- b) jo‘mragi nosoz va boshmoqlari shikastlangan (bo‘sh o‘rnatalgan) bo‘lsa;
- d) korpusi shikastlangan (ezilgan, darz ketgan, zanglagan) bo‘lsa;
- e) shtutseri yog‘, moy bosgan yoki iflos bo‘lsa;
- f) bo‘yoq va yozuv bo‘lmasa;
- g) qayta sinov muddati o‘tgan bo‘lsa.

Agarda balloonning jo‘mragi ishga yaroqsiz bo‘lsa, unga «Ehtiyyot bo‘ling, to‘la» deb yozib qo‘yiladi va ishlab chiqarilgan korxonaga qaytariladi. Har bir yong‘inda va mashg‘ulotda gaz yordamida kesuvchi asboblar ishlatilgandan so‘ng foydalanish yo‘riqnomasiga asosan tekshiriladi.

Ulanish joylarining zichligi sovunli ko‘pik bilan tekshiriladi. Ballonlarni qayta ko‘rib chiqish O‘zbekiston Respublikasi Davlat texnik nazorati o‘rnatgan qoidaga asosan o‘tkaziladi.

Gaz yordamida kesuvchi faqat o‘t o‘chiruvchi rahbari (yoki uning bevosita boshlig‘i) topshirgan ishlarni bajaradi. Bunda gaz bilan kesuvchi moslamaning ishlashi mobaynida yong‘in portlash va boshqa halokatga olib kelmasligiga shaxsan ishonch hosil qilinishi kerak.

Gaz bilan kesuvchi asboblarda ishlaydigan o‘t o‘chiruvchi, bundan tashqari, soz maxsus kiyimli, uning ko‘zi nurdan himoyalovchi ko‘zoynaklar bilan himoyalangan bo‘lishi lozim.

### *Imorat va inshootlarning konstruksiyalarini ochish*

Imorat va inshootlarning konstruksiyalarini ochish mashqlari, yong‘indan saqlash bo‘linmalarining shaxsiy tarkibini mexanizatsiyalashmagan va mexanizatsiyalashtirilgan qo‘lda ishlatiladigan asboblar bilan ishlash usullarini o‘rgatish hamda tom, tom qoplamlari, devor, to‘sinq, pollarni ochish va metall konstruksiyalarini kesish ishlarini o‘rgatish maqsadida o‘tkaziladi.

Konstruksiyalarini ochish va qismlarga ajratish bo‘lim boshlig‘i ning ko‘rsatmasiga asosan bajariladi. U kim, nima maqsadda, qayerda va qancha yuzalikda ochish lozimligi to‘g‘risida ko‘rsatma beradi. Masalan, «O‘t o‘chiruvchilar Rahimov va Salimov! Tutunni chiqarish uchun yon tomon devorining oldidan 5 m<sup>2</sup> yuzalikda tom qoplamasini oching».

O‘t o‘chiruvchi asboblarni ko‘tarib yurish, keltirish quyidagicha bajariladi:

- lom o‘ng qo‘l bilan olinadi va ilgakli, halqali yoki tezlangan qismi bilan oldinga-yuqoriga ko‘targan holda keltiriladi. O‘t o‘chirish narvonlaridan yuqoriga ko‘tarilishda lom karabinga o‘rnataladi yoki bog‘ichi o‘ng yelkaga kiyiladi;
- ilgak orqaga ko‘tariladi, bunda uning uchi pastga qaragan, arqoni esa chap yelkadan o‘tkazilib, ilgakning o‘ziga qayta bog‘lanadi (o‘ng biqin tomondan);
- bagor va belkuraklar qo‘lda yoki yelkada olib boriladi. Bunda ularning uchi orqaga yoki yuqoriga qaratilgan bo‘ladi;
- boltaning dami orqaga qaratilgan holda qo‘lda ko‘tarilib yuriladi;
- qolgan o‘t o‘chiruvchi asbob va jihozlar ish joyiga o‘t o‘chiruvchi o‘ziga qulay va xavfsiz holda keltiradi.

***Tom yopmalarini ochish.*** Metall tom yopmalarini ochishda (38-rasm) o‘t o‘chirish boltasi, lom, ilgak va arradan foydalilaniladi.



38-rasm. Metall tom yopmalarini ochish.

Ish tom yopmasi tunukalarining bir-biriga ulangan uchlarini bolta, ilgak yoki lom bilan urib buklash bilan boshlanadi. Urish natijasida ochilgan oraliq asboblarni uchini solib, kerakli yuzalikkacha ochiladi, so‘ng tunuka kesib olinadi va tagidagi taxtalar ham arralanadi. Oraliq hosil qilish uchun esa, tom yopmasining kengligi tunukasi va taglik taxtasi olib tashlanadi.

Tom yopmalari tol yoki ruberoid bilan qoplangan bo‘lsa, oldin ulardan mahkamlangan reykalar uzib olinadi, so‘ng yuqoridan pastga qarab tol (ruberoid) bolta yordamida kerakligicha urish yo‘li bilan ochiladi, tag taxtalari arralanib, olib tashlanadi.

Tom yopmalari cherepitsa bo‘lsa, tomni ochish uning eng yuqori qismidan pastga qarab, har bitta cherepitsani ajratish yo‘li bilan bajariladi. Agar tomning boshqa qismini ochish kerak bo‘lsa, unda bir-ikki cherepitsa sindiriladi, boshqalari esa ajratib olinadi va ostidagi taxtalar arralab olinadi.

Shiferli tom yopmalarini ochish uchun oldin tomning uch qismidagi tunukalari yechib olinadi va shiferlar birma-bir qoqligan mixlari tortib olingandan so‘ng ajratib olinadi.

Ko‘p qavatlari, issiqlik saqlovchi yopmali tomlarni ochishda oldin taxtalar ochiladi, kesiladi va olib tashlanadi. Issiq saqlovchi materiallar olib tashlanadi va oraliq taxtalar kesiladi. Shundan so‘ng lom yoki ilgak bilan qoplamlar uzib tashlanadi. Taxta qoplamlarni kesishda, avval bir-ikki taxta bolta bilan chopiladi, arraga joy ochilgandan keyin arralanadi. Taxta qoplamlarni kesishda elektr arra qo‘llaniladigan bo‘lsa, bir-ikkita taxtani bolta bilan chopishga hojat qolmaydi.

**Pollarni ochish.** Tuxtadan qilingan pollarni ochishda lom yoki ilgak, bolta bilan plintus uzib olinadi, so‘ngra lomning o‘tkir uchi

bilan ikki taxtaning mix bilan qoqligan joyi, oralig‘iga uriladi va uchi oraliqqa kirgan lomning qo‘lda ushlangan qismini yer tomon bosib, taxtalardan oolib olinadi. Shundan so‘ng polning tagiga qo‘yilgan lom bilan qolgan taxtalar ham navbatma-navbat oolib olinadi. Taxtani mix qoqligan joyidan, lom bilan ko‘tarish kerak. Ko‘p katta yuzalikka ega bo‘lмаган joyning polini ochishda, oldin taxtaning ikki tomoni kesiladi va lom yordamida yuqorida ko‘rsatilgandek oolib olinadi.

Bir-biriga yopishgan parketli (39-rasm) pol plitalarni ochishda, oldin plintus yoki plitalarni bir-biriga berkituvchi qistirgichi olinadi va so‘ngra hosil bo‘lgan oraliqqa lomning uchi kiritilib, parket plitalar birma-bir olinadi.

Parketli polning o‘rtasidan buzish kerak bo‘lsa, avval bir yoki ikkita parketni sindirib lom yoki ilgakka joy ochiladi va plitalar ajratib olinadi, so‘ngra tagidan taxtalar yuqorida aytilgandek ajratiladi.

Sintetik material (linoleum, relin)lar bilan qoplangan taxta pollarni ochishda, oldin sintetik materiallar kesib olinadi, so‘ngra taxtasi yuqorida ko‘rsatilgan usulda ajratiladi.


Qavatlar oraliq yopmalari va tomlarni ochish va buzishda, birinchi bo‘lib, pol qismi yuqorida ko‘rsatilgan usulda ochiladi. So‘ngra belkurak yordamida issiqlik saqlovchi qavati tozalab olinadi, so‘ng esa lom yoki bolta yordamida taxtalardan biri olinadi. Qolgan taxtalar esa lom yordamida chiqariladi.

Qora pol olingandan so‘ng xonaning shiftida tuynuk ochiladi. Agar qavatlararo yopmada temir-beton plita qo‘yilgan bo‘lsa, issiqlik saqlovchi qismi belkurak yordamida tozalab olingandan so‘ng plitalarning bir-biriga yopishgan joyi aniqlanadi. Lom yordamida plitalardan biri ko‘tariladi yoki tuynuk ochiladi.

Qavatlararo yopmalarning pastidan turib tuynuk ochish lozim bo‘lsa, avval shift buzib tashlanadi, so‘ngra yuqorida ko‘rsatilgandek tuynuk ochiladi. Temir-beton yopmalarini ochish uchun avval pol buziladi, so‘ngra lomlar (beton sindiruvchi bolg‘alar) bilan kerakli o‘lchamda tuynuklar ochiladi. Metall



39-rasm. Parket plita polni ochish.



40-rasm.

Shift qoplamasini buzish.

taxta bo‘lagi olib tashlanadi.

Eshiklarni buzish uchun lom, bolta, ilgak va mexanizatsiyalashtirilgan asboblardan foydalaniladi. Bir yoki ikki tavaqali eshik ichkaridan qulflanib qolgan bo‘lsa, bolta bilan ochiladi, buning uchun qulf o‘rnatilgan joyi oralig‘iga boltani solib, eshik bir tomonga qisiladi, toki qulf ochilguncha. Agar qulfni ochishning iloji bo‘lmasa, unda eshikning kichik o‘lchamli filyonkasi buziladi va qulfi ochiladi.

Agar eshikning filyonkasi bo‘lmasa, oshiq-moshig‘idan yechiladi. Buning uchun oshiq-moshiq yonidan bolta oraliqqa tiqilib, kuch bilan eshik o‘z joyidan chiqariladi. Agar eshik bunda ham ochilmasa, qulf o‘rnatilgan joyidan bolta, arra yordamida yoki tayoq, narvon uchi bilan urib buziladi. Agar tashqi osma qulflarda qulflangan bo‘lsa, qulflar ilgak, lom, bolta va qaychilar yordamida buzib ochiladi.

Derazalarni ochish uchun boltaning damini tavaqalar orasiga kiritib, chapga yoki o‘ngga bosiladi. Agar deraza ochilmasa, oynasini sindirib ochish kerak. Agar panjarasi bo‘lsa, lom, bolg‘a yoki qaychi yordamida kesish yo‘li bilan ochiladi.

Metall panjaralarni qaychi bilan kesishda yuqoridagi gorizontal simlari kesilib, so‘ngra pastki qismlaridagi simlarini kesish tavsiya etiladi. Bunda qaychining bir dastasi pastdagi kesilmagan simning ustiga qo‘yilib, ikkinchi dastasi esa bosiladi. Yuqori qavatlardagi de-

to‘rlar maxsus qaychilar yoki gaz bilan kesuvchi asboblar yordamida kesib olinadi.

Shiftni buzish uchun avval bogor (lom) yoki tayoq, narvonning uchi bilan urib shuvoq tushiriladi (40-rasm), so‘ngra taxtalar oralig‘iga ilgak yoki lom kiritiladi, taxtaga ko‘ndalang qilib buraladi. Ilgak yoki lomni pastga qarab qattiq tortib taxtalar ajratib olinadi.

To‘siqlarni elektr arra bilan buzish uchun arra tishlarini taxtaga ko‘ndalang qilib qo‘yib 15–20 sm oraliqda taxtaning ikki joyidan arralanadi, kesilgan

raza panjaralarini kesishda texnika xavf-sizligiga rioya qilgan holda uch pog‘onali surilma narvonlardan foydalanish kerak (41-rasm).

Benzomotorli arra bilan ishlash uchun muvozanat holatda turib, arra dvigatelini qo‘shib ishlashi tekshiriladi. Bunda arra ikki qo’llab ushlangan bo‘lishi kerak.

Kesiladigan yog‘ochga arra zanjirini tekkizishdan oldin, u to‘g‘ri o‘rnatalidi va shundan keyingina arralash sekin boshlanadi. Ishni tugatgandan so‘ng o‘t o‘chiruvchi arraning ishini pasaytiradi va dvigateli o‘chiradi (42-rasm).

Zanjirli elektr arrasida ishlash uchun avval uni elektr tarmog‘iga ulab, muvozanat holatini egallash, arrani ikki qo’llab ushlash kerak. Bundan tashqari, o‘ng qo‘l bilan dvigateli qo‘sghichni ham qo‘shib, dastani ushlash kerak.

Shundan keyin o‘ng qo‘lning katta barmog‘i bilan dvigatel qo‘shiladi va 30–40 soniya ishlatib turilgandan so‘ng arra zanjiri  $45^{\circ}$  burchak ostida yog‘och konstruksiyaga yaqinlashtirilib, sekin aralash boshlanadi.

**Gaz bilan kesuvchi asbobda ish-lash.** Gaz bilan kesuvchi asbobda ish-lash uchun o‘t o‘chiruvchi ballonlarning jo‘mraklarini ochadi va gaz bilan kesuvchi asbobni orqasiga kiyib oladi.


Moslashtiruv jo‘mraklari yordamida (41-rasm) manometrlar ko‘rsatgichlari bo‘yicha kislород 3–4 kg/sm<sup>2</sup>, asetilen 0,1–0,2 kg/sm<sup>2</sup> bosimini o‘rnataladi. Kesgichdagи kislород va asetilen jo‘mraklarini ochadi, yonuvchi aralashmani yoqadi, alangani moslaydi, kislородning «kesish» jo‘mragini ochadi va kesish ishini bajaradi. Bunda maxsus ko‘zoynak va qo‘lqop bo‘lishi kerak.



41-rasm. Panjarani kesish.



42-rasm.  
Elektr arra bilan kesish.



*43-rasm.*

Gaz kesish asbobini ishlatish.

220 V. dan yuqori kuchlanishga ega bo‘lman elektr simini kesish, bo‘linma sardori ko‘rsatmasiga asosan bajariladi. Bo‘linma sardori simni kesish joyini ko‘rsatishi kerak. Bu ishni bajarish uchun o‘t o‘chiruvchi rezina qo‘njali kalish va rezina qo‘lqopni kiyadi, rezina sholcha ustida turib, dielektrik qaychini oladi va elektr simini ke-sadi.

Agar elektr simlari ustunlarda bo‘lsa, ustun yonida o‘rnatilgan 3 pog‘onali surilma narvonga chiqib, rezina sholchani narvon pog‘onasiga qo‘yib, shu pog‘onada turish va karabin bilan narvonning pog‘onasidan ildirib, mahkamlash kerak. Bunda metall narvon bilan karabin oralig‘ida elektr tokidan rezina sholchasi o‘rnatiladi.

Elektr simini kesish pastki simlardan boshlanadi. Simni shunday kesish kerakki, elektr toki bo‘lgan qismi pastga tushmay o‘z joyida qolsin.

---

---

## **13-bob. O‘T O‘CHIRUVCHI YENGLIKLARI VA DASTAKLARI. YENGLARNI BIR-BIRIGA ULAGICHALAR VA ASBOBLAR. O‘T O‘CHIRISH YENGLARI, DASTAKLARI VA AYIRGICHALAR BILAN ISHLASH. HARAKATDAGI SUV YO‘LLARI VA DASTAKLARI BILAN ISHLASH. XAVFSIZLIK CHORA-TADBIRLARI**

### **13.1. O‘T O‘CHIRUVCHI YENGLIKLAR: VAZIFALARI, TURLARI, JANGOVAR HISOBGA QO‘YISHGA TAYYORLASH, FOYDALANISH, SINAB KO‘RISH, TA’MIRLASH**

O‘t o‘chiruvchi yenglari egiluvchan uzatgich bo‘lib, bir-biriga ulash natijasida yong‘in joyiga o‘t o‘chiruvchi vositalarini uzatish mumkin bo‘ladi.


O‘z vazifasiga ko‘ra yenglar: so‘rvuchi yenglar va bosim ostida ishlovchi yenglarga bo‘linadi:

#### **So‘rvuchi yenglar**

So‘rvuchi yenglar suv manbalaridan suv haydagichning so‘rish naychalariga uni uzatish uchun mo‘ljallangan. O‘t o‘chiruvchi suv haydagichclarining so‘rvuchi yenglari sifatida rezina matoli yenglar ishlatiladi (44-rasm), ularning metall spirallar va uchlarda armatura-lar ularshga imkon beruvchi yumshoq zichlovchi halqlar o‘rnatalgan bo‘ladi. Yong‘indan saqlash xizmatida ichki diametri 65, 75, 100, 125 va 150 mm bo‘lgan, uzunligi 4 metrli, sanoatda ikki guruhda tayyorlanadigan yenglar ishlatiladi.

I guruh – so‘rvuchi yenglar – ochiq suv manbalaridan havoning siyraklanishi usuli bilan suv so‘rvuchi yenglar;

II guruh – bosimli-so‘rvuchi yenglar. Bu guruhdagi yenglar ochiq suv manbalaridan havo siyraklanishi usulida hamda bosimli suv manba (gidrant)lardan suv olishda qo‘llaniladi.



44-rasm. So‘rvuchi yengning tuzilishi:

1 – simdan tayyorlangan spiral; 2 – rezina qismi; 3 – rezina mato; 4 – yumshoq qismi; 5 – tamg‘a: tayyorlov zavodi, namuna raqami, guruhni, turi, ichki diametri, uzunligi, tayyorlangan sanasi hamda ichki bosimi

(II guruh yenglar uchun) ko‘rsatiladi.

### So‘rvuchi yenglarning asosiy texnik ko‘rsatkichlari

T/r	Ko‘rsatkichlari	Ichki diametrлари, (мм)				
		65	75	100	125	150
1	Uzunligi (м)	4	4	4	4	2
2	Og‘irligi (kg)					
	a) armaturasiz	9	12	18	25	32
	b) armaturasi bilan	12	14	21	30	38

So‘rvuchi yenglarni qabul qilishda ularning sozligini tekshirib ko‘rish lozim.

**Yenglardan foydalanish.** So‘rvuchi yenglar o‘t o‘chiruvchi avtomobilarda taxlanadi. Yenglarni olish oson bo‘lishi va o‘t o‘chiruvchi avtomobilлари penal va tarnovlarini yeyilishdan saqlash uchun tasmalar bo‘lishi kerak. O‘t o‘chiruvchi avtomobilarga nosoz va ifloslangan yenglarni taxlash mumkin emas.

Avtomobilga texnik xizmat ko‘rsatilganda va har bir yong‘inda ishlagandan yoki mashqlardan so‘ng yenglarni diqqat bilan ko‘zdan kechirib chiqish lozim. Mog‘or izlari topilgan taqdirda, yenglar yaxshilab tozalanishi, biror nuqson aniqlansa, ta’mirlanishi lozim.

Yenglarni yong‘inlarda va mashqlarda ishlatganda, ularga benzin, kerosin, moy, kislota va boshqa zararli kimyoviy moddalarning tu-shishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak. Yong‘in yoki mashq ishlari tugagan-dan so‘ng yenglar tozalanadi, yuviladi, quritiladi.

So‘rvuchi yenglar tolali metall bo‘lImagen cho‘tkalar yordamida suv bilan yuviladi. Qish paytida yenglarni quritish maxsus yeng quritish xonalarida tavsiya qilinadi. Quritish harorati +50°C dan oshmasligi kerak. Qurigandan so‘ng yenglar tezda bu xonadan olib chiqilishi darkor.

Yoz paytida yenglarni ochiq havoda, faqat soya joylarda quritish mumkin.

***Yenglarni sinab ko‘rish.*** So‘rvuchi yenglar vakuum yoki gidrav-lik bosim ostida sinab ko‘riladi:

- I guruh yenglarining kattaligi 0,5 kg/sm<sup>2</sup>.gacha bo‘lgan bosim ostida;
- II guruh yenglari 8 kg/sm<sup>2</sup>.gacha bo‘lgan bosimda sinab ko‘ri-ladi.

Yenglarning siyraklashishga sinab ko‘rishda kattaligi 550 mm simob ustunidan kam bo‘lmasligi va 3 soniya davomida ushlab turili-shi kerak. Bunda yengdagi siyraklashishning kamayishi 100 mm simob ustunidan oshmasligi kerak.

Quyidagi hollarda yenglar sinovdan o‘tkaziladi:

- a) yangi yenglar – jangovar hisobga qo‘yishdan oldin;
- b) foydalanishdagi yenglar – bir yilda bir marta va yenglarning sifatida o‘zgarish aniqlangan paytda;
- c) ta’mirlangan yenglar – har bir ta’mirlash ishidan so‘ng.

***Yenglarni ta’mirlash.*** So‘rvuchi yenglar, agar ular sinov talablariga javob bermasa, nosozliklari bo‘lsa, ular ta’mirlanishi lozim. Nosoz yenglarni ikki usulda ta’mirlash mumkin:

- a) vulkanizatsiya (kauchukni issiqlik harorati bilan ishslash) bi-lan;
- b) shikastlangan joylarni yelimlab yopishtirish bilan.

Ta’mirlashdan oldin yenglar tozalanadi, suv bilan yuviladi, quriti-ladi, shikastlangan joylari va ularning o‘lchami aniqlanadi.

Yamoq va yengning ta’mirlanadigan joyi qurigandan so‘ng ular-ga 1:8 yoki 1:10 konsentratsiyali rezina yelimi surtiladi va 15–18°C dan kam bo‘lImagen haroratda 5–6 soat davomida quritiladi. Quri-tilgandan so‘ng yamoq va ta’mirlanadigan joyga ikki marta 1:6 konsentratsiyali yelim surtiladi, u 10–15 daqiqa davomida quritiladi

va yelim ta'mirlanadigan joyga yelimli yamoq qo'yilib, siquvchi moslama yordamida siqib qo'yiladi.

Yenglarni 130–140°C haroratda 35–40 daqiqa davomida vulkanizatsiya qilish yo'li bilan ta'mirlash mumkin.

**Yenglarni saqlash.** So'rvuchi yenglarni saqlashda alohida yondashuv talab etiladi. So'rvuchi yenglarning harorati 0°C dan past bo'limgan va havo namligi 50–65% bo'lgan qorong'i xonalarda saqlash kerak. Bu xonalarda tabiiy havo almashishi mavjud bo'lishi lozim.

Yenglarni yonuvchi va moylash mahsulotlari, erituvchi va boshqa yemiruvchi kimyoviy moddalar bilan saqlash mumkin emas. Yenglarni javonlarga bor uzunligi bo'yicha taxlash lozim. Ularni chirishdan asrash maqsadida har 3 oyda bir marta javonlarga tegib turadigan joylarini almashtirib turish kerak. Ular isitish asboblaridan 1 metr dan kam bo'limgan masofada joylashgan bo'lishi zarur.

### Bosim ostida ishlovchi yenglar

Bosim ostida ishlovchi yenglar suv haydagichining uzatish nay-chasi orqali bosimli o't o'chiruvchi vositalarini (suv, suv qorishmasi) yong'in joyiga uzatish uchun mo'ljallangan. Bosim ostida ishlovchi yenglar sanoatda ikki turda chiqariladi: rezinalanmagan (zig'ir tolali), rezinalangan va lateks yenglari.

Rezinalanmagan yenglar zig'ir tolasidan, rezinalangan yenglarning ustki qismi paxta yoki sun'iy tolalardan to'qilgan bo'lib, ichki qismida rezina yopishtirilgan bo'ladi. O't o'chirishda uzunligi  $20\pm 1$  metr, ichki diametrleri 26, 51, 66, 77, 89, 110 mm va 150 mm li bosim ostida ishlovchi yenglardan foydalaniлади.

Gidravlik bosimga chidamliligi bo'yicha yenglar quyidagi guruhda ishlab chiqariladi:

- yuqori mustahkamlikka ega yenglar – 51 va 66 mm diametrli yenglar; bu guruhga tegishli yenglarning umumiyligi bo'yicha uchta rangli (qizil) chiziqlari bo'ladi;
- kuchaytirilgan – 51, 66, 77 mm diametrli; bu guruhga mansub yenglarda uzunligi bo'yicha ikki rangli (qizil) chiziqlar bo'ladi;
- me'yoriy – 51, 66, 77, 150 mm diametrli; bu guruhga tegishli yenglar bitta rangli (qizil) chiziqqa ega;
- yengillashtirilgan – 51 mm diametrli, ular ikki guruhga bo'linadi: zig'ir tolali va tukli.

Zig‘ir tolali yengillashtirilgan yenglar chiziqsiz tayyorlanadi, tukli yenglar esa bitta qora (ko‘k) chiziqli belgiga ega bo‘ladi. Yenglarni olganda, o‘ramning butunligiga, o‘ramda suv o‘tgan joylar, mog‘or izlari, moy dog‘lari va tashqi shikastlangan joylar bo‘lmasligi kerak. Olingan yenglarga biriktiruvchi yeng boshchalari bog‘lanadi, markirovkalanadi va bosim ostida tekshiriladi. Yenglarni markirovkalash: yengdagi har bir biriktiruvchi boshchadan 500–1000 mm masofada andoza yordamida qizil bo‘yoq bilan sonlar yoziladi.

***Yenglardan foydalanish.*** Yenglardan bir tekisda foydalanish lozim, ya’ni hamma yenglarni bir xilda ishga jalgan qilish, bitta yenglar qayta-qayta ishlatilib, boshqalari ishlatilmay yotishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak. Yenglarni avtomobil kuzovi bo‘lmasiga shunday taxlash kerakki, ular kuzovning chiqib turuvchi va mahkamlash detallariga (boltlar, shuruplar, burchaklar va boshq.) ishqalanmasin.

Yenglarni garmon shaklida va o‘ram qilib (bittalik yoki ikitalik) taxlash mumkin. G‘altaklarda saqlanayotgan yenglar suv o‘tkazmaydigan matodan tayyorlangan maxsus g‘ilof bilan yopib qo‘yiladi. Yog‘inli kunlarda garajdan chiqilgandan so‘ng yenglar qarovedan o‘tkaziladi va talab qilinsa quritiladi.

Jangovar hisobda saqlanayotgan (yeng g‘altaklarida), o‘ramlarda kuzov qutilarida garmon shaklida avtomobilning yeng bo‘linmalarida hamda ehtiyyotda va omborda turgan yenglarni bir yilda kamida ikki marta  $90^{\circ}$  ga aylantirgan holda qayta o‘rab chiqish kerak. Barcha turdagilari yenglarni, ularning o‘lchami, diametri, yaroqlilik darajasi va foydalanishda bo‘lgan vaqtidan qat’i nazar,  $30^{\circ}\text{C}$  gacha harorat bo‘lgan havo sharoitida har 6 oyda qayta o‘rab turish kerak.

Asosiy yeng yo‘li 66, 77 va 150 mm.li yenglaridan foydalanish muddati 8 yil va 180 ish soatini, 51 mm.li ish yo‘li yenglari uchun esa kamida 5 yil va 120 ish soatini tashkil qiladi. Yeng yo‘llarini yig‘ishda, qattiq bukilgan joylar bo‘lmasligi hamda yenglarni yoyish yo‘lida uchraydigan o‘tkir asboblar, yonuvchi moylash materiallari yoki kimyoviy mahsulotlar to‘kilgan yuzalar, yonayotgan narsalar ustidan o‘tkazishda yo‘l qo‘ymaslik kerak.

Yeng yo‘llari qattiq egilishi mumkin bo‘lgan joylarda yeng egallari qo‘yish lozim. Arqon yordamida yoki o‘t o‘chiruvchi narvonidagi yuqoriga ko‘tarilgan yeng yo‘li yeng ushlagichlari bilan bino konstruksiyaligiga mahkamlab qo‘yish lozim.

Yeng yo‘llariga buzilayotgan konstruksiya qismlarini tashlash hamda yenglarni tomdan va binoning yuqori qavatlaridan tashlab

yuborish mumkin emas. Yenglar arqonlar yoki boshqa moslamalar yordamida tushirilishi lozim.

Yenglarning gidravlik bosimdan yorilishining oldini olish uchun, nasos bosim patrubkalari ventillarini sekin-asta ochish yo‘li bilan nasosdan yeng yo‘llariga suv yuboriladi. Yeng yo‘llariga suv berish paytida xizmat ko‘rsatadigan yong‘in o‘chiruvchilar:

- yeng yo‘llaridan transport vositalarining o‘tishiga yo‘l qo‘y-masliklari, o‘t o‘chiruvchi avtomobilida olib kelingan yeng ko‘prikchalari bilan himoyalangan joylar bundan mustasno;
- nosoz yenglarni qisqichlar qo‘yish yo‘li bilan vaqtinchalik tu-zatish ishlarini bajarishlari lozim.

Qish paytidagi yong‘inlarda:

- ochiq suv manbalaridan suv olish paytida harorati yuzasiga qaraganda yuqori bo‘lgan pastki qatlamlaridan suv tortish zarur.

Suvni aylanish asosiy yo‘l bo‘yicha yuborish zarur, bunda nasos bosim patrubka (quvur) surma qopqog‘ini to‘la ochilmagan holatda yuqorilarda ishlashi lozim, bu esa suvning nasos ishchi g‘ildiragi va ustki qismi devorlariga (korpusi) ko‘proq ishqalanishi natijasida yenglardagi suv haroratini birmuncha ko‘tarish imkonini beradi. Yengda suv muzlab qolishining oldini olish uchun, nasos ishga tush-gan paytda, uning barqaror ishlashiga bosim patrubka (quvur) surma qopqog‘iga, bosim yo‘liga ulamasdan turib suv oqizish yo‘li bilan ishonch hosil qilish lozim.

15 daqiqa o‘tgach, nasos valining aylanish sonini oshirish zarur va bir vaqtida ikkinchi patrubka surma qopqog‘ini yopgan holda asosiy yeng yo‘liga ohista suvni o‘tkazish lozim. Yong‘in va mashqlarda ishlatilgan yenglar tozalanishi, talab qilinsa, yuvilishi va quritilishi lozim. Yenglarni maxsus yeng yuvish mashinalarida, shinalarda yoki toza qattiq qoplamlari maydonchalarda yuviladigan yuzaga suv sepib turib, junli yoki kapron ipli tozalagich yordamida yuviladi.

Muzlagan yenglar yuvish oldidan eritiladi. Ko‘pik hosil qiluvchi yoki ifloslangan hovuzdan suv olib ishlagandan so‘ng yenglarning ustki va ichki qismi yuvilishi kerak. Yenglarni qoida bo‘yicha shu maqsad uchun jihozlangan minora, xona yoki termoradiatsion qurit-gichlarida quritiladi.

Minorali quritgichda kalorifer yoki boshqa havo isituvchi asboblar, toza havo chiqib ketadigan yo‘llar, yenglarni ko‘taruvchi va osib qo‘yish uchun moslamalar bo‘lishi kerak.

Yenglarni quritish uchun shaxtaning barcha kesimi bo'yicha osiladi. To'ldirish zichligi 1 m<sup>2</sup> ga yoki 10–15 yengni tashkil qiladi.

Bitta yoki bir necha yenglarni ko'tarish yuk ushlab turuvchi tormozli qo'l lebyodkasi (chig'ir) yoki elektr yurituvgichli mexanik ko'targichlar yordamida bajariladi. Minorali quritgichlarda ularning balandligiga qarab, yenglar osilgan holatda quritiladi.

Quritish xonalarida yenglar orasida 20–25 mm oraliq masofa goldirilib, erkin holda yoyiladi. Yenglarni har bir tipdag'i quritgich ko'rsatmasi asosida quritiladi. Quritiladigan havo harorati rezinalangan va lateks yenglar uchun 20°C dan 50°C gacha, zig'ir tolali yenglar uchun esa 20–80°C bo'lishi kerak. Rezinalangan va lateks yenglarni maksimal haroratda (50°C) quritish muddati 7–8 soatdan oshmasligi kerak.

Quritgichlar bo'limgan paytda yenglar xonadan tashqarida, havo harorati 20°C va undan yuqori bo'lgan joyda quritiladi. Yenglarni panjaralari javonlarga osib yoki taxlab qo'yiladi. Bunda ular quyosh nurlaridan himoyalangan bo'lishi kerak. Yoki yetarli darajada isitilanigan xonalarda, yenglar xuddi quritgichlardagidek yoki panjaralari javonlardagidek, issiqlik tarqatuvchi asboblardan kamida 1 metr masofada joylashadi, bunday usullarda quritish muddati 24–30 soatdan ko'p bo'lmasligi kerak.

***Yenglarni sinab ko'rish.*** Yenglardan foydalanish jarayonida yenglar bir yilda 1 marta hamda bir ta'mirlash ishlaridan so'ng va mustahkamligini kamaytiruvchi zararli (kimyoviy moddalar, issiqlik) sharoitida foydalanilgandan so'ng gidravlik sinov yo'li bilan sinaladi.

Sinov o'tkazishdan oldin yenglarni ko'rib chiqish zarur va ularni bir xil diametrli 1 ta mustahkamlik guruhiга tegishli hamda yaroqliк darajasi bir xil 6 tagacha yenglarni biriktirib sinovga tayyorlanadi. Sinalayotgan yenglarning uchi gidravlik pressga yoki o't o'chiruvchi avtomobil suv haydagichiga ulanadi. Yenglarning ikkinchi uchiiga havoni chiqarish uchun qopqoqli (jo'mrakli qopqoq) moslama qo'yiladi. Qopqoq o'rnida yopuvchi dastak yoki 3 yo'lli suv ayirgich ishlatish mumkin.

So'ngra yengdagi havo chiqarilib, ikki daqiqa davomida astasekin suv bilan to'ldiriladi, yengdagi suv bosimi yo'l qo'yiladigan chegaraviy (maksimal) ish bosimiga ko'tariladi va shu bosimda yeng ikki daqiqa davomida ushlab turiladi, shundan keyin bosim 0 gacha tushiriladi va yana bir maromda 3 daqiqa davomida sinov bosimigacha ko'tariladi hamda 3 daqiqa ushlab turiladi.

Gidravlik sinov o'tkazilgan yeng, biriktiruvchi yeng boshchalari bog'lamalaridan suv o'tkazmasligi va matoning yorilishiga yo'l qo'ymasligi kerak. Sinov o'tkazilgandan so'ng, uning natijalari ushbu yeng pasportiga yozib qo'yiladi va imzolanadi.

**Yenglarni saqlash.** Yenglarni havo harorati 0°C dan past bo'limgan va namligi 50–65% bo'lgan xonalarda saqlanadi. Yenglarni saqlanadigan xonalarda tabiiy havo almashinishi mavjud bo'lishi zarur, bu xonalar sun'iy yoki tabiiy yorug'likka ega bo'lishi mumkin, quyosh nurlarini o'tkazmaslik uchun deraza oynalariga parda tutish yoki oq rangli bo'yoq bilan bo'yalishi kerak. Isitish asboblaridan yenglar 1 metr masofada joylashishi kerak, 1 yilda 2 marta yenglar o'ramlarini javonlarga tegib turgan joylarini aylantirib turish lozim. Ularni ustma-ust qilib saqlash taqiqlanadi.

**Yenglarning ishini hisobga olish.** So'ruvchi va bosim soatida ishlovchi yenglarni yong'inlar va mashqlardagi suv bilan hamda suvsiz ishini qorovul boshlig'i qism xizmat kitobiga qayd qilib boradi. O't o'chiruvchi qismi yeng xo'jaligiga javobgar shaxs 10 kunda bir marta bu yozuvlarni yenglar pasportlariga ko'chiradi. Pasportlarni  $15 \times 20$  sm o'lchovda pishiq karton qog'ozdan tayyorlash tavsiya qilinadi. Pasportlar yo'qolishining oldini olish uchun ular hisobga olish jurnali yoki daftariga qayd qilinadi.

Pasportda yeng to'g'risida umumiyo ko'rsatkichlar: yengning kimga tegishliligi, tayyorlangan yili va shu bo'linmaga olingan vaqt, tartib raqami, haqiqiy o'lchovi, diametri, qaysi guruhga mansubligi (kuchaytirilgan, normal, yengillashtirilgan), sinovlar o'tkazilgan vaqt va ko'rsatkichlar, suv bilan va suvsiz ishlagan vaqt, o'tkazilgan ta'mirlash ishlarining turlari yoziladi.

Bosim ostida ishlovchi yengning va mashqlarda yenglar yo'llarini tuzishdagi suvsiz ishslash muddati har bir tuzilma uchun 20 daqiqaga teng deb qabul qilingan.

Yenglarning bosim ostidagi keyingi ishi yuqoridagi vaqtga qo'shiladi. Pasportlardagi yozuvlar qisqa bo'lishi kerak. Yenglarning hisobdan chiqarilishi pasportlarda qayd qilinib, hay'at dalolatnomasi bilan moliya bo'limiga topshiriladi.

## 13.2. O'T O'CHIRISH DASTAKLARI

O't o'chiruvchi dastaklar sochma va uzliksiz suv uzatmalari va havo-mexanik ko'pigi uzatish uchun mo'ljallangan. O't o'chiruvchi

dastaklar uzatayotgan o‘t o‘chiruvchi vositalarning turiga qarab, suv uzatuvchi va havoli-mexanik ko‘pik uzatuvchi, o‘t o‘chiruvchi vositasini uzatish miqdoriga qarab esa qo‘lda ishlatiladigan va tirsakli dastaklarga bo‘linadi.

Tirsakli dastaklar qo‘lda ishlatiladigan, avtomobilda tashiladigan va avtomobilida o‘rnataladigan turlarga bo‘linadi.

Qo‘lda ishlatiladigan o‘t o‘chiruvchi dastaklarning texnik ko‘rsatkichlari:

T/r	Ko‘rsatkichlar	Dastaklarning turlari				
		PCП-50	CPK-50	PCП-70	PCK-50	PCK3-70
1	Ishchi bosimi (kPa)	400	600	600	400	600
2	Nasadka diametri (mm)		13	19	14	13
3	Suv sarflanishi (l/s)	1,7	3,6	7,4	2,7	3,1
4	Uzatish uzunligi (m) a) uzlusiz	22,9	28	32	30	22
	b) sachratma dastak uzunligi (mm)	610	312		12	12
5	Og‘irligi (kg)	3,5	1	1,85	4122,2	4002
6	Ko‘pik hosil qiluvchi modda sarflashi (l/s)	1,8–1,7	–	–	–	–
7	Ko‘pik ko‘paruvchanligi	20–60	–	–	–	–
8	Ko‘pik uzatish	15–7	–	–	–	–

O‘t o‘chiruvchi dastaklar hosil qiladigan suv uzatmalarining turi, tashqi ko‘rinishi va o‘lchamlari bilan ikki turga bo‘linadi:

1 – uzlusiz suv uzatmali uzatuvchi va 2 – sachratma suv uzatuvchi. PCK-50 va PCK-70 dastaklari faqatgina o‘lchamlari bilan farqlanadi, lekin ularning tuzilishi bir xil (45, 46-rasm).



CPK-50



PCK-50

45-rasm. O‘t o‘chiruvchi CPK-50 va PCK-50 dastaklari.



PCPI-70



PCK3-70

*46-rasm.* O‘t o‘chiruvchi PCPI-70 va PCK3-70 dastaklari.



*47-rasm.*


O‘t o‘chiruvchi PCK-50 dastagi.

PCK-50 dastagi yordamida uzlusiz va sachratma suv uzatish mumkin (47-rasm). PCPI-50 dastagi PCK-50 dastagidan ko‘pik uzatish nasadkasi bilan farq qilib, 15 dan 60 daqiqagacha ko‘pik uzatish mumkin.

Tirsakli dastak mukammal va katta yong‘inlarni o‘chirish uchun kuchli suv va havo-mexanik ko‘pik hosil qilish hamda uzatish uchun mo‘ljallangan.

ПСЛ-20П tirsakli dastagi (48-rasm) avtosuv haydagichlarning o‘t o‘chiruvchi qurollari tarkibiga kiradi.

Havo-mexanik ko‘pik olish uchun suv uzatish nasadkasi, ko‘pik uzatish nasadkasi bilan almashtiriladi.



*48-rasm.* ПСЛ-20П tirsakli dastak.

#### **ПСЛ-20П tirsakli dastaginiqin texnik ko‘rsatkichlari**

T/r	Ko‘rsatkichlar	Nasadkalari diametri		
		22	28	32
1	Ishchi bosimi (kPa)	600	600	600

2	Suv sarflanishi (l/s)	10	23	30
3	Ko‘pik hosil qilish ( $m^3$ /daqiqqa)	—	12	—
4	Uzatmalarining uzoqligi (m): a) suv	61	67	68
	b) ko‘pik	—	32	—
5	Og‘irligi (kg)	27	27	27


### 13.3. YENGLAR JIHOZLARI

Yenglar jihozlariga quyidagilar: so‘rvuchi to‘r, ulagich boshchalar, uch yo‘lli suv ajratuvchi, suv yig‘uvchi, qo‘lda ishlataladigan va tirsakli das-taklar kiradi. Yeng jihozlari АП-9В yoki AK-6 alumin qorishmasidan quyiladi va mexanik ishlov beriladi.

#### a). So‘rvuchi to‘r.

O‘t o‘chiruvchi avtomobilni ochiq suv manbayiga o‘rnatishda, so‘rvuchi yenglarning uchiga so‘rvuchi to‘r o‘rnatalishi zarur, chunki so‘rvuchi to‘r suv haydagich ichiga suv bilan birga har qanday qattiq jinslar so‘rilishidan himoyalaydi hamda suv haydagichlar vaqtinchalik suv uzatishdan to‘xtatilganda, uni suv bilan to‘latayotganda o‘zining klapani yordamida so‘rilgan suvni tutib turishi uchun xizmat qiladi (49-rasm).

Sanoatda to‘rt o‘lchovli, bir xil tuzilishga ega bo‘lgan so‘rvuchi to‘rlar ishlab chiqarilgan. Bular: CB-80 – qo‘lda ko‘tarib keltiradigan motopompalar uchun, CB-100 va CB-125 – o‘t o‘chiruvchi avtomobillar, aravachali motopompalar va boshqa turdag‘i texnikalar uchun.



49-rasm. So‘rvuchi to‘r.

#### So‘rvuchi to‘rlarning texnik ko‘rsatkichlari

T/r	Ko‘rsatkichlar	CB-80	CB-100	CB-125	CB-150
1	Ichki diametri (mm)	80	100	125	150

2	Suv o'tkazish qibiliyati (l/daqqa)	800	1209	2400	6000
3	8 m chuqurlikdagi to'rning klapanini ochishda talab etilgan kuch (N)	150	180	250	350
4	Og'irligi (kg)	2,9	4,7	6,4	8,2


### b). Bog'lovchi boshchalar.

O't o'chiruvchi yeng va yeng jihozlarini bir-biriga tezlikda, havo o'tkazmaydigan darajada va mustahkam bog'lash uchun mo'ljallangan. Vazifasiga va bog'lash usuliga qarab, bog'lovchi boshchalar har xil konstruksiyada bo'ladi, masalan, yengning bog'lovchi boshchalari quvurdan iborat bo'lib, unda rezina taglik o'rnatish uchun maxsus joy (aylanasi bo'yicha) qilingan.

Unga maxsus halqa boshcha kiyiladi, halqa boshchaning ikita cho'ngi (rezba) bo'lib, ular yordamida boshqa halqasimon boshchaga bog'lanadi. Halqasimon boshchaning sirt qismida maxsus kalit bilan qisish uchun bo'rtib chiqqan joylari bor (77 mm va undan yuqori boshchalari), boshchalarining bir-biriga zinch bog'lanishiga rezina taglik sabab bo'ladi (50-rasm).


Bog'lovchi boshchalar bosim ostida ishlovchi yenglarga 2 yoki 1,6 mm.li, so'rvuchi yenglarga esa 2,0–2,6 mm.li ruxlangan simlar yoki ruxlangan metall qisqichlar yordamida mahkamlanadi hamda ular 50, 70, 80, 110, 150 mm o'lchamlarida bo'ladi.

Bir diametrдан boshqa diametrga o'tish boshchasi (51-rasm, d), boshqa-boshqa diametrli yenglar va jihozlarni bir-biriga bog'lash uchun



50-rasm. So'rvuchi yenglarning bog'lovchi boshchasi:

a – yeng boshchasi; b – muftali boshcha; d – qopqoq boshcha.



51-rasm. Bosim ostida ishvlovchi o‘t o‘chiruvchi qurollarning jihozlarini:  
*a* – yenglarni bog‘lovchi boshcha; *b* – sirti murvatli bog‘lovchi boshcha;  
*d* – ichki qismi murvatli bog‘lovchi boshcha; *e* – o‘tkazuvchi bog‘lovchi  
 boshcha; *f* – qopqoq boshcha.


mo‘ljallangan hamda ular  $70 \times 50$ ,  $80 \times 50$ ,  $80 \times 70$ ,  $110 \times 80$ ,  
 $150 \times 110$  mm o‘lchamlarda bo‘ladi.

Qopqoq boshcha (51-rasm, *f*), suv haydagichning so‘rish yoki  
 bosim uzatish naychalarini, suv haydagich foydalanimayotganda  
 yopib qo‘yish uchun mo‘ljallangan, 50, 70, 80, 110, 150 mm  
 o‘lchamlarda bo‘ladi.

O‘t o‘chiruvchi suv ajratuvchi, o‘t o‘chiruvchi yenglar tizimidan  
 kelayotgan o‘t o‘chiruvchi vositalari oqimini bir necha yo‘nalish  
 bo‘yicha ajratish (yo‘naltirish uchun va yo‘nalishlarga oqimlarni  
 muvofiqlashtirish) uchun mo‘ljallangan.

Magistral (asosiy) yenglar tizimidan kelayotgan o‘t o‘chiruvchi  
 vositalarni yo‘naltirish soniga qarab, uch yo‘lli PT-70 va PT-80 hamda  
 to‘rt yo‘lli РЧ-150 turlarga bo‘linadi (52-rasm).

Hamma ajratuvchilar bir xil konstruksiyalardan iborat bo‘lib,  
 korpus (7), kirish (6) va chiqish (8) naychalardan hamda ventil  
 tavoqchasimon klapani bilan (4), o‘q (1), shpindel (3) va zichlovchi  
 salnik (2) hamda dastakdan (5) iborat.




52-rasm. O't o'chiruvchi suv ajratuvchilar.

### O't o'chiruvchi suv ajratuvchilarning texnik ko'rsatkichlari

T/r	Ko'rsatkichlar	Suv ajratuvchilar		
		PT-70	PT-80	РЧ-150
1	Shartli o'tkazish naychalari (mm):			
	a) kirish	70	80	50
	b) chiqish: • markaziy	70	80	80
	• yonlama	50	50	80
2	Og'irligi (kg)	5,5	6,5	15

#### d). Yengli suv yig'uvchi BC-125.

Yengli suv yig'uvchi o't o'chiruvchi giderantidan kelayotgan suv oqimini birlashtirish uchun mo'ljallangan. O't o'chiruvchi suv haydagichiga o'rnatilib, o't o'chiruvchi suv olgich yordamida giderantdan olingan bir yoki ikkita diametri 77 mm bo'lgan bosim ostida ishlovchi yeng yoki bosim-so'ruvchi yeng orqali uzatiladigan suvni suv haydagichning so'rish naychasiga uzatishda hamda uzoq masofalarga suv haydagichdan suv haydagicha suv uzatishda foydalaniladi (53-rasm).



53-rasm. Yengli suv yig'uvchi.

## Yengli suv yig‘uvchi BC-125 texnik ko‘rsatkichlari

Ishchi bosim (MPa)	Ko‘rsatkichlar
Shartli o‘tkazish naychalari (mm):	1
a) kirish	80
b) chiqish	125
Og‘irligi (kg)	3,8

### 13.4. O‘T O‘CHIRUVCHI YENGLARI, DASTAKLARI VA BOSHQA YENG JIHOZLARI BILAN ISHLASH

O‘t o‘chirish yeng va yeng jihozlari bilan mashg‘ulot o‘tkazish shaxsiy tarkibni yong‘inlarda tez, o‘z ishining bilimdoni sifatida ishchi hamda magistral (asosiy) yenglar tizimini yoyishni o‘rgatish maqsadida o‘tkaziladi.


Mashg‘ulotlarda quyidagi vazifalar hal etiladi:

- avtomobilda yenglarni har xil usullarda taxlash, yenglar yo‘llarini yoyish, ularni ishdan so‘ng yig‘ishni o‘rgatish va mashqlarni bajarish bo‘yicha qobiliyatlarini oshirish;
  - yeng yo‘llarini yuqoriga ko‘tarishni o‘rgatish;
  - o‘t o‘chiruvchi dastaklar bilan ishlashni takrorlash;
  - yong‘inda yenglarni himoyalash va vaqtincha ta’mirlash.
- Yenglarni bittalik (54-rasm, *a*) yoki ikkitalik (54-rasm, *b*) qilib o‘rashni, qoidaga asosan, bir o‘t o‘chiruvchi bajaradi.


Yenglarni bitta qatli o‘rashda yengning bir uchidan ikkinchi uchiga qarab o‘raladi. Yenglarni ikki qatli qilib o‘rashda esa yeng ikki qatli qilib buylanadi (bunda ustki qati ostidagi qatiga nisbatan kaltaroq bo‘ladi) va yengning o‘rtasidan boshlab o‘rab boriladi.



54-rasm. Yenglarni aylana shaklida o‘rash.



55-rasm. Zichlovchi tagligini almashtirish.



56-rasm. O‘t o‘chiruvchi yenglarni bir-biriga ulash.

Yenglarni bir-biriga ulash (55-rasm)da rezina taglik buklanib, boshchadagi o‘ringa qo‘yiladi va o‘ng qo‘l yordamida o‘rniga kiritiladi, chap qo‘l bilan esa o‘rniga kiritilgan qismi ushlab boriladi.

Yenglarni bir-biriga bog‘lash (ulash) (56-rasm) «Yenglar ulansin!» buyrug‘iga asosan bajariladi. Bu buyruqda o‘t o‘chiruvchi bog‘lovchi boshchalarini qo‘lga olib, bir-biriga to‘g‘ri qo‘yib, qisib rezina tagliklarning kuchini yengadi va chiqib turgan cho‘ngchalarini burab, ularni bir-biriga ulaydi (56-rasm, a).

Dastakni yenglar tizimiga ulash «Dastak ulansin» buyrug‘iga asosan, o‘t o‘chiruvchi yenglarni bir-biriga ulashdagidek harakatlanadi (56-rasm, b).

«Yeng (dastak)ni yengdan ajrat!» buyrug‘iga asosan, o‘t o‘chiruvchi qo‘llarining kuchi bilan yeng (dastak)larni ulovchi boshchalarining o‘ng qo‘l tomonini o‘ziga, chap qo‘l tomonini esa o‘zidan buraydi va ularni bir-biridan ajratadi.

Boshqa turdagи o‘t o‘chiruvchi qurollari: suv ajratuvchi, suv olgich, suv haydagichning bosim naychalari, ko‘pik generator, suv tegirmoni

Yenglarni garmon usulida taxlash ikki o‘t o‘chiruvchi bilan bajariladi. Biri avtomobil kuzovi bo‘lmasi o‘lchamiga moslab yengni buklab taxlaydi, ikkinchisi esa yenglarni bir-biriga ulab turadi.

Yeng g‘altaklariga yenglarni o‘rashda uch nafar o‘t o‘chiruvchi ishtirok etadi. 1-o‘t o‘chiruvchi yeng boshchasini yeng g‘altagineg o‘qida qilingan maxsus joyga mahkamlaydi va yenglarni g‘altakka o‘raydi. 2–3-o‘t o‘chiruvchilar g‘altak yenglar bilan to‘lguncha g‘altak diskini aylantirishadi. G‘altak to‘lgandan so‘ng 1-o‘t o‘chiruvchi oxirgi yengning uchini qat o‘ramning orasiga tiqib qo‘yadi.

Yenglarning biriktiruvchi boshchalarini rezina tagligini almashtirish (55-rasm)da rezina taglik buklanib, boshchadagi o‘ringa qo‘yiladi

va hokazolar bilan yenglarni ulashda ham yuqorida ko'rsatilgandek bajariladi.

### *Yenglarni yoyish*

***Yeng o'ramini yoyish.*** Yenglar yoyish «Yenglar yo'lini o'ramdan (yo'nalish va yo'llar uzunligi ko'r-satiladi) yoying!» buyrug'iiga binoan amalga oshadi. Bu buyruqqa asosan, o't o'chiruvchi ikki o'ram yenglarni olib, birini yerga qo'yadi va ikkinchisini o'ng qo'li bilan boshchalar tagidan, chap qo'li bilan esa o'ramning qarama-qarshi tomonidan ushlaydi (57-rasm).

So'ngra, o'z tanasini oldinga eggan holda shu vaqtning o'zida, yeng o'ramini o'ng-orqaga oladi va chap oyoqda shiddat bilan oldinga qadam tashlab, yeng boshchalarini ushlab, qolgan yeng o'ramini uloqtirib tashlaydi.

Yeng o'ramining to'liq yoyilishidan oldin, o'ng qo'li bilan yengni orqaga tortadi va pastki qat yeng boshchasini yerga qo'yadi yoki SUV haydagichning bosim osti paychasiga ulaydi va ikkinchi yeng o'rami ham xuddi shunday yoyilib, ikkala yoyilgan yenglarni bir-biriga ulaydi.

***«Garmon» usulida taxlangan yenglari (66, 77, 89, 110, 150 mm diametri) dan asosiy yeng yo'lini yoyish.*** Ushbu mashqni bajarish uchun har ikki yengni yoyishga bir nafar o't o'chiruvchi hisobidan shaxsiy tarkib jalb etiladi. Bunda 1-o't o'chiruvchi avtomobilda «Garmon» usulida taxlangan yenglarning eng yuqori qatlamidagi yenglarni olib ko'rsatilgan yo'nalish bo'yicha yoyadi (58-rasm).

2–3-o't o'chiruvchi, 3-o't o'chiruvchi esa 5- va hokazo yenglar boshchalaridan olib, ularni yoyib yenglar yo'llarini tayyorlashadi. Avtomobil SUV haydagichining bosim osti naychasiga yenglar yo'llari uchini haydovchi ulaydi.




57-rasm. Yeng o'ramini yoyish.



58-rasm. «Garmon» usulida taxlangan yenglarni yoyish.

Ish yo'lli yenglarini yoyuvchi o't o'chiruvchi, yenglar yoniga yugurib keladi, ikkitadan kam bo'lman 51 mm.li yeng o'ramlarini olib, o'rnatilgan suv ajratuvchi yoniga yugurib keladi. Yenglarni yoyib, bir-biriga, suv ayirgichga va dastakka ulaydi.

Yong'in joyida portlovchi moddalardan zararlanish holatlari bo'lganda, o't o'chiruvchi yenglarni yoyishni o'rmalash va yugurib, o'zini panohga olish usullarida bajaradi (59-rasm).



59-rasm. Yenglarni yo'llini o'rmalash usulida yoyish.

Yenglarni yo'llini o'rmalab yoyish mashqini bajarishda, o't o'chiruvchi bir o'ram yengni olib, yo'nalish bo'yicha yoyadi.

Yoyilgan yeng uchini chap qo'li bilan chap (o'ng) yelkasidan orqasining diagonali bo'yicha o'tkazadi. Shundan so'ng yerga qorni bilan yotadi.

Harakatlanishga buyruq berilgandan so'ng o't o'chiruvchi chap (o'ng) oyog'ini buklaydi va bir vaqtning o'zida iloji boricha o'ng (chap) qo'llini oldinga uzatib yerga qo'yadi. Buklangan oyog'i bilan yerni itarib, tanasini oldinga oladi, oyoq va qo'lllar almashgan holda harakat davom ettiriladi. Yong'in joyidagi holatga qarab, shaxsiy tarkibga xavfsiz bo'lgan yenglarni yoyishning boshqa usullarini qo'llash mumkin.

Yenglarni qanday usulda yoyish lozimligini bo'linma sardori aniqlaydi.

#### ***Yenglarni g'altagidan yenglar yo'llini yoyish.***

Buyruq berilgandan so'ng shaxsiy tarkib yenglarni g'altakning qarab yugurishadi (60-rasm). 1-o't o'chiruvchi g'altakning qulfini ochadi va ikki o't o'chiruvchi g'altakni avtomobildan yechib olishadi, so'ngra g'altakning maxsus dastasidan ushlagan holda harakatlanib, ko'rsatilgan yo'nalish bo'yicha yenglarni yoyadilar.

Haydovchi g'altak yechib olinayotgan vaqt ichida g'altakning yeng yuzadagi yeng uchini yechib olib, avtomobil suv haydagichiga ulaydi.

Yong'in joyidan suv manbayi yo'nalishi bo'yicha yenglarni yo'llini yoyishda 2-o't o'chiruvchi yenglarni g'altagidan g'ilofini yechib oladi.



60-rasm. Yenglar g‘altagidan yenglar yo‘lini yoyish.

1-o‘t o‘chiruvchi g‘altakni aylantirish mumkin bo‘lgan holatga keltiradi (fiksatorni ochadi), yuqori qatlAMDagi yeng boshchasini olib, suv ayirgichga yoki dastakka ulaydi va kerakligicha yeng zaxirasini hosil qilgandan so‘ng ko‘rsatilgan joyga chiqadi. 2-o‘t o‘chiruvchi avtomobil zinasiga chiqib, kuzov tutgichidan tortadi va haydovchiga harakatlanishga buyruq beradi (61-rasm). Haydovchi asta-sekin suv manbayi tomon avtomobilni harakatlantirib boradi. Yetib kelib to‘xtagandan so‘ng 2-o‘t o‘chiruvchi yeng uchini suv haydagichga ulaydi.

Temiryo‘l yoki tramvay yo‘llaridan yenglar yo‘lini yoyish kerak bo‘lsa, shpallar oralig‘i va relslar tagidan o‘tkazish lozim.



61-rasm. Yong‘in joyidan suv manbayiga qarab yenglar g‘altagidan yenglar yo‘lini yoyish.

Yengli o‘t o‘chiruvchi avtomobillaridan yenglar yo‘llarini yoyishda, 1-o‘t o‘chiruvchi avtomobil kuzovi eshagini ochib, ustki qatlam yengning uchini oladi va suv manbayiga o‘rnatilgan o‘t o‘chiruvchi avtomobilining suv haydagichiga ulaydi. 2-o‘t o‘chiruvchi esa, yengli avtomobilning orqa zinasida turib, kuzov tutgichidan ushlagandan so‘ng haydovchiga avtomobilni harakatlanirishga ruxsat beradi.

Haydovchi o‘rnatilgan suv ayirgich tomon avtomobilni haydaradi, u yerda 2-o‘t o‘chiruvchi yengning uchini suv ayirgichga ulaydi, 1-o‘t o‘chiruvchi esa avtomobil orqasidan tushayotgan yenglar yo‘llarini tuzatib boradi.

**Yeng yo‘llarini yuqoriga ko‘tarish.** Ushbu mashqning bajarilishi bir necha turlardan iborat: qutqaruv arqoni yordamida yeng yo‘llarini ko‘tarish: o‘t o‘chiruvchi 1-o‘t o‘chiruvchi ko‘rsatilgan balandlikka ko‘tariladi va «Ehtiyot bo‘ling!» deb ogohlantiradi. Javob olgandan so‘ng qutqaruv arqonining bir uchini pastga tashlaydi, 2-o‘t o‘chiruvchi yenglarni yoyadi va bir-biriga ulaydi, birinchi yengning uchini qutqaruv arqoniga bog‘laydi va bu haqda 1-o‘t o‘chiruvchini «Tayyor!» deb xabardor qiladi, 1-o‘t o‘chiruvchi esa yenglarni ko‘taradi va yeng tutgichlar bilan mahkamlaydi. So‘ngra yengning uchiga dastakni ulaydi va bu haqda axborot beradi.

Yenglarni yeng tutgichlar bilan mahkamlash har bir yeng uchun bittadan tutgich hisobida tashkil etiladi. Bosim ostida bo‘lgan yeng yo‘llarini to 12 metr yuqorigacha ko‘tarishga ruxsat etiladi. Bu mashqni bajarishda 4–6 kishidan iborat bo‘lgan shaxsiy tarkib jalg etiladi. Bunda ham shaxsiy tarkib yuqorida ko‘rsatilgan tartibda harakatlanadi.

Bino va inshootlarning zinapoyalari oralig‘idan yenglarni ko‘tarish: yenglar yoyiladi va bir-biriga ulangan holda zinapoya yonida yig‘iladi, 1-o‘t o‘chiruvchi yeng uchini olib, zinapoyalar oralig‘iga o‘tkazadi va buyurilgan qavatga ko‘tariladi. Kerakligicha yeng zaxirasini olgandan so‘ng yenglar yo‘lini yeng tutgich bilan mahkamlab, dastakni ulaydi va o‘z joyini egallab, tayyorligi to‘g‘risida axborot beradi.

Doimiy o‘rnatilgan yoki keltirib qo‘yilgan narvonlar orqali yenglarni ko‘tarish:

- o‘t o‘chiruvchi yoyilgan yengga dastakni ulaydi, oyoqlari orasidan yengni o‘tkazib yelkaga tashlab oladi va narvon orqali ko‘tariladi (62-rasm). So‘ngra tomga yoki deraza orqali xona ichi-

ga o‘tib oladi, yeng tutgichlar bilan yenglarni mahkamlaydi, shundan so‘ng tayyorligi to‘g‘risida axborot beradi.

Avtomobil narvon orqali yenglarni ko‘tarish ham xuddi o‘rnatilgan narvonlar kabi bajariladi. Yuqori qavatli binolarga yenglarni ko‘tarish qutqaruv arqoni yoki liftlar orqali quyidagicha bajariladi; uch kishi yong‘in o‘chiruvchilar ko‘rsatilgan balandlikka chiqishadi. Ular o‘zлari bilan qutqaruv arqoni va yeng tutgichlar ham olishadi. Qutqaruv arqonlarini bir-biriga bog‘lab bir uchini o‘zларда qoldirib, ikkinchi uchini pastga tashlashadi. Pastdagи o‘t o‘chiruvchi yenglar yo‘li uchini qutqaruv arqoni bilan bog‘laydi va tayyorligi to‘g‘risida axborot beradi. Yuqoridagi yong‘in o‘chiruvchilar esa yenglarni tortib chiqarishadi, kerakligicha zaxira yaratib, yeng tutgichlar bilan yenglar yo‘lini mahkamlashadi va tayyorligi to‘g‘risida axborot beradi.

Lift orqali yenglarni yuqoriga olib chiqqandan so‘ng yong‘in o‘chiruvchilar ularni yoyib, bir-biriga ulashadi va astasekin yenglar tizimi uchini pastga tushirishib, yeng tutgichlar bilan mahkamlashadi. Bunda 9-qavatgacha har bir yeng uchun bitta yeng tutgich, undan yuqori qavatlarga esa har bir yeng uchun ikkita yeng tutgich ishlatalidi.

### Dastaklarda ishslash


Qo‘lda ishlataladigan dastaklar uch xil: tik turib, cho‘kkalab, cho‘zilib yotgan holda ishlataladi (63-rasm).

Dastakni tik turib ishlatalish uchun o‘t o‘chiruvchi o‘ng tomonga yarim burilgan holda turib, chap oyog‘ini ozgina buklab, oldinga qo‘yadi, o‘ng qo‘li bilan dastakni yeng ulangan joyidan, chap qo‘li bilan esa dastakning korpusidan ushlaydi (63-rasm, a).

Dastakni cho‘kkalab turgan holda ishlatalish uchun, o‘t o‘chiruvchi o‘ng tomonga yarim burilgan holda turib, o‘ng tizzasini yerga



62-rasm. Narvonlar orqali yenglarni ko‘tarish.



63-rasm. Dastakni ishlatish hollari.

qo'yadi, chap oyog'ini tizzasidan buklab oldinga qo'yadi, o'ng qo'li bilan dastakni yeng ulangan joyidan, chap qo'lini chap tizzasining ustiga qo'yib, dastakni korpusidan ushlaydi (63-rasm, b).

Dastakni cho'zilib yotgan holda ishlatish uchun, o't o'chiruvchi yerda (polda) cho'zilib yotadi, oyoqlari oraliq kengligini yelka kengligi dan kengroq holatda qo'yadi, qo'l tirsaklarini yerga tirab (qo'yib), xuddi tik turib dastak uzatishdagidek dastakni ushlaydi (63-rasm, e).

Ko'pik uzatuvchi dastaklar bilan tik turib, cho'kkalab yoki cho'zilib yotgan holda ishlash mumkin. Bunda yuqorida ko'rsatilgan tartibda yong'in o'chiruvchining turish hollaridan (tik turish, cho'kkalash, cho'zilib yotish) foydalaniadi.

Tirsakli qo'lda keltiradigan dastaklarda ishslash uchun ikkita o't o'chiruvchi tayinlanadi. 1-o't o'chiruvchi tirsakli dastakning ishini boshqaradi. 2-o't o'chiruvchi dastakni o'rnatishda va uning o'mini almashtirishda 1-o't o'chiruvchiga yordamlashadi.

Bir yerda o'rnatilgan tirsakli dastakda ishslash uchun bir yoki ikki o't o'chiruvchi tayinlanadi. O't o'chiruvchi avtomobili kabinasining tomida o'rnatilgan tirsakli dastakda ishslash uchun bir o't o'chiruvchi tayinlanadi. Bunda, haydovchi avtomobilni boshqarish bilan bir qatorda, dastak uchidagi bosimni ham muvofiqlashtiradi, o't o'chiruvchi esa dastakni boshqaradi.

Yong'lnarni o'chirishda uzatiladigan suv miqdorini oshirish uchun dastak uchidagi kichik diametrli nasadkasini katta diametr lisiga almashtirish kerak.

Dastakda ishlayotganda, uning suv oqimidan hosil bo'ladigan kuch natijasida dastak qo'ldan chiqib ketса yoki chiqib ketish hollari yuzaga kelayotgan bo'lsa, unda tezlik bilan yenglar yo'li bosimini

pasaytirish lozim. «Dastakni yoping!» buyrug‘i berilganda, dastakda ishlayotgan o‘t o‘chiruvchi tezlik bilan dastak jo‘mragini yopadi va suv uzatilishini to‘xtatadi.

Xonaga ko‘pik uzatishda, xonaning eshik va pastki teshiktuynuklari maxsus to‘sinqular bilan to‘siladi. To‘sinqni o‘rnatish uchun uch o‘t o‘chiruvchi tayinlanadi.

1-o‘t o‘chiruvchi to‘sinqni yoyadi va tuynukka o‘rnatadi, 2 va 3-o‘t o‘chiruvchilar 1-o‘t o‘chiruvchi o‘rnatgan to‘sinqqa tirgak va ustunlar qo‘yib uni tuynukka mahkamlaydi. 1-o‘t o‘chiruvchi maxsus to‘sinqning dastak o‘rnatish uchun mo‘ljallangan teshigiga ko‘pik uzatish dastagini o‘rnatadi va keyingi harakatlar uchun tayyorligi haqida axborot beradi.

Yuqoridagi holatda ishslash dastaklarning bog‘ichini bosh yoki yelkadan o‘tkazib taqib olishga, yeng tutgichlar bilan mahkamlanmagan yenglar yo‘llariga suv uzatishga ruxsat etilmaydi. Ko‘tarilgan avtonarvonlar va avtoko‘targichlarning narvon-kabinalari tagida bo‘lishlikka ruxsat etilmaydi.

Avtonarvon va avtoko‘targichlarning foydalanish bo‘yicha yo‘riqnomasida ko‘rsatilgan miqdordan ortiq bo‘lgan odam yoki yuklarni ko‘tarish qat’iyan man etiladi. Shamolning tezligi bir soniyada 10 metr va undan ortiq bo‘lsa, yuqorida narvonlardan turib dastaklarda ishslash hamda avtoko‘targichlar kabinasida ikki kishidan ko‘p odam bo‘lganda, tirsakli va qo‘lda ishlatiladigan dastaklar bilan ishslash man etiladi.

Avtonarvon AJI-30 (131)da turib, tirsakli dastak bilan ishslash kerak bo‘lsa, avtonarvon narvonining uzunligi 20 metrdan oshmasligi lozim. Qish mavsumida, ayniqsa, narvonlarda o‘ta ehtiyyotkorlik bilan ishslash talab etiladi.

---

---

## **14-bob. O‘T O‘CHIRISH QO‘L NARVONLARI VA UALAR BILAN ISHLASH. XAVFSIZLIK CHORA-TADBIRLARI**

### **14.1. O‘T O‘CHIRUVCHI QO‘L NARVONLARI**

Yong‘indagi tezkor holat hamma vaqt ham binoning ichki zinapoyalar orqali kirishga ruxsat beravermaydi, chunki ichki zinapoyalar ham olov bilan qoplangan, buzilgan, balki tutun bilan qoplangan bo‘lishi mumkin. Bunday holatlarda maxsus o‘t o‘chiruvchi narvonlardan foydalaniladi.

O‘t o‘chiruvchi narvonlar yong‘in o‘chiruvchilarning yonayotgan binolarning yuqori qavatlariga chiqishi hamda olov, tutun ta’siri, qurilish qismlarining buzilishi natijasida bino xonalaridan xavf ostidagi odamlarni qutqarish uchun mo‘ljallangan.

O‘t o‘chiruvchi narvonlar qo‘lda ishlatiladigan va mexanik (avtonarvonlar) turlarga bo‘linadi. Qo‘lda ishlatiladigan narvonlar qo‘l kuchi yordamida ishlatiladi, ularni ishlatish uchun hech qanday kuch beruvchi asbobdan foydalanilmaydi. Yong‘in joyiga ular o‘t o‘chiruvchi avtomobillar yordamida keltiriladi.

Yong‘indan saqlash xizmati bo‘lmalari uch xil qo‘lda ishlatiladigan o‘t o‘chiruvchi narvonlar bilan qurollangan.

O‘t o‘chiruvchi qo‘l narvonlari turlariga yog‘och narvonlar, ishg‘ol qiluvchi narvonlar va uch tirsakli (pog‘onali) suriluvchan narvonlar kiradi.

Yong‘in o‘chiruvchilarning yuqoriga ko‘tarilish va ishlashlariда tezkorlik hamda xavfsizligini ta’minalash uchun o‘t o‘chiruvchi narvonlar sodda tuzilishga ega. Ular nisbatan yengil, baquvvat va chidamlili qilib tayyorlanadi.

O‘t o‘chiruvchi narvonlarni tayyorlashda yuqori sifatli har xil turdagи yog‘och va yengil, yuqori mustahkamlikka ega bo‘lgan metallardan foydalaniladi.

Yog‘och narvonlarga qaraganda metall narvonlar mustahkamroq hamda yengil va chidamliroq. Lekin metall narvonlarning bir kamchiligi bor, u ham bo‘lsa, elektr tokini o‘zidan o‘tkazadi.

## *O't o'chiruvchining yog'och narvoni*

Narvonlarning yog'och shotilari qattiq turdag'i yog'ochlardan yoki alohida-alohida yelimlangan yog'ochlardan tayyorlanadi. Narvonlarning zinalari esa eman va shunga o'xshash qattiq yog'ochlardan tayyorlanadi. Bu bir pog'onali, yig'iladigan narvon hisoblanadi (64-rasm).

Narvonning yog'och qismlari qizdirilgan alif bilan to'yintirilib, rangsiz lok bilan bo'yaladi.

Ochilgan holatda narvon bilan o't o'chiruvchi binoning birinchi qavati derazasiga chiqish yoki xonaga o'tish uchun, yig'ilgan holatda esa narvon bilan eshik, to'siq va hokazolarni buzish uchun foydalaniadi.

### **Yog'och-narvonning texnik ma'lumotlari**

Narvonning uzunligi, mm:	
• yig'ilgan holda	3400
• ochilgan holda	3116
Shotilar oralig'i (mm)	250
Zinalar oralig'i (mm)	310
Og'irligi, kg	10,5

Yog'och narvon ikki yog'och shoti, sak-kizta zinadan iborat. Zinalar sharnirlar yordamida shotilarga ulanadi. Shuning uchun ham narvonni yig'ib tayoq shakliga keltirsa bo'ladi. Narvonni yig'ganda uning zinalari shotilardan qilingan maxsus joylarda joylashadi.


Har bir shotisining bir tomonida metall halqa va metall qisqich yordamida yog'och taglik mahkamlangan, shotilarning ikkinchi uchida esa metall uchlik o'rnatilgan.

Sharnir deb, zinaning ikki uchida o'rnatilgan quvurcha, uning ichidan va narvon shotisidan sharnir o'qi o'tkazilgan bo'lib, uchlarda boshchalar hosil qilingan. Narvonning yog'och qismini shikaslantirmslik maqsadida uning tagida shayba qo'yilgan.



64-rasm.  
Yog'och narvon.

## Ishg‘ol qiluvchi narvon



65-rasm.

Ishg‘ol qiluvchi narvon.

Ishg‘ol qiluvchi narvon yonayotgan binoning qavatlariga deraza yoki ayvonlari orqali yong‘in o‘chiruvchilarning yong‘inni o‘chirish va qutqaruv ishlarini bajarishga chiqish uchun hamda qiya tomlarni ochishda qo‘llash uchun mo‘ljallangan.

Bundan tashqari, ishg‘ol qiluvchi narvon uch tirsakli (pog‘onali) narvon va avtonarvonlar bilan birgalikda ishlatish faoliy bilan qo‘llaniladi (65-rasm).

Yog‘och ishg‘ol qiluvchi narvon metall tortma (1), ikkita shoti (2), 13 ta zina (3) lar bilan ulangan.

Uning mustahkamligini oshirish maqsadida shotilar oralig‘i maxsus o‘qlar bilan boltga tortilgan, shotsining ichki qisimidan umumiy uzunligi bo‘yicha, maxsus 3 mm diametrali sim arqon tortilgan. Bu shoti sinib qolgan vaqtda ham uzilib tushishdan, shu bilan birgalikda yong‘in o‘chiruvchining pastga tushib ketishidan himoyalaydi.

Maxsus tishli ilgagi (4) yordamida ishg‘ol qilish narvonini deraza tag taxtasiga yoki ayvon to‘sиг‘iga osish mumkin. Metall ishg‘ol qiluvchi narvonning shoti va zinalari  $\Delta$  16 T rusumli alumin qorishmasidan tayyorlanadi. Shuningdek, narvonning tayanch oyoqlari (5) ham mavjud.

Metall ishg‘ol qiluvchi narvon yog‘ochdan tayyorlangan narvonlardan yuqori mustahkamligi va chidamliligi bilan afzallikka egadir. Bu afzallik tufayli o‘t o‘chiruvchi va saf tayyorgarlik mashg‘ulotlarida ko‘plab qo‘llash imkonini yaratadi.

### Ishg‘ol qiluvchi narvonlarning texnik ma’lumotlari

Ko‘rsatkichlar	O‘lchamida
Uzunligi (mm)	$4100 \pm 30$
Kengligi (mm)	300
Tishli ilgagining uzunligi (mm)	600
Zinalar oralig‘i (mm)	340
Og‘irligi (kg), ortiq emas	9,8

## *Uch tirsakli (pog‘onali) suriluvchan narvon*

Qutqaruv yoki yong‘inni o‘chirish ishlarini bajarish uchun o‘t o‘chiruvchining binoning uchinchi qavatiga yoki ikki qavatli binoning tomiga chiqish hamda xonalar ichki qismida foydalananish uchun mo‘ljallangan (66-rasm).

Pog‘onalarni surish yoki yig‘ish arqon va bloklardan foydalangan holda qo‘lda bajariladi (67-rasm).

Narvon pog‘onalari ikki shoti va zinalardan iborat:


- birinchi pog‘ona 4,8 mm diametrga ega bo‘lgan po‘lat arqon (tros)ga osilgan, ikkinchi pog‘ona 12 mm diametrli zig‘ir poyasidan tayyorlangan arqon blok yordamida suriladi;

- ikkinchi pog‘onani surish bilan birgalikda arqondagi kuch qaytarish prujinaning qarshiligini yengib, dastali to‘xtatish qurilmasi (valik)ni, zinani ushlab, qoluvchi ilgagi bilan birgalikda aylantiradi;


- ustki (uchinchisi) pog‘ona ikkinchi pog‘ona bloki orqali ulangan po‘lat arqon yordamida ikkinchi pog‘ona bilan birgalikda suriladi. Po‘lat arqonning bir tomoni pastki pog‘onaning yuqori zinasiga ulangan, ikkinchi uchi esa ustki (uchinchisi) pog‘onaning pastki zinasiga ulangan.

Ikkinci pog‘onaning bloki harakatlanganda po‘lat arqonni bosadi va ustki pog‘onaning ikkinchi pog‘onasiga nisbatan ikki barobar tezroq harakatlanishga majbur qiladi.

Narvon pog‘onalarining surilishini to‘xtatishda, arqondan berilayotgan kuchni olganda, to‘xtatish qurilmasi (valik) zinani ushlab qoluvchi ilgagi bilan kuch qaytarish prujinasi ta’siri ostida qaytadan o‘z holiga



66-rasm.  
Metall narvon.



67-rasm. Л-60 uch narvonning surish va yig‘ish chizmasi.

qaytadi va zinalardan birini ilib olib, pog‘onalar harakatini to‘xtatadi va shu holatda ushlab turadi.

Narvon pog‘onalarini surish uchun arqon yordamida ozroq harakatlantirib ko‘tarish, so‘ngra arqonga qo‘yilgan kuchni kamaytirib borib, narvon pog‘onalarining bir xilda o‘rnatilishini ta’minlash kerak.

#### **J-60 uch pog‘onali so‘riluvchi narvonning texnik ma’lumotlari**

Ko‘rsatkichlar	O‘chamlar
Narvonning uzunligi (mm)	
• yig‘ilgan holda	4,4
• surilgan holda	10,7
Kengligi (mm)	480
Zinalar oralig‘i (mm)	350
Narvon pog‘onalarini so‘rishda talab etiladigan kuch (n), ortiq emas	200 (20)
Og‘irligi (kg), ortiq emas	45

### **14.2. O‘T O‘CHIRUVCHI NARVONLAR VA TIRSAKLI AVTOKO‘TARGICHLARDA ISHLASH**

Qo‘l narvonlari bilan ishslash bo‘yicha mashqlar o‘t o‘chiruvchilarga narvonlar bilan ishslash qoidalarini o‘rgatish va ulardan balandlikda ishslash imkonini yaratadi.

Mashg‘ulotlarda quyidagi masalalar hal qilinadi:

- qo‘l narvonlarini keltirish, o‘rnatish va ular orqali yuqoriga chiqish tartiblari; shaxsiy tarkibda yuqoridan qo‘rqish holatlarini yengish, yuqoriga chiqishda dovyuraklik va chaqqonligini chiniqtirish;

- mashqlarni tezlik bilan bajarishni, o‘t o‘chiruvchi va saf tay-yorgarlik me’yorlariga asosan mashq qilish;

- haydovchilarga tirsakli ko‘targichlarda ishslashni o‘rgatishlar kiradi.

#### ***Yog‘och narvon bilan ishslash***

Yog‘och narvonni o‘t o‘chiruvchi avtomobilidan yechib olish va o‘rnatilishi lozim bo‘lgan joyga o‘rnatish, «Yog‘och narvonni (o‘rnatish joyi ko‘rsatiladi) o‘rnat» buyrug‘iga asosan bajariladi.

O‘t o‘chiruvchi avtomobildan 1 metr masofada turadi, uning orqa zinalari orqali, kuzovining tomiga chiqib, narvonni yechadi, uni o‘rnatilgan joyidan olgan holda kuzovga suyab yerga qo‘yadi (68-rasm).


Avtomobildan pastga tushgach, narvonni o‘ng tomonda qoldirib, avtomobilga orqasi bilan turgan holda, ikki qo‘llab narvonni yerdan 30–40 sm.ga ko‘taradi va oldinga 3–4 qadam tashlab, narvonni o‘ng qo‘li bilan ushlaydi va o‘rnatiladigan joyga keltiradi (69-rasm).

#### ***Yog‘och narvonni o‘rnatish tartibi***


O‘t o‘chiruvchi narvonni o‘rnatish joyiga yetib kelishiga 3–4 qadam qolganda, uni tik holatga va shu holatda o‘rnatiladigan joyga keltiradi. Yerga qo‘yadi va qo‘l kuchi bilan shotilarini bir-biridan ajratadi. Yog‘och narvonni shunday o‘rnatish kerakki, uning pastki uchlari devordan 1 metr masofada bo‘lsin, yuqori uchi esa binoga suyalsin.

Narvonga chiqish chap oyoqdan boshlanadi va o‘ng qo‘l bilan beshinchи zinasi ushlanadi. O‘ng oyoqni ikkinchi zinaga qo‘yib, chap qo‘l bilan yettinchi zina ushlanadi va h.k. (70-rasm).

«Yog‘och narvonni avtomobilga joylashtir» buyrug‘iga asosan, o‘t o‘chiruvchi narvondan 50–80 sm.da turib, oldinga bir qadam tashlaydi, shotilardan ushlab, yuqori uchini bino devoridan ajratib, tik holatga keltiradi va shotilarni birlashtiradi, narvonni yerdan 30–40 sm.ga ko‘tarib, avtomobil tomon buriladi va narvon o‘rnatilgan joydan 3–4 qadam yurib, uni o‘ng yelkasiga qo‘yib, avtomobil oldiga keltiradi va pastki uchini avtomobildan 1 metr masofada yerga qo‘yib, uni avtomobilga suyab qo‘yadi. Kuzov



68-rasm. Yog‘och narvonni avtomobildan yechib olish.



69-rasm.  
Yog‘och narvonni keltirish.



70-rasm.

Yog'och narvonga chiqish.

ulangan joyini aylantirib, pastki uchini oldinga olib yerga qo'yadi.

Ishg'ol qiluvchi narvonni keltirib o'rnatish, bino qavatlariga chiqish «Binoga chiq» buyrug'iga asosan bajariladi. Buyruq bajarish harakati o't o'chiruvchi narvonning yuqori shotsining 8-zinasi ulangan joyidan o'ng qo'li bilan ushlab yoki qadamlab boshlaydi (71-rasm).



71-rasm. Ishg'ol qiluvchi narvonlar bilan ishlash.

Binoga 9–12 metr qolganda, o‘ng qo‘l kuchi bilan narvonni yuqori-oldinga, bosh ustiga otib yuboradi va ikki qo‘li bilan narvon shotilarini 8-zinasi ulangan joylaridan ushlab oladi (72-rasm).


Binoga yaqinlasha borib narvonning pastki uchini yerdan 25–30 sm masofagacha tushiradi va shu holatda turadi.

Ishg‘ol narvoni orqali 2-qavatga ko‘tarilish quyidagicha bajari-ladi:


- o‘t o‘chiruvchi narvoni osgandan keyin o‘ng qo‘lini o‘ng shotidan oladi va 7-zinadan, chap qo‘li bilan esa 9-zinadan ushlaydi. Oyoqlarini to chap oyog‘i 7-zinaga yetguncha har bir zinaga qo‘yib boradi. O‘ng oyog‘ini 9-zinaga qo‘yish bilan birlgilikda 11-zinaning tagidan o‘ng qo‘lini solib, uni chap shotiga yaqinroq joyidan ushlaydi (73-rasm).

Chap qo‘li bilan esa 13-zinaning ustidan qo‘lini solib uni ushlaydi. O‘ng oyog‘i bilan 9-zinani itarib, qo‘lida tortiladi va deraza taglik taxtasiga o‘tirib oladi, keyin uning ichki qismidan chap oyog‘i bilan qisib oladi, o‘ng oyog‘ini biroz tizzasidan bukib, devorning sirtqi yuzasiga o‘zini yaqinroq tutadi. O‘ng qo‘li 11-zinadan tutgan holda qoladi, chap qo‘lini esa deraza taglik taxtasi ustiga qo‘yadi.

O‘t o‘chiruvchi keyingi qavatlarga ko‘tarilishda, narvonning 11-zinasidan o‘ng qo‘li bilan ushlab turib, uni yuqoriga otib yuborib, narvonning deraza taglik taxtasiga barobar bo‘lgan joyi shotisidan ushlaydi va uni qo‘llarini uzatgan holda yuqoriga ko‘taradi (74-rasm), o‘ng qo‘li bilan narvoni ushlaydi, yuqoriga ko‘tarib, ilgagini deraza tomon buraydi va taglik taxtaning o‘ngroq qismiga osadi.



72-rasm.  
Narvoni 2-qavatga ko‘tarish.



73-rasm. Ishg‘ol qiluvchi narvonga chiqish.

So'ng o't o'chiruvchi o'ng oyog'ini birinchi zinaga qo'yadi, qo'llarida tortilib, chap oyog'i bilan taglik taxtani bosib, o'ng qo'li bilan 7-zinani ushlaydi, o'ng oyog'i bilan zinani, chapi bilan esa derazaning taglik taxtasini itarib sakraydi va o'ng oyog'i bilan 4-zinani bosadi, chap qo'li bilan esa 9-zinani ushlaydi (75-rasm). Yong'in o'chiruvchining keyingi harakatlari yuqorida ko'rsatilgandek kechadi.

Ko'rsatilgan qavatni zabt etishda, yong'in o'chiruvchining qo'l va oyoqlarining holati deraza taglik taxtasiga o'tirishdagidek bo'ladi. O'ng oyoqni 9-zinaga qo'yganda, chap oyoqni deraza taglik taxtasi darajasiga ko'tarish kerak. So'ng deraza taglik taxtasini oyoqning ichki qismi bilan ushlab, ichkariga o'tib olish va tanani  $180^{\circ}$  ga tashqariga qarab burish kerak (76-rasm).


«Ishg'ol qiluvchi narvondan pastga tush» buyrug'iga asosan o't o'chiruvchi yuqorida izohlangan mashqlarni teskarisiga bajaradi.



74-rasm.  
Ishg'ol narvonniga  
ko'tarish.



75-rasm. Deraza taglik  
taxtasidan narvonga  
o'tish.



76-rasm.  
Bino qavatiga  
o'tish.

O‘t o‘chiruvchi yerga tushgach, narvon shotilarining 4-zinasi ulangan joyidan ushlab, deraza tagtaxtasidan 10–15 sm yuqoriga ko‘taradi, chap oyog‘i bilan orqaga bir qadam tashlaydi, narvon ilgagini deraza ichidan chiqaradi va narvonning uchini pastga tushiradi. So‘ngra shotilaridan ushlab orqaga harakatlanadi, to 8-zinaga yetib kelguncha. O‘t o‘chiruvchi o‘ng tomon orqali orqaga buriladi, chap qo‘li bilan narvonni pastga tushiradi va uni o‘ng shotisidan ushlaydi.

Narvonni avtomobilga joylashtirish «Ishg‘ol narvonini avtomobilga joylashtir» buyrug‘iga asosan bajariladi. Bunda o‘t o‘chiruvchi chap qo‘li bilan narvonni olib, uni ko‘taradi, pastki uchlarini oldinga burib oladi va avtomobil oldiga olib keladi.

Narvonning pastki uchini maxsus siljituvchi qurilma (rolik)ga joylashtirib, o‘ng qo‘li bilan narvonni rolik orqali harakatlantiradi. Narvon o‘z joyini egallagandan so‘ng, maxsus mahkamlovchi qurilma (fiksator) bilan uni mahkamlaydi, pastga tushadi va safda o‘z o‘rnini egallaydi.

O‘quv minorasi qavatlariga ishg‘ol qiluvchi narvonlarda mashg‘ulot o‘tkazishdan oldin mashg‘ulot rahbari shaxsan narvonning texnik holatini, himoya qurilmalarini tekshiradi va qavatlardagi shaxslarga ko‘rsatmalar beradi.


Ishg‘ol qiluvchi narvonga chiqish va undan tushishni boshlashi faqatgina narvonni deraza taglik taxtasiga mustahkam, ishonarli o‘rnatgandan so‘nggina mumkin.

Ishg‘ol qiluvchi narvonlarda bir kishi ishlashi mumkin.


### *Uch pog‘onali suriluvchan narvonlar bilan ishlash*

Suriluvchan narvonlar bilan mashqlarni ikki kishi bajaradi. 1- va 2-yong‘in o‘chiruvchilar avtomobilning o‘ng tomonida orqa g‘ildiragi yonida turishadi. «Suriluvchi narvonni avtomobildan yechib ol» buyrug‘iga asosan 1-o‘t o‘chiruvchi o‘ng qo‘li bilan narvonni tutib turuvchi moslamani dastasidan ushlab o‘ngga buridi, chap qo‘li bilan fiksatorni pastga-yuqoriga burib uni ochadi.

2-o‘t o‘chiruvchi esa o‘ng qo‘li bilan dastaning boshi bilan barobar joyidan ushlab, o‘ng oyog‘i bilan avtomobil zinasida turadi va chap qo‘li bilan narvonning o‘ng shotisini ustidan, birinchi zina ulangan joyidan ushlaydi, chap oyog‘i bilan zinada turadi (77-rasm).



77-rasm. Suriluvchan narvonni yechish va avtomobildan olish.



78-rasm.

Suriluvchi narvonni keltirish.

holda chap qo‘li bilan 2 (3)-zinani ushlaydi, o‘ng qo‘lini 2 (3)-zinalar orasidan chiqaradi va shu qo‘l bilan 4 (5)-zinani ushlaydi. Shu vaqtida 1-o‘t o‘chiruvchi chap qo‘li bilan 9 (10)-zinadan ushlaydi, o‘ng qo‘li bilan esa 11 (12)-zinadan ushlab narvonni ushlab turadi va bir vaqtida narvonni oldinga egib, 1-pog‘onani yuqori qilib narvonni yerga qo‘yadi.

«Suriluvchi narvonni avtomobilga – joylashtir» buyrug‘iga asosan:

- 1-raqamli o‘t o‘chiruvchi qo‘llari bilan 9 (10)-zinalardan, 2-raqamli o‘t o‘chiruvchi esa 2 (4)-zinadan narvonni ko‘tarishadi;
- chapga burilib, o‘ng yelkalariga qo‘yishadi, o‘ng qo‘li bilan ustidan ushlab avtomobil tomon harakatlanadilar;

Shundan so‘ng 1-o‘t o‘chiruvchi ikki qo‘li bilan dastani ushlaydi va pastga o‘zini tashlab narvonga boshlang‘ich harakat beradi, aylanadi va avtomobilga orqasi bilan turadi. Qo‘llarini yuqoriga ko‘targan holda narvonni qabul qilishga tayyor turadi. Shu vaqtida 2-o‘t o‘chiruvchi chap oyog‘i bilan avtomobil kuzovini itarib, yerga sakrab tushadi, chap qo‘li bilan narvonning o‘ng shotisidan ushlaydi va shu harakati bilan o‘ng qo‘lini 2 (3)- yoki 3 (4)-zinalar oralig‘iga soladi, 1-o‘t o‘chiruvchi ozroq egilgan qo‘llari bilan narvonni qabul qilib oladi va oldinga egilgan holda yugura boshlaydi, narvonni burab, uni 9 (10)-zinasi atrofidan chap shotisining o‘ng yelkasiga va o‘ng qo‘li bilan yuqori shotidan ushlaydi (78-rasm).

Shunday holatda ular narvonni avtomobildan 10–15 metrga olib kelishadi va to‘xtashadi. So‘ng 2-o‘t o‘chiruvchi o‘ngga burilgan

- avtomobilga 2 (3) metr yetmasdan bosh ustida narvonni qiyalashtirib, chap qo‘li bilan yuqoridagi chap shotini, o‘ng qo‘li bilan esa pastdagi (o‘ngdagi) shotini ushlab, uni biroz egilgan qo‘llari bilan yuqoriga ko‘taradi;
- avtomobilga joylashtirishda 1-o‘t o‘chiruvchi narvonni rolikka to‘g‘ri joylashtiradi;
  - 2-o‘t o‘chiruvchi narvonni oldinga itarib, avtomobilga joylashtiradi;
  - narvon joylashtirilgach, 1-o‘t o‘chiruvchi avtomobil kuzoviga chiqib 2-o‘t o‘chiruvchiga narvonni mahkamlashga yordamla-shadi.


Suriluvchi narvonni o‘rnatish va binoning 3-qavatiga yoki 2 qavatlari binoning tomiga chiqish «Suriluvchi narvonga (joy ko‘rsatiladi) chiq» buyrug‘iga asosan bajariladi. O‘t o‘chiruvchilar bino devoriga 6 (8) metr qolganda narvonni burab, bino poydevoriga parallel holda uning pastki uchlarini yerga qo‘yishadi, shundan so‘ng 2-o‘t o‘chiruvchi chap qo‘li bilan 3 (2)-zinaning o‘rtasidan ushlaydi, chap shotini o‘ng oyog‘ining son qismiga mahkam qisadi. O‘ng qo‘lini 5 (4)-zinalarga olib o‘tadi.

Shu vaqtida 9 va 10-zinalar oralig‘ining shotilaridan ushlab narvonni boshi ustiga ko‘taradi, 2-o‘t o‘chiruvchi narvonni o‘rnatish joyiga yetib kelganda, uning pastki uchini yerga qo‘yadi va 5 (4)-zinadan qo‘lini olmay, chap oyog‘ini 2-zinaga qo‘yib, 7 (8)-zinalar to‘g‘risidan arqonni chap qo‘li bilan ushlab oladi.

Shu vaqtida 1-o‘t o‘chiruvchi narvonni oldinga-yuqoriga itaradi, 4 va 5-o‘t o‘chiruvchilar oraliq shotilaridan ikki qo‘llab shunday ushlaydiki, ularning qo‘lidagi bosh barmoqlari shotining ichki tomonida yotgan bo‘lsin, 2-o‘t o‘chiruvchi ko‘tarish bilan narvonni 80–85° gacha olib keladi va shu holatda turadi.

Bir vaqtida 2-o‘t o‘chiruvchi ikkinchi zinadan sakrab, iloji boricha arqonning yuqorirog‘idan ushlaydi, oyoqlarini ikki tomoniga irg‘ib, arqonni pastga qarab tortadi (79-rasm).

Narvonni yuqoriga surilayotganida 2-o‘t o‘chiruvchi to‘xtatuv qurilmasini kuzatadi, bu qurilma 7-zinaga yetganda, narvonni tortishni to‘xtatadi. Bunda to‘xtatuv qurilmasining ilgagi zinaga ilinishi kerak. So‘ngra ikki shotini ikki qo‘llab 3 (4)-zina oldidan ushlaydi va sekinkilik bilan narvonni egib derazaning taglik taxtasini chaproq qismiga o‘rnatadi. Shundan so‘ng narvonni ikki qo‘li bilan tortib, binoga qisib ushlaydi.



79-rasm.

Suriluvchi narvonni o'rnatisht.

Narvon mustahkam o'rnatilganligiga va derazaning taglik, taxtasidan yoki tomdan 2–3 zina yuqoriroq surilganligiga ishonch hosil qilib, 1-o't o'chiruvchi chap oyog'ini 2-zinaga qo'ya turib, narvon orqali yuqoriga ko'tarilishni boshlaydi, 3-qavat (tom) ga yetganda, yong'in o'chiruvchi o'ng oyog'i bilan derazaning taglik taxtasida turadi, o'ng qo'li bilan deraza kesakisini ushlab, qavatga yoki tomga o'tadi.

Surilma narvonlar orqali pastga tushish «Suriluvchi narvon orqali pastga tush» buyrug'iga asosan bajariladi. Ushbu buyruqqa asosan 1-o't o'chiruvchi derazaning taglik taxtasiga chiqib, chap qo'li bilan narvonning eng yuqori zinasini ushlaydi, chap oyog'i bilan 4-zina (yuqoridan)ga o'tadi va pastga tushadi. Pastga tushib, narvonning 5-zinasi oldidan shotisini ushlaydi va 2-o't o'chiruvchi bilan birgalikda narvonni bino derazasidan ajratishadi, 2-o't o'chiruvchi arqonni pastga tortib to'xtatish qurilmasini ochadi, so'ng sekin narvonni to'liq yig'adi.

Narvon arqonidan ushlab 2-o't o'chiruvchi narvonning pastki uchiga oyoqlari bilan bosib turadi, 1-o't o'chiruvchi esa, narvonning shotisidan ushlab orqaga harakatlanib, chapga buriladi. Narvonni o'ng yelkaning old qismiga qo'yib, chap qo'li bilan 9-zinaning ustidan ushlaydi.

2-o't o'chiruvchi narvonning chap tomonidan kelib, o'ng qo'li bilan shotining pastki qismidan ushlaydi, chap qo'li bilan esa 3-zinadan ushlaydi. Shundan so'ng ikki o't o'chiruvchi narvonni yelkalariga qo'yib, avtomobil oldiga keltirishadi va yuqorida izohlanganidek uning kuzoviga joylashtirilib, mahkamlanadi.

Jarohatlanishning oldini olish uchun avtomobildan narvonni olayotganda ikki qo‘l yordamida narvonni qabul qilib, uni ehtiyojkorlik bilan yelkasiga qo‘yish kerak.

Narvonga chiqish mumkin, qachonki, u mustahkam o‘rnatilgan, 7-zinasidan to‘xtatish qurilmasi bilan mahkamlangan va 2-o‘t o‘chiruvchi tomonidan ushlab turilsa. Narvonda yuqoriga chiqayotganda oyoqlar tizzasini bir-biriga yaqin tutish kerak.

### ***Suriluvchi va ishg‘ol qiluvchi narvonlar orqali yuqori qavatlarga chiqish***

Suriluvchi va ishg‘ol qiluvchi narvonlar orqali yuqori qavatlarga chiqish mashqi 3 o‘t o‘chiruvchi tarkibidan iborat bo‘lgan hisob bilan bajariladi.

«Ishg‘ol narvoni bilan suriluvchi narvon orqali 4-qavat derazasiga chiq» buyrug‘iga asosan yong‘in o‘chiruvchilar 1 va 2-avtomobildan suriluvchi narvonni yechib oladilar, 3-o‘t o‘chiruvchi esa avtomobildan ishg‘ol narvonini oladi va ko‘rsatilgan joyga uni keltiradi.

3-o‘t o‘chiruvchi ishg‘ol qilish narvonini ilgagini teskari qilib devorga suyab qo‘yadi.

Suriluvchi narvonni o‘rnatgandan so‘ng 1-o‘t o‘chiruvchi narvon orqali 2-qavat derazasiga chiqadi. 3-o‘t o‘chiruvchi ishg‘ol qilish narvonini unga uzatadi. Bunda u ilgakni o‘zi tomonidan ushlaydi. 1-o‘t o‘chiruvchi 9 va 10-zinalar orasiga o‘ng qo‘lini kiritadi (80-rasm) va narvonda 3-qavat deraza taglik taxtasigacha ko‘tariladi. Qutqaruв karabini bilan suriluvchi narvonga mahkamlab, u bir zina pastga tushadi, yelkasidan ishg‘ol narvonini oladi, uni yuqoriga ko‘taradi va 4-qavat derazasiga osadi.



80-rasm. Suriluvchi narvon orqali ishg‘ol narvoni bilan bino qavatlariга chiqish.

So‘ng bir zina yuqoriga ko‘tarilib, qutqaruv karabinini ochadi, o‘ng qo‘li bilan 5-zinani ushlab o‘ng oyog‘ini ishg‘ol qiluvchi narvonning 1-zinasiga qo‘yadi, u orqali ko‘tariladi va 4-qavat derazasidan xona ichiga o‘tadi.

«Ishg‘ol va suriluvchi narvonlar orqali pastga tush» buyrug‘iga asosan 1, 2, 3-o‘t o‘chiruvchilar yuqorida izohlangan mashqni teskarisiga bajarishadi.

### *O‘rnatilgan narvon orqali yuqoriga chiqish*

O‘rnatilgan narvon orqali yuqoriga chiqish mashqi bir o‘t o‘chiruvchi bilan bajariladi. «O‘rnatilgan narvonga chiq» buyrug‘iga asosan bajariladigan ishlar:

- o‘t o‘chiruvchi avtomobildan yog‘och narvonni yechib oladi;
- o‘rnatilgan narvonni oldiga keltirib uni o‘rnatadi;
- yog‘och narvonga chiqib, o‘rnatilgan narvonga o‘tadi va u orqali yuqoriga ko‘tariladi;
- yog‘och narvonni o‘rnatilgan narvonga qiyaroq qilib qo‘yish lozim;
- o‘rnatilgan narvonga chiqishdan oldin, uning sozligiga ishonch hosil qilingandan so‘ng ishga kirishish mumkin.

---

---

## **QISQARTIRILGAN TAYANCH SO‘ZLAR**

1. GTHX – garnizon gaz va tutundan himoyalash xizmati.
2. DYN – Davlat yong‘in nazorat organi.
3. YXB – yong‘in xavfsizligi boshqarmalari yoki bo‘limlari yoxud bo‘linmalari.
4. YXX – yong‘in xavfsizligi xizmati.
5. YTX – yong‘in-texnik komissiyasi.
6. IIB – viloyat, shaharlar, tumanlar, Toshkent shahridagi tumanlar, tumanlardagi shaharlar, naqliyotdagi ichki ishlar boshqarmalari yoki bo‘limlari.
7. IBB – Toshkent shahar ichki ishlar bosh boshqarmasi.
8. IIV – O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston Respublikalari Ichki ishlar vazirliklari.
9. KO‘O‘D – ko‘ngilli o‘t o‘chirish drujinalari.
10. QMQ – Qurilish me‘yorlari va qoidalari.
11. QDX – qism dispatcher xizmati.
12. MDX – markaziy dispatcher xizmati.
13. Tezkor – tergov guruhlari.
14. Tusmol – tergov tusmoli (sinonimlari: taxmin qilish, chamlash, ehtimol qilish va boshq.).
15. O‘zR JK – O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi.
16. O‘zR JPK – O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi.
17. O‘zR IIV YXBB YTL – O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Yong‘in xavfsizligi bosh boshqarmasi Yong‘in-texnik laboratoriysi.
18. O‘zR MJTK – O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi.
19. TSH – toza suv havzalari.

---

---

## YONG'IN PROFILAKTIKASI



**Yong'inning oldini  
olish**



## YONG'INNI KO'RGANINGIZDA



- Yong'inni o'chirishga harakat qiling.
- 101 ga qo'ng'iroq qiling.
- Olovning tarqalishiga qo'l qo'y mang.
- Zudlik bilan ko'chaga chiqing.

---

---

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. *A.M. Тугай, В.Е. Терновцев.* Водоснабжение. Курсовое проектирование. Киев, «Высшая школа», 1980.
2. *Н.Н. Абрамов.* Водоснабжение. М., «Стройиздат», 1982.
3. *А.А. Берлин.* Анализ процессов горения. М., 1998.
4. *Г.И. Ксандопуло.* Теоретические основы процессов горения. Алматы, «Билим», 1999.
5. *X.A. Qurbanov, T. Abdullayev.* Yong‘inga qarshi suv ta’minoti fanidan kurs ishini bajarish bo‘yicha uslubiy qo‘llanma. IIV YXOTM. T., 2002.
6. *А.А. Берлин, Н.А. Халтуринский.* Горение и взрыв. М., 2004.
7. *Yong‘in xavfsizligi. 2-nashri.* A.E. Xudoyev tahriri ostida. T., O‘zR IIV yong‘in xavfsizligi oliv texnik maktabi, 2007.
8. *В.И. Кодолов.* Горение древесных материалов. Учебник. М., «Химия», 2008.
9. *G.Y. Yormatov va boshq.* Hayot faoliyati xavfsizligi. T., «Aloqachi», 2009.

### **Elektron resurslar**

1. www.bilim.uz. – OO‘MTV sayti.
2. www.ziyo.edu.uz – OO‘MTV sayti.
3. www.mvd.uz – Ichki ishlar vazirligi sayti.
4. www.sanoatgktn.uz – «Sanoatgeokontexnazorat» sayti.

---

---

## MUNDARIJA

Kirish.....	3
<i>1-bob.</i> <b>XIZMATNI TASHKIL QILISH, XIZMATGA TAYYORLASH .....</b>	5
1.1. O‘t o‘chirish qismlarida xizmatni tashkil etish .....	6
1.2. Xizmatga tayyorgarlik ko‘rish .....	15
<i>2-bob.</i> <b>YONG‘INDAN SAQLASH QISMI. ODDIY XODIM VA KICHIK BOSHLIQLAR TARKIBI.....</b>	18
2.1. Umumiy holatlar.....	18
2.2. Oddiy va boshliqlar tarkibini attestatsiyadan o‘tkazish.....	21
2.3. Huquq va javobgarlik.....	23
2.4. Xizmatdan bo‘shatish .....	24
2.5. Shaxsiy tarkibni kiyim-bosh bilan ta’minlash .....	25
2.6. Oddiy va kichik boshliqlar tarkibini ta’minlash.....	27
<i>3-bob.</i> <b>RESPUBLIKA YONG‘INDAN SAQLASH ORGANLARI. O‘T O‘CHIRUVCHI QISMINING TARIXI VA AN‘ANALARI. O‘T O‘CHIRUVCHI QISMIDAGI O‘T O‘CHIRUVCHI TEXNIKALARI .....</b>	32
3.1. Respublika yong‘indan saqlash organlari .....	32
3.2. O‘t o‘chiruvchi qismining tarixi va an‘analari .....	37
3.3. O‘t o‘chiruvchi qismidagi o‘t o‘chiruvchi texnikalari.....	37
3.4. Ichki ishlar organlaridan bo‘shatilganda pul mablag‘i bilan ta’minlash .....	41
3.5. Oddiy va boshliqlar tarkibi xodimi vafot etganda to‘lanadigan pul mablag‘lari .....	42
3.6. Yong‘indan saqlash organlari nizom va qo‘llanmalarining asosiy qoidalari.....	43
3.7. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi «Yong‘indan saqlash xizmatining jangovar ustavi».....	46
3.8. O‘zbekiston Respublikasi IIVning Yong‘indan saqlash xizmatida texnika xavfsizligi qoidalari.....	47

<i>4-bob.</i>	<b>ICHKI ISHLAR ORGANLARINING INTIZOMIY USTAVI.....</b>	52
<i>5-bob.</i>	<b>YONG'INDAN SAQLASH GARNIZONLARIDA GAZ VA TUTUNDAN HIMOYALASH XIZMATI QO'LLANMASI.....</b>	55
<i>6-bob.</i>	<b>O'T O'CHIRUVCHINING JANGOVAR KIYIMI VA ANJOMLARI. O'T O'CHIRUVCHINING JANGOVAR KIYIMI HAMDA ANJOMLARINI YAKKA HOLDA VA BO'LINMA TARKIBIDA KIYISHI. AVTOMOBILGA CHIQIB O'TIRISH. BONG OSTIDA SAHNGA CHIQISH. XAVFSIZLIK CHORA-TADBIRLARI.....</b>	58
6.1.	O't o'chiruvchining jangovar kiyimi va anjomlari.....	58
6.1.1.	O't o'chiruvchining qutqaruv kamari.....	61
6.1.2.	O't o'chiruvchining qurqaruv karabini.....	63
6.1.3.	O't o'chiruvchining boltasi.....	63
6.2.	Yong'in o'chiruvchining jangovar kiyimni hamda anjomlarni yakka holda va bo'linma tarkibida kiyishi .....	64
6.3.	Avtomobilga chiqib o'tirish.....	67
6.4.	Bong ostida sahnga chiqish.....	68
6.5.	Xavfsizlik chora-tadbirlari.....	70
<i>7-bob.</i>	<b>YONISH JARAYONI VA YONUVCHI MODDALAR HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT. YONISH JARAYONINI TO'XTATISH ASOSLARI .....</b>	73
7.1.	Yonish jarayoni va yonuvchi moddalar haqida umumiy ma'lumot .....	73
<i>8-bob.</i>	<b>YONG'IN SODIR BO'LGAN JOYDA O'T O'CHIRISHDAGI HARAKATLAR. YONG'IN SODIR BO'LGAN JOYDA YORDAM KO'RSATISH.....</b>	77
<i>9-bob.</i>	<b>QURILISH MATERIALLARI VA BINOLARNING O'TGA CHIDAMLILIGI VA ULARNING XAVFLILIGI BO'YICHA TOIFALARI.....</b>	93
<i>10-bob.</i>	<b>YONG'INGA QARSHI HIMOYA TIZIMLARI. YONG'INNI O'CHIRISH USLUBLARI VA O'T O'CHIRGICH MODDALAR.....</b>	97
<i>11-bob.</i>	<b>YONG'IN O'CHIRISH TAKTIKASI ASOSLARI. YONG'INDAN SAQLASH BOSHQARMASI, O'T O'CHIRISH QISMI SHAXSIY TARKIBINING JANGOVAR ISHLARIDAN MISOLLAR.....</b>	119

<i>12-bob.</i>	<b>MEXANIZATSIYALASHTIRILMAGAN VA MEXANIZATSIYALASHTIRILGAN O‘T O‘CHIRUVCHI ASBOBLAR. ASBOBLARDAN FOYDALANISH VA UALAR BILAN ISHLASH USULLARI. XAVFSIZLIK CHORA-TADBIRLARI.....</b>	121
12.1.	Mexanizatsiyalashtirilmagan, qo‘lda ishlatiladigan o‘t o‘chiruvchi asboblar .....	121
12.2.	Mexanizatsiyalashtirilgan, qo‘lda ishlatiladigan o‘t o‘chiruvchi asboblar .....	125
<i>13-bob.</i>	<b>O‘T O‘CHIRUVCHI YENGLIKLARI VA DASTAKLARI. YENGLARNI BIR-BIRIGA ULAGICHALAR VA ASBOBLAR. O‘T O‘CHIRISH YENGLARI, DASTAKLARI VA AYIRGICHALAR BILAN ISHLASH. HARAKATDAGI SUV YO‘LLARI VA DASTAKLARI BILAN ISHLASH. XAVFSIZLIK CHORA-TADBIRLARI .....</b>	139
13.1.	O‘t o‘chiruvchi yengliklar: vazifalari, turlari, jangovar hisobga qo‘yishga tayyorlash, foydalanish, sinab ko‘rish, ta’mirlash.....	139
13.2.	O‘t o‘chirish dastaklari.....	146
13.3.	Yenglar jihozlari .....	149
13.4.	O‘t o‘chiruvchi yengliklar, dastaklari va boshqa yeng jihozlari bilan ishslash .....	153
<i>14-bob.</i>	<b>O‘T O‘CHIRISH QO‘L NARVONLARI VA UALAR BILAN ISHLASH. XAVFSIZLIK CHORA-TADBIRLARI .....</b>	162
14.1.	O‘t o‘chiruvchi qo‘l narvonlari.....	162
14.2.	O‘t o‘chiruvchi narvonlar va tirsakli avtoko‘targichlarda ishslash .....	166
	Qisqartirilgan tayanch so‘zlar .....	177
	Yong‘in profilaktikasi .....	178
	Foydalanilgan adabiyotlar .....	179

O.R. YO‘LDOSHEV, A.O. NORBOYEV, O.T. HASANOVA

## **FUQARO MUDOFASI**

*Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma*

Toshkent – «ILM ZIYO» – 2016

Muharrir *I. Usmonov*

Badiiy muharrir *M. Burhonov*

Texnik muharrir *F. Samadov*

Musahhih *T. Mirzayev*

Nashriyot litsenziyasi № AI 275, 15.07.2015-y.  
2016-yil 22-fevralda chop etishga ruxsat berildi. Bichimi 60x90<sup>1/16</sup>.  
«Times» harfida terilib, ofset usulida chop etildi.  
Bosma tabog‘i 11,5. Nashr tabog‘i 10,5. 163 nusxa.  
Buyurtma №35.

«ILM ZIYO» nashriyot uyi. Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30-uy.

«PAPER MAX» xususiy korxonasida chop etildi.

Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30-uy.

IO79      **Yo'ldoshev O.R. va boshq. FUQARO MUDOFAAASI.** Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. / – T.: «ILM ZIYO», 2016. – 184 b.

UO'K: 614.84(075)  
KBK 67.404(5Ў)

ISBN 978-9943-16-262-4